



Mark Tven

MAKTAB  
KUTUBXONASI

# TOM SOYERNING BOSHIDAN KECHIRGANLARI



**Mark Tven**

---

---

**TOM  
SOYERNING  
BOSHIDAN  
KECHIRGANLARI**



  
**YANGI ASR AVLODI**  
**TOSHKENT**  
2016

**UO'K: 821.512.133-3**

**KBK: 84(7Amer)**

**T - 34**

**Tven, Mark**

Tom Soyerning boshidan kechirganlari. Mark Tven / Ilyos Muslim tarjimasi. – Toshkent: «Yangi asr avlod», 2016. – 288 b.

ISBN 978-9943-27-779-3

Mark Tvenning «Tom Soyer», «Geklberri Finn», «Tom Soyer va Geklberri Finning boshdan kechirganlari», «Tom Soyerning yangi sarguzashtlari», «Yanki va qirol Artur» singari asarlari nafaqat G'arbda, balki butun Sharqda ham million-million kishilar tomonidan sevib o'qilmoqda.


Adib mazkur asarida yosh, o'ta qiziqqon va sho'x, chigal to'siqlardan ham qiyalmay o'ta oladigan, og'ir va murakkab sharoitlarda ham o'zini tuta biladigan, uddaburon bola Tom Soyer haqida hikoya qiladi. Tomning o'ta makkor va firibgar hindi Joning iziga tushishi va undan qo'rmasligi, g'ayritabiyy xayollar olamida yurishi butun shaharcha ahlini, hatto Tomning do'stlarini ham hayratga soladi. Doimo unga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan uztozi ham, uning sho'xliklarini tanqid ostiga oladigan Polli xola ham oxir-oqibat Tomdag'i jasoratga qoyil qoladilar.

Kitob keng kitobxonlar ommasiga, shu jumladan, maktab yoshidagi bolalarga ham mo'ljallangan.

**UO'K: 821.512.133-3**

**KBK: 84(7Amer)**

**Tarjimon:**  
Ilyos MUSLIM



ISBN 978-9943-27-779-3

© Mark Tven. «Tom Soyerning boshidan kechirganlari», «Yangi asr avlod», 2016-yil.

## *BIRINCHI BOB*

### **TOM O'YNAYDI, URUSH-TO'POLON QILADI, YASHIRINADI**

– Tom!

Hech kim javob bermadi.

– Tom!

Hech kim javob bermadi.

– Qayoqqa gumdon bo'ldi ekan, bu tirmizak?.. Tom!

Kampir ko'zoynagini burniga tushirib, uning us-tidan butun uyni ko'zdan kechirib chiqdi; so'ngra ko'zoynagini peshonasiga ko'tarib qo'ydi-da, uning tagidan qaray boshladi. U, bolaga o'xshagan kichik bir narsani qidirishga to'g'ri kelganda, hech vaqt ko'zoynagi bilan qaramas edi, chunki bu – qalbidan sevgan birdan-bir takalluqli ko'zoynagi bo'lib, u chinakam zaruratdan emas, balki «olifta» ko'rinish uchungina taqilar edi. Kampir pechkaning mo'risi-dan ham xuddi shu taxlitda mo'ralay olar edi. Dast-labki daqiqada u go'yo hovliqib qolganday bo'ldi va unchalik jahl bilan aytmasa ham qattiq ovoz bilan:

– Shoshma, qo'llimga tushib qolarsan, men seni...

– deb qo'ydi.

U so'zini aytib tugatmadi, chunki xuddi shu vaqtida engashib olib pol yuvadigan cho'tka bilan karavot tagini zo'r berib axtara boshlagani uchun nafasi tiqilib qolgan edi. U karavot tagidan mushuk bolasidan boshqa hech narsa topa olmadi.

– Qanday yaramas bola ekan-a! Bunday bolani umrimda ko'rmagan edim.

U lang ochiq turgan eshik yoniga keldi va ostonada to'xtab, bog'dagi bangidevona o'tlar hamda pomidor ko'chatlari orasidan Tomni sinchiklab qidira boshladi. Tom u yerda yo'q edi. Keyin yana bir marta qattiqroq tovush bilan:

– To-o-m! – deb qichqirdi.

Orqa tomonda bir narsa shitirladi. U qayrilib qararkan, endigina qochmoqchi bo'lib turgan bolaning yengidan mahkam ushlab oldi.

– Ana, aytmadimmi! Men bir karra shu omborni qarashim kerak edi-ya! Hoy, sen bu yerda nima qilib yurgan eding?

– Hech narsa.

– Hech narsa deysanmi? Qo'llaringni qara, og'zing ni qara, nimaga bo'yab olgansan?

– Bilmayman, xola!

– Sen bilmasang, men bilaman! Murabbo yegan-san, bildingmi! Men senga bu murabboga tegma, agar tekkunday bo'sang, xipchin bilan savalayman, deb qirq marta aytgan edim. Qani, xipchinni menga berchi!

Xipchinning shipillagan ovozi havoni yorib o'tdi. Kaltak yeish xavfi aniq edi.

– Voy, xola, ana uyoqqa qarang, orqangizda turgan narsa nima?

Kampir qo'rqqansimon orqasiga endigina qayrilib qaragan va xavfli balodan qutulish uchun, etagini yig'ishtira boshlagan ham ediki, bola lip etib qoch-di-da, baland taxta devor ustidan oshib, yugur-ganicha ketdi.

Polli xola biroz hayron bo'lib turdi-da, keyin sekininga kulib qo'ydi.

– Obbo, tirmizagey! Nahotki men uning buna-qangi ishlarini shu choqqacha fahmlamasam-a? U meni ozmuncha ahmoq qildimi? Ammo, ko'rinib turibdiki, qari odam barcha ahmoqlardan ham

ahmoqroq bo'lar ekan. Qari itni yangi qiliqlarga o'rgatib bo'lmaydi, degan so'z bejiz emas ekan. Biroq Tomning qiliqlari ham har xil: hech qaysisi bir-biriga o'xshamaydi, shunday bo'lgandan keyin uning nima qilmoqchi bo'lib yurganini bilib bo'ladimi? U jahlim chiqqan choqda dumini xoda qiladi yoki qanday qilib bo'lsa ham meni kuldiradi va shundan keyin butun g'azabim tarqaladi-yu, unga tirnog'imni ham tegiza olmayman. Men zimmamdag'i vazifani bajara olmayapman, Xudo gunohimni kechirar. Bolani kaltaklamagan odam uni halok qilishligi muqaddas kitobda aytilgan<sup>1</sup>.

Men uni sho'x o'stirganim uchun gunohkorman axir; buning uchun biz har ikkimiz ham jazola-najakmiz. Uning miyasi har xil yomon o'ylar bilan band ekanligini bilganim bilan nima qila olar edim? Axir u, rahmatlik singlimming o'g'li-da, shuning uchun uni kaltaklashga qo'llim bormaydi! Har doim men uning ta'zirini bermay, qochirib yuborganimda, vijdonan azoblanamanki, uni aytib ham berolmayman, agar uni jazolasam achinganimdan ko'nglim pora-pora bo'ladi. Kitobda to'g'ri aytilgan, odamzodning umri kalta va g'am-g'ussa bilan to'la. Xo'p, may-lil! U bugun saboqdan qochib, mактабга bormadi: tushki ovqat vaqtidan kechgacha tentirab yuradi, ertaga esa unga jazo berishga – uni qiyin bir ishga o'tkazib qo'yishga to'g'ri keladi. Yakshanba kunlari, bolalarning hammasi bayram qilib o'ynab yurgan vaqtlarida, uni ishlashga majbur qilish – rahmsizlik bo'lar, lekin boshqacha iloj yo'q: uning yomon ko'rgan narsasi – ish. Axir, men qachon bo'lsa ham unga nisbatan o'z vazifamni ado qilishim zarur-ku, aks holda bu tirmizak butunlay buzilib ketadi.

Tom chindan ham kun bo'yi shataloq otib o'ynab yurdi va vaqtini juda xushchaqchaqlik bilan o'tkaz-

---

<sup>1</sup> Kampir «Tavrotni»ni muqaddas kitob deb biladi.

di. U xizmatkor negr bolasi Jimga ertangi kun uchun o'tin arralab, tutantiriqlar tayyorlab qo'yish ishiga yordamlashishi yoki (aniqroq qilib aytganda) Jimga o'zining boshidan kechirganlarini so'zlab berishi kerakligi uchungina uyga qaytib kelgan edi. Tomning ukasi Sid (o'gay ukasi) u kelgan vaqtida o'z ishlarini bitirib qo'ygan edi (unga tarasha va payrahalar to'plab qo'yish buyurilgan edi), chunki u itoatli, kattalar oldida hech vaqt sho'xlik qilmaydigan bir bola edi.

Tom o'zining kechki ovqatini yer va bir bo'lak qand o'g'irlab olish uchun payt poylab o'tirar ekan, Polli xola, Tom o'z og'zidan ilinib, qilgan ishlarini aytib berarmikan, degan umidda unga dudmol savollar berar edi. Ko'p soddadil kishilarga o'xshab, u ham hech mag'rurlanmasdan o'zini juda hiylakor bir ayol hisoblardi va o'zining eng sodda maqsadlarini ham o'taketgan hiylakorlik, deb sanar edi.

– Tom deyman, – dedi u, – bugun maktab juda isib ketgan bo'lsa kerak, shunday emasmi?

– Ha, xola, ancha issiq bo'ldi. Rostdan ham isib ketdimi?

– Ha, xola juda isib ketdi.

– Daryoda cho'milging kelgandir-a, Tom?

Tomning ko'nglida shubha paydo bo'ldi. U diqqat bilan Polli xolaning yuziga tikildi, lekin uning yuzlaridan hech narsa anglayolmadi. Tom esa javob berdi:

– Yo'q, xola, cho'milgim kelmadi.

Kampir qo'lini cho'zib, Tomning ko'ylagini ushlab ko'rdi.

– Harholda, – dedi kampir, – unchalik terlamabsan.

Kampir o'z nazarida Tomning ko'ylagi quruqligini qanday ustalik bilan bila olganiga va o'z miyasida nimalar borligi to'g'risida hech kim hech narsani xayoliga ham keltirmaganligiga mag'rurlanar edi. Biroq Tom shamolning qaysi tomonga qarab esayot-

ganini payqagan edi. U bundan keyingi so'roqlar-ning oldini olib:

– Maktabimizdagi bolalarning hammasi salqinlanish uchun boshlarini suvgaga tizib oldilar. Ko'rdingizmi, shuning uchun ham sochlarim haligacha ho'l, – dedi.

Polli xola ranjigan edi: qanday qilib u, shundoq-qina aybini fosh qilib turgan dalilni qo'ldan berib qo'ydi? Biroq shu zamon uning miyasiga yangi bir fikr keldi.

– Tom, boshingni ho'llash uchun, yoqangdagi men tikib qo'yan yerni so'kishga to'g'ri kelmadimi, axir? Qani, yoqangni ko'rsatchi?

Tomning yuzidagi qo'rquv yo'qoldi. U nimchasining tugmalarini yechdi. Ko'ylagining yoqasi mahkam tikilganicha turar edi.

– Ha, yaxshi, barakalla! Men seni maktabga bormay, cho'milib yurgandirsan, deb o'ylagan edim. Sen mug'ombir bo'sang ham, ba'zan o'ylagandan ham yaxshi bola bo'lib ketasanki, asti qo'yaver.

Polli xola o'zining hiylalari chippakka chiq-qanligidan juda xafa bolsa hamki, ayni zamonda Tomning shu kundan boshlab gapga kiradigan bo'lib qolganligi uchun juda xursand edi.

Shu orada Sid oraga suquldi.

– Agar men yanglishmasam, – dedi u, – siz uning yoqasini oq ip bilan tikkan edingiz, hozir esa undan qora ip ko'rindan.

– Ha, aytgandek, men oq ip bilan tikkan edim-a, Tom!

Biroq, Tom bu so'zning oxirigacha tinglab o'tirma-di, lip etib qochib, chiqib qichqirdi:

– Sid, ha sanimi, bu qilgan ishing uchun mendan ko'radiganingni ko'rasan!

Tom bir pana yerga bekinib olib, nimchasining yoqasi ostiga qadab qo'yilgan va ip taqilgan ikkita

katta ignani ko'zdan kechirdi. Ignanining biridan oq ip, ikkinchisidan esa qora ip o'tkazilgan edi.

– Shu Sid bo'lmasa, xolam ham payqamas edi. Ha shayton, u axir har xil ip bilan tikadi-da, goho oq ip bilan, goho qora ip bilan, uning qanday ip bilan tikkani esimda turadimi? Koshki u bir xil ip bilan tiksa!.. Harholda bu qilgan ishi uchun Sidning ta'zirini beraman-a!

Tom, ibrat bo'ladigan odobli bola emas edi. Ammo kim ibratlari bola ekanligini u yaxshi bilar va undaylarni ko'ra olmas edi.

Oradan ikki daqiqa o'tar-o'tmas, u, o'zining butun xafachiliklarini unutib yubordi. Bu xafachiliklar odatda katta kishilarni qiynaydigan xafachiliklarga qaraganda og'ir bo'lgani uchun emas, balki xuddi shu daqiqada uning boshiga katta qayg'u tushib, xafachiliklarni siqib chiqargani uchundir. Katta kishilar biror narsa bilan qiziqsalar, ular ham shuningdek xafachiliklarni unutib yuboradilar.

Tomni hozirgi vaqtida ko'rkan bir ish qiziqtira boshladi. U o'ziga tanish bo'lgan bir negrdan g'alati qilib hushtak chalishni o'rgandi, shu ish ustida bemalol mashq qilishni xohlar edi. Negr qush ovoziga o'xshatib hushtak chalar va u juda g'alati chiqar edi. Buning uchun tilni tanglayga tez-tez tegizib olish kerak edi.

U ko'chada quvonib, shaxdam qadamlar bilan gurs-gurs yurib borar edi. Og'zini to'latib-to'latib yoqimli, ohangdor hushtaklar chalar va qalbi minnatdorchilik bilan to'la edi. U o'zini, osmonda yangi sayyora kashf etgan astronom kabi his qilar, ammo uning quvonchi o'ziga xos edi.

Yoz kunlarining kechki paytlari ancha uzoq bo'ladi. Hali kun yorug' edi. Tom birdan hushtagini to'xtatdi. Uning oldida o'zidan kattaroq, begona bir bola turar edi. Kichkina, qashshoq shaharcha

– Sankt-Peterburgda<sup>2</sup> paydo bo'lgan har bir yosh-dagi yangi odam Tomni qiziqtirar edi. Buning ustiga bola bayram bo'lmasayam yaxshigina ki-yingan! Mana shu ahvol kishini juda ham hayron qoldirardi-da! Uning boshida chiroylik qalpoqcha, ustidagi ko'k movutdan tikilgan nimchasi ham shimiga o'xshab qaddi-qomatiga juda kelishgan, butun tugmalari qadalgan, yap-yangi va ozoda edi. Oyoqlariga chiroylikkina kavush kiygan. Hattoki bo'yniga och rang lentadan galstuk ham taqib olgan. Umuman shaharning olifta yigitlariga xos qiyofasi bilan Tomning g'ashini keltirar edi. Tom bu ajoyib qiyofali bolaga qancha tikilib qarasa, u shuncha tumshug'ini yuqoriroq ko'tarar va uning ustidagi kiyimlarini mensimagandek bo'ldi, Tomga esa o'zining kiyimlari avvalgisidan ham eskiroq ko'rinar edi. Ikkalasi ham bir-birlariga churq etishmay turaverdilar. Biroq ularning biri bir qadam siljishi bilan, ikkinchisi ham uning yon tomoniga bir qadam qo'zg'alib qo'yar edi. Shu zaylda ular, bir-birlarining ko'zlariga tikilishib, yuzma-yuz turaverdilar. Nihoyat, Tom:

- Olishsam, seni urib tashlayman, – dedi.
- Qani, urib ko'r-chi!
- Nima qilar eding, uraman!
- Urib bo'psan!
- Uraman!
- Yo'q, urolmaysan!
- Yo'q, uraman!
- Yo'q, urolmaysan!

Ular o'rtasidan bir nafas g'arazli jimjitlik hukm surdi. Nihoyat Tom:

<sup>2</sup> Amerikaliklar o'zlarining kichik shaharchalarini poytaxtlarning ulug' nomlari bilan atashni yaxshi ko'rardilar. Ularda bir necha Parij, uch-to'rtta Quddus, Istanbul bor va hokazo. Bu kitobda tasvir etilgan shaharchani ular o'sha vaqtdagi Rusiya poytaxtining nomi bilan ataganlar.

- Sening oting nima? – deb so‘radi.
- Ishing nima?  
Shoshmay tur, men senga ko‘rsatib qo‘yaman!
- Kuching yetsa, nimaga qarab turibsang?
- Yana ikki og‘iz so‘z aytib ko‘rchi, adabingni berib qo‘yaman.
- Ikki og‘iz so‘z! Ikki og‘iz so‘z! Ikki og‘iz so‘z! Ana aytdim! Xo‘sh?
  - Ajab chaqqon ekansanmi! Agar men seni urishni xohlasam, qo‘limning bittasini orqamga bog‘lab qo‘yib, bitta qo‘lim bilanoq urib tashlar edim.
  - Xo‘sh, nega endi urmaysan?
  - Shunday qilib g‘ashimga tegaversang, albatta uraman-da!
  - Eh-e-e! Sendaylarning ko‘pini ko‘rganmiz!
  - Oliftagarchililing bilan juda katta kishi bo‘lib ketdim, deb o‘ylaysanmi? Qalpog‘ingni qara-yu!
  - Qani, kuching yetsa shu qalpog‘imni boshimdan urib tushirchi? Keyin mendan ta‘ziringni yeysan...
  - Yolg‘on aytasan!
  - O‘zing yolg‘onchisan!
  - Po‘pisa qilishdan boshqani bilmaysan, o‘zing esa qo‘rqoqsan!
  - Ha, yaxshi, jo‘na, jo‘nab qol!
  - Hoy, menga qara: agar sen yana g‘ashimga teg-sang, kallangni uzib tashlayman.
  - Ohho, kallamni uzib bo‘psan!
  - Albatta uzib tashlayman!
  - Qani, uzib tashlay qol, nimani kutib turibsang? Do‘q qilasan-u, qo‘lingdan hech narsa kelmaydi, bundan chiqdi qo‘rqoq ekansan-da!
  - Qo‘rqish xayolimda ham yo‘q!
  - Yo‘q, qo‘rqoqsan!
  - Yo‘q, qo‘rqmayman.
  - Qo‘rqasan!
- Yana jimjitlik hukm surdi. Bolalar bir-birlari atrofida aylanishib, yana bir-birlariga qaray boshladilar.

Nihoyat, bir-birlariga juda yaqinlashib, yelka-ma-yelka kelib turdilar.

- Yo'qol bu yerdan! – dedi Tom.
- O'zing yo'qol!
- Men ketmayman.
- Men ham ketmayman!

Shunday qilib, ular yuzma-yuz turishdi; har bir-larinining oyoqlari orasidagi oraliq bir xil burchak tashkil qildi. Ular bir-birlariga g'azab bilan tikilishib, kuchlari boricha olisha ketdilar. Lekin ikkovlari ham bir-birlarini yenga olmadilar. Ular shunchalik uzoq mushtlashdilarki, yuzlari o't kabi yonib, qip-qizarib ketdi. Garchi ularning har biri xezlanib tursa hamki, endi ular biroz hovurlaridan tushdilar, shu paytda Tom:

- Sen qo'rqoq laycha kuchuksan. Qarab tur hali akam kelsa chaqaman. U seni bitta jimjilog'i bilan yerga yotqizib, sulaytirib qo'ya qoladi, – dedi.
- Sening akangdan qo'rqedigan yerim yo'q! Mening ham akam bor, u sening akangdan ham kattaroq. Akangni hov anavi devorning naryog'iga uloqtirib yubora oladi.

Haqiqatda esa har ikkovining ham akasi yo'q edi.

– Yolg'on aytasan!

– Sen yolg'on deganining bilan yolg'on bo'laveradimi?

Tom oyog'inining boshmaldog'i bilan tuproq ustini chizib qo'ydi-da:

– Seni shu chiziqdandan o'tkazmayman, agar o'tsang, shunday do'pposlaymanki, o'rningdan turolmay qolasan, – dedi.

Begona bola shu paytning o'zidayoq chiziqdandan o'tishga shoshildi va:

- Qani, qanday qilib meni do'pposlar ekansan!
- dedi.
- Yo'qol! Ko'p yopishaverma, deyman!
- Seni do'pposlayman, deb maqtangan o'zing-ku!  
Nega endi urmaysan?

– Urihim aniq. Urolmaydi deysanmi? Ikki sent bersang uraman-da!

Begona bola cho'ntagidan ikkita chaqa olib, kulim-sirab Tomga uzatdi.

Tom uning qo'lidagi chaqalarni bir urib, yerga tushirib yubordi. Bir damda ikkala bola mushuk singari yerda ag'anadilar. Ular bir-birlarining sochlaridan, nimcha va shimlaridan tortishar hamda chang-tuproqqa belanishib bir-birlarining burunlarini chimchilashar, tirkashar edilar. Nihoyat shu xil urush-to'palon ichida o'z dushmanining ustiga minib olib, uni do'pposlayotgan Tomning gavdasi ko'rindi, Tom:

– Qalay, endi bo'ldimi?

Bola qanchalik chiransa ham, undan o'zini ajrata olmas va ko'proq kuchsizligidan achchig'lanib, tovushining boricha baqirardi.

– Qalay, ta'ziringni yedingmi? Mana senga! Mana senga! – Tom mushtlashda davom etar edi. – Tovba qildim de, yaramas bola!

Nihoyat, begona bolaning bo'g'iq tovush bilan «qo'yib yubor» degan ovozi eshitildi. Tom uni qo'yib yuborar ekan:

– Bu senga saboq bo'ssin, bundan keyin sinama-ganga tega ko'rma! – dedi.

Begona bola o'rnidan turarkan, ustidagi changlarini qoqdi va ho'ngrab, burnini tortib, o'z yo'liga qarab ketdi; u yo'l-yo'lakay dam-badam orqasiga burilib, boshini qimirlatib qo'yar va Tomga qarab: «Bir kun qo'limga tushib qolarsan», deb do'q qilar edi. Tom esa uni masxara qilib kularkan, o'zining g'alabasidan xursand bo'lib, uyiga qarab jo'nadi.

Biroq u yo'liga qayrilib ulgurmagan ham ediki, haligi begona bola bir tosh bilan uning yelkasiga tushirdi-da, o'zi kiyikdek sakrab-sakrab qochib ketdi. Tom uning izidan tushib, uyigacha quvlab bordi

va uning uyini ko'rib oldi. U o'z dushmanini qaytadan urushga chaqirib, eshigining og'zida ancha vaqt qarab turdi, lekin dushmani derazadan aft-basharasini burishtirib massara qildi va uning oldiga chiqishni istamadi. Nihoyat, dushmanining onasi chiqib, Tomni axloqsiz, yaramas bola deb qarg'ab, tezlikda bu yerdan ketishini buyurdi. Tom ketmoqchi bo'ldi, ammo ketish oldida uni poylab yurishini bildirdi.

U uyiga juda kech qaytib keldi; tovush chiqarmaslik uchun, sekingina derazaga chiqdi. Lekin deraza tagida uni xolasi poylab turgan ekan. Xolasi uning ust-boshlarini ko'rар ekan, bayram kuni qamab qo'yish to'g'risida qattiq qarorga keldi.

## *IKKINCHI BOB*

### **USTA SUVOQCHI**

Yakshanbaning ertasi ham kelib yetdi, yozgi tabiat esa – yangi, qaynoq hayot bilan bezandi. Hammaning qalbida ashula jaranglay boshladi. Hamma quvnoq, har kimda qanot paydo bo'lgan.

Oq akatsiya daraxtlari gullarga burkangan, havoda atir hidi burqsiydi. Shahar chetidagi Kardif tog'i ko'm-ko'k ko'katlar bilan qoplangan.

Bu tog' xuddi shunday bir masofada ediki, go'yo uzoqdan bir narsani va'da etgandek, mag'rur va jil-vagar, g'alvasiz hamda xayolga cho'mgan bir dunyo singari ko'zga chalinar edi.

Tom bir chelak ohak bilan uzun dastalik bir cho'tkani ko'tarib ko'chaga chiqdi. U devorga bir qarab qo'yar ekan, o'sha ondayoq tevarak-atrofni qorong'ilik bosib, uning dilini chuqur xafachilik o'rab oldi. O'ttiz yard<sup>3</sup> keng devor, balandligi to'qqiz fut! Shu damda hayot uning uchun ma'nosiz bir narsa,

<sup>3</sup> Yard – inglizcha so'z bo'lib, uzunlik o'lchovi demakdir; u 0,91 metrga baravar.

keraksiz bir yuk bo'lib ko'rindi. Og'ir bir entikib, cho'tkani chelakka botirib oldi-da, yuqorigi taxtaga uzunasiga bir surkadi, yana bir surkadi, yana bir. Shundan keyin to'xtab qaradi: uning oqlagan devori, oqlanmagan kattakon, uzun devorga nisbatan juda ham oz edi. U xafa bo'lib, gul tuvakka kelib o'tirdi. Jim qo'liga chelak ko'targani holda sakrab-sakrab, «Buffalo qizlari» ashulasini aytib, darvozadan yugurib chiqib qoldi. Shahar qudug'iga borib suv olib kelishni Tom har doim yomon ko'radi. Biroq, hozir bu ishni jon-u dili bilan qilishga tayyor edi. U quduq yoniga suvga borgan vaqtlarini xotirlay bosh-ladi. U yerga juda ko'p kishilar yig'ilishadi: negrlar, mulatlar<sup>4</sup>, oqlar, o'g'il bolalar qizlar o'z navbatlarini kutib, dam olib o'tiradilar, bir-birlari bilan urishib ketadilar, qo'g'irchoqlarini ayirboshlash to'g'risida savdolashadilar, to'rg'aydek chuldirashib ashulalar aytadilar. O'z uyi bilan quduqning orasi yuz ellik qadam kelar-kelmas yer bolsa hamki, Jim suvga borganida aqalli bir soatsiz qaytib kelmas, shunda ham uning orqasidan birov axtarib borishi lozim edi.

– Menga qara Jim, agar xo'p desang, sen bu yerda bir pas devorni oqlab tur, sening o'rningga men suvga borib kelayin, nima deysan?

Jim boshini chayqab qo'ydi.

– Yo'q, Tom boyvachcha, oyim meni suvga yubo-rayotganida: «To'g'ri bor, hech kim bilan yo'lda so'zlashma», deb tayinlab qolgan. U menga «Tom boyvachcha seni devor oqlagani chaqirar, men buni yaxshi bilaman, sen uning so'ziga qulq solmay, o'z ishingga bor», deb qayta-qayta tayinlagan. U yana: «Tomning devor oqlayotganini o'zim borib ko'rib kelaman» ham dedi.

---

<sup>4</sup> Mulatlar – negrlar bilan oqlardan tug'ilgan odamlar.

– Bo'lmag'ur gap! Qo'yaver, u har doim ham shunday, og'ziga kelganini so'zlay beradi. Chelakni menga ber, men bir zumdayoq borib kelaman, u bilmay ham qoladi.

– Qo'ysang-chi, men undan qo'rqaman, juda ham qo'rqaman, bilib qolgudek bolsa, kallamni uzib tashlaydi, Xudo ursin, uzib tashlaydi!

– Kim? O'shami? U hech vaqt hech kimga qo'lini ham tegiza olmaydi, uning qo'lidagi angishvonasi bilan boshingga urishini aytmaysanmi? Shu ham kaltak yeish bo'ldimi, bunga kim e'tibor qilardi? To'g'ri, u og'ziga kelgan vahimali so'zlarni so'zlab qo'rqiaverdi, lekin uning goho yig'lashini nazarga olmaganda, aytgan so'zlari kishini sira ham achintirmaydi-ku! Jim, men senga marmar soqqa beraman. Senga o'zimning oq bo'r soqqamni ham beraman.

Jim ikkilana boshladi.

– Oq soqqamni deyapman, Jim bilasanmi, juda yaxshi oq soqqam bor-ku, o'shani beraman!

– Bu aytganing to'g'ri, Tom boyvachcha, u o'zi yaxshi narsa-ya, lekin shunday bolsa ham, men oyimdan juda qo'rqaman.

Jim uning shunday vasvasalari ta'siriga berilib, chelagini yerga qo'ymoqchi va qo'liga bo'r soqqani olmoqchi bo'lgan ham ediki, biroq shu ondayoq chelagini qo'liga mahkam ushlab, shaldiratib, yugur-ganicha chopib ketdi. Shu orada Tom g'ayrat bilan devorni oqlashga kirishdi, Polli xola bolsa tuflisini qo'liga ushlab, tantana bilan urush maydonidan o'tib borar edi.

Tomning g'ayrati uzoqqa bormadi. U bu kunni qanday xursandchilik bilan o'tkazmoqchi bo'lganini esiga tushirib, yana xafa bo'ldi. Bugun bolalarning hammasi ko'chalarda o'ynab yuradilar. Ular albat-ta qiziq-qiziq o'yinlar o'ylab qo'yganlar, ular hadeb

Tomning shunchalik og‘ir mehnat ostida qolganidan kuladilar. Bu fikrning o‘ziyoq uni xuddi olovdek yondirib, tutoqtirib yubordi. U bor matohini chiqarib, ko‘zdan kechira boshladi. Ular singan qo‘g‘irchoqlar, marmar toshdan ishlangan soqqalar, xullas, shunga o‘xshagan arzimagan narsalar ediki, bularning hammasini yig‘ishtirib kelganda, yarim soat ozodlikka ham yetmas edi. U arzimagan narsalarning hammasini cho‘ntagiga joylab oldi-da, o‘rtoqlarini aldash fikridan qaytdi. Shunday og‘ir va umidsiz minutda birdan uning qalbida bir ilhom qaynab toshdi, miyasiga juda yaxshi, yorqin bir fikr keldi. U cho‘tkasini qo‘liga olib, tinchgina ishga tushdi. Uzoqdan Ben Rodjers ko‘rindi. Uning masxara qilib kulishidan Tom hammadan ham ortiqroq qo‘rqar edi. Ben to‘g‘ri yurib kelmay, dam irg‘ishlab, dam sakrab kelar, uning bunday harakati – ko‘nglining shodligi va shu kuni o‘zi uchun ancha xursandchilikning alomati edi. U olma yeb kelar hamda vaqt-i-vaqt bilan uzun, ohangdor hushtak chalib, bu hushtak orasida past ovoz bilan «din-don-don, din-don-don» deb qo‘yar, bu bilan u paroxod tovushini anglatmoqchi bo‘lar edi. U yaqinlashar ekan, qadamlarini sekinlatib, ko‘chaning o‘rtasida to‘xtadi-da, juda sekinlik va ehtiyyotlik bilan burila boshladi; u mazkur harakatini butun kuchi bilan qilganligi sezilib turar, chunki u o‘zini suv ichida to‘qqiz fut chuqqurlikka botib turgan «Ulug‘ Missuri» kemasiga o‘xshatmoqchi bo‘lar edi. U o‘zini, ayni zamonda ham kema, ham undagi kapitan, ham signal berib turuvchi matros-dek his qilar, o‘z palubasida turib, o‘ziga-o‘zi buyruq berar va uni bajarár edi.

– Mashina to‘xtatilsin, ser! Din-dilini, din-dilin-din!

U sekin-asta yo‘ning o‘rtasidan chiqib, chetga yaqinlashib kelar edi.

– Orqaga! Dilin-dilin-din!

U go'yo boshlig'i oldida turgandek, qaddini rostlab, qo'llarini yoniga mahkam bosib turdi.

– Orqaga tisarib yurgiz! Chapga bur! Chish-chish-chish!

Uning o'ng qo'lli katta-katta doiralar chizib ko'rsatar, chunki u, go'yo aylanasi qirq fut keladigan gildirakdek bo'lib ko'rindardi.

– Chap yonboshi bilan yurgiz! O'ngga bur! Dilin-din-din! Chish-chish-chish!

Endi u chap qo'lli bilan doiralar chizdi.

– To'xta, o'ngga bur! Dilin-din-din! To'xta, chapga bur! Sekinroq hayda! To'g'riga, o'nga yurgiz! Arqonni tashla! To'xta! Tez bo'l! Din-dilin-din! Hoy qirg'oqqa qarab yurgiz! Chau! Chau! Chau! Nega to'xtab turibsan? Arqonni tort! Arqonning halqasini mana shu qoziqqa il! Arqonni to-o-rt! Qo'yib yubor! Mashina to'xtadi, ser! Dilin-din-din!

– Sht! Sht! Sht! – U go'yo bu bilan jo'mraklardan chiqib kelayotgansovugan bug'ning chirtillashiga taqlid qilar edi.

Tom paroxodga hech bir e'tibor bermay devorni oqlashda davom etdi. Ben hayron bo'lib unga biroz tikilib qarab turdi-da keyin:

– Ha, ha, tuzoqqa tushding-ku, – deb qo'ydi.

Uning bu so'ziga javob bo'lmadi. Tom, go'yo chinakam rassomlardek, o'zining so'nggi marta surtgan ohagi rangidan zavqlanib turdi; keyin qo'llidagi cho'tkasini sekingina yana bir yurgizib chiqqandan so'ng, biroz orqaga chekinib, o'zining qilgan ishiga tikilib qarab qo'ydi. Ben o'z kemasini yaqinroq olib kelib, uning bilan yonma-yon turdi. Uning qo'llidagi olmasini ko'rib Tomning og'zidan so'lakayi oqa boshlagan bo'lsa hamki, u zo'r berib ishlay berdi.

Nihoyat, Ben so'z ochib:

– Do'stim, kampir seni ishga solib qo'ydimi? Ilaj yo'q, ishlash kerak, – dedi.

2354/2

– Ey, sen Benmisan? Men sening kelganingni payqamay qolibman.

– Menga qara, hoy, men cho‘milishga ketayotirman! Sening ham cho‘milging kelayotgandir-a? Lekin sen bu yerda ishlashing kerak, shunday emasmi? Albatta shunday-da!

Tom unga qaradida:

– Sen ish deb nimani aytyapsan? – dedi.

– Axir, bu ish emasmi?

Tom qaytadan oqlash ishiga tutinar ekan, beparvolik bilan:

– Balki shundaydir, balki bunday emasdир, harholda bu ish, Tom Soyerning ko‘nglidagidek ish, – dedi.

– Qo‘ysangchi behuda gapni, harholda sen shu qilayotgan ishingni yoqtiraman deb ayta olmaysan-ku?

Tomning qo‘lidagi cho‘tka devor yuzida to‘xtovsiz yurib turar edi.

– Yoqtirmaysan deysanmi? Nega yoqtirmayin, bolalarga bunday devor oqlash ishi har kun nasib bo‘lavermaydi-ku?

Ish boshqacha tus oldi. Ben olma yeyishdan to‘xtadi. Tom qo‘lidagi cho‘tkasini yengillik bilan yurgizar va damba-dam orqaga tislanib borib, maroq bilan qilgan ishini kuzatar, chala yerlarini topgandek cho‘tkani yana u yer, bu yerga tegizib qo‘yar va o‘zining qilgan ishini yana qayta-qayta ko‘zdan o‘tkazar edi. Ben esa uning har bir harakatini kuzatar, borgan sari uning qiliqlariga berilib, ko‘zini uzmay qiziqib qarab turar edi.

Nihoyat u Tomga:

– Menga qara, Tom cho‘tkangni ber, men ham biroz oqlab ko‘ray! – dedi.

Tom biroz o‘ylanib turgandan keyin, go‘yo rozi bolgandek bo‘ldi, biroq keyin o‘zining bu fikridan qaytib:

– Yo‘q, yo‘q, Ben, bu ish qo‘lingdan kelmaydi, deb o‘ylayman. O‘zing bilasan-ku, mening Polli xolam aytganini qildiradigan xotin. Bu devor ko‘cha tomonga qaraydi, hovli ichida bo‘lganida ham boshqa gap edi. Bu ko‘cha tomon, shuning uchun buni juda haf-sala bilan oqlash kerak. Mening fikrimcha, bir ming, hatto ikki ming bolaning ichidan ham buni tuzuk-kina qilib oqlay oladigan topilmas, deb o‘ylayman.

– Qo‘ysang-chi? Nahotki shuni hech kim qilolmasa! Qani, menga ber-chi, ozgina urinib ko‘ray. Agar men sening o‘rningda bo‘lsam, darrov berar edim. Nima deding, Tom?

– Ben, men senga jonim bilan berar edim-u, Polli xolam bor-da... Ana, Jim ham shu ishni qilmoqchi bo‘lgan edi, xolam unga ruxsat bermadi. Sid ham so‘radi, unga ham yo‘l qo‘ymadi. Endi shu ishni birovning qo‘liga ishonib topshirib qo‘yish mening uchun qanday qiyin, o‘zing tushanasan-ku! Sen bu ishni qilsang-da, biror yerini yomon qilib qo‘ysang...

– Bekor gap! Men sendek ishlashga tirishaman. Kel, beraqol endi, bir ishlab ko‘ray-chi! Menga qara, agar xo‘p desang, senga olmaning bir bo‘lagini beraman.

– Ha, xo‘p kel! Yo‘q, yo‘q. Ben, qo‘y, shu gapni aytma, men juda qo‘rqaman...

– Men senga hamma olmamni beraman. Qo‘limda qolgan olmamning hammasini...

Tom istar-istamas, lekin ichidan sevinib, qo‘lidagi cho‘tkani unga berdi. Avval «Ulug‘ Missouri» paroxodi bo‘lgan bola quyoshda kuyib, terlab, mehnat qilib turar ekan, Tom soyadagi gultuvak ustida oyoqlarini o‘ynatib, olmani kavshab, tomosha qilar, bundan boshqa landavurlarni qo‘lga tushirish uchun tuzoq qo‘yib o‘tirar edi. Bunday qurbanlar esa juda ko‘p edi: bolalar devor yoniga kelib turishar, ular biroz tomosha qilib ketmoqchi bo‘lib kelganlari holda, shu

yerda turib qolib, devor oqlashga kirishar edilar. Ben devor oqlay berib juda charchagan vaqtda, Tom ishning ikkinchi navbatini Billi Fisher degan bolaga bir qog'oz varaqqa sotdi. Fisher charchagandan keyin, uning o'rniiga Jonni Miller kelib, buning uchun bir o'lik kalamush va uning dumidan bog'lab osiltirib yurish uchun bir ip ham berdi. Shu tartibda har bir soatda bu ishning havaskorlari o'z-o'zidan kelib, almashinib turdilar. Kun tush payti bo'lganida, ertalab hech narsasi yo'q bechora Tom, turli zebi-ziynat narsalarga ega bo'lib, boyib ketdi. Yuqorida aytilgan boyliklardan tashqari unda endi: o'n ikkita marmar soqqa, bir hushtak, ko'zga tutib qarash uchun ko'k shishaning sinig'i, g'altakdan ishlangan zambarak, hech bir qulfni ocha olmaydigan bitta kalit, bir parcha bo'r, bir grafin qopqog'i, qalayi soldatcha, ikkita itbaliq, oltita shaqildoq, bir ko'zi yo'q mushuk bola, eshikning mis dastasi, bir itning bo'yin bog'i, - faqat itning o'zi yo'q edi, shuningdek, bir pichoq dastasi, to'rtta apelsin po'stlog'i va eski deraza romi bor edi. U ko'pchilik o'tasida hech bir ish qilmasdan, vaqtini juda xursandchilik bilan o'tkazdi, devor esa ohak bilan ustma-ust uch karra oqlandi! Agar uning ohagi yetadigan bo'lsa, u shahardagi hamma bolalarning barcha narsalarini shilib olishi aniq edi.

Tom o'z-o'ziga: «Bu hayot deganlarini u qadar ma'nosiz va arzimaydigan narsa deb bo'lmaydi», derdi. Odamlarning hulqi va atvoriga qarab buyuk qonuniyatni ochganini o'zi ham bilmay qoldi: masalan, biror odam yoki biror bola biror narsaning egasi bo'imoqni orzu qilsa, u odam bu narsaga mumkin qadar qiyinlik bilan erishsin.

**URUSH VA SEVGI BILAN  
MASHG'UL BO'LISH**

Tom Polli xolaning oldiga kelganida, xolasi ham yotoqxona, ham ovqatxona, ham ishxona bo'lib xizmat etadigan orqa tomondagi bejirim bo'lmaning lang ochiq derazasi yonida o'tirar edi.

Barakali yoz havosi uyda hukm surgan jimjitlik, gullarning xushbo'y hidlari, asalarilarning allalovchi g'o'ng'irlashlari Polli xolaga o'z ta'sirini o'tkazar edi: u to'qib o'tirgan ishi ustidan mudrab o'tirar, birdan-bir sherigi bo'lgan mushuk ham uning tizzasida pinakka ketgan edi. Uning ehtiyyotdan peshonasiga ko'tarib qo'ygan ko'zoynagi ustiga oq sochlari tushib turar edi. Tomning allaqachon qochib ketganiga u albatta ishongan va Tomning qachon qo'lga tushishini bilgisi kelardi. Birdaniga Tomning ovozi eshitilib qoldi:

- Men endi o'ynagani borsam maylimi?
- Nima uchun? Darrov-a? Xo'sh, qancha joyni oqartirding?
- Hammasi bo'ldi, xola.
- Tom! Aldama! Men yolg'lonni yomon ko'raman!
- Yolg'on so'zlayotganim yo'q, xola, buyurgan ishingizning hammasi tamom bo'ldi.

Polli xola ishonmadi.

U borib, o'z ko'zi bilan ko'rib kelish uchun ketdi; u Tom aytgan so'zning loaqal yigirma foizi rost chiqsa ham juda xursand bo'lur edi. U borib ko'rarkan, devorning hammasi boshdan-oyoq juda yaxshilab - qalin qilib oqlanganiga, hatto devorning ostidagi yerga ham ko'ndalangiga oq tasma tushirilganiga juda hayron qoldi.

- Obbo, azamatey, men hecham bunday bo'lar, deb o'ylamagan edim... Tom, men senga insof bilan aytishim kerak, agar sen sidqidil ishlasang, har

qanday ishni ham eplay olar ekansan. – Shu yerda u maqtovning hovrini biroz pasaytirmoqchi bo'ldi va ilova qildi: – Lekin bu g'ayratingni kamdan-kam ko'rsatasan. Buni aytib o'tish kerak. Bor, o'yna, faqat shuni bilgin, uyga kech qolmay, vaqtida yetib kel, bo'lmasa men seni...

Polli xola uning g'ayratidan shunday shodlangan ediki, uni qaznoqqa olib kirib, halollik bilan ishslashning o'z lazzati bo'lishi haqida uzoq so'zlab, unga eng yaxshi olmadan bittasini tanlab berdi. Tom esa shu orada xolasiga ko'rsatmay, shirin nondan bittasini o'g'irlab oldi.

U yugurbanicha tashqariga chiqqan edi, Sidni ko'rib qoldi. Sid endigina zinadan chiqib bormoqda edi. Bu zina binoning tashqarisida bo'lib, yuqori qavatning orqa tomonidagi uylarga olib chiqardi. Tomning qo'lida otishga chog'langan bir qancha kesak bo'lib, darhol ularni ota boshladи. Bu kesaklar Sidning ustiga do'ldek yog'ildi. Polli xola kelib ajratib olguncha, Tomning kesagi Sidga kelib tegdi, Tom esa devordan oshib, qochib qoldi. Hovlidan chiqadigan kichkina eshik ham bor edi, lekin unga tezda yetib olishga Tomning fursati bo'lmadi. Endi u Sidni urib, bir vaqlar Polli xolaga yoqasidagi qora ipni ko'rsatib chaqqani uchun qasdini olganidan yuragi quvonch bilan to'ldi.

Tom butun binoni aylanib o'tib, bir iflos yo'lga chiqib oldi. Bu yo'l Polli xolaning molxonasi orqasida edi. Endi u tamom xotirjamlik bilan borar, chunki bu yerda uni yana tutib olish xavfi yo'q edi. Shuning uchun u shahar bozoriga, ya'ni o'z o'rtoqlari bilan ilgaridan maslahatlashib qo'ygan yerga qarab jo'nadi; bu joyda hozir mushtlashish uchun bolalarning jangovar ikki otryadi to'plangan edi. Bu armiyalardan biriga Tom, ikkinchisiga esa uning qadrdon do'sti Jo Garper degan bola qo'mondonlik qilardi. Bu ikkala

ulug' harbiy boshliq bir-birlari bilan shaxsan olish-maguncha, bir-birovlariga yo'l bermas edilar, ko'pincha, mayda askarlar olishar, komandirlar esa ikki tepaning ustida o'z yordamchilari orqali buyruqlar berib turar edilar. Ancha uzoq va og'ir olishuvlardan keyin Tomning askari yengib chiqdi.

So'ngra ikkala qo'shin ham o'z askarlari orasidan «O'lgan»larni sanab chiqdilar, asirlarni ayir-boshladilar, kelgusi ixtiloflar to'g'risida yangi bitimga keldilar va keyingi, qat'iy jang kunini belgiladilar. Keyin jangchilar saflarga tizilishib, tantanali «marsh» bilan jang maydonidan chiqib ketdilar. Tom uyga yolg'iz o'zi ketdi.

Jeff Techer yashab turgan uyning yonidan o'tib borar ekan, Tom shu yerdagi bog' ichida notanish bir qizga ko'zi tushdi. Bu qiz – oltindek sap-sariq sochlarini ikki o'rim qilib, orqasiga tashlagan, ko'k ko'zli, yozlik oq nafis ko'ylak va guldor ishton kiygan chiroylik bir qizaloq edi.

Hozirgina shuhrat qozongan qahramon uning qarshisida jangsiz yengildi. Emmi Lorensin degan qiz uning qalbida hatto iz ham qoldirmasdan shu soatdayoq yodidan ko'tarildi. U esa Emmi Lorensin haddan tashqari sevaman, hurmat qilaman, deb faraz qilar edi! Bu yerda haddan tashqari aldanishdan boshqa narsa yo'q ekan. Bir necha oy urinib, Tom uning sevgisiga muvaffaq bo'ldi. Qiz bundan faqat bir hafta burungina unga muhabbat qo'yganiga iqror bo'ldi. Shu qisqagina muddat – yetti kun ichida u o'zini mag'rurlik bilan dunyoda eng baxtli bola, deb hisoblab yurdi, mana endi ular bir lahza tasodify mehmondek uning xotiridan ko'tarildi.

Tom sekin-asta, sezdirmasdan bu qizga mahliyo bo'lib tikilib qaray boshladи. Bir vaqt uning ham o'ziga ko'zi tushganini payqab qoldi. Shunda Tom, go'yo bu qizni ko'rmagandek bo'lib va o'z ko'nglida bu qizga

o'z «epchilligi»ni ko'rsatish niyatida har xil o'xshovsiz qiliq va harakatlar qila boshladi. Odatda, bolalar birovga yoqmoqchi bo'lganlarida shunday harakatlar qiladilar. Shunday ajoyib fokuslarni birmuncha vaqt davom etdirgandan keyin, Tom o'zining qandaydir xavfli gimnastika harakatlari orasida qiz tomonga ko'z tashlab uning burilib ketayotganini ko'rdi.

Tom bundan xafa bo'lib, devor yoniga yaqinlashib keldi; u qizning biroz bo'lsa ham shu yerda, bog'da yurishini istar edi. Qiz chindan ham ostona oldida biroz to'xtab turdi-da, keyin eshikka tomon yo'naldi. Qiz, oyog'ini eshik ostonasiga qo'yar ekan, Tom og'ir bir xo'rsinib qo'ydi, biroq birdan uning yuzini yana shodlik qopladi. Qiz eshik orqasiga o'zini olmasdan burun, u yoq-bu yoqqa alanglab qaradi-da, qo'lidagi gulni devordan oshirib unga tashladi. Tom yugurganicha borib, gul yotgan yerdan ikki qadam berida to'xtadi va qo'lini ko'zlari ustiga tutib, biror qiziq narsa ko'rgandek, ko'cha tomonga tikilib qaray boshladi. Keyin u yerdan bir cho'pni olib, burni ustiga qo'ydi va uni tushirmaslik uchun boshini orqasiga tashlab, gavdasini u yoq-bu yoqqa tebratdi-da, sekin-asta gulga yaqin bora boshladi. U shu tariqa yurib borarkan, gulga yondashib, uni oyog'i bilan bosib oldi va gulni sekkingina oyoq panjalari orasiga qisib, bir oyoqlab sakray-sakray, qimmatli hadyasini oldi va burchakdan burilib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Uning ko'zdan yo'qolishi uzoq davom etmadi; u burchak orqasiga o'tib, nimchasining tugmalarini yechib, gulni ko'kragiga, ya'ni yuragiga, balki qorniga yaqinroq yerga (chunki u, anatomiya bilimidan xabarsiz edi) yashirish uchun qancha vaqt kerak bo'lsa, shuncha vaqt ko'rinxay turdi.

Keyin u yana qaytib kelib, o'sha kuni kechgacha har xil nayrangbozliklar ko'rsatib yurdi. Garchi Tom: «Qiz biror derazadan bekinib qarab turgandir», de-

gan umid bilan o'zini ovitib, har xil o'yinlar ko'rsatsa hamki, qiz qaytib ko'rinnadi. Nihoyat, Tom bechora tamom umidsizlanib, boshi har xil shirin xayollar va orzular bilan tolgani holda noiloj uyiga qaytib keldi.

Kechki ovqat ustida u butunlay xayolga cho'mib, shunday hayajonli bir holatda o'tirdiki, xolasi uning ahvolini ko'rib: «Bu bolaga nima bo'ldi ekan?» deb hayron qoldi. Sidga kesak otgani uchun uni juda qattiq koyidi, biroq u bundan sira xafa bo'limgandek ko'rinar edi. U xolasining ko'zi oldida bir bo'lak qandi sekingina ilib olmoqchi bo'lgan edi, xolasi uning qo'liga bir urdi. Tom, xafa bo'lmadi, faqat:

– Xola, Sid ham qandingizdan oldi-ku, uni nega urmaysiz? – deb qo'ydi.

– Sid senga o'xshab, hadeb boshqalarni qiynayvermaydi. Agar men bo'imasam, sen qantdonning ichidan qo'lingni olmas eding.

Xolasi oshxonaga qarab ketdi, Sid esa o'zining jazolanmaganidan xursand bo'lib, shu zamon Tomning g'ashiga tegdi-da, qo'lini qantdonga cho'zdi. Tom uchun bu chidab bo'imas bir hol edi! Biroq, shu vaqt Sidning qo'lidagi qantdon yerga tushib chil-chil bo'ldi. Tom shunday suyunib ketdiki, shodligidan biror so'z ham aytolmay, jim bo'lib qoldi. U xolasi kirib kelguncha, hatto xolasi kirib kelgandan keyin: «Buni kim qildi», deb so'ragunicha ham indamay qarab o'tirmoqchi va xolasi ko'rgandan keyingina aytmoqchi bo'ldi. U endi odobli, «erka bola»ning kaltak yeishini avvaldan sezib, shodlanib o'tirar edi. Kampir qaytib kirdi-da, singan qantdonning tepasiga kelib, ko'zoynaklari ustidan g'azab bilan qaradi va qollarini yozganicha hayron bo'lib qotib qoldi. Tom ichida: «Ana endi ish boshlandi-ku!» deb turar edi. Biroq oradan bir nafas o'tmay, Tomning o'zi yerga ag'darilib, kaltak ostida qoldi. Xolasi uni yana qayta-qayta urmoqchi bo'lib turar edi, Tom yig'i aralash:

– To'xtang! To'xtang, xola! Siz meni nima uchun urayotirsiz? Qanddonni sindirgan men emas, Sidku! – dedi.

Polli xola hayron bo'lib, qarab qoldi. Tom endi achinar, rahmi kelar, deb o'ylagan edi. Biroq xolasi o'zini tutib oldi-da, faqat:

– Ha, ha. Shundaymi? Harholda bu kaltak senga o'rinsiz tegmagandir, deb o'ylayman. Men yo'q vaqtimda sen ham anchagina sho'xlik qilgandirsan, – dedi.

U vijdonan azoblana boshladi. U bolaga uch-to'rt og'iz bo'lsa ham yaxshi so'zlar aytib, uni yupatib ko'nglini olmoqni juda istar edi, lekin qo'rqliki, basharti erkalatsa, xola o'zini gunohkordek hisoblar, bu esa tartib-intizomga xilof bo'lar edi. Shu sababli kampir churq etmay, o'zining odatdagagi ishlari bilan shug'ullanaverdi. Tom burchakka borib o'tirib oldi, u go'yo o'z yarasiga malham qo'yari edi. U xolasining chin yurakdan afsusda ekanini bilar va shu xayol uning ko'nglini ozgina bo'lsa ham shodlantirgandek bo'lar edi. Tom sirini boy bermaslikka, murosasozlikka tomon bir qadam ham qo'ymaslikka va xolasining ko'nglidagi o'kinchini bilmagandek bo'lishga tirishar edi. Xolasining unga o'qtin-o'qtin, yoshlangan qayg'uli ko'z bilan qarashini bilar, lekin buni sezishni istamas edi. U o'z xayolida qattiq kasal bo'lib, o'lim oldida yotgandek, xolasi kelib undan bir og'iz bo'lsa ham kechirim so'rashini kutgandek, o'zi esa, bunga e'tibor qilmay, yuzini devor tomonga o'girib olib, jon bergandek bo'lar edi. Shunday bo'lsa, xolasi qanday ahvolda qolar edi? U yana o'zicha xayol surar: go'yo u suvgaga cho'kkani, uning o'lagini suvdan topib olganlar, jingalak sochlari butunlay ho'l, ma'sum qo'llari ko'ksiga qovushtirilgan holda, yuragi abadiy urmay qo'ygan. Shunda xolasi uning o'ligi ustiga tashlanib, ko'z yoshlari duv-duv to'kib yig'lar va Xudodan

o'z bolasini qaytarib berishni so'rar, agar qaytarib bersa, uni hech vaqt xafa qilmaslikka so'z berar edi. Lekin u rangi o'chgan, tanasi muzlagan holda, tiriklik belgisini bildirmasdan, xuddi g'am-g'uussalardan abadiy qutulgan ma'sum bola singari qimirlamay yotmoqchi bo'lar edi. Bu manzaradan uning yuragi shunchalik siqildi va ta'sirlandiki, ko'zlarji qiz yoshga to'lib va sekin-asta sizib, burnining uchidan tomib tushib turdi. O'z xafachiligini qadrlash uning uchun shunchalik lazzatli ediki, u o'z yonida bo'layotgan shodlik va kulgilarga chidab turolmas edi. Shuning uchun ham u Meri degan qizning yosh qarindoshi eshikdan o'ynab-sakrab, ashula aytib kirgan vaqtida, xafachilikdan qovoqlari soliq holda hovlidan chiqib ketdi. U o'rtoqlaridan uzoqda, yuragidek g'am va anduhlarga to'la kimsasiz yerlarda tentirab yurdi.

Xariga o'xshagan sol uni qiziqtirdi; u solning eng chekkasiga o'tirib olib, daryo yuzini tomosha qilib bordi. Shu bilan birga hech bir sezmasdan va hech qanday o'ng'aysizlikka uchramasdan bir lahzada g'arq bo'lib ketishni orzu qilar edi. So'ngra u gulini esladi. Nimchasining ichidan uni oldi, – gul so'ligan va ezilgan edi, – bu hol uning qayg'usini yana ham kuchaytirdi. U o'z-o'ziga: «Agar u qiz ichimdagи qayg'ularimni bilsa, meni ayarmidi, yig'larmidi va bo'ynimga osilib, meni yupotarmidi? Yoki hozir takabbur odamlar menga qayrilib qaramaganlaridek, u ham qayrilib qaramasmidi?» degan so'roqlarni bera boshladи. Shu haqda fikr uni shunday bir yengilgina g'am bilan o'rab oldiki, u tarqalib ketgunicha har maqomga solib ko'rdi. Nihoyat, o'midan turdi va og'ir bir nafas olib, qorong'i ko'chaga yo'l oldi. Soat to'qqiz yarim yoki o'nлarda u odamlar juda kam qatnaydigan bir ko'chaga kirib keldi; bu ko'chada uning sevgani – begona qiz turardi, u bir nafas to'xtadi-da, atrofga qulq sola boshladи – churq etgan ovoz eshi-

tilsa-chi! Ikkinchı qavatdagi uyning derazasidan miltillab yonib turgan shamning shu'lasi pardaga tushib turardi... Qiz shu bo'lmada emasmikin? U xarilardan oshib o'tib, chakalakzor orqali yurib sekin-asta naq deraza tagiga borib to'xtadi. Uzoq vaqt mehr bilan derazaga qarab turdi, keyin so'ligan gullarini qo'llari bilan ko'kragiga bosgani holda, shu yerda chalqanchasiga yotib oldi. Mana shu ahvolda u ochiq havoda o'lib ketishni, bevafo dunyodan ko'z yumishni istar edi; hech kimning jon berish oldidan chiqqan peshona terini artmaydi, so'nggi nafasini olayotgan chog'larda hech kim uning oldiga bosh egmaydi. Ertaga, ko'ngilli tong paytida qiz uyg'onib, mazkur derazadan qaragan vaqtida, uni shu ahvolda ko'radi, – nahotki shu choqda uning jasadiga bir dona ham ko'z yoshini tomizmasa, o'ndan bir guli endigina ochilgan yosh bolaning juda bevaqt o'lganini ko'rganida, nahotki qalbidan aqalli biron marta og'ir xo'rsinish chiqmasa?

Birdan deraza ochildi. Qandaydir xizmatchi xotining ko'targan shovqini qorong'i kechaning sukunatini buzdi va bir paqir suv bolaning ustiga ag'darildi. Hayron bo'lgan qahramon, yotgan joyidan irg'ib turib, ust-boshini silkishga kirishdi. Shu vaqt havodan bir narsaning uchib o'tayotgani sezildi, qulog'iga birovlarning so'kishayotgan ovozi va oynaning jaranglab singani eshitildi-da, ko'ziga panjara ustida bilinar-bilinmas bir narsaning qorasi ko'rini, shu onda ko'zdan yo'qoldi.

Oradan bir necha vaqt o'tgandan keyin Tom, ho'l bo'lgan kiyimlarini yechib, sham yorug'ida ko'zdan kechira boshladи. Sid uyg'onib qoldi. Sid balki Tom oldida o'z aybini yopib ketmoqchi bo'lgandir, ammo u o'zining bu fikrini tezlik bilan o'zgartib, jimgina uxlagan bo'lib yota berdi, chunki Tomning ko'zlarida yaxshilik alomatlari ko'rinas edi. Tom kechki

ibodatini ham qilib o'tirmasdan, uxlamoq uchun o'rniga borib yotdi. Sid esa buni fahmlab, ko'ngliga tugib qo'ydi.

## TO'RTINCHI BOB

### **YAKSHANBA KUNGI MAKTABDA «CHIRANISH»**

G'ala-g'ovursiz, tinchgina shaharcha ustidan ko'tarilgan quyosh o'zining yorqin nurlari bilan shaharchani go'yo yupatib turgandek bo'lar edi. Nonush-tadan keyin Polli xola ko'ngliga mustahkam joylab olgan Tavrot oyatlariga asoslangan duolarini o'qidi. Sinay cho'qqisiga o'xshagan mehrobdan turib, u Muso payg'ambar hayotidan dahshatli bir bobni o'qidi.

So'ogra Tom belini mahkam bog'lab olib, miyasini Tavrot oyatlari bilan to'ldira boshladi. Sid esa darsini allaqachon tayyorlab qo'yan. Tom Tavrotning besh oyatini o'z xotirasida saqlab qolish uchun butun kuchini sarf qildi. U jo'rttaga oson oyatlarni tanlab olar edi, chunki butun Tavrot ichida bo'lgan suvralarning eng qisqalari shular edi.

Yarim soatdan keyin Tom o'z saboqlaridan uncha-munchasinigina zo'rg'a eslab oldi, chunki shu vaqt ichida uning fikr-u yodi turli xayol bilan, qo'llari esa boshqa ish bilan band edi. Meri Tomning qo'llidan kitobni olib, darslarini so'ray boshladi, Tom esa o'z yo'llini go'yo tuman orasidan paypaslab topib olmoqchi bo'lar edi.

Meri tomonidan berilgan savollarga javob berishda qiynalgan Tom, nima deyishni bilmasdan, Meridan o'pkalay va Merini koyiy boshladi.

– Shularni o'zing aytib beraqolsang nima bo'lardi, insofing bormi?

– Oh, Tom bechora, kallavaram, men sening jahlingni chiqarmoqchi emasman, yaxshisi, borib diqqat bilan o'qib darsingni bilib olishing lozim.

Chidamli bo'l, Tom, shunda ishing o'nglanib qolsa zora, agar sen darsingni yaxshi bilib olsang, men senga g'alati narsalarini sovg'a qilaman. Bor, aqli bola bo'l, saboqlaringni takrorla!

– Xo'p... Nima sovg'a qilmoqchisan, Meri? Aytib qo'yaqol.

– Yaxshi narsa deb aytdim-ku, demak yaxshi narsa.

– Bilaman, Meri, bilaman. Xo'p, sabog'imni takrorlayman!

Chindan ham u saboqlarini zo'r berib takrorlashga kirishdi, astoydil diqqat qilishi orqasida va sovg'ani tezroq qo'lga kiritish maqsadida saboqlarini juda yaxshi o'zlashtirib oldi.

Buning uchun Meri o'zining yangigina, o'n ikki yarim sent<sup>5</sup>ga sotib olgan qalamtaroshini Tomga hadya qildi. Tom esa buning uchun o'zida yo'q xursand bo'ldi. Qarindoshining shafqatliligi yuragining eng chuqur yerlarigacha ta'sir qildi: chindan ham bu qalamtarosh «rostakam» Berlou firmasining pichog'i bo'lib, shu sababli unga mahobatli bir hadya bo'lib ko'rinar edi. Tom shu pichoq bilan darhol bufetni yo'nib, endi komodni yo'nmoqchi bo'lib turganida, birdan uni mакtabga borish uchun kiyinishga chaqirib qoldilar.

Meri unga suv quyilgan tos bilan bir bo'laksovun berdi; u eshikdan tashqariga chiqib, tosni kichkina kursi ustiga qo'ydi-da,sovunni suvga botirib olib, joyiga qo'ydi. Keyin yenglarini shi-marib, suvni sekingina yerga to'kdi va oshxonaga kirib, eshik orqasiga osilib turgan sochiq bilan yuz-qo'llarini yaxshilab arta boshladidi. Biroq, Meri uning qo'lidagi sochiqni tortib oldi.

– Tom, uyalmaysanmi, – deb qichqirdi Meri. – Bunday yomon bola bo'lish yaxshimas! Yaxshilab yuvinib olsang bir narsa bo'ladimi?

<sup>5</sup> Sent – yigirma besh tiyin.

Tom biroz uyaldi, Tosga yana qaytadan suv tolg'azdilar. Bu gal Tom Tosning tepasiga borib, go'yo jur'at va botirlik bilan bir dam qarab turdi-da, og'ir nafas olib, yuvinishga tutindi. U ko'zlarini ocholmay, oshxonaga ikkinchi marta kirib, devorda osig'lik turgan sochiqni qo'li bilan paypaslab axtara boshlaganida, yuzidan oqib turgan suv vasovun ko'piklari uning chinakam yuvinganligiga shubha qoldirmas edi. Shunday bolsa ham uning sochiq bilan artilgan basharasi kutilganidek natijani bermas edi, chunki, yuzining toza bolgan qismi go'yo niqob kiygandek, peshonasidan iyagigacha bo'lib, undan yuqorisiga va pastiga, ya'ni peshonasining ustiga hamda bo'yniga suv tegmay, xuddi qora halqadek bilinib turardi. Meri uni o'z qo'li bilan yuvintirishga kirishdi, shundan keyingina u ko'chaga chiqsa kishi uyat qilmaydigan ozoda bola bo'ldi. Sochlari moylanib, taralib, silliq qilib qo'yilgan, sochlarning uchidagi jingalaklari esa chiroylilik va mutanosib ravishda ko'rinar edi (U o'zi har qachon sochlarni diqqat bilan silar va uni teptekis, xuddi boshiga yopishib turgandek qilib, qo'li bilan yotqizishga tirishardi: uning fikricha, sochlari jingalak bo'lib ko'tarilib tursa, qiz bolaga o'xshab qolgandek bo'lar, bu hol butun umr bo'yini baxtsizlikka duchor qilar emish). Shundan keyin Meri uning ikki yildan beri faqat yakshanba kunlarigina kiyib yuradigan toza kostumini olib berdi. Kostum: «u-bu» deb atalar edi. Bu so'z, unga tegishli kiyim shkafida kiyimlarning qanchalik ko'pligini bildiradi. Kiyinib bolgandan keyin, xolasi uning u yoq-buyog'ini tuzatib, nimchasining hamma tugmalarini qadarkan, ko'ylagini yelkaga tushib turadigan keng yoqasini sirtga chiqarib qo'ydi. Ustini cho'tka bilan tozaladi-da, boshiga savat qalpog'ini ham kiygizib qo'ydi.

Bu ishlarning hammasi, uning tashqi qiyofasini ancha bezagan bolsa-da, u, uyalib, o'zini o'ng'aysiz

holatda his qilayapti, deb o'ylash mumkin edi. Haqiqatan ham shunday bo'lib chiqdi: chunki u hech vaqt o'zini bunchalik yuvingan, ozoda holda ko'rgan emas edi, – mana shuning uchun bu hol uni qiynar va hayajonlantirardi. U: «Shoyad Meri etigimni unutsa», deb umid qilgan edi, lekin uning bu umidi puchga chiqdi. Meri, odat bo'yicha etikni moylab kiydirmoqchi bo'lib, uning oldiga olib keldi. Shundan keyin u chidolmasdan: «Meni doim o'zim istamagan ishlarni qilishga majbur etadilar», deb zorlana boshladi. Meri unga nasihat qilib:

– Kel endi Tom, sen ham aqli bola bo'l! – dedi.

Keyin Tom ming'illay-ming'illay etigini kiya boshladi. Meri ham tez vaqt ichida kiyinib olganidan keyin, uchovlari birgalashib yakshanba kunlik maktabga qarab jo'nadilar. Tom bu maktabni jon-u dili bilan yomon ko'rар, Meri bilan Sid esa uni yaxshi ko'rар edilar.

Maktabda saboq soat to'qqizdan o'n yarimgacha davom etib, keyin cherkov ibodati boshlanar edi. Meri bilan Sid ikkalasi po'pning va'z-nasihatlarini eshitishga o'z xohishlari bilan qolganlaridan Tom ham noiloj qolishga majbur bo'lar edi.

Cherkovning kursilariga uch yuzga yaqin odam sig'ardi; bu kursilarga yostiq qo'yilmas edi. Cherkov binosi – kichkina, ko'rimsizgina bo'lib, tomi ustida qarag'ay taxtalardan qilingan va ingichka quvurga o'xshagan narsa cho'qqayib turardi; bu – cherkov qo'ng'irog'i edi. Tom, cherkov eshigi oldiga yetganida, sheriklaridan bir qadam keyinda qolib, o'ziga o'xshash yasangan o'rtog'iga qarab:

– Hoy, Bill, sariq bileting bormi? – dedi.

– Bor.

– Qanchaga berasan?

– Qanchaga olasan?

- Bir parcha lakritsa<sup>6</sup> va qarmoq beraman.
- Qani, ko'ray-chi.

Tom buyumlarni ko'rsatdi. Bu narsalar bolaga yoqqandan keyin, u sariq biletni shularga ayrboshladi. So'ngra Tom ikkita katta marmar soqqani uchta qizil biletga va yana bir necha arzimas narsalarni ikkita zangori biletga ayrboshladi. Tom ko'chadan o'tib boruvchi harbiy bolani to'xtatib, har xil rangdagi biletlarga yonidagi bor narsalarini alishmoqchi bo'lganligini aytdi. Bu hol o'n-o'n besh minut davom etdi. So'ngra u, yasangan bir to'p sho'x bolalar bilan birga cherkovga kirib o'z joyiga o'tirib oldi-da, birinchi uchragan bola bilan janjallasha boshladi. Ularning bu janjaliga jiddiy qiyofali keksa muallim aralashdi; muallim orqasini o'girishi bilanoq Tom oldingi safda o'tirgan bolaning sochidan tortdi. U bola orqasiga qayrilib qaraganida, Tom qo'lidagi kitobi bilan uning burniga turtdi. Bir minut o'tar-o'tmas Tom qo'lidagi to'g'nog'ichini ikkinchi bir bolaga suqib oldi va uning «voy!» deb dodlashini eshitmoqchi bo'ladi, lekin buning uchun muallimdan yana tanbeh eshitdi.

Buning ustiga, Tomning sinfidagi bolalarning hammasi terilib olingandek nuqlu sho'x, notinch va odobsiz bolalar edi. Saboqlarni so'rashga kirishganlarida, bolalarning hech biri ham tayyorlanmagan ma'lum bo'ldi. Bolalarning har biri saboqni boshdan-oyoq so'zlab berishga to'g'ri kelar edi.

Ular u-bu qilib valdirash bilan bir amallab saboqni o'tkazdilar va har biri mukofot tariqasida bittadan ko'k bilet oldi; ko'k bilet Tavrotdan yod olingan ikki suraning haqi edi. O'nta ko'k bilet bir qizil biletga to'g'ri kelar va shunga alishtirib olish mumkin edi; o'nta qizil bilet esa bir sarig' biletga to'g'ri kelar, o'nta sarig' biletga ega bo'lgan alohida o'quvchiga esa,

---

<sup>6</sup> Lakritsa – eshak miya o'tidan ishlangan chuchmal-shirin tamli dorivor.

direktor sodda muqovalik Tavrot berardi. (U vaqtida shu Tavrotning bahosi 40 sent turar edi).

Mukofot tarzida rassom Dorening rasmlari bilan bezalgan Tavrot va'da qilinganida ham ikki ming satr oyatni yod olish uchun kitobxonlarimizdan qanchasining kuchi yetar edi? Meri esa astoy-dil diqqat bilan shu xilda ikki yil o'qib, mukofot tariqasida ikkita Tavrot oldi. Bir nemis bolasi esa shunday Tavrotdan to'rtta yoinki beshtasini oldi. Bir vaqt u, sidirg'asiga uch ming satr oyatni o'qib chiqdi; ammo bunday zo'r berishlik uning uchun foydali bo'lmasdi va o'sha kundan boshlab u qariyb aqldan ozib qolgan edi, bu esa maktab uchun katta baxtsizlik bo'ldi, chunki avvallari tantanali voqealar-da, ya'ni xalq ko'p yig'ilgan vaqtarda direktor bu bolani chaqirib olib, Tomning so'zi bilan aytganda «safsata sotdirar» edi. Boshqa o'quvchilardan faqat kattalarigina o'z biletlarini saqlar va Tavrot olish uchun o'z saboqlarini uzoq vaqtlar takrorlar edilar. Chunki bu mukofot kamdan-kam berilar va uning berilishi katta hodisa hisoblanar edi. Tom, ehtimol, bunday mukofotni xohlamayotgandir, lekin shunisi aniqliki, uning butun vujudi shu mukofotni olish bilan bog'liq bo'lgan shuhrat va obro'ni istar edi.

Xuddi belgilangan soatda kafedra oldida duo kitobini ushlagan direktor paydo bo'ldi. U shahodat barmog'ini kitobning betlari orasiga kiritib olgan edi. U o'z so'zining diqqat bilan tinglanishini talab qildi.

Konsert beriladigan sahnada ashulachining qo'lida notasi bo'lganidek, maktab direktori odatda o'zining qisqa nutqini so'zlaganda, ham qo'liga duo kitobini albatta ushlab chiqar edi. Biroq ashula-chining qo'lida nima uchun nota bo'lishi va direktorning qo'lida duo kitobi bo'lishi ma'lum emas, chunki ulardan hech biri na notaga va na duo kitobiga qarar edi.

Direktor o'ttiz besh yoshlar chamasidagi, qizg'ish yuzli echki soqolli, kalta qilinib olingan haligiday qizg'ish sochli jirkanch bir odam edi. Kraxmallangan tikka yoqasining ustki qirrasi qariyb qulog'iga tegib turar, qirrali uchlari esa oldinga egilib, qariyb og'ziga yetar va xuddi devordek bo'lib, direktorni doim oldinga qarab turishga majbur etar, yon tomonga qaragan chog'larida esa u butun gavdasini burishga majbur bo'lar edi. Bo'ynidagi galstugi esa baqbaqasini tirab turish xizmatini bajarar, galstugining o'ng va chap tomonga ayrilib turgan uchlari uzun popuklar bilan bezatilgan edi; etiklarining uchlari o'sha zamondagi modaga muvofiq konki uchi singari yuqori qarab turardi, – o'sha vaqtdagi yoshlar ham bunga erishish uchun etiklarining uchlarni bir necha soatlab devor-ga tirab o'tirar edilar. Mister Uoltersning afti haddan tashqari jiddiy, ko'ngli sof va ochiq edi; muqaddas narsa va muqaddas joylarga u shu tariqa yaxshi iltifot bilan qarar va bularni oddiy narsalardan shunday ajratar ediki, yakshanba kungi mакtabda so'zga chiqqan mahalida ovozi odatdan tashqari ohangdor eshitilardi. Direktor so'zni shu taxlitda boshladi:

– Endi, bolalar, men sizlardan ikki daqiqacha to'g'ri va jim o'tirishlariningizni hamda mening so'zimga zo'r diqqat berishlariningizni so'rар edim. Ha, balli! Yaxshi o'g'il va qiz bolalar o'zlarini shunday tutishlari kerak. Men kichkina bir qiz bolaning derazadan qarab turganini sezayotirman; uning xayolida men daraxt tepasiga chiqib olib, kichkina qushchalarga so'zlayotgandek bo'lsam kerak! (Bolalar uning so'zini ma'qullab kulishdilar). Men sizga eзgulik va haqiqatni o'рганиш uchun bu muqaddas joyga to'plangan, yasangan, ozoda yosh bolalarni o'z oldimda ko'rishdan xursandchiligidagi bildirmoqchiman.

Hokazo va boshqa shunga o'xshash gaplar. Bunda boshqalarini so'zlab o'tirishga hojat yo'q. Direk-

torning butun nutqi o'zgarmas bir nusxada tuzilgan, demak u bizlarning hammamizga ma'lum.

Bu nutqning so'nggi uchdan bir qismini yaramas bolalar o'rtasida damba-dam bo'lib turgan urushlar qorong'ilashtirar edi. Bundan boshqa hangomalar ham ozmuncha emas edi. Bolalar turgan joylarida ijirg'anib shivirlashar va bunday yaramas xulq to'lqinlari vaqtি kelganda Meri bilan Sid kabi tebranmas qoyalarga ham kelib urilar edi. Biroq direktorning tovushi pasaya boshlashi bilan hamma gap-so'zlar tindi va nutqning xotimasi esa so'zsiz tashakkur bilan qarshi olindi.

Gap-so'z va shivir-shivirlarning qo'zg'alishiga ko'pmi-ozmi sabab bo'lgan narsa – kishilarning kelib qolishi bo'ldi; bedarmon bir mo'ysafid chol bilan advokat Techer, ko'rkan o'rta yoshli bir olifta kishi va mahobatli bir xotin kirib keldi. Bu xotin albatta haligi oliftaning xotini bo'lsa kerak. Xotin bir qiz bolani yetaklab kelgan edi. Tom o'z ayblarini sezgani va nomusiga chidamagani uchun, bir joyda tinch o'tirolmas edi. U Emmi Lorensga tik qarolmas, uning latif va sabrli ko'z qarashlariga chidab turolmas edi. Biroq u, eshikdan kirib kelgan qizni ko'rishi bilanoq butun qalbi sevinchlarga to'lib ketdi. U darhol kuchining boricha «nayrangbozlik» qila boshladи: O'g'il bolalarni tepasidan mushtlar, sochlaridan tortar, aftini burushtirib masxara qilar, xullas, qizni o'ziga maftun qilib, unga ma'qul bo'lish yo'lida hamma hunarlarni ko'rsata boshlardi. Uning shunday shodliklariga bir narsa xalaqit berib turar, u ham bo'lsa bog'da shu malikaning derazasi ostida xo'rlanishini eslash edi, biroq bu voqeа to'g'risidagi xotira xuddi ko'chma qum ustiga chizilgan narsadek tuyular edi. Tomning hozirgi damda sezayotgan rohatlari bunday xo'rlik va ko'ngilsizliklarni butunlay yuvib ketardi.

Mehmonlarni to'rga o'tkazdilar, mister Uolters o'z nutqini tamomlashi bilanoq ularni maktab ahliga tanishtirdi.

O'rta yoshlardagi erkak kishi juda bir muhim shaxs – xuddi okrug sudyasining o'zi bo'lib chiqdi. Bunday yuqori mansabli kishini bolalar hali sira ko'rmagan edilar, ular bu kishiga hayron bo'lar va o'z-o'zlariga savol berib: boshqa kishilar qanday materialdan ishlangan bolsa, bu kishi ham o'shanday materialdan ishlaganmikin? – deb so'rар va yoinki uning bir bo'kirishini orzu qilar va yoxud, aksincha, uning bo'kirib yuborishidan qo'rqar edilar. U Peterburgdan yigirma mil uzoqlikda bo'lgan Istanbul shaharidan kelgan, demak xo'p yaxshi sayohat qilib dunyoni ko'rgan kishi; u kishilarning aytishicha, tunuka tomi bo'lgan okrug sudi binosini o'z ko'zi bilan ko'rgan. Shunday fikrlar natijasida kelib chiqqan maftunlik, tantanali sukunat va bir qator baqrayib qarab turgan ko'zlar bilan ifoda etilar edi. Bu kishi o'z shaharlarida advokat bo'lib turgan Techerning akasi buyuk sudya Techer edi. Jeff Techer butun maktabni hayratda qoldirish uchun o'ziga amaki bo'lgan buyuk odam bilan kibrlanish maqsadida, oldinga qadam tashlab chiqdi. Agar shu vaqtda u o'z o'rtoqlarining shivir-shivir qilayotganlarini eshitsa, ularning bunday shivirlashlari Jeff uchun yoqimli bir musiqadek tuyular edi.

– Uni qara, Jim, u o'shayoqqa ketayapti-ya! Uni ko'rsang-chi! Ana u qo'lini berib so'rashayotir... Qanday gap-a! – Qo'lini berdi-ya! Jin ursin seni! Hozir sen ham o'sha Jeff bo'lishni istardingmi?

Mister Uolters behuda shoshqoloqlik bilan o'zini korchallon qilib ko'rsatish uchun o'zicha «chiranar», har bir kuchi yetgan kishiga uning maslahat, buyruq va farmoyishlari yog'ilib turar edi.

Quchoq-quchoq kitoblarni ko'tarib, u yoqdan-bu yoqqa yugurib, o'zining pola-partish shovqin-suronlari bilan g'ayrat qilgandek kutubxonachi ham chiranib yurar edi.

Yosh-yosh muallimalar esa hozirgina o'zlarini chim-chilab, qulqolarini cho'zib yurgan bolalarga muloyim so'zlar aytib, engashib qarar, bular ham «chiranar», o'zlarining chiroylik barmoqlarini silkitib, itoatsizlik qilgan bolalarni qo'rqtishar, itoatli bolalarni esa erkalatib boshlarini silar edilar.

Yosh muallimlar ham chiranishib, o'zlarining kichkina-kichkina tanbehlari bilan maqtovga sazovor intizom joriy qilib, o'z hukmronliklarini ko'rsatar edilar. Umuman muallim va muallimalardan ko'pchiligi asosan kafedra oldidagi kitoblar ustida urinib yurar edilar.

Qiz bolalar ham turli maqomlarda «botirlik» ko'rsatar, o'g'il bolalar esa bu yo'lda shunchalik qunt qilar edilarki, butun havo jangovar tovushlar va chaynalgan qog'oz soqqalari bilan to'lib ketar edi.

Bulardan ham balandroqda esa – oliy martabali sudyaga xos tabassumi bilan mакtabni jonlantirib, yumshoq o'rindiqda o'tirgan, ya'ni o'z mahoratining shu'lalarida isinayotgan ulug' odam qiyofasi ko'zga baralla tashlanib turar, chunki u ham o'z maqomi-chi chiranar edi.

Mister Uoltersning shodlik va mammuniyatining xotimalanishi uchun birgina narsa yetishmas edi: u o'zining oljanob mehmonlariga tirishqoqlik mo'jizasini ko'rsatib, so'zquvar bo'lganlarga Tavrotni topshirmoqchi edi. Biroq mакtab bolalaridan ba'zi birovlar uncha-muncha sarig' bilet to'plagan bolsalar ham, bu oz, – u eng yaxshi o'quvchilarni so'roq qilib o'tkazgan edi.

Ana shu paytda, ya'ni u butun umidini uzgan bir vaqtda, Tom Soyer oldinga chiqib, bir dasta biletni:

to'qqizta sarig', to'qqizta qizil va o'nta ko'k biletni taqdim etdi hamda mukofot uchun o'ziga Tavrotning berilishini talab qildi.

Tomning bu harakati go'yo havo ochiq kunda mo'maqaldiroq guldirashini eslatar edi. Mister Uolters esa Soyerdan allaqachon qo'l siltagan va yaqin o'rtadagi o'n yil ichida undan bir ish chiqmasligiga ishongan edi. Biroq, haqiqatga qarshi chiqib bo'lmaydi: mana xazinaning muhri bosilgan cheklari turipti, ularga pul to'lash kerak. Tomni sudyaning o'zi va boshqa saylangan odamlar o'tirgan baland taxta ustiga olib chiqdilar hamda bunday katta yangilikni boshliqlarning o'zlarini ma'lum qildilar. Bu ajoyib, hayron qolarlik bir voqeа edi. So'nggi o'n yil ichida maktab bunday hodisani ko'rмаган edi; buning natijasida vujudga kelgan dahshat shunchalik chuqur ediki, yangi qahramon, mashhur suda bilan baravar yuksaklikka ko'tarilgandek bo'ldi va endi maktab bir hikmat o'rniga ikkitasini birvarakayiga ko'rib turar edi. Bolalarning hammasi rashkdan o'tanar va Tomga devor oqlab yurgan vaqtida to'plagan narsalari badaliga qizil va sarig' biletlarni sotib, bu soxta martabaga o'zlarini yordam bergenliklarini fahmlagan bolalar hammadan ko'proq kuyib-pishar edilar. Bu makkor va aldoqchi ularni osongina ahmoq qilib ketgani uchun o'zlariga-o'zlarini jirkanch va nafrat bilan qarardilar.

Direktor o'ziga xos tantana bilan Tavrotni Tomga topshirdi, biroq uning nutqi unchalik qizg'in chiqmadi: allaqanday notayin bir hissiyat u bechoraga bunda qandaydir bir sir bor va unga balki tegmaslik yaxshiroqdir, deb xabar bergandek bo'lardi. Bu bolaning miyasiga Tavrot suralaridan aqalli o'n ikkitasi ham sig'magani holda, u o'zining miyasida ikki ming bog'Tavrot hikmatlarini to'plaganligi to'g'risida faraz qilish ham to'g'ridan-to'g'ri bema'ni bir narsa bo'lar edi. Emmi Lorens baxt va kibr bilan yashnamoqda

edi. U Tomning nazarini o'ziga qaratish va o'z shodligini unga bildirish uchun butun choralarni ko'rsa hamki, Tom unga qaramas edi. Bu hol Emmi Lorensga qiziq tuyuldi va biroz hayron bo'ldi, so'ngra ko'nglida shubha tug'ildi, shubha tug'ildi-yu, yana tarqadi. Yana yangidan shubha tug'ildi: u tikilib qaray boshladи, juda sinchiklab qarab ko'p narsalarni sezdi va ko'ngli sovudi. U ho'ngrab yig'lar, butun dunyoni va ayniqsa Tomni juda yomon ko'rар hamda Tomni yomon ko'rib qolganiga qattiq ishonar edi.

Tomni sudyaning oldiga olib kirdilar, biroq baxtsiz bola zo'rg'a nafas olar, uning tili tanglayiga yopishib qolgan, qisman bu kishining dahshatli mahobati oldida qo'rqishidan va, asosan, bu kishi o'sha qizning otasi ekanligidan uning yuragi orqasiga tortib ketar edi. Agar shu yer qorong'i bo'lganida, Tom uning oldida tiz cho'kib ta'zim qilishga tayyor edi. Sudya qo'lini Tomning boshiga qo'yib, uni yaxshi bola, deb atadi va otini so'radi. U tutulib qoldi va og'zini ochib, otini aytди:

- Tom.
- Yo'q, Tom emasdir, balki...
- Tomas.

- Ha, Tomas. Men sening biror narsa qo'shishingni bilgan edim. Yaxshi, yaxshi! Harholda sening boshqa oting ham bolsa kerak, sen menga aytasan, to'g'rimi?

Uolters so'zga aralashdi:

- Tomas, sen bu boyvachchaga familiyangni ayt, kattalar bilan gaplashganingda «ser» so'zini qo'shishni unutma. Jamoat orasida o'zingni tuta bilishing kerak.
- Tomas Soyer, ser.
- Balli! Qanday aqli bolasan-a! Juda yaxshi, azamat bola bo'lding, ko'p yasha! Ikki ming suvra – juda ko'p narsa! Sen shuni o'rganishni bo'yningga olganingga hech o'kinmaysan, chunki bilim dunyodagi hamma narsadan afzalroq. Bilim odamning

shuhratini oshiradi va muloyim qiladi. Tomas, sen ham vaqt kelib shuhratli odam bo'lasan va o'sha vaqtda ketingga qayrilib: men bular uchun bolaligimda o'qigan yakshanbalik mактабдан minnatdorman; bular uchun men, mehnatga о'ргатган qимматли ustozlarimdan minnatdorman: bularning hammasi uchun men, chiroyli muqovalik Tavrotni taqdim qilgan, «hamma vaqt yoningda saqla!» deb menga ta'kidlagan, meni qiziqtirgan va menga suyanchiq bo'lgan direktordan minnatdorman; bularning hammasi uchun men, to'g'ri tarbiyalanganidan minnatdorman, – dersan. Sen, Tomas, shu so'zlarni aytarsan va bu ikki ming bayt uchun hech qanday pul ham olmassan! Endi sen menga va bu xonimga о'ргангарингдан biror narsa aytib bera olmaysanmi? Men bilamanki sen aytib berasan, chunki biz o'qishni yaxshi ko'rgan bolalar bilan faxrlanamiz, Sen o'n ikkita sahobaning otlarini bilasan albatta, qani ayt-chi, shulardan dastlabki ikkitasining oti nima?

Tom nimchasining tugmalangan yeridan ushlab, o'zini oldinga tortdi va sudyaga xo'mrayib qaradi; so'ngra qizarib ketib, undan ko'zini oldi. Mister Uoltersning ko'ngli sovudi. Axir, bola eng oddiy so'roqqa ham javob berishga qodir emas-ku, sudyu nima qilib unga savol beradi? Harholda u bunga aralashishni lozim topdi:

– Boyvachehaga javob ber, Tomas, qo'rqma! Tom goh o'ng, goh chap oyog'ini ko'tarib qo'yar edi.

– Menga-ku albatta javob berasan-a, – dedi xonim so'zga aralashib. – Isoning dastlabki ikki shogirdining oti nima edi?...

– David va Goliaf!<sup>7</sup>

Sahnaning shu yeriga alam pardasini tushiramiz.

<sup>7</sup> Haqiqatan esa, Tavrot rivoyatiga ko'ra, David podshoh, Goliaf – polvon ekan. Isoning dastlabki shogirdlarini Tavrot Pyotr va Andrey deb ataydi.

## CHAQAG'ON QO'NG'IZ VA UNING O'LJASI

Soat o'n yarimga yaqinlashganida, kichkina cherkovning darz ketgan qo'ng'irog'i birdan jarangladi va o'sha zamon ertalabki ibodat uchun kishilar yig'ilisha boshladilar. Yakshanba kungi maktab shogirdlari cherkovning burchaklariga joylashib oldilar; ular har qachon kattalarning nazorati ostida bo'lislari uchun o'z ota-onalari o'tirgan kursilarga borib o'tirdilar. Ana, Polli xola ham keldi; Tom, Sid va Meri uchalasi Polli xolaning oldida o'tirdilar. Shuning bilan birga Tomni ochiq deraza yonidan nariroqqa, ya'ni derazadan ko'rinish, uni qiziqtiruchi yozgi manzaralar dan uzoqroq yerga o'tkazdilar. Cherkov sekin-sekin kishilar bilan to'lib bormoqda. Bir zamonlarda yaxshi turmush kechirgan, endi qaribroq qolgan bechora pochta xizmatchisi ham keldi, o'z xotini bilan birga shahar boshlig'i ham kirib keldi, – boshqa foydasiz narsalar qatorida shu kichkina shaharchada shahar boshlig'i bilan sudya ham bor edi; undan keyin Duglas degan beva xotin keldi. Bu xotin qirq yoshlari chamasida juda yaxshi kiyigan, ancha chiroylik, xushmuomala, yaxshi, badavlat xotin edi; uning tepalik ustidagi uyi, oddiy uy emas – saroy, ya'ni shu shaharchadagi birdan-bir saroy edi; shuning bilan birga bu saroy hamma vaqt mehmonlar bilan to'lib-toshar, Sankt-Peterburg maqtana olishga loyiq, katta-katta ziyofatlar o'tkazilib turar edi. Uzoq yerdan shu joyga yaqinda kelgan, aslida o'zi aristokratlardan bo'lgan sud amaldori Riverson va shu yerning atoqli go'zal xonimi, bu xonimning ketidan batis ko'yaklar kiygan, lentalar taqqan bir muncha yosh-yosh qizlar, idoralarda xizmat qiluvchi yosh-yosh yigitlar, xullas, shahardagi yoshlarning hammasi keldilar; ular bezatilgan uyda yarim doira yasab, hamma qizlar o'tib

ketguncha qo'llaridagi konfetlarni shimigan holda kulishib turar edilar. Nihoyat, hammadan keyin Villi Makferson degan odobli bola ham keldi; u o'z onasini shunchalik qo'riqlar ediki, unga go'yo onasi shishadan ishlangan bo'lib, sinib ketayotgandek ko'rinar edi. U hamma vaqt onasini shu tartibda cherkovga olib kelar va boshqa onalar buni juda ma'qul ko'rар edilar. Bolalarning hammasi ham uni juda yomon ko'rishar, ayniqsa, onalari uning odobliliginini misolga keltirishib, har doim ta'na qilishlarini yoqtirmas edilar. Uning orqa cho'ntagidan har qachon, go'yo tasodifiy bo'lgandek, ro'molchaning uchi chiqib turar edi. Tomda esa ro'molcha degan narsa mutlaqo bo'lmas va ro'molchasi bor bolani u olifta, deb hisoblar edi. Cherkov xalq bilan liq to'lgandan keyin kechikkanlarni ogohlantirish uchun yana qo'ng'iroq chaldilar; so'ngra cherkovda ulug'vor sukunat hukm sura boshladi, bu sukunatni xor aytuvchilarning qiqillash va pichirlashlarigina buzar edi. Cherkovdag'i ibodat vaqtida xor aytuvchilar hamisha pichirlashadilar. Men bir cherkovda o'zlarini yaxshi tutadigan xorchilarni ko'rganman, ammo qayerdaligi yodimda yo'q. Bunga ko'p yil bo'ldi, yodimda qolmagan, bu hodisa qayerdadir boshqa mamlakatda bo'lgan edi.

Domla duo kitoblarini ochishni taklif qildi va o'zining shu yerlik odamlarga ma'qul bo'lib qolgan ingichka ohangi bilan duo o'qiy boshladi. U dastlab tovushini o'rtaroq olib, sekin-asta yuqori ko'tara borar, so'nggi so'zini esa qattiqroq tovush bilan aytar edi-da, keyin xuddi mo'm tishlagandek, tovushini pasaytirardi.

*Yaqin do'stim kurash va jafo  
Qo'ynida bo'lsa,  
Nahotki yostansam men  
Gul to'shaklarda!*

Domla juda yaxshi kitobxonlardan hisoblanar edi. Cherkovda o'tkaziladigan kechalarda uning so'zga chiqishini hamisha talab qilar va u so'zlagan vaqtida hamma xotinlar hayajonlanishib, qo'llarini yuqoriga ko'tarishar, keyin esa qo'llarini tizzalari ustiga tu-shirishib, ko'zlarini yuqoriga qaratishar, boshlarini liqillatishar va shu bilan ularning ajablanishlarini hech bir so'z bilan ifoda qilib bo'lmasligini bildirishar edilar. Bu biz uchun, bizning mamlakat uchun – juda go'zallik.

Munojot aytilib bo'lgandan keyin, hurmatli mister Spreg mahalliy gazetaga aylanib, kelgusi mitinglar, majlislar, suhbatlar va boshqalar haqida juda ko'p narsalar o'qidiki, ibodat qilish uchun kelganlar uning munojotlarini qiyomatga qadar cho'zilar, deb o'yladilar...

So'ngra domla ibodat qilishga kirishdi. Bu ibodat yaxshi, keng ma'noli, saxiy, har bir mayda narsani o'z ichiga sig'diruvchi ibodat edi: chunonchi u, shu yerdagи cherkov, uning mayda bolalari, shu shaharchadagi boshqa cherkovlar to'g'risida, shaharchanning o'zi, bizning butun okrug, bizning shtat to'g'risida, shtatimizdagи chinovniklar to'g'risida, Qo'shma Shtatlar to'g'risida, Qo'shma Shtatlardagi cherkovlar to'g'risida, kongress<sup>8</sup> to'g'risida, prezident to'g'risida, ministrlar to'g'risida, dahshatli bo'ronlarda ishlovchi qashshoq dengizchilar to'g'risida, Yevropa monarxiyasi va sharq despotiyasi zulmi ostida ezilgan million-million qullar to'g'risida, Tavrot haqiqati yorug'i bilan oqartirilganlar to'g'risida, ko'rishga ko'zları, eshitishga quloqlari yo'qlar to'g'risida, uzoq dengiz orollaridagi majusiyalar to'g'risida aytilgan bir ibodat edi. Bu duolarning hammasi hozir aytmoqchi bo'lgan so'zlar har narsadan oliv bo'lgan dargohga yetib, unumdor yerga tushgan dondek yaxshi hosildor bo'lg'ay. Omin! – degan duolar bilan tamomlanardi.

<sup>8</sup> Amerika parlamenti.

Shu yerda xotin-qizlar kiyimlarining shaldiragan ovozi eshitildi, cherkovga kelganlar esa o'tirishdi. Kitobimizning shu sahifalarida hayoti tasvir etilayotgan bola, qilinayotgan ibodatlardan juda mamnun emas edi. U qattiq chidash berib, ibodat tamom bo'lishini sabrsizlik bilan kutib o'tirdi. U joyida o'tirolmas edi: u duoning ayrim so'zlariga e'tibor bermasdan, ba'zi bir yerlariga ixtiyorsiz ravishda quloq solib qolardi. Chunki u bu duolarga ko'pdan odatlanib qolgan. Ammo domla, ibodatga biror yangilik kirgizib qolsa, Tomning quloqlari buni darhol sezib olar va uning butun vujudi nafratlanar edi. U ibodatning uzilishini vijdonsizlik va noinsoflik deb hisoblar edi.

Domlaning shunday duo munojotlari o'tasida Tomning diqqatini uning oldidagi kursiga qo'nib o'tirgan bir pashsha o'ziga tortdi. Bu pashsha o'zining harakatlari bilan Tomni og'ir qynoqqa solar, u tinch va osoyishtalik bilan o'zining ingichka oyoqlarini bir-biriga suykar, o'sha oyoqlari bilan boshini ishqar, ishqagandayam shunday g'ayrat va jasorat bilan ishqar ediki, go'yo boshi tanasidan ajralib chiqqandek bo'lar, bo'ynining ingichka ipi ko'rinar edi. Keyingi oyoqlari bilan qanotlarini silar va o'zining butun shu tariqa bezanishlarini hech bir shoshmasdan tinchgina, go'yo o'zi uchun qo'rqinchli hech bir narsa yo'qligiga ishongandek, bemalollik bilan bajarar edi. Chindan ham, uning uchun qo'rqinchli hech narsa yo'q edi, garchi bu pashshani tutib olish uchun Tomning qo'li qichisa ham, lekin u hozir, ibodat vaqtida bunday ishga jur'at qilolmas edi, basharti u bu ishni qilsa, abadiy gunohkor bo'lib, o'z joniga jabr qilgan bo'lar edi. Biroq, domla duosini o'qib bo'layozgan vaqtida Tomning qo'li o'z-o'zidan oldinga cho'zildi-da, domla «omin» deyishi bilan pashsha uning qo'liga ilindi. Biroq xolasi uning bu qiligini payqab qolib, tezdan pashshani qo'yib yuborishga majbur etdi.

Domla Tavrotdan bir parchani o'qib bo'lib, gulduragan va bir tekis tovushi bilan va'z boshladi. Uning ovozi shunday zeriktirarlik ediki, hademay ko'p kishi mudray boshladi. Va'zchi esa gunohkorlarga berilajak azoblarni so'zlab qo'rqitar, abadiy rohat o'rirlari tayyorlanib qo'yilgan gunohsiz kishilarning sonlarini esa juda kam ko'rsatar ediki, uning so'zicha, bir hovuchgina keladigan gunohsiz kishilarni qutqarish uchun ovora bo'lish ham arzimaydi, degan natijani chiqarish mumkin edi.

Tom, va'z kitobining sahifalarini sanab chiqdi; u va'z kitobining betlarini doim sanab chiqishga ulgura olsa ham, va'zning o'zini yodida saqlab qololmas edi. Biroq bu safar uning ma'nolaridan ham ba'zi narsalar uni qiziqtira boshladi. Domla, odamni larzaga keltiradigan buyuk bir manzarani – dunyodan o'tgan barcha kishilar mahshargohga yig'ilajagini, yo'llbars esa qo'zichoqning oldiga borib yotajagini va go'dak bir bola ularni olg'a yetaklab ketishini tasvir qildi. Bu manzaraning jonlanishi va axloqi Tomni hech bir hayajonlantirmas edi. Tomni faqat butun yer yuzi xalqi oldida o'sha bolaning hissasiga tushgan muhim rol hayron qoldirardi: uning ko'zları chaqnab ketdi va bu yo'llbars qo'lga o'rgangan bo'lsa, o'sha bola rolini o'ynashga tayyorligini bildirar edi. Biroq bu yerda safsatalar ko'payib, Tomning qayg'usi yana yangilandi.

Birdan u o'z cho'ntagida qandaydir bir xazina borligini esiga tushirdi-da, darrov uni cho'ntagidan olishga shoshildi. Bu – katta, jag'lari baquvvat, Tomning aytishicha «chaqag'on qora qo'ng'iz» edi. Qo'ng'iz bir piston qutichasiga berkitib qo'yilgan. Tom qutichani ochishi bilanoq qo'ng'iz daf'atan uning qo'lini chaqib oldi. O'z-o'zidan ma'lumki, bola darrov qo'ng'izni bir tomonga irg'itib, u chaqib olgan barmog'ini og'ziga soldi. Qo'ng'iz chalqanchasiga yerga tushib qolib, ag'darilolmay, tipirchilab yotar edi. Tom

unga tikilib qarab turar va uni qaytib olgusi kelar edi. Lekin qo'ng'iz ancha olis yerda bo'lib, unga bo'yи yetmas edi. Bu qo'ng'iz ibodat so'zlari va nasihatlarga qiziqmagan ko'pgina kishilar uchun ancha ermak bo'ldi; ular qo'ng'izning yotgan joydan turib olish uchun ag'darilishga urinayotganini butun diqqatlari bilan kuzatib turar edilar.

Shu vaqt cherkov ichida tasodifiy ravishda kichkina it – pubel adashib kirib qoldi. U yozning issiq havosidan entikib yolg'iz o'zi qamoqqa yotverganidan zerikib, har xil qiziq narsalarni ko'rgisi va yangi taassurotlarni olgisi kelardi. Uning ko'zi qo'ng'izga tushdi. Xafachiligidan osiltirib, sudrab yurgan dumini tezda ko'tarib, likillata boshladi. U o'z oldidagi bu o'ljaning atrofiga aylanib, olisdan iskab, uzoq vaqt tikilib turdi; keyin dadillik bilan yaqinroq keldi-da, og'zini ochib qo'ng'izni tishlab olmoqci bo'ldi, uddasidan chiqolmadi, yana ikkinchi marta, uchinchi marta ham shunday bo'ldi. Bu ish, aftidan unga ma'qul bo'lib qoldi shekilli, qorni bilan yerga yotib oldi. Qo'ng'iz uning oyoqlari orasida qoldi; it boyagiday harakatlari davom ettirdi, bo'lmasdi. Keyin u o'zining bu ishidan zerikdi-da, erinchakligi tutib, mudray boshladi. Uning boshi sekin-asta yerga engasib, iyagi qo'ng'izga tegib ketdi, qo'ng'iz uni chaqib oldi. Pubel angillab, boshini silkitgan edi, qo'ng'iz undan ikki qadam nariroqqa borib yana chalqanchasiga tushib qoldi. Yaqin o'rtada o'tirganlar buni ko'rib, kulgilarini ichlariga sig'dirolmay o'tirar edilar. Ko'plari esa iljaygan yuzlarini yelpig'ich va ro'molcha bilan bekitib olgan edilar. Tom bundan benihoyat mammun va xursand edi.

Pubelning ko'rinishi anqovroq edi, – aftidan u o'zining ahmoq bo'lib qolganini o'zi ham sezgan bo'lsa kerak, – shunday bo'lsa ham uning yuragida keki bor va o'ch olishni istar edi. Shuning uichun u sekin-asta

qo'ng'izning yoniga kelib, ehtiyotlik bilan unga hamla qila boshladi. Goh u, goh bu tomondan qo'ng'izning ustiga tashlanar, shunda uning oldingi oyoqlari qo'ng'izga tegay-tegay der, ba'zan uning atrofida yurib tishlarini shaqillatar, boshini qimirlatganida, qulog'lari shalpillar edi. Nihoyat uni bu ish ham zeriktirdi; u oldida uchib yurgan pashshalar bilan shug'ullanib ko'rmoqchi bo'lgan edi, lekin bu ham uni uncha qiziqtirmadi. Tumshug'ini yerga tegizay-tegizay deb, birdan yurib ko'rdi, lekin ko'p o'tmay bundan ham zerkdi; bir-ikki marta esnab, ijirg'anib, og'ir nafas oldida, qo'ng'izni butunlay esdan chiqarib yuborib, uning ustiga o'tirib oldi. Shu vaqt ajoyib bir hodisa yuz berdi. Pudel jonining boricha akillab cherkov ichida yugura boshladi. Xuddi mehrobning oldidan yugurib o'tib, eshikka chopdi, akillab vovullashdan bir nafas to'xtamay, eshik oldidan yana orqasiga yugurdi. Chunki, qo'ng'iz uning qornidan mahkam tishlab olganicha, jag'larini bo'shatmay yopishib yotar edi. U qancha ko'p urinib yugursa, qornining og'rig'i shuncha kuchayar edi, natijada it hech tinmay aylana berishidan junlari hurpayib, misli ko'rilmagan sur'at bilan uchib yuruvchi bir quyruqli yulduzga aylangan edi. Ish shuning bilan tugadiki, aqldan ozgan it jon achchig'ida o'zini bir tomonga tashlab, o'z xo'jayining tizzasiga borib yiqildi, xo'jayini bo'lsa, uni dera-zadan tashqariga otib yuborgan edi, uning angillagan ovozi sekin-asta uzoqlashib borib, keyin o'chdi.

Cherkovdagilarning hammasi qizarishib, o'zlarini qah-qahlashdan zo'rg'a tiyib qolgan edilar. Hatto domla ham o'qiyotgan duolaridan yanglishib ketgan; garchi u o'z so'zlarini o'sha ondayoq tuzatib olgan bo'lsa ham, endi uning so'zlari avvalgidek silliq eshitilmas, damba-dam tutilib qolar, o'z so'zlarining kishilarga ta'sir etishiga ishonchsizlik sezib turar edi. Tinglovchilar bo'lsa uning eng jiddiy va ta'sirli so'zla-

rini ham kursi orqasidan turib, biror qiziqchilik so'z eshitayotgandek kulumisirab tinglab o'tirar edilar.

Nihoyat, shunday qiyin holatlar tamom bo'lib, va'z so'zlari tugab, «omin» deyilar ekan, o'tirganlarning hammasi, bir og'ir ishdan qutulgandek chehralari ochilib, bir xo'rsinib qo'ydilar.

Tom Soyer shod va mammun holda uyiga qaytib kelar ekan: «Agar ibodat vaqtida biror qiziq yangilik kirgizib turilsa, ba'zan cherkov ibodati ham uncha ko'ngilsiz bo'lmas ekan», deb o'ylar edi. Faqat uning shodligi orasida bir narsa qora dog'dek bo'lib, uni xafa qilib turar, u ham bo'lsa qo'ng'izning yo'qolishi edi. Itning «chaqag'on qo'ng'iz» bilan o'ynashganiga qarshiligi yo'q, lekin qo'ng'izni o'zi bilan birga olib ketgani nimasi? Itning bu ishi albatta insofdan emas edi.

## OLTINCHI BOB

### TOM BEKKI BILAN TANISHADI

Tom Soyer, dushanba kuni ertalab uyqudan uyg'onarkan, o'zini juda baxtsiz his qildi. Har bir dushanba kuni erta bilan uning ahvoli hamisha shunday bo'lar, chunki uning maktabda kechiradigan azob-uqubatlari haftasi shu dushanba kunidan boshlanar edi. U hatto kechagi kunning bayram bo'lganligi uchun ham achinar, chunki ozodlikda yurgandan keyin, yana erksizlikka duchor bo'lish undan ham og'irroq edi.

Tom o'ylanib yotardi. Birdan unga o'zini kasallikka solish va shuning bilan maktabga bormay, uyda qolish istagi ma'qul tushdi. Chindan ham bu oljanob ish bo'lar edi-da! U o'z vujudini tekshirib ko'rди. Hech bir yeri og'rimaydi va u o'z tanasining turli yerlarini yana bir qayta qo'li bilan ushlab ko'rди.

Unga qorni sanchib og'riyotgandek tuyuldi va keyinroq bu og'riq kuchayib ketar, degan umid bilan juda sevingan edi. Biroq, aksincha, qornining og'rig'i pasayib, sekin-asta butunlay yo'qolib ketdi. Tom yana o'ya botib turar ekan, birdan tishining qimirlab qolgani esiga tushdi. Bu uning uchun juda qulay bir narsa bo'lib chiqdi, va u endi ingramoqchi bo'lgan edi. Birdan esiga shunday narsa kelib qoldi, agar tishim, deb og'zimni ochdim degunimcha, xolam darhol tishimni sug'urib olib tashlaydi, bu esa juda alamli bo'lar, deb o'yladi. Shuning uchun u tish og'rig'ini bir tomonga qo'yib turib, boshqa biror hiyla topishga urinmoqchi bo'ldi. Biroz vaqt hech narsa o'ylab topolmay turdi. Keyin u, bir kishining ikki-uch hafta kasal bo'lib yotgani va unda barmog'idan ajralish xavfi tug'ilgani to'g'risida bir doktorning qilgan hikoyasini esladi. Bola darhol ko'rpaning ostidan oyog'ini chiqarib, bosh barmog'ini tekshirib ko'ra boshladi. Lekin u o'sha kasalning qanday belgilari bo'lishini bilmas edi. Shunday bo'lsa ham bir sinab ko'rsam zarar qilmas, deb o'zidan-o'zi ingray boshladi.

Sid uyg'onmay yotar edi.

Tom qattiqroq baqirishga tutindi va unga endi chindan ham barmog'i og'riy boshlagandek tuyuldi.

Sid esa hech qimirlamay uxbay yotardi.

Tom baqiraverib, hansirab qoldi. U biroz damini olib nafasini rostlagandan keyin, bir necha marta juda g'alati qilib baqirdi.

Sid xurrak otishdan to'xtamasdi.

Sidning uyg'onmay yotishi Tomning jahlini chiqardi. U bir-ikki marta «Sid! Sid!» deb chaqirib, ukasining yelkasidan ushlab silkib qo'ydi. Tom yana qattiqroq ingray boshladi. Sid bir esnadi, kerishib olgandan keyin tirsagi bilan suyanib turdi-da, burnini torta-torta Tomga tikilib qarab qoldi. Tom ingrashida davom etar edi. Sid unga qarab:

- Tom! Menga qara! Tom! – dedi. Javob bo'lmadi.
- Eshitayapsanmi, Tom? Tom senga nima bo'ldi, Tom?

Sid ham akasining yuziga tikilib qarab, uning yelkasidan ushlab silkib qo'ydi.

Tom qattiq ingrab:

- Qo'y, Sid! Menga tegma! – dedi.
- Senga nima bo'ldi, Tom? Men hozir xolamni chaqiraman.

– Yo'q, kerak emas, chaqirma. Balki bu kasal o'zidan-o'zi tuzalib ketar. Hech kimni chaqirma, kerak emas.

– Yo'q, yo'q, albatta chaqirishim kerak. Buncha ingramasangchi! Qanday yomon bu! Ko'pdan beri og'riydimi?

– Bir necha soat bo'ldi. Voy! Xudo xayr bersin, Sid, menga ko'p qattiq tegma! Sen meni o'ldirib qo'yasan.

– Nega meni oldinroq uyg'otmading, Tom? Unday ingrama, jonim! Sening ingrashindan badanlarim muz bo'lib ketayotir. Qayering og'riydi?

– Sid, men barcha gunohlaringni kechirdim!.. (Ingraydi). Sen mening oldimda har qanday ishga aybli bo'sang ham, men hammasini kechirdim. Men o'lganimdan keyin...

– Hoy, Tom, nahotki sen o'lib ketsang? Tom jonim, o'lma... Qo'y, kerak emas, balki...

– Sid, men hammaning gunohini kechirdim (Ingraydi). Sen shuni ularga yetkiz. Mening deraza ramkam bilan bir ko'zlik mushuk bolamni bo'lsa, ana shu shaharga yaqinda kelgan qizga ber va unga aytginki...

Biroq, Sid shu vaqt chalvorini qo'liga olib yugurganicha ketdi: Tom endi chinakamiga kasal bo'lgan, uning kallasi astoydil ishlar va uning ingrashlari ham juda tabiiy, kasal kishining tovushidek eshitilar edi.

Sid zinapovadan yugurib tushib borar ekan:

- Xola, Polli xola, tezroq keling! Tom o'lay deb yotipti, - deb baqirdi.
- O'lay deb yotipti, deysanmi?
- Ha, ha, nimaga qarab turasiz? Tezroq yursangizchi!
- Behuda gap! Ishonmayman!

Ammo shunday bo'lsa ham, u shoshilganicha yuqoriga qarab Yugura boshladi, Sid bilan Meri esa uning orqasidan chopishib bordilar. Polli xolaning ranglari o'chib ketgan, lablari qaltirab turar edi. U Tomning to'shagi yoniga yetib borar ekan:

- Tom bolam, senga nima bo'ldi? - degan so'zlar og'zidan zo'rg'a chiqdi.

- Oh xola, men...

- Nima bo'ldi, nima bo'ldi, bolam?

- Oh xola, barmog'imning ichi o't bo'lib yonayotir!

Polli xola stulga o'zini tashlab kulib yubordi, keyin yig'ladi, keyin yana kulib, yana yig'ladi. Kampirning bu qilgani uning yuragini ancha bo'shashtirdi, keyin u:

- Tom, meni juda ham qo'rqtib yubording-ku! Qani, endi bunday jinniliklariningni yig'ishtirib qo'yib, o'rningdan tur! - dedi.

Tomning ingragan tovushlari bir damda jimib, barmog'inining og'rig'i ham o'sha ondayoq to'xtadi. Bola biroz xijolat bo'lib:

- Polli xola, bu barmog'im butunlay jonsizlanib qolgandek bo'ldi, u shunday og'ridiki, hatto tishimning og'rig'ini ham unutib yubordim, - dedi.

- Ana, buni ko'ringlar-a! Xo'sh, sening tishingga nima bo'ldi?

- Tishimning bittasi qimirlab qolgan va shunday og'riyidiki, chidab bo'lmaydi.

- Ha, bas endi, bo'lmasa yana ingray boshlarsan. Qani og'zingni och-chi! Ha, tishing chindan ham qimirlab qolgan ekan, biroq bu bilan odam o'lmaydi-ku. Meri, menga bir qatim ipak bilan oshxonadan chala yongan kosovni keltirib ber.

– Jon xola, qo'ying, kerak emas, u endi og'rimaydi. Agar yana og'risa ham men hech ingramayman, hatto og'riganini ham bildirmayman, xolajon, qo'ying, unday qilmang, men uyda qamalib o'tirishni xohlamayman, men maktabga boraman...

– Ha, ha, shunday degin! Sen bu hiylalarining hammasini, maktabga bormay, o'qish o'rniga baliq ovlab yurish uchun o'ylab chiqargan ekansan-da! Oh, Tom, men seni shuncha yaxshi ko'raman-u, sen bo'sang doim shunday yaramas ishlarni qilib, meni ranjitib yurasan.

Shu orada tish sug'urish asboblarini ham olib keldilar. Polli xola ipning bir uchini sirtmoq qilib bog'ladi-da, uni Tomning og'rigan tishiga solib, ipning bir uchini bo'lsa karavotning temiriga bog'lab qo'ydi. Keyin, yonib turgan kosovni olib, uni Tomning basharasiga qarab turtmoqchi bo'lgan-da, Tom boshini bir silkib, tortib yuborgan edi, uning tishi sug'urilib chiqib, karavotga bog'langan ipda osilib qoldi.

Kishining har bir tortgan qiyinchiligi qanday bo'lsa ham mukofotlanmay qolmaydi. Tom nonushtani qilib maktabga kelganida hamma o'rtoqlari unga suqlanib qaray boshladilar, chunki uning yuqoridagi qator tishlari orasida bo'sh qolgan yeri unga juda yangi va bugungacha hech ko'rilmagan usulda tupurishga imkoniyat berardi. Uning bu ahvoliga qiziqqan bolalar orqasidan talashib ergashib yurar edilar. Bundan ilgari bolalardan biri barmog'ini pichoq bilan kesib olib, uning bilan barcha bolalarning hurmat va diqqatini o'ziga tortib yurar edi, bolalar Tomning tishini ko'rghanlaridan keyin, unga qaramay qo'ydilar. Bu bilan u o'z ixlosmandlarini yo'qotdi, uning shuhrati so'ndi. Shu sababli u ancha xafa bo'ldi va Tomga istehzo bilan qarab: «Tom Soyerning bunday tupurishi hech gap emas, uni har kim ham qila oladi» – dedi; boshqa bir bola esa «Yoshsiz, hali

g'o'rasiz», deb qo'ydi. Shundan keyin bolaning ancha shaxti qaytib, bularning oldidan nari ketdi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, Tom shaharda hammaga mashhur bo'lgan bir araqxo'rning o'g'li – Geklberri Fin degan bola bilan uchrashdi. Shahardagi hamma bolalarning onalari Geklberrini chin ko'ngillaridan yomon ko'rар, lekin shu bilan birga, undan juda qo'rqar edilar, chunki u juda yalqov, yaramas, ax-loqsiz bola bo'lib, hech qanday tartib va qonunlarga bo'ysunmas edi. Yana shuning uchun qo'rqar edilar-ki, bolalarning hammasi ham undan o'zlarini olib qochmas, garchi taqiq qilingan bo'lsa-da, u bilan o'ynashni, birga bo'lishni sevar va hamma narsada unga ergashmoqchi bo'lar edilar. Tom «yaxshi xo-nadonlardan» chiqqan bolalardek, kuni bo'yi hech bir ish qilmay yuradigan bu bolaga qiziqib qarar edi. Bu chuvrindi bola bilan o'ynash Tomga ham qattiq man qilingan edi. Albatta, xuddi shuning uchun, Tom ham bu bola bilan biroz o'ynab olish yo'lida har bir to'g'ri kelgan paytdan foydalanib qolishga tirishar edi. Geklberri kattalarning egnidan tushgan eski-tus-ki uvadalarni kiyib yurar edi. Yilning har qanday mavsumida ham uning kiyimi har xil dog'lar bilan qoplanib, uvadalari osilib yurar, boshidagi qalpog'i ham go'yo nuragan chordevorga o'xshar, qalpog'inинг bir parcha yirtiq yeri xuddi yarim oy singari pastki tomonga cho'zilib tushgan edi. Ustdagi kamzuli birovning eskisi bo'lgani uchun etagi tovonlariga tegib yurar, uning orqa tomondagi, beldan yuqori yerdagi tugmalari esa belidan ancha pastda turar, chalvori bittagina ip bilan yelkasiga tortib qo'yilgan, orqa tomoni esa shalpillab osilib yotar, pastki pochalari titilib ketgan va loyda sudralib yurar edi. Geklberri qayerni xohlasa, shu yerda daydib yuruvchi erkin bir qushchcha edi. Havo ochiq vaqtarda u har qayerda, eshik ostonalarida tunab qolar, yog'ingarlik vaqt-

larda esa bo'sh bochkalar ichiga kirib yotardi. Uni hech kim maktabga va cherkovga borishga majbur etmasdi. Uning bo'ysunadigan kishisi, ya'ni tepe-sidan xo'jayinlik qiluvchi kishisi yo'q. U xohlagan vaqtida va xohlagan yerida baliq ovlab yoki cho'milib yurar va suv ichida ham xohlaganicha o'tira berar edi. Birov bilan mushtlashishni ham unga hech kim man qilmasdi. Uxlashga ham xohlagan vaqtida, hatto yarim kechadan keyin ham borib yota berardi. Ko'klam bo'lsa, u boshqa bolalarning hammasidan oldin yalangoyoq yura boshlar, kuzda esa oyoqlariga hammadan keyin etik kiyar edi. U yuz-qo'llarini yuvishni va toza kiyim-bosh kiyishni hech o'ylamasdi. So'kishishga kelganda esa, u juda usta edi. Xullas, bu bola hayotga shodlik kiritadigan xususiyatlarning hammasini egallagan edi... Sankt-Peterburgning «yaxshi uylari»da «yaxshi tarbiya» olgan va o'z erklari bilan yura olmaydigan bolalarning hammasi shunday deb o'ylar edilar. Tom haligi romantik daydi bolaga salom berib:

- Hoy, Geklberri! Beri kel! – deb chaqirdi.
- Ishing bo'lsa o'zing kelaqol...
- Qo'lingdagi nima?
- O'lgan mushuk.
- Qani, Gek, menga ber, bir ko'ray! Juda qotirib qo'yibsanku. Qayerdan topding buni?
- Bir boladan sotib oldim...
- Nima berding?
- Bitta ko'k bilet bilan qushxonadan o'g'irlab olgan ho'kizning pufagini berib oldim...
- Ko'k biletni qayerdan olding?
- Bundan ikki hafta ilgari Ben Rojersdan bir qam-chi berib olganman.
- Menga qara, Gek, bu o'lgan mushuging nimaga yaraydi?
- Nimaga yaraydi, deysanmi? So'galni yo'qotadi.

- Rostdanmi? Men uning bundan ko'ra yaxshiroq dorisini bilaman.
- Bundan yaxshi dorisi yo'qligiga garov bog'-lashaman, sening aytganing qanday narsa?
- Sasigan suv.
- Sasigan suvmi? Sen aytgan sasigan suv hech narsaga yaramaydi.
- Hech narsaga yaramaydi? Sen uni so'gallarni yo'qotish yo'lida ishlatib ko'rganmisan?
- Ishlatib ko'rgan emasman. Bob Tanner buni sinab ko'rgan.
- Sen buni qayerdan bilasan?
- U buni Jef Techerga aytgan. Jef Jonni Bekkerga aytgan. Jonni Jim Xolmsga aytgan. Jim Ben Rojersga aytgan. Ben bir negrga aytgan. Negr esa menga kelib aytdi. Shuning uchun men buni bilaman.
- Xo'sh, nima bo'pti? Ular hammasi yolg'onni juda boplaydilar. Faqat sen aytgan negrni bilmayman. Biroq negrlarning ham yolg'on so'zlamaydiganlarini men shu vaqtgacha ko'rgan emasman. Bularning hammasi quruq safsata! Gek, sen menga ayt-chi, Bob Tanner so'gallarni qanday qilib yo'qotdi?
- Ortiqcha bir ish qilgani yo'q. Daraxtning chirik, kovak bo'lib qolgan yerida to'planib qolgan yomg'ir suviga qo'llini tinqib olgan, xolos.
- Kuppa-kunduz kuni-ya?
- Albatta.
- O'sha daraxt to'nkasiga qarab turib-a?
- Ha, shunday. Boshqacha iloji bo'larmidi?
- Shunday qilayotganida, u biror narsa deb so'z-laganmi?
- Hech narsa demagan bo'lsa kerak... Bunisini men qaydan bilayin?
- Ha, ha. Sen hali bir ishni yaxshilab udda qila olmaysan-u, yana shu sasigan suv bilan so'gallarni yo'qotmoqchi bo'lib yurasanmi? O'z-o'zidan ma'lumki, bunday aqlsizlikdan hech qanday natija chiqmay-

di. Buning uchun kishi yolg'iz o'zi eng qalin o'rmon orasiga borib, shunday sasigan suv bor daraxtni mo'ljallab kelishi, so'ngra xuddi yarim kechada o'sha daraxt yoniga borib unga orqasini o'girib turib, qo'llarini o'sha daraxt kavagidagi suvga tiqishi va qo'llarini suvga tiqqan vaqtida:

*Arpa – don, arpa – don,  
To'kilib un bo'l,  
Sassiq suv, sassiq suv,  
So'gallarni yuv!*

deb aytishi kerak. Shundan keyin darhol ko'zlarini yumib, o'sha daraxt yonidan o'n bir qadam nariga borishi, keyin uch marta to'xtab, orqasiga burilib qarashi va yo'lda hech kim bilan so'zlashmasdan uyga qaytishi kerak. Agar shunda og'zingdan biror kalima so'z chiqarsang, qilgan hamma ishlaring bekor bo'ladi.

– To'g'ri, bu aytganlaring chinga o'xshaydi, faqat Bob Tanner buni boshqacha usul bilan qilar edi.

– Albatta, u o'z bilganicha qilib yurgandir! Sharimizdagি hamma bolalarning ichida uning so'gali ko'proq. Agar u so'galni sassiq suv bilan yo'qotish yo'lini bilganida, uning so'galidan birorta ham qolmas edi. Shunday yo'l bilan men o'zim ham mingtachasini yo'q qilib yubordim. So'gallar menda juda ko'p edi, chunki men ko'p vaqt qurbaqalarni o'ynar edim. Ba'zan men so'gallarni no'xat poyalari bilan yo'qotardim.

– Ha, bu yaxshi dori. O'zim ham uni qilib ko'rganman.

– Qanday qilib?

– No'xat poyasini olib, ikki bo'lakka ajratasan. Keyin bir tomchi qon olish uchun so'galingni pichoq bilan kesasan va shu qon bilan no'xat poyasining yarmini qonlab, so'ngra chuqur kavlab shuni yerga ko'masan... Yarim kechada, ko'kda oy bo'lмаган

vaqtda yo'lning ayrilish joyiga ko'masan... Ikkinci yarmini esa kuydirib tashlaysan. Shunday qilsang qonli birinchi poya o'ziga poyaning ikkinchi yarmini tortadi. Shu orada qon so'galni o'ziga tortadi va so'gal darrov yo'qoladi.

– To'g'ri aytasan Gek, to'g'ri, agar sen qonlangan poyani yerga ko'mayotib, «poya yerga kirsin, so'gal yo'qolsin, bundan keyin meni qiy namas» degan so'zlarni aytsang, yanada yaxshiroq bo'lar edi. Shunday qilsang, tezroq yo'qoladi. Jo Garper so'gallarni shunday yo'qotadi, u juda tajribali, ko'pni ko'r gan kishi... Xo'sh, o'lik mushuk bilan so'galni sen qanday qilib yo'qotasan?

– Mana bunday. Mushukni olib yarim kechaga yaqinlashganda qabristonga bor, unda bir badjahl kishi ko'milgan yerni top, yarim kecha bo'lganda o'sha yerga shayton keladi, balki ulardan ikkita-uchtasi ham kelishi mumkin, biroq ular sening ko'zingga ko'r inmaydilar, sen faqat shamol sharpasidek tovush eshitasan, balki ularning o'zaro so'zlashganlarini ham eshitarsan. Shunday qilib, ular o'likni olib keta boshlaganlarida, sen qo'lingdagi o'lik mushukni ularning orqasidan otib: «Shayton o'likning orqasidan, mushuk shaytonning orqasidan ketdilar, so'gallar ham endi mushukning orqasidan ketsinlar, ular menga kerak emas!» deysan. Shunday qilsang, so'gallaring bitta qolmay to'kilib ketadi.

– Bu so'zlarining chinga o'xshaydi, Gek, sen o'zing buni qilib ko'r ganmisan?

– Yo'q. Buni menga Gopkins degan qari xolam aytib bergen edi.

– Unday bo'lsa bu to'g'ri gap. Gopkins xolani jodugar deb so'zlaydilar-ku.

– So'zlaganlari nimasi! Men o'zim buni yaxshi bilaman. U mening otamni ham shunday qilib ishdan chiqardi. Otamning o'zi menga aytib bergen. Bir kuni

**otam kelayotsa, o'sha kampir otamga qarab «sehr qilayotgan» emish.** Otam yerdan bir katta tosh olib **unga otgan ekan, u o'zini zo'rg'a chetga olib qolgan.** **Xuddi o'sha kuni kechasi otam ayvonchaning tomi ustiga chiqib, mast holda uxbab yotgan yeridan yumalab ketib, qo'lini sindirib olgan.**

– Juda qiziq gaplar-al! Xo'sh, uning «sehrlayotgani-ni» otang qanday bilgan?

– Nega bilmasin! Otam: jodugarning sehrlashini **bilish hech gap emas, dedi.** Otam shunday deydi: **agar kimki senga qattiq tikilib qarasa va o'zicha nimalarnidir so'zlab, ming'illab tursa, albatta o'sha kishi sehr qilayotgan bo'ladi.** Chunki jodugarning **ming'illab so'zlayotgani – duolarni teskari o'qiyotgani bo'ladi, tushundingmi?**

– Menga qara, Gek, sen o'z mushuging bilan qachon tajriba qilib ko'rmoqchisan?

– Bugun kechasi. Fikrimcha, Vilyams cholning o'ligiga shu kechasi albatta shaytonlar kelishsa kerak.

– Gek, uni shanba kuni ko'mganlar-ku. Uni o'sha shanba kuni kechasiyoq olib qochib ketgan bo'lalar kerak.

– Nimalar deb valdirayapsan, axir! Yarim kecha bo'lmay turib, ular qanday qilib uni olib ketsinlar? Yarim kechadan keyin esa yakshanba kuni bo'ldi. Shaytonlarning yakshanba kunlari yer yuzida erkin yurganliklarini men shu vaqtgacha eshitgan emasman.

– To'g'ri aytasan. Bu haqda men o'ylamaganman. Meni o'zing bilan olib borasanmi?

– Agar qo'rmasang, albatta olib boraman.

– Qo'rkar edimmi! Gapingni qara-ya! Sen de razanaling ostiga kelib miyovlaysanmi?

– Ha, men miyovlayman... Agar chiqolsang sen ham menga javoban miyovlab qo'y. O'tgan safar shunday qilib, mening qancha vaqtimni olding. Men

o'sha kuni miyovlayverib charchadim, oxiri Geys degan chol chiqib, menga tosh otib: «Balog'a yo'liqinda shu mushuk!» – dedi. Men uning shu qilgan ishi uchun deraza oynasini g'isht bilan urib sindirdim, faqat buni hech kimga aytma.

– Xo'p bo'ladi. O'sha kechasi men hech miyovlay olmadim, chunki xolam hamma vaqt mening orqamdan poylab yurdi. Bugun esa albatta miyovlayman. Menga qara, Gek, u qo'lingdagi nima?

– Yo'q, hech narsa emas, anchayin kana.

– Qayerdan olding uni?

– O'rmondan topib oldim.

– Qanchaga berasan?

– Bilmadim. Men uni sotmoqchi emasman.

– O'zing bilasan. Kanang ham kichkinagina ekan.

– Bo'lmasa-chi! Birovning narsasini hamma vaqt yomonlab yerga urmoqchi bo'ladilar-da! Menga esa shuning o'zi yaxshi.

– O'rmonda bunday kanalardan mingta desang ham topiladi. Agar men istasam, bulardan allaqanchasini topar edim.

– Xo'sh, bo'lmasa nega bormaysan? Ha, ha. Bu ish qo'lingdan kelmasligiga aqling yetadi-da. Senga aytsam, qo'limdagi kana bu yilgi kanalarning ichida eng erta yetilgani.

– Menga qara, Gek, sen menga shu kanangni bersang, men senga o'zimning tishimni beraman.

– Qani, ko'rayinchi.

Tom qo'ynidan qog'ozga o'ralgan bir narsani olib, sekin-asta ochdi. Geklberri tishni diqqat bilan ko'zdan kechirdi. U bunga juda ortiq darajada qiziqib qolgan edi. Nihoyat, u Tomga qarab:

– Bu chinakam tishmi? – deb so'radi.

Tom ustki labini ko'tarib, tishi tushgan bo'sh o'rinni ko'rsatdi.

– Bo'ldi, bo'ldi, – dedi Geklberri. – Qani, bor baraka.

Tom kanani olib, qo'ng'iz saqlagan piston qutichasiga solib qo'ydi va ikkalasi ham qilgan ishlaridan xursand bo'lishib, bir-birlaridan ajralishdi.

Tom, maktab joylashgan kichkinagini yog'och uyg'a yaqinlashib borar ekan, darsga insof bilan oshiqib kelayotgan bolalardek, shoshilganicha binoning ichiga kirib, boshidagi qalpog'ini mixga ilib qo'ydi-da, ishi tiqilinch kishilardek kursiga o'tirdi. Eskirib, kishi o'tiradigan yerlari yorilib ketgan baland o'rindiqda o'tirgan muallim, bolalarning darsni takrorlab g'o'ng'iflashgan tovushlari ichida tinchlanib, mudramoqda edi. Tomning kirishi uni uyg'otib yubordi.

– Tomas Soyer! – dedi u.

Muallimi uning ismi va laqabini to'la aytganida, bundan yaxshilik chiqmasligini yaxshi anglandi.

– Labbay, ser! – deb javob berdi Tom.

– Buyoqqa kel! Qani, ser, bugun yana nima uchun kechikib keldingiz?

Tom biror yolg'on gap to'qimoqchi edi, lekin xuddi shu vaqt ko'ziga, o'rilgan uzun sariq sochlarni chalindi. U bu sochlarni sevgi-muhabbat o'tlari tufayli darhol tanib oldi. U sinfning qizlar o'tirgan yarim bo'lagida faqat o'sha qizning yonidagi joyning bo'sh ekanini ko'rди-da, birdan:

– Men yo'lda Geklberri Finn bilan biroz so'zlashib qoldim, – deb javob berdi.

Muallim bo'g'ilib ketdi: u o'zini yo'qotib qo'yib, Tomga g'azab bilan tikilar edi. Bolalarning g'ovur-g'uvurlari tindi. Ular bir-birlaridan: «Bu bola jinni bo'ldimi, nega shunday deb javob beradi?» – deb so'radilar. Piravordida muallim so'zga kirishib:

– Sen... sen nima ish qildim, deding? – deb so'radi.

– Men yo'lda to'xtab, Geklberri Finn bilan biroz gaplashdim.

– Tomas Soyer, sening bu tariqa javob berishing kishini hayron qoldiradi va men bunday javobni

umrimda birinchi marta eshitishim. Bunday orsizlarcha jasorat qilganing uchun, seni jazvar taxta bilan urish kifoya qilmaydi. Qani, nimchangni yech!

Muallim qo'llari charchaguncha urdi-da, keyin:

– Endi, ser, borib qizlar bilan birga o'tir! Bu kaltak sen uchun saboq bo'lsin, – dedi.

Sinf ichidagi bolalarning hiring-hiring qilib kulisshislari uni ancha uyaltirdi. Haqiqatda esa bu his unda boshqa, katta sabablar tufayli tug'ilgan edi. Tom qarag'ay kursining bir chekkasiga borib o'tirdi.

Qiz boshini bir silkib qo'ydi-da, undan nariroqqa siljib o'tirdi. Ro'parasidagi bolalarning hammasi bir-birlariga ko'z qisishib, shivirlashardilar. Ammo Tom esa pastak uzun partaga suyanganicha tinchgina, odob bilan kitobini o'qiy boshladи. Sinfdagи bolalar ham uning qiliqlarini bora-bora eslaridan chiqarib o'z o'qishlari bilan ovora bo'lib, avvalgidek gurunglasha boshladilar. Shundan keyin Tom sekin-asta yashirinchha yonida o'tirgan qizga qaradi. Qiz ham uning qaraganini sezib, lablarini burishtidi-da, orqasini o'girib oldi. Birozdan keyin u qaytadan sekkingina Tomga qayrilib qaragan edi, yonida turgan bir shaftoliga ko'zi tushdi. Qiz uni itarib tashladi. Tom uni yana avvalgi joyiga qo'ydi. Qiz yana itarib tashladi, lekin bu gal avvalgidek dushmanlik nazari bilan qaramadi. Tom shaftolini yana qaytadan uning oldiga surib qo'yan edi, qiz bu gal unga tegmadi. Tom oldida yotgan qora taxtachaga «Marhamat qilib shuni oling, menda yana bor», deb yozib ko'rsatdi. Qiz taxtaga qarasa hamki, hech javob bermadi. Shu paytda bola chap qo'li bilan taxtani qizdan pana qilib, unga yana allanimalarning rasmlarini chiza boshladi. Qiz bunga dastlab e'tibor qilmagandek bo'lib o'tirsa ham, keyin-keyin qiziqish tug'ila boshladi. Bola buni sezmagandek taxtaga chizib o'tirishda davom etar, qiz esa o'zining qiziqqanini bolaga bildirmasdan,

uning chizgan rasmini ko'rishga intilar edi. Tom bo'lsa hali ham buni payqamagandek bo'lib o'tirardi. Nihoyat qiz chidab turolmadi, sekin-asta shivirlab:

– Menga bering, bir ko'ray! – dedi.

Tom o'zi chizib o'tirgan va anchagina karikatura qilib ishlangan rasmning bir chetini ochib ko'rsatdi. Unda tomi ikki yoqqa nishab qilib olingan va tom ustida mo'rilaridan buralib-buralib tutun chiqib turgan bir uyning rasmi tushirilgan edi.

– Qanday chiroylik-a! Endi bir kishining suratini soling, – dedi.

Rassom o'sha uy yoniga hovli yuzida turgan bir kishining suratini soldi. U kishi go'yo og'ir yuklarni ko'taradigan kranga o'xshar va shunchalik novcha ediki, agar u istasa, o'sha uy ustidan bemalol hatlab o'ta olar edi. Biroq qiz janjallahib o'tirishga qobil emasdi, shuning uchun ham u shunchalik xunuk bir suratdan mammun bo'lib:

– Juda ham yaxshi bo'ldi! Endi shu kishining ro'parasiga mening ham suratimni solib qo'ying, – dedi.

Tom go'yo qum soatiga o'xshatib chiziqlar tortib, tepasiga to'linoy nusxasidek qilib uning yuzini ishladi, ingichka cho'pdek qilib qo'l va oyoqlari shaklini chizdi, barmoqlari yozilgan qo'liga katta yelpig'ich tutqizib qo'ydi. Qiz buni ko'rар ekan:

– Bu ham juda yaxshi bo'ldi. Men ham rasm solishni o'rganishni istar edim! – deb qo'ydi.

– Bu ish uncha qiyin emas, – dedi Tom shivirlab, – o'zim sizga o'rgatib qo'yaman.

– Chindanmi? Qachon o'rgatasiz?

– Hali, katta tanaffus bo'lganida o'rgatib qo'yaman.

Siz ovqat qilgani uyga borasizmi?

– Istanangiz, bormasligim ham mumkin.

– Durust. Sizning otingiz nima?

– Bekki Techer. Sizniki-chi? Ha, bilaman-a. Tomas Soyer.

– Meni biror narsa uchun jazolaydigan bo'lganlarida shunday deb ataydilar. Men o'zimni yaxshi tutib yursam, meni to'g'ridan-to'g'ri Tom deb ataydilar. Siz ham meni Tom, deb ayting, xo'pmi?

– Xo'p bo'ladi.

Tom yana taxtaga nimalarnidir yoza boshladi va yozgan narsasini qizdan yashirdi. Biroq qiz endi o'zini chetga tortmay, balki Tomdan yozayotgan narsasini ko'rsatishni so'radi. Tom unga turli bahonalar topib:

- Yo'q, unda hech narsa yo'q, – derdi.
- Bor, unda bir narsa bor!
- Yo'q, hech narsa yo'q; bor bo'lgani bilan siz uni ko'rgingiz ham kelmaydi-ku.

– Yo'q, men uni juda ko'rgim keladi, chin aytayapman. O'shani menga ko'rsating!

- Birovga aytib qo'yasiz.
- Yo'q, hech kimga aytmayman!
- Hech kimga, o'la-o'lguningizcha hech kimga aytmaysiz-a?
- Hech kimga aytmayman, ko'rsata qoling endi!
- Ko'rgingiz kelmaydi-ku, nega buncha qistaysiz...
- Tom, siz, har qancha o'jarlik qilganingiz bilan ham, men ko'raman dedim, ko'raman.

Shu so'zlardan keyin u kichkina qollarini Tomning qo'llari ustiga qo'ydi. Orada yengilgina kurash boshlandi. Tom ko'rinishda qarshilik qilayotgandek bo'lsa ham, lekin o'zi sekin-asta qo'lini siljitim yozuv ustidan olib borar edi. Nihoyat, taxtadagi yozuv ochilib: «Men sizni yaxshi ko'raman!» degan so'z ko'zga chalindi. Qiz birdan o'zgarib:

– Voy basharangiz qursin! – dedi-da, Tomning qo'liga qattiqqina bir urdi. Shu bilan birga qiz qip-qizarib ketdi, go'yo o'z-o'zidan mag'rurdek ko'rindi.

Xuddi shu paytda kimdir qulog'idan mahkam ushlab cho'zayotganini va partadan ko'tara boshlaganini Tom sezib qoldi. Shu zaylda uni butun sinfda-

gi bolalarning qichqirib kulishlari ostida qulog‘idan sudrab olib borib, sinfning ikkinchi tomoniga – o‘z o‘rniga o‘tirg‘izib qo‘ydilar. Muallim bir necha minut davom etgan sukunat ichida indamay uning tepasida turdida, keyin churq etmay sekin-asta o‘z o‘rniga qarab ketdi.

Tomning qulog‘i og‘riq zarbidan lovullab yonayot-gandek bo‘lsa hamki, yuragi quvonch bilan to‘lgan edi.

Maktab ichi tinchlanganidan keyin, Tom insof bilan o‘zini yaxshi tutib, ya’ni zehn qo‘yib o‘qishga urindi, lekin uning kallasi turli o‘ylar bilan g‘uvullab ketgan edi. Kitob o‘qish darsida u yanglishib, bir so‘z o‘rniga boshqa bir so‘zni aytar, jug‘rofiyada esa ko‘llarni tog‘ qilib, tog‘larni daryo qilib, daryolarni quruq yerga aylantirib yuborar, xullaski, uning so‘zlaridan dunyo yaratilishidan avvalgi vaqtarda hukm surgan tuturiqsiz bir narsa kelib chiqar edi. Husnixat darsida ham eng oddiy so‘zlarda son-sanoqsiz xatolar qilib, xullas, o‘quvchilar orasida hammadan past darajaga tushdi; bundan bir necha oy ilgari yaxshi o‘qiganligi uchun unga taqdim etilgan va u mag‘rurlik bilan ko‘kragiga taqib yurgan qalayi nishonini ham undan olishib, boshqa o‘quvchiga berdilar.

### *YETTINCHI BOB*

## **KANANI QUVISH VA PORALANGAN YURAK**

Tom diqqatini kitobga qaratmoqchi bo‘lib qancha harakat qilsa hamki, xayoli bir yerda turmay, tarqalib ketar edi. Nihoyat, u zerikkanidan og‘ir bir esnab, kitobni yig‘ishtirib qo‘ydi. Uning nazarida katta tanaf-fus hech bo‘lmaydigandek ko‘.rinar edi. Tevarak-atrof jimjit... Na tiq etgan bir ovoz, na nafas olgan tovush eshitilardi. Kishida yalqovlik tug‘dirib, uyquni keltiradigan kunlarning ichida eng uyqu keltiradigan

kun mana shu kun edi. Yigirma beshta maktab bolasining asalariga o'xshab g'o'ng'irlashib, darslarini takrorlashayotgan vaqtdagi tovushlari uning joniga orom bergandek va go'yo uni allalagandek bo'lardi.

Uzoqda, quyoshning yorqin shu'lasida, olisdan xuddi qip-qizil bo'lib ko'ringan va ko'z ilg'amas sarob bilan qurshalgan Kardif tog'larining nozik, yashil etaklari ko'zga chalinar edi; osmonda, juda balandlikda, bir necha qush yalqovlanib uchib yurishardi. Bir-ikkita uqlab yotgan sigirlarni hisobga olmaganda, o'sha qushlardan boshqa jon egasi ko'rinas edi.

Tomning jon-dili bilan istagan hozirgi orzusi – ozodlikka chiqib olish, yoki hech bo'lmasa, bunday qayg'uli ravishda cho'zilgan vaqtini o'tkazish uchun birorta qiziqroq mashg'ulot topib olish edi. Qo'lini cho'ntagiga solishi bilanoq, uning chehrasida shodlik alomatlari paydo bo'ldi. U sekin-asta cho'ntagidan yashirin ravishda qutichani chiqarib, uning ichidagi kanani oldi-da, partaning uzun, tekis taxtasi ustiga qo'ydi. Kana, aftidan, shu damda juda shod va mammun bo'lgan bo'lsa ham, lekin uning bu shodligi vaqtinchalik bir narsa edi, chunki u turgan yeridan qo'zg'alib ketishi bilanoq Tom uni qo'lidagi to'g'nog'ich bilan orqaga burib, boshqa yoqqa qarab yurishga majbur qildi.

Tomning yonida uning eski qadrdon do'sti o'tirar va u ham Tomdan kamroq zerikmagan edi. Tomning oldida yurgan bu kanani ko'rishi bilan u ham juda shodlanib ketdi. Bu qadrdon do'stining oti Jo Garper edi. Bu ikki bola u haftadan bu haftagacha bir-birovidan hech bir ajralmas, bayram kunlari bo'lganida esa bir-biriga qarshi ikki qo'shining boshida turib urush ochar edi.

Jo ham nimchasining yoqasi ostidan bir to'g'nog'ichni olib, kanani u yoqdan-bu yoqqa haydash uchun o'z o'rtog'iga yordam bera boshladi. Bora-bora ikkovlari ham bu ishga juda qiziqib ketdilar.

Nihoyat, Tom: «Har ikkalamiz ham bir-birimizga xalaqit berayotirmiz va bu mashg'ulotimizdan ikkovimiz ham mamnun bo'lolmas ekanmiz», – dedi. U partaning ustiga Jo Garperning qora toshtaxta-sini qo'yib, uning o'rtasidan yuqoridan-pastgacha chizib tushdi.

– Mana, – dedi u, – shunday shart qilamiz: kana sening tomoningda yurgan vaqtida, sen uni istagan yeringga quvlab yubora olasan, men tegmayman, basharti mening tomonimga o'tib qolsa, yana qaytib sening tomoningga o'tguncha unga tegmaysan. Xo'pmi?

– Xo'p bo'ladi. Qani, boshla bo'lmasa!

Kana tezlikda Tomning oldidan qochib ketdi va ekvatorni kesib o'tdi. Jo uning ketidan ko'p ovora bo'lib yurdi, keyin kana yana Tomning oldiga qaytib ketdi va bu borish-kelishlar juda ko'p takrorlandi. Bolalardan biri kanani u yoqdan-bu yoqqa quvlab yurar ekan, ikkinchisi ham juda qiziqib uni kuzatib turar edi. Ikkovlari ham taxta ustiga engashib olganlari holda butun vujudlari bilan shunga berilganliklaridan, ularning ko'zlariga boshqa hech narsa ko'rinas edi. Keyinroq borib, aftidan, butun omad uzil-kesil Jo qo'liga o'tdi. Bolalardan ham ko'proq hayajon va tashvishga tushgan kana goho u yoqqa, goho bu yoqqa o'rmalar, lekin har safar Tomning yutib chiqishi kutilib, uning qo'li qichib turgan paytda Jo darhol kanani to'g'nog'ich bilan turtardi-da, o'z tomoniga burib yuborar edi. Nihoyat, Tom bunday ahvolga chidayolmadi, qo'lini cho'zib to'g'nog'ichi bilan kananining yo'lini to'sdi. Buni ko'rgan Joning jahli chiqib:

- Tom, tegma unga! – deb baqirdi.
- Jo, men uni birozgina quvlamoqchiman!
- Bu noinsoflik bo'ladi, ser, tinch qo'ying endi uni!
- Ko'p g'ingshiyverma, birozgina o'ynayman-da!
- Senga aytaman, kanani tinch qo'y, deyman!

- Tinch qo'ymayman!
- Sen unga tegolmaysan, u mening tomonimda.
- Xo'sh, Jo Garper, kananing o'zi kimniki?
- Kimniki bo'lsa bo'laversin... Hozir u mening tomonimda demak sen unga tega olmaysan!
- Nega tegolmayman! Kana meniki, shuning uchun nimani xohlasam, shuni qilaman!

Shu vaqt Tomning yelkasiga yo'g'on bir musht tegdi. Undan keyin Jo ham xuddi shunday bir musht yedi. Shu ravishda muallim ikki minut davomida har ikkovining nimchalaridagi changlarni astoydil qoqib qo'ydi va mакtab binosi bolalarning qiy-chuvlari bilan to'ldi. Bolalar o'yinga qattiq berilib ketganliklidan maktabda birdan jimjitlik hukm surganini ham sezmay qolgan edilar, chunki muallim oyoq uchi bilan yurib ularning oldiga borgan va tepalariga kelib turgan edi. Muallim ularning o'yinlarini anchagacha kuzatgandan keyingina savalashga kirishdi.

Nihoyat, soat o'n ikkini urib, katta tanaffus bo'lganida Tom Bekki Techer yoniga chopqillab bordi-da, uning qulog'iga shivirlab:

- Qalpog'ingni kiyib, uyga ketayotgan kishi bo'l, burchakka yetgandan keyin boshqalarga yo'l ber-da, o'zing tor ko'chaga burilib bu yoqqa qaytib kel. Men ham boshqa ko'cha bilan borib, tezdan shu yerga qaytib kelaman, - dedi.

Shunday qilib, Tom bir to'da maktab bolalari bilan, Bekki ikkinchi bir to'da bolalar bilan maktabdan chiqdilar. Birpasdan keyin ular bir ko'kalamzor oldida uchrashib, ikkovlari birga maktabga qaytib kelganlarida, maktabda hech kim yo'q edi. Ular qora taxtani oldilariga qo'yib, yonma-yon o'tirdilar. Tom Bekkining qo'liga bir tosh qalam tutqizdi-da, uning qo'lini o'z qo'li bilan yurgizib, yana bitta g'alati uy surati ishladi. Salda zerikib ular o'zaro so'zlasha boshladilar. Tom o'zini cheksiz baxtiyor his qildi.

- Sen kalamushlarni yoqtirasamni? – deb so'radi u.

- Pufey-y... men ularni juda yomon ko'raman!

Ularning tiriklarini men ham yomon ko'raman.

Men o'lgan kalamushlar to'g'risida so'zlayapman. Bo'yinlaridan ip bog'lab olib, ularni boshingdan oshirib aylantirib yursang bo'ladi.

- Yo'q, men kalamushlarni umuman yomon ko'raman. Mening yaxshi ko'rgan bir narsam bor, u ham bo'lsa, rezinka chaynab yurish.

- Ha, chindan-a! Afsuski, menda hozir rezinka yo'q.

- Chindanmi? Menda ozroq bor. Senga beray, biroz chaynab, keyin menga qaytib ber.

Bu ish ular uchun juda ko'ngilli edi, ular ortiq darajada mammuniyat bilan oyoqlarini o'ynatib, navbat bilan uni chaynashib o'tirdilar.

- Sen ot o'yiniga borganmisan?

- Ha, borgan edim, agar men aqli qiz bo'lib yurSAM, otam yana olib bormoqchi bo'ldi.

- Men ot o'yinida uch-to'rt marta bo'ldim, ko'p bo'ldim! U yer cherkovdan ko'ra ko'ngilliroq: unda hamma vaqt yangi narsalarni ko'rsatib turadilar. Men katta bo'lganimda, ot o'yiniga kirib masxaraboz bo'laman.

- Chindanmi? Juda yaxshi bo'ladi-da! Ular hammasi juda yaxshi, rango-rang...

- Ha, ular o'yining juda ham usta, shuning uchun pulni ham juda ko'p topadilar... Benning aytishicha, har kuni bir dollardan pul topar emishlar. Menga qara, Bekki, seni unashganlarmi?

- Bu nima deganining?

- Shuni ham bilmaysanmi, erga tegish uchun biror kishiga unashib qo'yganlarmi demoqchiman.

- Yo'q.

- Sen shuni xohlar edingmi?

- Bilmadim, qanday bo'ladi bu o'zi?

- Qanday bo'lar edi! Sen bir bolani yaxshi ko'rasan-da, men hech vaqt shu boladan boshqa

kishiga tegmayman, deysan. Keyin uni o'pasan. Vassalom. Buni har kim ham qila oladi-ku.

- O'pasan deysanmi? O'pishning nima keragi bor?
- Nima keragi bor, chunki... chunki u yaxshi bo'ladi... Hamma ham shunday qiladi.

- Hamma-a?

- Ha, bir-birlarini sevgan kishilarning hammasi ham shunday qiladilar. Mening taxtaga yozib senga ko'rsatgan so'zlarim esingdami?

- Ha, esimda...

- Xo'sh, o'sha nima edi?

- Aytmayman.

- Balki, men aytsam bo'lar?

- Ha, sen aytsang bo'ladi... faqat hozir emas, boshqa vaqtida.

- Yo'q, hozir aytaman.

- Yo'q, hozir emas, yaxshisi ertaga.

- Yo'q, yo'q, Bekki, hozir. Sekingina qulog'ingga aytaman.

Tom Bekkining ikkilanib turganligini ko'rib, uning indamay turishini rozilik alomatiga yo'ydi, belidan quchoqladi va og'zini uning qulog'iga qo'yib, o'sha so'zlarni takrorladi. Keyin qizga qarab:

- Endi sen ham menga shunday deb ayt, - dedi.

Qiz ancha vaqtgacha yo'q, yo'q, deb turdi-da, keyin Tomga qarab:

- Bo'lmasa sen teskari qarab tur, faqat sen buni hech kimga og'zingdan chiqarmaysan-a, durustmi, Tom? Hech kim bilmasin. Hech kimga aytmaysanmi?

- Yo'q, yo'q, hech kimga aytmayman, xotirjam bo'l. Qani, Bekki, aytasanmi endi?

Tom teskari qarab turdi, Bekki esa uyalib:

- Men... sizni... sevaman! - dedi.

Shundan keyin o'rnidan irg'ib turdi-da, Tomdan qochib, stol va kursilar atrofida yugura boshladidi. Tom esa uning orqasidan quvlab yurdi. Oxiri, qiz

burchakka borib qisilib, yuzini oq fartug'i bilan bekitib oldi. Tom qizning yelkasidan ushlab, unga gap uqdira boshladи.

— Qani, Bekki, endi hamma ish tamom bo'ldi, faqat o'pishishgina qoldi. Buning hech xavfli yeri yo'q, an-chayin bir narsa. Qani, Bekki, bir o'pay!

U qizning ko'ylagidan va qo'llidan ushlab, o'ziga torta boshladи.

Qiz sekin-asta bo'shashib, qo'llarini pastga tushirdi. Tom borib uning xuddi lablaridan o'pib oldi-da:

— Ana, Bekki, hamma ish tamom. Endi sen menden boshqa hech kimni yaxshi ko'rmasliging va menden boshqa hech kimga hech vaqt erga tegmasliging kerak. Hech vaqt, durustmi, shunday, deb va'da berasanmi?

— Ha, Tom, men endi sendan boshqa hech kimni yaxshi ko'rmayman va sendan boshqa hech kimga erga tegmayman. Sen ham shunday qil, menden boshqaga uylanma!

— Albatta shunday, so'z shu! Maktabga borishda va maktabdan qaytishda ham hamma vaqt mening yonimda yur, agar yon-verimizda kattalardan hech kim bo'lmasa — o'yinda ham meni tanlab ol, men ham seni tanlab olaman. Bir-birlariga so'z berishib, va'dalashgan kuyov bilan kelin hamma vaqt shunday qiladilar.

— Juda soz! Men buni hech eshitgan emas edim.

— Bu juda ham yaxshi ish-da! Biz Emmi Lorens bilan ham...

Bekki Techerning yarqirab, katta ochilib qaragan ko'zlari Tomga o'z so'zidan yanglishganini bildirib turar edi.

— Ey, Tom! Unday bo'lsa, sening birinchi so'z berishgan qizing faqat mengina emas ekan-da? — dedi qiz va shu onda yig'lab yubordi.

– Yig'lama, Bekki, men endi uni yaxshi ko'rmayman.

– Yo'q, sen o'shani yaxshi ko'rasan. Tom, sen uni juda yaxshi ko'rasan, buni o'zing ham yaxshi bilasan-ku.

Tom uni quchoqlab olmoqchi bo'lgan edi, lekin qiz uni itarib tashladi-da, yuzini devorga o'girib yig'lab yubordi. Tom unga yaxshi so'zlar aytib yupata boshladi va uni quchoqlash uchun yana bir harakat qilgan edi, qiz uni yana itarib tashladi. Shundan keyin Tom ham undan xafa bo'lib, uni yolg'iz qoldirib o'zi chiqib ketdi. U ko'chaga chiqdi-da, tashvishlanib, gavdasining og'irligini u oyog'idan bu oyog'iga tashlab, biroz turdi, u Bekki qilgan ishiga pushaymon bo'lar, deb dam-badam eshikka qarab qo'yari edi. Biroq Bekki kelmadi, Tom juda toqatsizlana boshladi. Haqiqatda butun ayb yolg'iz o'zida emasdi, daf'atan yarashish uchun bo'yin egib o'zini-o'zi majbur etish uning uchun juda og'ir edi, shunday bo'lsa ham u biroz hovridan tushib, qaytib kirdi.

Bekki, burchakda yuzini devorga o'girib, hanuz yig'lab turar edi. Tomning yuragi achishib ketdi. U qizning oldiga yaqin borib, gapni nimadan boshlashni bilmay, biroz hayron bo'lib turdi.

– Bekki, – dedi u sekkingina, – men sendan boshqa hech kimni ham tanimayman.

Hech javob bo'lmasdi. Faqat piqillab yig'lash eshitildi.

– Bekki... (uzr so'rash ohangida) Bekki! Biror so'z desang-chi?!

Yana qaytadan piqillab yig'lash eshitildi.

Keyin Tom o'zining eng qimmatli narsasi – qozon qopg'og'ining mis soqqasini olib qizga ko'rsatar ekan:

– Bekki, jonim, yig'lama... Agar istasang, men senga mana shu narsani berayin! – dedi.

Qiz unga qarab qo'lini bir siltab yuborgan edi, bolaning qo'lidagi soqqasi yerga tushib dumalab ketdi.

Shundan keyin Tom tashqariga chiqdi-da, shu kuni mактабга qaytib kelmaslik uchun boshi oqqan tomonga qarab ketmoqchi bo'ldi. Bekki birdan qandaydir yomon bir narsadan shubhalangandek bo'lib qoldi. U eshikka tomon yugurib bordi, lekin Tom ko'rinnadi. U Tomni o'yin maydonchasi tevaragidan topib olarman, degan umidda hovlining atrofini ham aylanib chiqdi, biroq Tom u yerda ham yo'q edi. Shundan so'ng qiz uni yo'qlab chaqira boshladi:

– Tom, Tom, qayt!

Tomdan darak yo'q edi. Butun tevarak-atrof suv sepgandek jimjit va hech kim ko'rinnmas edi. U o'tirib, yana qaytadan yig'lay boshladi: hozir uni vijdon azobi qiynar edi. Shu orada mактаб bolalari ham yig'ilib kela boshladilar; endi kishini zeriktiradigan, bir necha soatlab davom etadigan tushdan keyingi darslar vaqtida alamingni yashirib, jim o'tirishing lozim edi. Bu begona bolalar ichida uning ko'nglini ko'taradigan kishilari yo'q edi, shuning uchun ham u ko'nglidagi g'am-g'uссsalarini hech kim bilan о'rtoqlasha olmadi.

### SAKKIZINCHI BOB

### KELAJAKDAGI BOTIR QAROQCHI

Tom egri-bugri yo'llar bilan goh o'nga va goh so'lga burilib, uyga qaytadigan yo'lni ancha orqada qoldirib ketdi. Shundan keyin u bir tekis, chaqqon qadamlar bilan yurib ketdi. U yo'l ustidagi suvni ikki-uch marta u yoqdan-bu yoqqa kechib o'tdi, chunki unda suvdan kechib o'tganda o'z izlarini yo'qotib, ketlari dan quvib kelayotganlarni adashtirish ishonchi bor. Yarim soatdan keyin u Kardif tog'ining tepasida

turgan Duglas degan tul xotinning qo'rg'oni yoniga yetib bordi, u yerga chiqqanida pastlikda qolgan vodiydagi maktab binosi zo'rg'a ko'rinish turar edi. Tom qalin o'rmonning juda ichkari tomonlariga kirib borib, yo'lsov yerlardan yura-yura uning eng qalin yerlariga yetib bordi va shoxlari osilib tushgan bir katta balut daraxtining tagidagi yo'sin o'simligining ustiga o'tirib dam olmoqchi bo'ldi. Bu yerda shamoldan asar ham yo'q edi. Tush vaqtidagi jazirama issiqda qushlar ham sayrashdan to'xtagan edilar. Tabiat uyquga cho'mgan, uning uyqusini faqat qizilishtonning har zamon-har zamonda daraxtlarni «to'q-to'q» qilib cho'qigan tovushigina buzar edi. Bu ovoz atrofdagi sukunatni yana zo'raytirar, bola ham o'zining makonsizligini yana ko'proq sezardi. Uning ko'ngli g'am bilan to'lgan; uning barcha hissiyotlari, atrofini o'rab olgan tabiat bilan tamoman mos kelar edi. U tirsaklarini tizzasiga tirab, qollari bilan jag'iga suyangan holda anchagacha o'ylanib o'tirdi. Kishining hayoti unga qayg'u va tashvishlardangina iborat bo'lib tuyular va u yaqinda dunyodan o'tgan Jimmi Gojesdek o'lib ketishni orzu qilar edi. U xayolida, qabr ichida abadiy qo'zg'almay, daraxt barglarining mayin shitirlashlarini, qabr ustidagi maysa o't va gullarning tebranishlarini sezib va hech vaqt hech bir narsadan achchig'lanmay, xafa bo'lmay yotishning qanday rohat ekani to'g'risida o'ylar edi. Agarda yakshanba kungi maktabda yaxshi baho olgan bo'lsa, balki o'zi ham o'lib ketishni xohlar edi... Misol uchun mana shu qizni olsak, qani, bu unga nima yomonlik qildi? Hech narsa qilgani yo'q-ku! Qizga yaxshilik tilar, qiz esa uni go'yo bir it – xuddi bir it qatorida quvlab yubordi. U qachon bo'lsa ham o'zining shu qilgan ishlari uchun o'kinar, balki o'kinishning keyin hech bir foydasi bo'lmash. Oh, vaqtincha o'lib, qayta tirlish mumkin bo'lsa koshki edi!

Bolalikda kishining ko'ngli muloyim bo'ladi. Qancha xafa bo'sang ham tezda tarqalib ketadi. Tomni shu yerdagi fikrlar chulg'ab oldi. Agarda u hozir boshi oqqan tomonga ketib, hamma uchun yashirin holda butunlay yo'qolib ketsa nima bo'ladi? Yo bo'lmasa, shu vaqt dengizlardan nariga, uzoq-uzoq joylarga, kishi oyoq bosmagan yurtlarga ketib qolsa va u yerlardan o'z vataniga hech qaytib kelmasa nima bo'ladi? Shunday qilganida Bekkining holi nima kechardi?.. U o'zida bir zamonlar masxaraboz bo'lish orzulari jo'sh urganini xotirladi, lekin hozir u fikrdan qaytdi, chunki uning ko'ngli ulkan romantik yuksakliklarga ko'tarilib turgan bir zamonda, olabayroq cholvorlar kiyib masxarabozlik qilib yurishi uning o'ziga ham jirkanch ko'rindi. Yo'q, u endi soldatlikka ketadi, ko'p yillar o'tgandan keyin yarador bo'lib, ancha shuhrat qozonib qaytib keladi. Yoki, undan ham yaxshisi hindilar oldiga o'tib ketib, ular bilan tog' yo'llari orqali kishi yurib bo'lmash tikka jarlarga o'rmalab chiqsa, tog' ho'kizlarini ovlab, hech qanday oyoq izi tushmagan uzoq g'arbning tekis yerlarida tentirab yursa va shu tariqa ko'p zamonlar yurib, oradan ko'p vaqtlar o'tgandan keyin hamma yog'i qonga bo'yalgan, butun vujudi patlar bilan bezalgan holda dahshatli ulug' bir boshliq bo'lib o'z uyiga qaytib kelsa, jimjit bir yoz tonggida harbiy unvon egasi bo'lib, to'ppa-to'g'ri yashanba kungi maktab binosiga kirib kelsa, u vaqtida uni ko'rganlarning tomirlaridagi qonlarigacha qotib qolar, barcha o'rtoqlari hayron qolishib, rashklari kelar edi.

Yo'q, dunyoda bundan ham yaxshiroq kasb bor! U dengizda yurib, har kimlarni talovchi qaroqchi bo'ladi. Endi u o'z ko'zi oldida tasavvur etib bo'lmaydigan shuhrat bilan yoritilgan kelajagini ochiq ko'rди. Uning shuhrati butun dunyoda yangraydi. Uning nomini eshitganda, xalq larzaga keladigan bo'ladi. U o'ziga

maxsus «Bo'ron iblisi» degan bir kema yasab olib, uzun xoda uchiga qora bayroqlarni osib qo'yadi.

Shu tariqa u o'z shuhratining eng baland cho'q-qisini egallab, birdan o'zining tug'ilib o'sgan shahrida, cherkovda qop-qora kiyimlarga o'rالgan, quyosh ta'sirida qorayib ketgan, egnida barqut kamzul va shim, oyog'ida uzun qo'njli etik, yelkasidan qizil tasma o'tkazilgan, belbog'ining orqa tomonida to'pponcha, yonida zang bosib ketgan pichoq, boshida patlar taqilgan qalpoq, qo'liga bir qora bayroq tutib olgan va u qora bayroqda esa kishi kallasining suyagi va yana ikki dona uzun suyakni bir-biriga ko'ndalang o'rnatib rasmi solib qo'yilgan holda paydo bo'lsa, shunda atrofdagilar hammasi: «Bu kishi Tom Soyer, qaroqchi! Ispan dengizlarida yuruvchi Qora Intiqomchi!» deb so'zlashadilar.

Bo'ldi, masala hal! Uning topgan yo'li shu. U ertadan qolmay uydan qochib ketadi. Ertalabgacha tayyor bo'lish uchun hozirdahoq harakat qilish kerak. Qani, ko'raylik-chi, unda nimalar bor ekan.

Shu o'rtada bir chirib qolgan daraxt to'ngagi bor edi. Tom o'sha to'ngak yoniga borib uning chap yonidan qalamtarosh bilan chuqilay boshlagan edi, ko'p o'tmay pichoqning yerga tekkan tovushidan uning tagi bo'shliq ekanini payqadi. U kovakka qo'lini tiqar ekan, tantanali ravishda:

– Bor narsa shunda qol, yo'q narsa paydo bo'l! – deb baqirdi.

Tom o'sha chuqur ichidan tozagina qarag'ay taxtadan qilingan quticha oldi. Uning ichida bir marmar toshdan qilingan soqqa bor edi. Tom cheksiz taajjubda qoldi. U hayron bo'lib, boshining orqa tomonini qashib turar ekan:

– Bu o'zi bir karomat-ku! – der edi.

So'ngra u xafa bo'lib, tosh soqqani nariga turtib yubordi-da xayol surib ketdi. Masala shundaki, u

o'z o'rtoqlari bilan bir narsani chin haqiqat deb o'ylagan-u, lekin aldangan. Bularning avvalgi ishonchlari shunday bolganki, agar siz ma'lum so'zlarni aytib, bir soqqani bir yerga ko'mib qo'ysangiz va ikki hafta davomida unga tegmasangiz, shundan keyin Tom aytgandek so'zlarni aytib o'sha yerni ochsangiz, siz o'zingizning bundan ilgari yo'qotgan soqqalarin-gizning hammasini topasiz va ular dastlab bir-birlaridan qancha uzoqqa tushgan bolsa ham siz ularni albatta xuddi shu yerdan topasiz, deb ishonar edilar. Biroq bu tajriba shubhasiz muvaffaqiyat qozonmadi va Tomning bunga bo'lgan ishonchlari ham butunlay yo'qolib ketdi. U bundan ilgari ham shunday ishlarni juda ko'p eshitgan, lekin bu tariqa muvaffaqiyatsiz bo'lib chiqishini hech vaqt ko'rgan va eshitgan emas edi. Uning o'zi ham shu ishni bir necha marta qilib ko'rgan, lekin u qo'ygan yerini mo'ljallab topa olgan emas, u endi bularni esidan chiqargan edi. Ko'p o'ylanib turgandan keyin, bu albatta biror ajinaning ishi bolsa kerak, degan qarorga keldi. Biroq buni qat'iy ravishda bilib olish maqsadida bir toza qumloq yerga borib, voronka shaklidagi bir chuqurcha yerni topib oldi-da, o'sha chuqurchaga og'zini qo'yib:

*Hasharot-hasharot,*

*Haqiqatni aytib ber.*

*Hasharot-hasharot,*

*Haqiqatni aytib ber.*

deb baqirdi.

Shu vaqt chuqurcha qimirlab, qumning orasidan kichkina bir qora qurt ko'rindi-da, qo'rqib darhol ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– U so'zlashni xohlamadi! Demak, bu ishni ajina qilgan ekan. Men o'zim ham shunday deb o'ylagan edim.

Tom ajinalar bilan olishib yurishning qiyin ekanini bilar edi, shuning uchun u ancha ma'yus bo'lib qol-

di. Keyin unda: «Juda bo'limasa, o'sha o'zim yashirib qo'ygan soqqani topib olsam bo'lar edi», degan fikr tug'ilди-da, yerdagi maysa o't ustida o'rmalay boshladi, lekin hech narsa topa olmadi. U o'zining yashirin yeriga qaytib kelib, yashikni sekingina o'z o'rniga qo'ydi, keyin o'sha vaqtida soqqa tashlaganida qanday turgan bo'lsa, shunday turdi-da, cho'ntagidan ikkinchi soqqani olib tashlar ekan:

– Bor, akasi, ukangni topib kel! – dedi.

U soqqaning tushgan yerini mo'ljallab olib, o'sha yerni qidira boshladi, lekin ikkinchi soqqa yo biroz berida qolgan, yoki biroz nariga o'tib ketgan bo'lsa kerak, u yana hech narsa topa olmadi. U bu ishni yana bir marta, ikkinchi, uchinchi marta takrorlagandan keyin, nihoyat muvaffaqiyat qozondi: soq-qalarning ikkovi ham bir-biridan bir fut chamasi yiroqlikda yotar edilar.

Shu vaqt ko'm-ko'k qalin daraxtlar orasidan kichkina o'yinchoq tunuka karnayning tovushi eshitildi. Tom darhol ustidagi nimchasini va shimini yechib tashladi, yelkasiga tortib qo'ygan tasmaning birini belbog' qilib oldi, chirigan to'nganining orqasidagi shoxlardan anchasini chochib tashlab, uning orasidan qo'polgina ishlangan bir kamon va nayza, yog'ochdan ishlangan qilich hamda bir karnay topib oldi, ko'z ochib yumguncha yaroq-aslahalar bilan qurollanib olib, ko'ylakchan va oyoqyalang holda yugурганича dushman qarshisiga bordi. Bir katta daraxtning tagiga yetib borib, javob alomati yuzasidan bir karnay chaldi. Keyin, goho o'ng tomonni va goho chap tomonni sinchiklab ko'zdan kechirib, emaklaganicha ketdi. O'zi faraz qilgan otryadiga:

– To'xta, bolalar! Men karnay chalguncha, pistirmada o'tiringlar! – degan komandani berdi.

Shu vaqt Jo Garper paydo bo'lib qoldi. U ham yengilgina kiyingan va turli-tuman yaroq-aslahalar taqib olgan edi. Tom uni:

– Hoy, to'xta! Shervud o'rmonlarida mendan ruxsatsiz yuruvchi kim ekan? – deb chaqirdi.

– Gay Gisbori hech kimning ruxsatiga muhtoj emas. Sen o'zing kim bo'lasan?..

– «...kim men bilan shu tariqa orsizlarcha muomala qiluvchi?» – dedi shoshilinch bilan Tom. Chunki ular bu so'zlarni kitobdan o'qiganlari uchun xotirlab aytar edilar.

– ...sen kimsan o'zing, men bilan bunday orsizlarcha muomala qilasan?

– Menmi? Men Robin Gud<sup>9</sup> bo'laman, tez kunda sening jirkanch jasading buni anglar.

– Ey-y, o'sha mashhur qaroqchi sen ekansan-da! Unday bo'lsa, bu go'zal o'rmonning xo'jayini kim, degan mavzuda sen bilan bahslashishga tayyorman. Qani, maydonga chiq!

Ular boshqa aslahalarini bir chekkaga tashlab qo'yib, yog'och qilichlarini yalang'ochlab qo'llariga oldilar-da, oyoqlarini oyoqlariga to'g'rilab qo'yib, jangovarlik holatida turdilar; shundan keyin yakka-ma-yakka urush boshlanadigan bo'ldi. Nihoyat Tom:

– Qani, urushadigan bo'sak, rostakam urushaylik! Qani g'ayrat qil! – dedi.

Ular shunchalik «g'ayrat»ga kirishib ketdilarki, ikkovlari ham terlab, kuyib-pishib, hansirab qoldilar.

– Qani, yiqil endi! – deb baqirdi Tom. – Nega yiqilmaysan?

– Men yiqilmayman, yiqilsang o'zing yiqilaver, sening ahvoling menikidan yomonroq-ku!

– Ahvolim yomon bo'lsa nima? Bu hech gap emas. Men yiqila olmayman. Kitobda bunday deb aytilmagan-ku, unda: «Va u bir abjir zarba bilan bechora Gay

<sup>9</sup> Robin Gud – inglizlarning qadimgi hikoya va qo'shiqlarining mash-hur qahramoni. Tom Soyer uning qaroqchilik tarixlarini ko'p o'qigan; bu voqealardan eng qizig'i – Robin Gudning Gay Gisborn degan pahlavon yigit va Tek degan monax bilan duch kelishidir.

Gisbornni yerga ag'dardi», deyilgan. Sen orqangga bir urishga menga yo'l qo'yishing kerak.

Bunday obro'ga qarshi e'tiroz qilish mumkin emas edi. Jo orqasini o'girib bir musht yedi-da, yerga yiqildi.

Birozdan keyin o'rnidan turar ekan:

– Qani, – dedi, – endi tinch tur, men seni o'ldirayin, insof yuzasidan ish qilganda shunday bo'ladi.

– Bunday qilish mumkin emas, bu narsa kitobda yo'q.

– Aha, vijdonsiz, sening bu qilgan ishing uyatsizlik-ku!

– Kel, endi yetar. Jo, agar istasang Tekdek monax yoxud tegirmونching o'g'li Mech bo'lib, boshimga cho'qmor bilan bir ura olasan. Yoinki, agar xohlasang, men Notingem sherifi bo'laman, sen esa bir zumda Robin Gud bo'lasanda, meni o'ldirasan.

Bu ish Garperga ma'qul bo'lib, o'yin qaytadan davom etdi. Keyin Tom yana qaytadan Robin Gud bo'lib, dindan qaytgan bir monax xotinning uning yarasiga yaxshi qaramaganligi natijasida ko'p qon ketib yotdi; keyin o'zini Robin Gud qayg'usida yig'lab yuborgan allaqancha o'g'rilar sifatida ko'rsatib yuruvchi Jo xafalik bilan uni bir chekkaga sudrab olib bordi-da, kamonni qo'liga ushlatib qo'ydi, shunda Tom so'zga kirib: «Mana shu o'q qayerga borib tushsa, bechora Robin Gudni o'sha yerga, katta daraxtlar ostidagi ko'kalamzorga ko'minglar», dedi. Keyin u nayzani otib yubordi va orqaga tashlanib, o'zini o'likka solib yiqilmoqchi bo'lgan edi, biroq yiqiladigan yerida bir to'da qichima o't to'g'ri kelib qolganidan u o'liklar uchun kelishmagan bir qiyofada o'rnidan sakrab turib ketdi.

Ikkovi ham kiyimlarini kiyishib, o'z anjomlarini bir pana yerga yashirib qo'ydilar-da, endi o'g'rilar yo'qligidan xafa bo'lishib, nariga qarab jo'nadilar. Ikkovlari ham: «Butun umr bo'yи Qo'shma Shtatlarning

prezidenti bo'lib turgandan ko'ra, bir yilgina bo'lsa ham Shervud o'rmonida o'g'ri bo'lib yurish afzalroq», deb tasdiqlar edilar.

## TO'QQIZINCHI BOB

### QABRISTONDAGI FOJIA

Shu kecha Tom bilan Sid ikkovlari har safargidek, soat to'qqiz yarimda uqlashga ketdilar. Sid darrov uqlab qoldi, Tom esa uqlamasdan, chidamsizlik bilan signalni kutib yotdi. U bezovtalanib o'ziga joy topa olmas, uning nazarida go'yo hademay tong otib qolayotgandek tuyular edi. Biroq shu vaqt u soat o'nni ko'rsatib bong urganligini eshitdi. Uning diqqat bo'lishi ham o'rinsiz emas edi. U shu paytda dam-badam ag'darilib, oyoq-qo'llarini ham qo'zg'ata olmas, chunki Sidning uyg'onib qolishidan qo'rkar edi. Shuning uchun, u qorong'ilikda ko'zi ochiq holda tinch yotar edi. Tevarak-atrofda jimjitlik hukm surar edi. Keyin sekin-asta bir xil ohangda tovushlar eshitila boshlagandek bo'ldi. Hammadan oldin soatning chiqillashi, keyin eski to'sin yog'ochlarning sirli ravishda qasirlagani, zinapoya-dagi ohista g'ijirlagan tovushlar eshitila boshladi. Aftidan, shu vaqt uyda jinlar yurgandek bolardi. Polli holaning xonasidan xurrak tovushi kelib turardi. Undan keyin eski binolarda bo'ladijan va kishilar qolidan keladigan har qanday ustalik bilan ham yo'qotib bo'lmaydigan chigirkalarning tovushlari – yog'ochlar orasidagi chigirkalarning chirillashlari va karavotning bosh tomonidagi devor orasida soatsoz-qo'ng'izning chiqillagan mash'um tovushi eshitila boshladi. Tom bir seskanib ketdi. Shunday bo'lganda, biror kishining muqarrar ravishda o'lishi kutilar edi. Keyin qayoqdandir, uzoqdan bir itning uvlagan tovushi, undan nariroqda unga javoban,

yana bir itning tovushi eshitildi. Tom juda og'ir va azobli daqiqalarni kechirib turar edi. Nihoyat, u vaqt butunlay tamom bo'lib, endi abadiylik davri boshlangan, deb ishondi va ixtiyorsiz mudray boshladи. Soat o'n birni urdi, lekin Tom buni eshitmadи. Birdan uyqusи ichida ayanchli suratda miyovlagan tovushni eshitdi. Qo'shnilarining derazalari taraqlab ochilar-kan, u uyg'onib ketdi. «Yo'qol nari, falokat, degan ovoz eshitilib, saroy devoriga borib tekkan bo'sh shisha jarangladi. Tom o'rnidan sakrab turib, tezgina kiyindi-da, derazadan oshib tizzasi bilan o'rmalab tomga chiqdi, haligi eshitilgan tovushga javoban bir-ikki marta mushuk bo'lib miyovlab ham qo'ydi. Keyin saroyning tomiga sakrab o'tdi-da, undan yerga irg'ib tushdi. Geklberri Finn, o'lgan mushukni ko'targani holda uni kutib turar edi. Bolalarning ikkalasi ham yo'nga tushib, bir zumda qorong'filikda ko'zdan g'oyib bo'ldilar. Yarim soatdan keyin ular endi qabristondagi qalin o'tlar orasidan yurib bormoqda edilar.

Qabriston juda eski, qadim zamondagi g'arb uslubida bo'lib, qishloqdan bir yarim mil chamasi yiroqlikdagi bir tepalik ustida edi. Atroflari taxtadan ishlangan va devorlari eskirganidan taxtalarning ba'zi yerlari ichkariga va ba'zi yerlari tashqariga tomon egilib ketgan edi. Butun qabriston yovvoyi o'tlar bilan qoplanib, qadim zamonlardagi qabrlar o'sha o'tlar orasida ko'milib yotardi. Qabristonda biron ta ham haykal ko'rmasdi; qabrlar ustida kamalak qilib egilib qo'yilgan taxtalar eskirib, chirib qolgan, o'zlariga tayanch axtarib yerga tomon engashgan, lekin tayanch topa olmay turardilar. Taxtalarning hammasida bir zamonlar o'lgan kishilar sharafiga: «Falonchining abadiy xotirasi uchun» degan yozuvlar yozilgan, lekin hozir ularning harflari shunday o'chib ketgan ediki, chirog' yoqib qaraganda ham ulardan biror narsa anglab olish mumkin emas edi.

Sekingina esgan shamol daraxtlar orasidan chiyillab eshitilgandek bo'lar, buni eshitgan Tomning yuraklari uvushib, o'zini vahimaga tushgandek his qilar edi. Uning nazarida go'yo shu yerda yotgan u o'liklarning ruhlari kelib, nima uchun tirik kishilar kelib bizlarni tinch yotgan yerimizda bezovta qiladilar, deb shikoyat qilgandek bo'lib ko'rinar edi. Bolalar o'zaro juda oz so'zlashar, har zamonda bir-ikki og'iz so'zlashsalar ham, shivirlashibgina so'zlashar edilar; bularning hozirgi turgan yerkari va o'tkazayotgan vaqtleri, tevarak-atroflarini qurshagan sukunat va tantana – bularga tovushsiz ezayotganday qattiq ta'sir qilmoqda edi. Ular o'zlari axtarib yurgan, ya'ni qazilib ko'milgan yerni topishib, qabrdan ikki qadam naridagi uchta katta daraxt yoniga borib turishdi.

Shu ravishcha, ular o'z nazarlarida ancha vaqt kutib turdilar. Uzoqdan boyo'g'lining tovushi eshitilar, tevarak-atrofdagi sukunatni buzgan birdan-bir tovush ham shu boyo'g'li edi. Tomning fikrlari uni shunchalik diqqatini tortar ediki, u qanday bo'lsa ham gapirishga zarurat sezardi.

– Shunday qilib, sen qanday deb o'ylaysan, Gek,  
– u shivirlab so'z boshladi, – bizning bu yerga kelishimizdan o'liklar xafa bo'lishmasmikan?

Geklberri ham shivirlab javob berdi:

– Kim biladi deysan, bilmadim! Ammo bu yerning o'zi juda vahimali ekan. To'g'rimi?  
– Bo'lmasa-chi!

Ancha vaqtgacha so'zlashmay, jim bo'lib qolishdi, bolalarning ikkalasi ham faqat bir masala to'g'risida: «O'liklar bizlarning kelishimizga qanday qarashar-kin?» degan masala to'g'risida o'ylar edilar. Keyin Tom shivirlab:

– Menga qara, Gek, sen qanday deb o'ylaysan, bizning so'zlashayotganimizni g'ilay Vilyams eshitayotganmikan? – deb so'radi.

– Albatta eshitadi. Harholda uning ruhi muqarrar eshitadi.

Yana orada jimjitlik hukm surdi.

– Men afsus qilamanki, – dedi Tom, – uni mister Vilyams demasdan, to'ppa-to'g'ri Vilyams deganman. Biroq, men buni uni ranjitish maqsadida aytganim yo'q-ku. Uni hamma g'ilay deb ataydi-da.

– Tom, o'lganlar to'g'risida so'zlaganingda, ehtiyoj bo'lib so'zlapping kerak.

Gekning bu tanbehi Tomning so'zlash istagini so'ndirdi. Shu orada u birdaniga o'tog'ining yengini mahkam ushlab oldi:

– Tss!

– Nima gap, Tom?

Ikkovlari ham bir-birlariga mahkam yopishib olib, nima bo'lishini kutib turdilar.

– Tss! Ana, tag'in! Eshitdingmi?

– Men...

– Ha, ha! Endi sen ham eshitding-a?

– Tom, ular kelayotirlar! Ana ular! Endi nima qilamiz?

– Bilmadim. Ular bizlarni ko'rib qoladilar, deb o'ylaysanmi?

– Oh, Tom, ular xuddi mushukka o'xshab qorong'silikda ham ko'ra beradilar-da. Oh, nega men bu yerga keldim-a?

– Qo'rmasang-chi... Ular bizlarga tegmas deb o'ylayman. Biz hech qanday yomonlik qilganimiz yo'q-ku. Agar biz bekinib tursak, balki butunlay ko'rmay o'tib ketar.

– Ko'ramiz-da. Biroq, juda ham dahshatli ahvol. Meni qalтироq bosib ketdi!

– Tss... jim! Quloq solib turgin.

Bolalar zo'rg'a nafas olishib, bir-birlariga mahkam yopishib turdilar. Qabristonning narigi chekkasidan allaqanday bo'g'iq tovushlar quloqlariga chalinardi.

– Uni qara! Qarasangchi! – dedi Tom shivirlab. – Nima u?

– Bu – do'zax o'ti-ku! Oh, Tom, biz xavf ichida qoldik!

Qorong'ilik ichidan allaqanday qora sharpalar chiqib kela boshladи. Ularning oldilarida eski fonus chayqalib shu'la sochar edi.

Geklberri seskanib ketib:

– Bular jinlar bo'lsa kerak! Xuddi uchta-ya! Jahnannamga ketdik endi. Kalima keltirishni bilasanmi?

– Urinib ko'rарman. Axir, qo'rmasangchi – ular bizga tegmaydi. «Ey parvardigor, yomon tushlardan saqla va gunohimni kechir».

– Tss!

– Nima gap, Gek?

– Bular kishilar-ku! Boshqalarini bilmayman, ular dan biri muqarrar odam! Bu qari Meff Potter ekan, men uni tovushidan tanidim.

– Rostdanmi? Yo'g'-e, bu mumkin emas!

– Sen jim tur, nafasingni chiqarma. U bizni ko'ra olmaydi: chol har safargidek mast bo'lsa kerak. Azbaroyi xudo tanidim.

– Durust. Men jim turaman. Ana, ular to'xtadilar. Bir narsa axtarib yurganga o'xshaydilar. Topolmayotirlar. Ana, tag'in bu yoqqa yurib kelishyapti. Ularning chopishlarini qara. Yana sekinroq yura boshladilar. Ana tag'in tez-tez qadam tashladilar. Endi albatta shu yoqqa kelayotgan bo'salar kerak! Menga qara, Gek, men ikkinchisining ham tovushi dan tanidim, bu – Jo degan hindi.

– Boldi, u – albatta o'sha la'nati metislardan!<sup>10</sup> Bular o'rnida jinlar bo'lsa yaxshiroq bo'lar edi. Ular bu yerda nima qilar ekanlar?

<sup>10</sup> Metislар – оқ танлilar bilan hindilarning yoki оқ танлilar bilan negrlarning qoni qo'shilishidan dunyoga kelgan kishilar.

Bolalar endi shivirlashishdan ham to'xtalib qoldilar, chunki o'sha qorayib ko'ringan uchta gavda qabr yoniga kelishib, ular berkinib yotgan yerga yaqin joyda to'xtagan edilar.

– Shu yerda, – dedi ulardan uchinchisi va qo'lidagi fonusni ko'targan edi, chiroqning yorug'i uning yuziga tushdi. Bolalar uni tanidilar, u Robinzon degan yosh doktor edi.

Potter bilan hindi Jo zambil ko'tarib kelar edilar; zambilga arqon bog'langan bo'lib, ustida ikkita belkurak ham bor edi. Ular qollaridagi narsalarni yerga qo'yib, qabrni kavlay boshladilar.

Doktor qo'lidagi fonusini qabrnинг bosh tomoniga qo'ydi-da, o'zi daraxtlarning biriga suyanib yerga o'tirdi.

U shunchalik yaqin masofaga kelib qolgan ediki, bolalarga turtinib ketishi ham mumkin edi.

– Tezroq bo'la qolinglar, – dedi u sekingina. Hademay oy ham chiqib qolishi mumkin.

Ular bunga javoban bir narsa deb to'ng'ilagan bo'ldilar-da, kavlashda davom etaverdilar. Bir necha vaqt jadallik bilan tuproqni chetga chiqarib tashlayotgan belkuraklar tovushidan boshqa hech narsa eshitilmadi. Belkuraklarning tovushi o'zining bir xilligi bilan kishini zeriktirar edi. Nihoyat belkurakning yog'ochga borib tekkan tovushi eshitildi: belkurak borib tobutga tekkan edi. Oradan bir necha minut o'tgandan keyin, yer kavlovchilar tobutni tashqariga chiqarib oldilar. O'sha belkuraklarning o'zi bilan tobutning qopqog'ini ochib, ichidan o'likni oldilar-da, qo'pol harakat bilan yerga irg'itib tashladilar.<sup>11</sup> Shu vaqt bulutlar orasidan oy chiqib, o'likning bo'zday

<sup>11</sup> O'sha zamonda meditsina xodimlariga kishi o'ligi ustida anatomiya ilmini o'rganish man qilingan edi. Shu sababli go'r qazuvchilarni pulga yollashar, ular yangi ko'milgan o'liklarni go'r dan kavlab olib berar edilar.

oqarib ketgan yuzini yoritdi. Uni avvaldan tayyorlanib qo'yilgan zambilga solib, ustidan ko'rpa yopib, arqon bilan bog'ladilar. Potter yonidan katta pak-kisini olib, tobutning ichida osilib turgan arqonni qirqar ekan:

– Mana, sizlarning falokat ishlaringiz ham tugadi. Endi yana besh oltin berasizlar: bo'lmasa biz buni shu bo'yicha tashlab ketamiz, – dedi.

– To'g'ri, to'g'ri! – deb qichqirdi hindi Jo.

– To'xtang, bu qanday gap? – qarshilik ko'rsatdi doktor. – Sizlar pulni oldin so'radingiz, men ham pulning hammasini sizlarga berib qo'ydim-ku.

– Pulni to'ladingiz, lekin siz bilan yana boshqa hisob-kitobimiz bor, – dedi Jo doktorga yaqin kelib. Doktor o'rnidan turmoqchi bo'lib qo'zg'alar ekan, Jo unga qarab:

– Bundan besh yil burun ovqat so'rab otangizning oshxonasiga kirib borganimda, siz meni yomon maqsad bilan kelgan deb haydab chiqargansiz. Men buning uchun yuz yildan keyin bo'lsa ham sizdan qasos olishga qasam ichganimda, otangiz meni ko'chada tentirab yurgan gazanda qatorida turmaga qamab qo'ydi. Bular mening esimdan chiqib ketgan, deb o'ylaysizmi? Mening tanamdag'i qonim hindi qoni ekanligi bejiz emas, siz endi mening qo'limga tushingiz, men siz bilan endi hisoblashaman, shuni bilib qo'ying! – dedi.

U mushtini doktoring tumshug'i ostiga olib borib, o'dag'aylar edi. Doktor esa to'satdan qulochini yozib bir urishdayoq uni yerga ag'darib tashladi. Potter tajjubda qolib, qo'lidagi pichog'ini tushirib yubordi-da:

– Hoy, menga qaranglar! Bu nima gap? Men o'rtog'imning kaltak yeishiga yo'l qo'ymayman! – dedi.

Shu so'zlar bilan u doktor tomoniga qarab tashlandi, bir damda ular bir-birlariga yopishib ketib, yer-

dagi maysa o'tlarni tepkilab va etik poshnalari bilan yerning changini chiqarib, bor kuchlari bilan olishib yotar edilar. Hindi Jo ham o'rnidan irg'ib turdi: uning ko'zlarida g'azab o'ti yonar edi. U Potterning qo'lidan tushib ketgan pichoqni oldi-da, butun gavdasi bilan egilib-bukilib mushukdek o'g'rinchcha harakat bilan qulay paytni poylab, urishayotganlar oldida aylanib yurdi. Birdan doktor dushmanining quchog'idan bo'shalib chiqib, Vilyamsning qabri ustida yotgan bir og'ir taxtani oldi-da, o'sha taxta bilan Potterni bir urib yerga ag'dardi. Shu vaqtning o'zida metis paytdan foydalanib, qo'lidagi pichoqni dastasigacha yosh yigitning ko'kragiga suqdi. U turgan yerida tebrana-tebrana Potterning ustiga yiqlilib, uni o'z qoniga bo'yadi. Shu vaqt to'satdan ko'kda paydo bo'lgan qora bulutlar ixtiyorsiz ravishda tomoshabinlardan bu dahshatli manzaraning ustini bekitib qo'ydi va bularni ko'rib qo'rqib qolgan bolalar orqa-oldilariga qaramasdan qocha boshladilar.

Oy qaytadan bulutlar orasidan chiqib yorug'lik sochganida hindi Jo qo'l-oyoqlari kerilib yotgan ikkita kishining gavdasi tepasida chuqur xayolga cho'mib turar edi. Doktor kishi anglayolmaslik darajada bir-ikki so'z aytgan bo'ldi-da, bir-ikki og'ir nafas olgandan keyin jimjit bo'lib, tovushi chiqmay qoldi.

– Ha, basharang qurg'ur, endi sendan o'chimni oldim-ku, – dedi sekinlik bilan metis.

Shu so'zlar bilan u o'likning bor narsasini yig'ish-tirib oldi-da, pichoqni Potterning ochiq qolgan o'ng qo'liga ushlatib qo'yib, o'zi to'ntarilib yotgan tobut ustiga borib o'tirdi.

Oradan uch, to'rt daqiqa chamasi vaqt o'tdi... Potter harakatlanib, ingradi. U qo'lidagi pichoqni mahkam siqimlab ko'zi oldiga olib bordi-da, cho'chib ketib, pichoqni qo'lidan tushirib yubordi. Keyin o'rnidan turib o'tirdi va doktorning gavdasini

o'zidan nariroqqa itarib tashladi-da, unga bir tikilib qarab qo'ydi. Keyin ko'zlari xiralangan holda atrofga qararkan, ko'zi metisning ko'ziga tushdi.

– Ey parvardigor! Bu ish qanday yuz berdi, Jo?

– Ish pachava bo'ldi, – dedi o'rnidan qo'zg'almagani holda. – Nega sen uni bunday qilding?

– Menmi? Bunday qilishni o'ylaganim ham yo'q edi.

– Qo'ysang-chi, qani, gapir! Nayranglaring bilan qutulolmaysan!

Potterning rangi o'chib ketib, butun tanasini qal-tiroq bosdi.

– Men, mastligim tarqab ketgandir, deb o'ylagan edim. Kechqurun ichmasam bo'lar ekan. Boshimning og'rig'i bu yoqqa kelayotganimizdagidan ham yomonroq, hozirgacha bosilmadi. Hammasi chalkash bo'lib ketdi, hech narsani eslayolmayman. Menga qara, Jo, sen menga insof bilan to'g'risini aytib ber, chindan uni men o'ldirdimmi? Uni o'ldirish mening xayolimda ham yo'q edi-ku. Jo, to'g'risini aytib ber, bu ish qanday bo'ldi? Bu qanday yomon ish! U o'zi yosh va qobiliyatli kishi edi...

– Qanday bo'ldi deysanmi? Ikkovingiz urishib ketdingiz. U taxta bilan boshingga urgan edi, sen ag'darilib tushding. Keyin o'rningdan turding-da, tebranib, turtinib-surtinib borib pichoqni olding, u qaytadan senga yopishishi bilan uning ko'kragiga pichoq bilan urib qolding. Shundan keyin sen yiqil-ganiningcha to'nkadek qo'zg'almay shu vaqtgacha yotaverding.

– Oh, men o'sha vaqtida o'zimning qilayotgan ishimni o'zim ham bilmaganman. Agar yolg'on so'zlasam, hozir yer yutsin shu yerda! Buning hammasi aroqning kasofati, o'sha vaqtida men mast edim, sening yoningni olib, unga yopishganman. Bo'lmasa, men pichoqni ham durustgina ushlay bilmayman.

Kishilar bilan urushib, mushtlashib yurganman, lekin hech vaqt pichoq ushlagan emas edim. Bu hammaga ma'lum. Jo, chirog'im, sen endi buni hech kimga aytma, meni sharmanda qila ko'rma! Jo, birovga aytmasligingga so'z ber, men hamma vaqt seni sevib, seni yoqlab yurganman. Sen o'zing yaxshi bilasan-ku, yoinki yolg'on aytayotirmanmi? Hech kimga aytmaysanmi, Jo?

Shu so'zlar bilan bechora Potter qonxo'r qotil oldida tiz cho'kib, qo'llarini cho'zib yolvordi. Qotilning qovog'idan qor yog'ilgani holda Pottega xo'mrayib qaradi.

– Durust, Meff Potter, sen men bilan hamma vaqt insof va diyonatli ravishda munosabat qilib yurgan kishisan, men ham senga shunday yaxshilik qila-yin. Xotirjam bo'l, mening so'zim bitta. Bu to'g'rida ortiqcha so'zga ham o'rin yo'q.

– Jo, azbaroyi xudo, sen farishtasan. Men seni so'nggi nafasimgacha duo qilaman. – Shu so'zlar bilan Potter yig'lab yubordi.

– Bo'ldi, endi tinchlan! Hozir g'inshib o'tirishning vaqt emas! Tez bo'l, sen ana u yo'l bilan ketaver, men esa mana bu yo'l bilan ketaman. Ehtiyyot bo'l, orqangda iz qoldirmasdan ket!

Potter juda tez yurib ketdi, keyin bora-bora kuchining boricha chopib ketdi, metis uning orqasidan qarar va o'zicha g'o'ng'irlab:

– Agarda chindan ham kaltakdan va uning ustiga ichkilikdan uning miyasi shunchalik gangib qolgan bolsa, pichoqni eslayolmaydi ham. Agar uzoqroqqa borib, esiga kelib qolganida ham bu yoqqa qaytib kelishga qo'rqadi! – der edi.

Oradan bir necha minut o'tgandan keyin ko'rpara o'ralgan o'likka, qopqoqsiz tobutga va usti ochilgan qabrga faqat osmondag'i oygina mo'ralab qarab turar, tevarak-atrofda esa yana jimjitlik hukm surar edi.

**ITNING UVLASHI –  
YAXSHI ALOMAT EMAS...**

Bolalar to'xtamasdan shaharga tomon yugurdilar. Ular qo'rqqanlaridan tilsiz bo'lib qolgan edilar. Ular go'yo quvg'inga uchrashdan qo'rqqanday, dam-badam tashvish bilan orqalariga qarab qo'yar edilar. Yo'ldagi qorayib ko'ringan har bir to'nka ularga qo'rqinchli dushmandek ko'rinish, vahima bilan nafasları siqilar edi. Ular shaharga yaqinlashgach, uylar yonidan o'tib borayotganlarida uydagi itlar uyg'onib bularga qarab hurar ekan, bolalarda go'yo yana yangidan qanot paydo bo'lgandek yugura boshladilar.

– Kuchdan ketib yiqilmay turib, eski ko'n zavodi yoniga yetib olsak yaxshi bo'lar edi, – deb shivirladi Tom, zo'rg'a nafas olib. – Men endi butunlay holdan ketganga o'xshab qoldim.

Geklberri faqat hansirab, entikib qo'yar edi, bolalar eng so'nggi kuchlarini sarf qilib, nihoyat zavodga yetib bordilar-da, tabaqalari lang ochiq turgan bir eshikka borib, butunlay madorlari qurib yiqildilar. Tom sekin shivirlab:

– Geklberri, sen qanday o'ylaysan, bu ishning oqibati nima bo'lar ekan?

– Agar doktor Robinzon olsa, meningcha dorga osilishdan boshqa chorani kutish mumkin emas.

– Bu, bo'limgan gap!

– Men buni aniq bilaman.

Tom bir minutcha o'ylanib turgandan keyin:

– Kim aytib beradi? Bizmi?

– Senga bir gap bo'ldimi, nega dovdiraysan? Sen faqat shuni o'ylab qaraki, agar biror narsa bo'lib ish hindi Joning foydasiga yurib ketsa yoki u qochib ketsa, uni osmasalar, u bizni albatta o'ldiradi. Agar

shunday bolsa, biz hech qanday yo'l bilan o'limdan qutulolmaymiz.

– Men o'zim ham shunday o'ylayman, Gek.

– Agar buni biror kishi aytadigan bolsa yaxshisi, buni Potter aytsin; unda buning uchun yetib ortadigan ahmoqlik bor, chunki u har doim mast bo'lib yuradi...

Tom hech narsa demay, o'ylanib turar edi. Keyinroq u shivirlab:

– Gek, Meff Potter bilmaydi-ku... Qatl haqida u qanday qilib ayta oladi? – dedi.

– Nechuk, qanday qilib buni bilmaydi?

– Albatta bilmaydi-da, hindi Joning boshiga doktor taxta bilan urgan vaqtidayoq u doktorga pichoq sanchdi, u buni qayoqdan ko'rар edi? U buni qayoqdan bilardi?

– Rost aytasan!

– Undan tashqari, kim biladi deysan, balki shunday qilib urgandan keyin u gangib qolgandir.

– Yo'q, Tom, bunday bo'lmasa kerak. U o'zi mast edi. Men buni sezganman. U hamma vaqt shunday mast bo'lib yuradi. Mening otam mast bo'lganda, boshiga butun bir tog'ni ag'darib yuborsang, hech parvo qilmaydi! U o'zi ko'pincha shunday deydi. Meff Potter ham xuddi shunday-da. Agar u hushyor bolsa edi, shunday zarbadan albatta bir yoqlik bo'lardi... endi bilmadim, bir narsa deya olmayman.

Tom yana o'ylana boshladi.

– Gek, sen bilmasdan aytib qo'yamsanmi, sen bunga ishonasanmi? – deb so'radi Tom uzoq jimlikdan so'ng.

– Endi, Tom, xohlassak ham, xohlamasak ham, ehtiyyot bo'lib jim turaylik. Axir, o'zing tushunasan-ku! Bu la'nati metis uchun bizlarni bo'g'ib o'ldirish – ikkita mushuk bolani o'ldirish bilan baravar... Agar biz aytsag-u, uni o'ldirmasalar, u vaqtida bizning o'lgani-

miz... Menga qara Tom, biz ikkalamiz ham churq etmay turishimiz zarur ekan, tilimizni tiyishimiz to'g'risida bir-birimizga qasamyod qilishimiz lozim.

– To'g'ri aytasan, Gek. Eng yaxshisi shu. Qani, bo'limasa qo'lingni ko'tar...

– Yo'q, do'stim! Bu ishimiz yaramaydi. Bunday yo'l oddiy, arzimagan mayda ishlarda, ayniqsa qizlar bilan muomala qilganingda kelishadi, chunki ular baribir o'z so'zlarida turmaydilar va jahllari chiqqanda bir-birlarining sirlarini aytib qo'ya beradilar. Hozirgidek ishlarda esa, shartnoma va muqarrar qon bilan yozilgan shartnoma bo'lishi kerak.

Tom bu fikrni butun jon-tani bilan ma'qulladi. Bu fikr sirli, qorong'i va dahshatli fikr edi. U oyning yorug'ida toza bir qarag'ay tarashasini topib olib keldi va oyning yorug'l qo'lidagi tarashaga tushadigan vaziyatda o'tirib, chontagidan bir parcha bo'yoq oldi-da, tarashaga engashib har bir so'zda tanglayini taqillatib, yuz mashaqqat bilan quyidagi so'zlarni chiza boshladi.

*Gek Fin va Tom Soyer biz ikkimiz qasam ichamizki, shu ish to'g'risida churq etmaymiz, agar bir og'iz so'z ayta qolsak, o'ligimiz shu yerda qolsin.*

Tomning bunday tez yozishga ustaligi va uslubining yuksakligidan Geklberri hayratda qoldi. U yoqasidan bir to'g'nog'ich olib qo'liga sanchmoqchi bo'lgan edi Tom uni to'xtatdi:

– To'xta! Unday qilma. To'g'nog'ich misdan ishlangan. Unda yar<sup>12</sup> bo'lishi mumkin.

– Yar dedingmi? U nima?

– U bir xil zahar, o'shandan ozgina yutib ko'rsang, keyin bilasan.

<sup>12</sup> Mis asboblarning ustiga zangga o'xshash qo'nib qoladigan narsa; bu juda kuchli zahar bo'ladi.

Tom o'zidagi ignalardan birining ustiga o'ralgan ipini chiqarib oldi-da, keyin ikkovi ham navbat bilan o'z barmoqlariga sanchishib, bir tomchidan qon chiqardilar.

Tom shu tariqa bir necha marta qon chiqarib va qalam o'rniga jimjiloqdan foydalanib, yozuvning ostiga o'z ismining bosh harflarini chizdi. Geklberrini G va F harfini yozishga o'rgatdi-da, shuning bilan shartnomaga qo'l qo'yilgan bo'ldi. Ular tantanali ravishda har xil so'zlar va duolar bilan tarashani xuddi devorning yoniga ko'mib qo'ydilar va shuning bilan o'zlarining tillari abadiy qulflanib, kaliti juda uzoqlarga tashlanib yuborilgan hisobladilar.

Yarim xaroba binoning narigi boshidagi teshikdan esa yashirinib turgan noma'lum bir kishining gavdasi ko'zga chalindi, lekin bolalar uni sezmadilar.

– Tom, – dedi Geklberri shivirlab, – endi shundan keyin biz o'z og'zimizdan ilinib, gapirib qo'ymasligimizga ishonasanmi?

– Albatta ishonaman, endi har nima bo'lsa bo'ssin, bizning og'zimizdan biron so'z ham chiqmaydi. O'zing bilasan-ku, agar biz aljirab, biror og'iz so'z aytib qo'ysak, xuddi shu yerning o'zida o'lamiz-ku! Buni unutdingmi?

– Bu-ku shundayku-ya...

Ular bir qancha vaqt o'zaro shivirlashdilar. Birdan ularning yaqinginalarida, o'n qadamcha yerda bir itting uzundan-uzoq, ko'ngilsiz uvillagan tovushi eshitildi. Bolalar qo'rqib, bir-birlariga yopishib oldilar.

– U kimga hurayotir? – dedi Geklberri, halloslaganidan bo'g'ilib. – Sengami yoki mengami?

– Bilmadim... yoriqdan qara-chi. Tezroq bo'lsang-chi!

– Yo'q, sen qara!

– Yo'q, yo'q, men qaray olmayman, Gek.

– Tom, qara endi, baraka topgur, yana tag'in tovush kelayotir.

– Eh, Xudo, men judayam xursandman! – deb shivirladi Tom. – Bo'ldi, itning bu uvillashini men bildim: bu Bull Garbizon itining tovushi.

– Xudoga shukr! Bilasanmi, qo'rqib jonim chiqib ketayozdi. Men, dalalarda yurgan daydi itlar hurayotgan bo'lsa kerak, deb o'ylagan edim.

Shu vaqt it yana uvilladi. Bolalarning yuraklari yana orqalariga tortib ketdi.

– E, yo'q, bu Bull Garbizonning iti emas-ku, – deb shivirladi Geklberri. – Yana bir qarasang-chi, Tom!

Tom qo'rqqanidan qaltirab, itoat etgandek gapga qulq soldi-da, ko'zini yoriqqa qo'yib qaradi va tovushi eshitilar-eshitilmas darajada shivirlab:

– Hoy Gek, bu daydi it ekan, – dedi.

– Qara, qara, Tom, u kimga qarab hurayotir?

– Ikkalamizga qarab hurayotgan bo'lsa kerak.

Ikkalamiz ham bir yerda turibmiz-ku!..

– Oh, Tom, holimiz xarob bo'ldi. Endi mening bir baloga yo'liqishim aniq, men shunday gunohkor bir bolaman...

– Men-chi? Men bo'ssam, o'qish o'rniga doim o'ynab yuraman, meni nimadan qaytarsalar, men o'sha ishni qilaman... Albatta, men xohlasam Sidga o'xshab juda yaxshi va itoatli bola bo'lar edim. Biroq bunday bo'lishni xohlamadim. Shu gal omon-eson qutulib ketsam, yakshanba kungi mакtabga borib juda zehn qo'yib o'qir edim.

Tomning o'pkasi to'lib, sekin-asta yig'lay boshladni.

– Sen gunohkormisan? – deb so'radi Geklberri va u ham piqillab yig'lay boshladni. – Qanday gunohing bor? Menga qaraganda sen chinakam farishtasan-ku!

Tom ko'z yoshini ichiga yutar ekan:

– Gek, uni qara! U bizga orqasini o'girib turipti-ya!  
– dedi.

Gek shodlanib yoriqqa ko'zini qo'yib qaradi.

– Chindan ham orqasini o'girgan-a!.. Avval ham shunday turgan edimi?

– Albatta. Men ahmoq bunga e'tibor qilmabman. Juda soz! Biroq u kimga qarab hurar ekan?

It uvlashdan to'xtadi. Tom diqqat bilan tinglay boshladi.

– Ts! Bu nimasi? – deb shivirladi Tom.

– Xuddi cho'chqaga o'xshab xurillaydi-ya! Yo'q, Tom, bu birovning xurrak tortgan tovushi...

– Xurrak tortayapti, deysanmi? Qayerda xurrak tortayotir, Gek?

– Saroyning narigi chekkasida bo'ssa kerak. Xurrak tovushi xuddi o'sha yerdan kelayotganga o'xshaydi. Otam goho shu yerda cho'chqalar bilan birga tunab qolar edi, biroq u xurrak tortganda kishini ag'darib yuboradigandek bo'lar edi. Meningcha, u endi bu shaharga yana qaytib kelmasa kerak.

Bolalarning qalbida botirlik jo'sh ura boshladi.

– Gek, agar senga yur desam, borasanmi?

– Yo'q, Tom. Birdaniga u yerdan hindi Jo chiqib qolsa nima bo'ladi?

Tom ikkilanib qoldi. Lekin borish havasi juda kuchli bo'lganidan, borib ko'rmoqchi va borishlari bilan xurrak tortishi to'xtasa, darhol orqalariga qaytmoqchi bo'ldilar. Ular bir-birlarining orqalaridan bitta-bitta qadam qo'yib, uxbab yotgan kishi yoniga yura boshladilar. Unga uch-to'rt qadam qolganda, Tom oyoq ostida yotgan bir kaltakni bosib olgan edi, kaltak qarsillab sindi. Uxbab yotgan kishi ingrab yonboshiga ag'darildi. Shu vaqt uning yuziga oyning shu'lesi tushgan edi, uning Meff Potter ekani ma'lum bo'ldi. Uxlayotgan kishi qo'zg'algani-da, bolalarning tomirlaridagi qonlari qotgan va turgan yerlarida o'zlari ham qotib qolgan edilar. Biroq endi ulardagi xavf-xatar tugagan edi.

Ular sekin-asta oyoq uchlari bilan yurib, devorning teshik joyiga yetdilar (unga qoqligan taxtalar sinib, oralari ochilib qolgan ekan); keyin bu joydan ham o'tib ketdilar. Biroq shu vaqt yana o'sha mash'um uzundan-uzun uvLAGAN tovush eshitildi.

Bolalarning ikkalasi ham birdan orqalariga buri lib qararkanlar, xuddi Potter yotgan yerdan ikki qadamcha narida tumshug'ini yuqori ko'tarib turgan bir begona itga ko'zlarini tushdi.

– Bu it o'shangaga qarab hurayotgan ekan-da! – dedi bolalarning ikkalasi birdan.

– Bilasanmi, kishilarning aytishlaricha, Jonni Millerning uyi oldida xuddi yarim kechada bir daydi it uvLAGAN, bu ish bundan ikki hafta ilgari bo'lgan, xuddi o'sha kuni kechasi haligi uyning devorida boyqush ham sayragan emish, biroq o'sha uyda hozirgacha hech kim o'lмаган.

– Uni bilaman. Xo'sh, undan nima natija chiqarmoqchisan? O'sha voqeadan keyin, ya'ni shanba kuni Gresi Miller o'choqqa yiqlib kuyib qolmadimi?

– Kuyishga kuygan-u, lekin o'lмаган. Kuyib o'lish u yoqda tursin, aksincha, hozir ancha tuzalib qolayapti.

– Ha, yaxshi, to'xtab tur, nima bo'lishini ko'rasan. U tuzalib odam bo'lmaydi, Meff Potter singari uning ham holi xarob. Buni negrlar aytadilar, ular esa bilmasdan so'zlamaydilar.

Shundan keyin bolalar bir-birlaridan ajrashdilar.

Tom qaytib kelib, haligi derazadan uy ichiga tushayotganida, tong yorishib qolayozgan edi. U tovush chiqarmay sekin-asta yechindi-da, tungi sayohatidan hech kimning xabardor bo'lмаганидан shodlanib, darhol uyquga ketdi. U uyga qaytib kelgan vaqtida Sid sekin-asta xurrak otayotgan bo'lsa ham, aslida u uqlamay, bundan bir soat ilgari uyg'ongan edi. Tomning esa bundan xabari yo'q edi.

Tom ko'zini ochganida Sid allaqachon o'rni-dan turgan va kiyinib chiqib ketgan edi. Running yorugligidan vaqtning ancha kech bo'lib qolganligi bilinib turardi. Tom hayron bo'lib qoldi. Nima uchun bugun uni uyg'otmaganlar, nima sababdan har safargidek joniga tegib «tur-tur», deb mashmasha qilmaganlar? Uni vahima bosdi. U qandaydir bir yomon ish yuz berishini kutgandek edi. Garchi hali uyquga to'ymagan, juda horiganligi sezilib turgan bo'lsa ham, darrovda kiyinib pastga tushdi.

Uydagi butun oila gavjum bo'lib, stol atrofida o'tirar, lekin ertalabki taomni yeb bo'lgan edilar. Tomga hech kim hech narsa demadi. Hech kim biror so'z aytib undan o'pkalamadi, lekin xolasining ko'z qarashidan uning hamma narsadan xabardor ekani bilinib turardi. Hammalari jimjit o'tirishar va ham-malarining yuzlarida shunday tantanali ko'rinish aks etar ediki, o'zini aybli sezgan Tom buni ko'rib, yuragi orqasiga tortib ketdi. U stol yoniga borib o'tirdi-da, hech narsadan xabari yo'qdek chehrasini ochiq qilib ko'rsatmoqchi bo'ldi, lekin bu harakati behuda ketdi. Uning qiziqchiligidan biron kishi ham kulmadi. Shu bilan uning yuragi orqasiga tortib ketganday bo'lib, jim qoldi.

Nonushtadan keyin xolasi uni bir chetga yetak-lab olib ketdi. Buni ko'rib Tom endi ish kaltak bilan cheklanadi-yu, shu bilan qutulib qolarman, degan xayol bilan sevinganicha borar edi, lekin ish unday bo'lib chiqmadi. Xolasi undan zorlanib: qarigan chog'imda yurak-bag'rimni shunchalik ezishga qan-day jur'at qilding, endi xohlagan ishingni qilaber. O'zingni-o'zing xarob qilasan. Qarigan chog'imda meni uyat va nomusga qoldirasan. Oxir-oqibat meni qabrga tiqasan. Seni inson qatoriga kiritaman, deb urinishdan hech qanday natija chiqmas ekan. Endi bu yo'lda o'zimni sira koymaganim bo'lsin, deb yig'ladi.

Bu har qanday kaltakdan ham yomon bo'ldi. Tom yig'lab yubordi. Xolasidan uzr so'ray boshladi va bundan keyin yaxshi bola bo'lish uchun juda ko'p va'da berdi-da, nihoyat, bo'shadi. Lekin u o'z gunohlarini xolasi hali batamom kechib yubormaganligini va endi o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qolganini sezgan edi. U uydan tashqariga chiqarkan, o'zini shunchalik baxtsiz his qilar ediki, bu to'g'rida chaqimchilik qilgan Siddan o'ch olish ham uning xayoliga kelmadni. Sidning qo'rqb, shoshilganicha orqa eshikdan qochib ketishi ham behuda edi. U juda xafa va qovoqlari solingan holda mакtabga kirib keldi-da, kecha maktabga kelmaganligi uchun Jo Garper bilan birga kaltak yedi. U o'z o'rniga qaytib o'tirgandan keyin, qo'llarini taxta ustiga va boshini qo'llari ustiga qo'yib, kaftini tishlagani holda devorga qattiq tikilib qoldi. Tirsagi esa qandaydir bir qattiq narsaga tiralib, juda yomon og'ridi. Biroq u o'tirgan joyidan qo'zg'almadni va bir entikib nafas olgandan keyin, haligi tirsagiga tegib turgan narsani olib qo'ydi. U narsa bir qog'ozga o'ralgan edi. Tom uni ochdi. Shu vaqt u to'satdan chuqur va og'ir bir xo'rsinib – yuragi dukillab ura boshladi.

Qog'ozga o'ralgan narsa – uning qizga xarid qilgan mis soqqasi edi...

### *O'N BIRINCHI BOB*

## **TOM VIJDON AZOBINI BOSHIDAN KECHIRADI**

Kun tushga yaqinlashgan paytda butun shaharga birdaniga dahshatli xabar tarqaldi. Buning uchun o'sha vaqlarda hech kimning xayolida bo'limgan telegraf ham kerak emas edi. Bu xabar xuddi telegraf bilan baravar tezlikda og'izdan-og'izga, qo'shnidan qo'shniga, hovlidan hovliga o'tib yurar edi. Albatta,

o‘z-o‘zidan ma’lumki, shu kuni muallim maktab bolalarining hammasini bo‘shatib yubordi, agar shunday qilishga muallimning farosati yetmaganida, albatta bu ishga butun shahar hayron qolardi. O‘likning yonida qonga bo‘yalgan bir pichoq topilib, kishining so‘ziga ko‘ra, bu pichoq Meff Potterniki emish. Yana shunday so‘zlar bo‘lganki, bir kishi kechikib qolib, kechasi soat ikkilarda uyiga qaytib kelayotganida, anhor bo‘yida yuvinib o‘tirgan Potterni ko‘rib qolgan. Potter bu kishini ko‘rib qochib ketgan emish. Bu hol, ayniqsa, uning suv bo‘yida qo’llarini yuvib o‘tirishi – ancha shuhali dalil edi. Potter uchun bu odatdagi bir ish emas edi. Politsiyalar qotilni axtarishib butun shaharni titib yuborishgan, lekin hech qayerdan topisha olmagan. Har tomonga otliq choparlar jo‘natilgan. Sherif<sup>13</sup> bo‘lsa kun kech bo‘lmasdanoq gunohkorning qo‘lga tushishiga ishonib o‘tirar emish, degan so‘zlar ham yurar edi.

Shahardagi barcha xalq qabristonga qarab jo‘nadi. Tom ham o‘zining yuragi siqilganligini unutib, olomonga qo‘shilib bordi; uning bunday qilishi, shu ishni xohlashidan emas edi; u bunday ishlardan o‘zini ming milcha nariroqqa olib qochishni afzal ko‘rar, lekin shunday bo‘lsa-da, qandaydir noma’lum bir kuch uni o‘sha tomonga tortib turar edi. U qabristonga yetib borar ekan, kishilar orasidan siqilib oldinga o‘tib, yana o‘sha dahshatli manzaraga ko‘zi tushdi. Uning nazariда o‘zining shu yerga kelib ketganiga go‘yo ancha zamonlar bo‘lganga o‘xshar edi. Kimdir uning qo‘lini chimchilab oldi. U orqasiga qayrilib qaragan edi, yonida turgan Geklberrini ko‘rdi. Ular bir-birlariga qarab oldilar va shu qarashlarida har qaysilari

<sup>13</sup> Sherif – shu okrugda suda va politsiya boshlig‘i vazifasini bajaruvchi amaldor.

ham: «Bizning ko'z qarashimizdan birov biror narsa sezmadimikin?» deb o'z-o'zlariga savol berar, lekin boshqalar o'sha yerdagi dahshatli manzara bilan mashg'ul edilar.

«Oh, bechoral!» «Baxtsiz yosh yigit!» «Mana bu ish o'lik o'g'irlovchilar uchun saboq bo'ldi!» «Meff Potterni ushlab olsalar, uni albatta osadilar», – dedilar hammalari birdan. Domla esa o'z fikrini shunday bayon qildi:

– Taqdiri xudoning qo'lida. Qanday jazo berishni janoblarining o'zlari bilishadi.

Tom shu yaqin o'rtada turgan hindi Joning g'amgin yuzini ko'rarkan, boshidan oyog'igacha titroq bosib ketdi. Shu vaqt butun xalq orqaga chekinib:

– Anavi o'shaning o'zi! O'z oyog'i bilan kelayotir!  
– degan tovushlar eshitila boshladi. Yigirma kishi birdaniga:

– Kim, kim? – deb so'rashdi.

– Meff Potter!

– Qaranglar, to'xtadi. Ehtiyot bo'linglar, qochib ketishga urinayapti. Ushlanglar, bo'lmasa qochib ketadi!

Tomning ro'parasidagi daraxt shoxlariga chiqib o'tirgan tomoshachilar: «U qochmoqchi emas, faqat hayron bo'lib, nima qilishini bilmay turipti», – deb xabar berdilar.

– Qanday uyatsizlik! – dedi xalq o'rtasidan birov.

– O'zining qilgan yomonliklarini tomosha qilgali kelgan va bu yerda kishilar bor, deb o'ylamagan bo'lsa kerak...

Xalq orqaga chekindi. Sherif dabdaba bilan Pottering qo'lidan yetaklab, qabr yoniga olib keldi. Bechoraning rangi o'chib ketgan, ko'zlarida qo'rquv alomatlari sezilib turar edi. O'likni ko'rар ekan, uning butun tanasini qaltiroq bosdi va yuzini qo'llari bilan berkitib, ho'ngrab yig'lab yubordi.

– Do'stlarim, buni men o'dirganim yo'q, – der edi u ho'ngrib yig'lagani holda, – azbaroyi xudo men o'dirganim yo'q.

Oradan birovning:

– Seni kim ayblayotir? – degan tovushi yangradi.

Otilgan kamon nayzasi mo'ljalga borib tekkan edi. Potter boshini yuqoriga ko'tarar ekan, kishiga ta'sir qilarlik darajada umidsizlik bilan tevaragiga bir qarab qo'ydi va hindi Joni ko'rар ekan:

– Hoy, hindi Jo! Sen menga va'da qilgan edingki, hech vaqt... – deb baqirdi.

Sherif uning so'zini bo'lib va qotil qurolini xuddi uning tumshug'i oldiga keltirib:

– Bu pichoq siznikimi? – deb so'radi.

Shu vaqt kishilar kelib, Potterni qo'lidan ushlab, sekin yerga o'tirg'izmaganlarida, u albatta yiqilib tu-shar edi. Keyin u:

– Menga xuddi bir narsa: agar sen o'sha yoqqa bormasang va...ni topmasang, deb aytgandek bo'lgan edi... – u seskanib ketdi va umidsizlik bilan qo'lini siltab: – Jo, endi shularga aytib beraqol, endi yashirishning nima keragi bor, – dedi.

Geklberri bilan Tom hayajon ichida tillari so'zga kelmay qolib, qotilga tikilib qarab turar edilar; bu vijdonsiz yolg'onchi esa hech bir uyalmay-netmay o'zi o'y lab topgan o'lim manzarasini hikoya qilar edi. Bolalar minut sayin: «Mana hozir ochiq-oy-din kunda havo guldirab, yashin chaqnab, qotilning ustiga xudoning balosi yog'ilari, deb kutar va xudoning g'azabi bunchalik kechikishiga hayron bo'lib turar edilar. U hikoyasini tamom qilgandan keyin ham hech narsa bo'lmay, salomat qolganini ko'rganlaridan keyin ularning o'z ahdlarini buzib, gunohsiz ayblangan Potterni halokatdan qutqarib qolish orzulari ham yo'qoldi. Aftidan, bu yaramas Jo o'z jonini shaytonga sotgan bo'lsa kerak, endi biror

ishga shayton oraladimi, bo'ldi, unga odamzodning qadam qo'yishi mumkin emas, agar ozgina aralashsa ham, yaxshilik ko'rmaydi.

Kimdir Potterdan:

– Sen nega qochib ketmading? Nega bu yerga kelding? – deb so'radi.

– Boshqa iloj topa olmadim... mumkin bo'lma-di! – dedi Potter. – Qochmoqchi bo'lgan edim, lekin mening o'z oyoqlarim bu yerga olib kelib qo'ydi-da!

– Shu so'zlarni aytarkan yana yig'lab yubordi.

Oradan bir necha minut o'tgandan keyin hindi Jo ham qasam bilan so'roqda tinch va osoyishtalik holda o'zining avvalgi aytganlarini takrorladi. Bolalar ham buning shunday yolg'onchiligi uchun osmondan balo yog'ilmanligini ko'rib, metisning o'z jonini shaytonga sotganligiga qat'iy ishondilar. Bolalar undan juda qo'rqar edilar, shu bilan birga u bolalar uchun dunyodagi hamma narsadan ham xunuk ko'rinar edi, shuning uchun bolalar undan ko'zlarini olmay tikilib turar edilar. Bolalar qanday bo'lsa ham bir iloj qilib, uning dahshatli xo'jayinini ko'rib olish tilagida uni kechalari kuzatib yurishga o'zlaricha qaror berdilar.

Hindi Jo o'ldirilgan kishining tanasini yerdan ko'tarib olish va tezroq olib ketish uchun aravaga solishga yordamlashdi. To'plangan xalq vahimaga tushdi. Ular shivirlashib, xuddi shu damda yaradan qon tomchilab oqqanini so'zlar edilar.<sup>14</sup> Bolalar: «Bu qulay voqeа xalqqa chinakam qotilni ko'rsatib berar», deb o'ylagan edilar, biroq ularning bu umidlari puchga chiqdi, chunki kishilar shu yerning o'zidayoq:

– Bu voqeа yuz berganda, Meff Potter o'likdan uch qadam narida turgan edi, deb aytgan edilar.

<sup>14</sup> Qadimdan shunday bir ishonch bor ekan: go'yo o'likning yoniga uni o'ldirgan kishi yaqin kelsa, o'likning yaralangan joyidan qon oqar emish.

Tomning dahshatli siri va undagi vijdon azobi, ko'p bo'lmasa ham, aqalli bir hafta uni kechalari uxlatmay qo'ydi. Shuning uchun bir kuni ertalab nonushta mahalida Sid:

– Tom, sen kechalari ko'p qimirlab va alaxsirab hech uxlatmaysan... men kechaning yarmisini uyqusiz o'tkazdim, – dedi.

Tomning rangi o'chib, yerga qaradi.

– Bu juda yaramas hol, – dedi Polli xola jiddiy ravishda. – Tom, boshingda qanday o'ylar bor?

– Hech qanday o'y yo'q, mutlaqo yo'q!

Ammo bolaning qo'llari shunday qaltirar ediki, u qo'lidagi choyni to'kib yubordi.

– Aytadigan so'zlarining ham allaqanday bemanı narsalar, – deb so'zida davom etdi Sid. – Bu kechasi ham: «Bu qon, bu qon bildingmi?» deding va har safar shu bir so'zning o'zini takrorlayverasan. Keyin: «Meni bunchalik qiynayvermanglar, o'zim aytib beraman», deysan. Aytib berasanmi? Nimani aytib berasan?

Tomning ko'z oldilari qorong'ilashib, hamma narsa go'yo aylanib ketayotgandek bo'ldi. Shu paytda buning oqibati nima bo'lishini aytish qiyin edi, lekin uning baxtiga Polli xolaning chehrasidagi tashvish alomatlari yo'qolib, garchi o'zi voqeadan xabardor bo'lmasa ham Tomga yordamlasha boshladi.

– Oh! Bularning hammasi o'sha dahshatli odam o'dirishdan. Har kuni deyarlik mening tushimga kiradi. Ba'zan tushimda go'yo uni o'zim o'dirgan bo'lib chiqaman.

Meri ham shunday ahvolni boshidan kechirganligini so'zlab o'tdi. Sid bunday izohotlardan mamnun bo'lgandek ko'rinar edi.

Tom, daf'atan to'g'ri kelgan bir narsani bahona qilib, uydagilar oldidan chiqib ketishga shoshildi. Shundan keyin kechalari yana alaxsirab chiqmaslik uchun tish og'rig'ini bahona qilib, jag'ini ro'mol

bilan bog'lab yotadigan bo'ldi. U, Sidning kechalari jo'rttaga uklamay yotishidan xabarsiz edi; Sid esa kechalari Tom jag'ini bog'lagan ro'molni bo'shatib, uning so'zlariga qulq solar va keyin tag'in mahkam bog'lab qo'yari edi.

Tom vijdon azobidan sekin-asta foriq bo'la boshladi; u tish og'rig'idan zorlanishdan ham zerikib, kechalari jag'ini bog'lamaydigan bo'ldi. Agar Sid uning kechalari uyqusirab aytadigan so'zlaridan uncha-muncha narsalarni anglagan bo'lsa ham, u bularni hech kimga so'zlamay, sir saqladi.

Shu orada Tomning o'rtoqlari yangi bir ermak topib oldilar: ular o'lilik mushuklar ustidan tergov yurgizadigan bo'ldilar: ularning bu ermaklari Tomga dam-badam o'sha mudhish voqeani eslatar edi. Sid ko'rdiki, garchi Tom dastlab har bir o'yinda birinchi rolning berilishini talab qiladigan bo'lsa ham, bu o'yinda u hech bir bosh tergovchi rolini olib chiqmadi. Tom hatto guvohlik rolidan ham bosh tortmoqda edi. Sid buni ham o'sha vaqt-dayoq sezgan va bu unga qiziq tuyular edi. Sid yana shunday ahvolni sezdiki, Tomga bu o'yinlar umuman yoqmas va picha imkoniyat tug'ilishi bilanoq qochib qolishga urinar edi. Sid bu g'alati sirlar ustida boshini qotirar, biroq hech bir so'z aytmas edi. Ko'p o'tmay bu o'yinlarning hammasi eskirib qoldi va shu bilan Tomning vijdoni ham azoblan-maydigan bo'ldi.

Shunday og'ir kunlarda Tom har kuni yoki kun oralab qulay payt topib, «qotil» qamalib yotgan qamoqxonaning temir panjaralik kichkina derazasi yoniga kelib, o'zi topa olgan har xil shirin narsalardan yashirin ravishda berib ketar edi. Qamoqxona uncha katta bo'lmay, shaharning bir chekkasidagi botqoqlikka qurilgan va g'ishtdan ishlangan bir bino edi. Unda qorovul ham yo'q, negaki qamaluvchilar ham

juda kam bo'lar edi. Bu hadyalar kichkina bo'lsa ham Tomning ko'nglini ancha tinchitar edi.

Shaharcha xalqining metis hindi Joni o'lik o'g'irlagani uchun qora moyga bulg'ab, keyin tovuq patiga ag'natib, shu holda shahardan haydab chiqarib yuborishga ishtiyoqlari zo'r edi. Lekin u kishilarni shu qadar qo'rqitar ediki, bu ishni boshlash uchun jur'at qila oladigan kishi topilmadi. Ikkala so'roqda ham metis so'zini to'ppa-to'g'ri mushtlash bo'lgan yerdan boshlab, o'likni o'g'irlash to'g'risida hech narsa demadi. Shuning uchun sudda bu masalani hozircha qo'zg'atmaslik lozim topildi.

## O'N IKKINCHI BOB

### MUSHUK VA DORIVOR

Tomda yangi va jiddiy qayg'u tug'ildi: Bekki Techer mактабга kelmaydigan bo'lib qoldi. Bu tashvishlar bilan Tom o'zini hayajonlantirgan qayg'uli sirni tamomila unutgan edi. Tom bir necha kunlargacha o'zini takabburona olib yurib, Bekkini esidan chiqarishga urinsa-da, bunga muyassar bo'la olmadi. U kechalari Bekkining hovlisi atrofida tentirab yurar va o'zini juda baxtsiz his qilardi. Bekki kasal bo'lib qolgan edi. Endi u o'lib qolsa nima bo'ladi? Bu fikr uni zo'r umidsizlikka solib qo'ygan edi. Uni endi urush ham, hatto dengiz qaroqchiligi ham qiziqtirmasdi. Hayotning butun go'zalliklari yo'qolib, faqat ko'ngilsizlikkina qolgan. U hatto o'zining tayoq bilan g'ildiragini ham tashlab qo'ydi. Bu narsalar hozir uni ilgarigidek qiziqtirmas edi. Holasi Tomning sog'ligi haqida qayg'urib, uni davolay boshladi va ko'rgan-bilgan dorivorlarining hammasini bir-bir ishlatib ko'rdi. U har bir yangi o'ylab chiqarilgan va iste'mol etish uchun ijozat berilgan dorivorlarga

qiziqar, har un deyarlik tajribalar qilib ko'rishdan charchamas edi. Biror yangi dorivor chiqsa, xola darhol uni sinab ko'rар, sinaganda ham o'zi iste'mol qilib ko'rmas edi. U buni daf'atan to'g'ri kelgan biror kishiga berib tajriba qilib ko'rар, chunki o'zi hech kasal bo'lmas edi. U «sog'liq» deb ataluvchi har xil jurnallar va frenologlarning<sup>15</sup> risolachalariga obuna bo'lar va ulardagi to'lib-toshib yotgan ma'nosiz narsalar uning uchun asaldan ham shirin tuyulardi.

Uyni shamollatish, to'shakda qanday yotish, o'rindan qanday turish, nima yeish, nima ichish, har kuni necha marta aylanib yurib kelish, o'z ruhiy ahvolini qanday tutish va qanday kiyim kiyish kabi har xil dovdirashlarning hammasi uning uchun Tavrotdan chiqqan haqiqatdek tuyular va uning shu oy ichida olgan jurnallarida bayon etilgan narsalar o'tgan yil xuddi shu jurnalning o'zi tavsiya etgan narsalarga tamom zid chiqishini u sezmas edi. U sodda va ko'ngli ochiq ayol, – shuning uchun u shu kabi har xil narsalarga aldanar edi. O'sha vaqtarda suv bilan davolash endigina rasm bo'lib kelayotgan edi, shuning uchun bechora Tomning kasallik holati xuddi shu vaqtga to'g'ri keldi. Xolasi uni tong otar-otmas o'rnidan turg'izib, o'tinxona-ga yetaklab olib borib sovuq suvgaga pishar, keyin dag'al bir sochiqni olib, tanlari qizarib ketguncha qashlag'ich bilan qashlagandek ishqar, so'ngra uni ho'l choyshabga o'rab, yaxshiroq terlasin deb ustini qalin ko'rpalari bilan yopib qo'yari edi. Tom bechora shunchalik terlar ediki, o'zining aytishicha, «ichidagi barcha g'uborlari terisining yoriqlari orqali tashqariga chiqqandek» bo'lar edi.

Shuncha harakatlarga qaramay, bola kundan-kun rangi ketib oriqlay borar, ko'rinishi juda

<sup>15</sup> Frenologlar – kishining bosh suyagidagi har bir g'urrasи uning ruhiy sifatlarini belgilaydi, deb ta'kidlovchi qadim zamon «olimlari».

ayanch tus olib, borgan sari ahvoli yomonlashar edi. Xolasi avvaldan qilib kelayotgan davolari ustiga uni issiq vannaga tushirish, vanna ichida uzoq vaqtlar o'tirg'izish, dush va suv ichida yotqizib qo'yish yo'llarini ham ishlata boshladi. Suv davolariga qo'shimcha ravishda xolasi uni suyuq arpa go'jası bilan boqib, butun badaniga malham yopishtirib qo'ydi. Bundan tashqari xolasi unga har xil bo'limg'ur narsalarni bera boshladi. Har kuni suvga pishishi ustiga yengil ovqatlanish, yaraga malham qo'yish tajribalarini ham qo'shdi. U bolaning ustidan har kuni xurmachalab har xil dorivorlarni quyar edi.

Bora-bora Tom bu qyinoqlarning hammasiga butunlay farqsiz va iltifotsiz qaraydigan bo'lib qoldi. Bu esa xolasini juda tashvishlantirib, xafa qilar edi.

Har qanday yo'l bilan bo'lsa ham Tomni bunday hissizlikdan qutqazish kerak edi. Shu vaqt u birinchi daf'a «og'riqni bosuvchi» yangi bir dori chiqqanligini eshitib, darhol shu doridan anchasini oldirdi. Keyin u o'sha dorini sinab ko'rib, undan nihoyatda mammun va rozi bo'ldi: bu dori xuddi suyuq holatdagi o'tga o'xshardi. U suv bilan davolashni yig'ishtirib qo'yib, bor ishonchini shu yangi doriga bag'ishladi. U doridan Tomga bir choy qoshib'ini to'ldirib berdi-da, sabrsizlik bilan uning natijasini kuta boshladi. Keyin bundan xolaning tashvishlari bir zumgina pasayib, joni tinchlandi. Chunki Tomdag'i hamma narsaga parvosizlik bilan qarash hissiyoti yo'qola boshlagan edi. Agar bolani qip-qizil cho'g' bo'lib turgan ko'mir ustiga o'tqazib qo'yilganda ham bu tajribaga shundan ortiq hissiyot tug'dirmas edi.

Tom qanday bo'lsa ham endi chinakam harakat qilish lozimligini sezsa boshladi. U o'z ustida bo'ladi-gan qyinoqlardan qutulish uchun har xil yo'llar axtara boshladi-da, nihoyat «haligi «og'riqni bosuv-

chi» dori o'zimga juda ma'qul bo'lib qoldi» degan bahonani qilmoqchi bo'ldi. U dorini shunday teztez so'ray boshladiki, xolasi zerikib: «Endi bundan keyin mendan dori so'rab bezor qilmay, ko'ngling xohlagan vaqtda o'zing olib ichaver», – dedi. Agar bu Sid bo'lganda edi, kampirning chin shodligiga hech qanday tashvish aralashmagan bol'lar edi. Biroq bu ish Tomga aloqador bo'lgani uchun kampir sekin-assta shishani kuzatib yura boshladi. Dori chindan ham kamayib borar edi, lekin Tomning dori bilan o'zini davolamay, uyning to'ridagi taxtaning yorig'ini davolayotgani uning xayoliga ham kelmagan edi.

Bir kuni shunday qilib dorini taxtaning yorig'iga quyayotganida, uning oldida xolasining sariq mushugi kelib qoldi-da, miyovlab qoshiqqa tikilib, go'yo shu narsadan berishini so'raganday aylanib yura boshladi.

– Oh, Piter, buni so'rama, bu senga butunlay keraksiz bir narsa, – dedi Tom.

Biroq Piter bu kerak deb tushuntirgandek bo'ldi.

– Yaxshilab o'ylab ko'r, tag'in yanglishma... keyin o'kinib yurasan...

Piter buning uchun keyindan o'kinmaslikka ishonch bildirdi.

– Qani, agar chindan ham shuni berishimni iltimos qiladigan bo'lsang, beraman, men ziqna emasman. Biroq shuni yaxshi bilki, agar ma'qul bo'limasa, o'zingdan ko'r.

Piter shu shartlarga rozi bo'ldi. Tom uning og'zini ochdi-da «og'riqni bosuvchi» doridan bir qoshig'ini quydi. Piter shundayoq ikki gaz bo'yи balandlikka sakradi. Shiddatli tovush bilan miyovlab qichqirdi-da, stol va stillarga o'zini urdi, gul idishlarini tushirib yubordi, to's-to'polon qilib, uy ichini boshiga ko'tardi va u yoqdan-bu yoqqa

yugura boshladi. Keyin u haddan tashqari shodlanib, keyingi ikkala oyog'i bilan turib o'yinga tushdi, o'zini ifoda etib bo'lmaydigan darajadagi shodligini bildirib, boshini orqaga tashlagan holda butun uy ichining to's-to' polonini chiqarib yurar edi. Polli xola eshikdan kirib kelganida u uch-to'rt marta o'mbaloq oshib dahshatli ravishda miyovlab, yo'l ustidagi sinmay qolgan gul tuvaklarini sindirib, ochiq derazadan irg'ib chiqib ketdi. Kampir ko'zoynagining ustidan qarab, bu manzarani ko'rib hayron bo'lib qotib qolgan, Tom bo'lsa o'zini kulgidan to'xtata olmay, yerda ag'anab yotar edi.

– Tom deyman, rostingni ayt-chi, bu bizning mu-shugimizmi? Unga nima boldi.

– Bilmadim, xola, – dedi Tom, kulgi aralash.

– Men umrim bo'yi uni bu ahvolda ko'rмаган edim. Nega u bunday qiladi?

– Chindan ham bilmayman, xola, mushuklar juda ortiqcha shodlanganlarida shunday o'ynashsa kerak.

– Shundaymikin?

Xolasining tovushida sezilgan qandaydir bir narsa Tomning o'zini hushyor tutishga majbur etdi.

– Ha, xola, men shundaydir, deb o'ylayman.

– Sen-a?

– Ha, xola.

Kampir yerga egildi. Tom uning harakatini diqqat va vahima bilan kuzatib turar, lekin nima uchun «engashayotganini» kechroq tushunib qoldi. Karavot ostidan choy qoshig'ining uchi chiqib turar edi. Polli xola uni yerdan olib Tomning xuddi tumshug'i tagiga olib bordi. Tom ko'zlarini yerga tikib, orqasiga chekindi. Polli xola uni odatdagicha qulog'idan tortib turg'izdi-da, angishvonasi bilan boshiga do'qillatib bir urib qo'ydi.

– Qani, ser, menga aytib ber-chi, jonim, bu tilsiz hayvonga nega bunchalik azob berasan?

– Men unga rahmim kelganidan dori bergen edim. Chunki u bechoraning menikiga o'xshagan xolasi yo'q-da.

– Xolasi yo'q? Qanday behuda so'zлarni aytasan, ahmoq bola! Sen bilan uning qanday aloqasi bor?

– Juda katta aloqasi bor, xola. Agar uning xolasi bo'lganida, uni o'sha xolasi «parvarish» qilar edi.

Polli xola birdan o'zida vijdon azobini sezal boshladi. Uning davolashi o'z ko'zi oldida yangicha tasavvur tug'dirdi. Mushukka nisbatan rahmsizlik bo'lgan narsaning bolaga nisbatan ham rahmsizlik bo'la olishi sezildi. Uning ko'ngli biroz yumshab, Tomga rahmi kela boshladi. Hatto uning ko'zlarida yosh ham ko'ringan edi. U bolanining boshini silar ekan:

– Tom bolam, men sening foydang uchun shunday qildim-da, mening qilganlarim sening uchun foydali bo'lib chiqdi, – der edi.

Tom juda jiddiy ravishda uning yuziga bir qarab qo'ydi. Faqat uning lablari biroz uchib turar edi.

– Xola, siz menga yaxshilikni istagansiz, men buni bilaman, lekin men ham Piter uchun yaxshilik istadim-da. Bu narsa uning uchun ham foydali bo'ldiku. Men uning shu daraja shodlanganini hech bir ko'rмаган edim.

– Qani, bo'ldi endi Tom, bas qil, mening jahlimni chiqarma. O'zingni yaxshi tut, aqli bola bo'l... shunday qilsang, hech vaqt senga dori ichishga to'g'ri kelmaydi.

Tom maktabga dars boshlanmasdan ilgari yetib keldi. Tomning so'nggi kunlardagi bunday odatdan tashqari harakatlarini hamma sezgan edi. Bugun ham so'nggi kunlardagi doimiy odatidek, o'g'il bola o'rtoqlari bilan birga o'ynab yurish o'rнига, hovlida va darvoza yonida aylanib yurar edi. U salomatligim zaif deb barcha o'yinlardan voz kechdi. Haqiqatda ham uning mazasi yo'q ko'rinar edi. U o'zini atrofga

qarayotgan qilib ko'rsatmoqchi bolsa ham, lekin aslida yo'iga qarab turar edi: Uzoqdan Jeff Techer ko'rinishi bilan Tom quvnab ketdi, biroq orada bir minut o'tar-o'tmas uning chehrasini avvalgidek xafachilik qopladi. Jeff darvozadan kirib kelganida, Tom uning oldiga yugurib borib, qanday bolsa-da uni singlisi to'g'risida gapga solmoqchi bo'lar, biroq u anqovroq bo'lib, Tomning ishoralari tushunmas edi. Uzoqdan bironta oq ko'yakli ayol ko'rinishi bilanoq Tom to'la ishonch bilan uni kutib, shaylanib turar va u ko'ringan kishi oldiga yetib kelganida, basharti boshqa kishi bo'lib chiqsa, uni yomon ko'ra boshlar edi. Nihoyat, bunday oq ko'yaklar ham ko'rinxay, Tomni xafachilik qurshab oldi. U butunlay xafa va o'ychan holda bo'sh sinf ichiga kirib o'tirdi. Shu vaqt deraza oldida yana bir qiz ko'yagli ko'rindi. Buni ko'rib Tomning yuragi o'ynab ketdi. Birdan u hovli yuziga yugurib chiqib, hindidek ayqov-chayqov yura boshladi: shovqin solib baqirar, xaxolab kular, o'rtoqlarining orqasidan quvlab yugurar, o'z hayoti uchun xavfli harakatlar bilan devorlar ustidan sakrab, boshi bilan yurar, - xullas turli-tuman hunarlar chiqarib, har xil botirliliklar ko'rsatar va Bekki qararmikin, deb ko'z qiri bilan unga nazar tashlab qo'yar edi. Biroq qiz, aftidan, hech narsani sezmas va unga hech bir burilib qaramas edi. Nahotki, qiz uni sezmasa? Tom qizning oldiga yaqinroq keldi va necha xil harakatlarni ko'rsata boshladi; u tevarak-atrofga yugurib, bir bolaning boshidagi telpagini olib, tomga tashlab yubordi. To'planib turgan bolalar ichiga otilib kirib, ularni har tomonga tumtaraqay qildi-da, o'zi Bekkini yiqitayozib, xuddi uning oyog'i ostiga uzala tushib yotib oldi. Qiz burnini yuqori ko'tarib, yuzini teskari o'girdi-da, Tomga eshitdirib, yonida birga ketayotgan o'rtog'iga qarab:

– Ba’zi bolalar o’zlarini juda chaqqon, epchil hisoblaydilar, haqiqatda esa ular bo’sh, maqtanchoq bo’lib chiqadilar, – dedi,

Tom yuzlari qizargan holda o’rnidan turdi-da, boshini egib, tamom ruhsizlik bilan bo’shashib maktabga kirib ketdi.

## O’N UCHINCHI BOB

### **QAROQCHILAR SHAYKASI YELKANNI KO’TARADI**

Tom qat’iy bir qarorga keldi. Uning ko’nglida g’ashlik va umidsizlik to’lib toshar edi. U o’zini yolg’iz, hech kim qaramay tashlab qo’yan, hech kim suymas bir kishi deb hisoblardi. Keyinroq borib kishilar uni qanday xafa qilganliklarini bilsalar, balki rahmlari kelib achinarlar, degan o’y bilan o’zini hamma vaqt yupatib yursa hamki, unga hech kim yordam bermas edi. Agar ular albatta undan qu tulishni istasalar, nimayam qila olardi? U ketadi, keyin uni xohlaganlaricha so’ka bersinlar. Nimaga so’kmasinlar? Hech kim qaramay qo’yan yakka-yu yagona bir bola shikoyat qilishga haqlimi? Nihoyat, uni jinoyat qilishga majbur etdilar... Boshqacha yo’l yo’q... Shunday xayollar ichida u ko’kalamzor maydonning narigi boshiga borib yotgan edi, maktabdan bolalarni tushdan keyingi darsga chaqiradigan qo’ng’iroq tovushi eshitildi. Tom o’ziga yaxshi tanish bo’lgan bu qo’ng’iroq tovushini endi bundan keyin sira eshitmayman, degan fikr bilan yig’lab yubordi. Bunga ko’nikish qiyin bo’lsa ham majbur edi. Uni hammalari o’zlaridan chetga siltar, nima bo’lsang, shu bo’l deb o’z taqdiriga tashlab qo’yar ekanlar, bunga albatta bo’ysunish kerak. Biroq Tom uning bu qilgan ishlarini kechiradi.

To'm avvalgidan ham ortiqroq ho'ngrab yig'lab yubordi.

Xuddi shu paytda u o'zining eski qadrdon do'sti Jo Garperga duch kelib qoldi. Ko'rinishdan u ham juda xafa bo'lib, ko'nglida esa buyuk va achchiq bir qat'iyat yetilib qolgandek tuyulardi. Bular, shubhasiz, ikkovlari ham «xuddi bir xil fikr bilan to'lg'angan ikki jon» edilar. Tom yengi bilan ko'z yoshini artarkan, o'rtog'iga hasrat qilib, unga o'z uyida hech kim xayrixohlik qilmasligi va yomon muomalada bo'lishlarini aytib, uyidan butunlay ketmoqchi va bundan keyin sira qaytib kelmasligini aytdi. Piravordida u: «Jo meni hech esdan chiqarmaydi», deb ishonch bildirdi.

Suhbat davomida Joning ham bu haqda Tomdan so'ramoqchi bo'lgani xuddi shunday masala bo'lib, xuddi shunday maqsad bilan uni qidirib yurganligi ma'lum bo'ldi. Onasi uni qaymoqni sen yeb qo'ygan-san, deb urgan, u esa haqiqatda hech qanday qaymoq ko'rмаган ham. Aftidan, u onasining joniga tekkan, onasi ham uni yo'qotib qutulmoqchi bo'lgan bo'lsa kerak, agar shunday bo'lsa Jo uchun faqat uning tilagini bajo keltirishdan boshqa chora yo'q. Onasi uni yo'qotib, o'zining baxtli bo'lishiga va o'z bolasini azob-uqubatlar tortib o'lib ketishi uchun shu sovuq dunyoga tashlab qo'yganiga achinmasligiga ishonadi.

Bolalar to olim kelib, ularni jabr-mashaqqatlar dan qutqazmaguncha bir-birlaridan ajralmay aka-ukadek bo'lib yurishga va'dalashib, sekin-asta qayg'u-hasrat bilan yo'nga tushib jo'nadilar. Keyin ular o'zlaricha rejalar tuza boshladilar. Jo o'z xayolida bu dunyo maishatlaridan butunlay kechib, birorta g'orning ichiga kirib, qotgan nonlar yeb sovuqdan, muhtojlikdan, qayg'u-kulfatlardan o'lib ketishga rozi bo'lgan edi. Lekin Tomning bunday ishdan ko'ra

jinoyat yo'liga kirish ancha foydaliroq, degan maslahatiga qulq solib, qaroqchi-o'g'ri bo'lmoqchi bo'ldi.

Shaharchadan uch mil nariroqda, Missisipi dar-yosining kengligi bir milga yetadigan yerda, uzundan uzoq cho'zilib ketgan daraxtzor bir orol bo'lib, uning qumloq bosh tomoni makon uchun juda qulay yer edi. Bu orolda odatda kishi zoti yo'q, o'zi daryoning narigi tomonidagi qalin o'rmonlarga yaqin. Biroz nari-beri o'ylanib turganlaridan keyin, qahramonlarimiz shu Jekson orolini o'zlar uchun makon qilib olmoqchi bo'ldilar. Keyin ular Geklberri Finni topib oldilar, u ham jon-dili bilan ularga qo'shildi. Gekka har qanday ishning farqi yo'q edi. Ular – qishloqdan ikki mil yuqoriroqda – suv bo'yidagi xilvat yerda o'zlarining yaxshi ko'rgan vaqtleri, ya'ni yarim kechada topishmoqchi bo'lishib, ajralishib ketdilar. O'sha yerda yog'ochdan ishlangan bir sol bo'lib, ular o'shani egallab olmoqchi, o'zaro shartlashib, har qaysilari mumkin qadar qaroqchilarga xos noma'lum va qora yo'llar bilan ilgaklar, qarmoqlar va oziq-ovqatlar topib olib kelmoqchi bo'ldilar; o'sha kuni tush vaqtি bo'lmasdanoq har qaysisi o'z o'rtoqlari orasida: «Tez vaqtarda shahardan bir narsa eshitsalaring kerak» degan va kishini qiziqtiradigan xabar tarqatishga ulgurdilar. Bu tumanli xabar ishorasini eshituvchi kishilarning hammasini «bu so'zni og'izlaridan chiqarmasliklari» to'grisida ogohlantirgan edilar.

Yarim kechaga yaqin Tom qo'lida bir bo'lak pishgan to'ng'iz go'shti va yana boshqa xil oziq-ovqatlarni ko'tarib kelib, qalin o'tlar orasiga yashirib qo'ydi. Bu bir tepalik ustida bo'lib, shu yerdan ularning uchovlari uchrashadigan yerlari ko'rinish turar edi. Qudratli, katta daryo ham go'yo uyquga cho'mgan singari to'lqinlanmasdan tinch turar edi. Tom atrofga qulq soldi, hech qanday tovush yo'q. Sekingina uzun hushtak chalib qo'yan edi, unga qalin o'rmon orasi-

dan javob eshitildi. Tom yana ikki marta hushtak chaldi, u yoqdan ham xuddi shunday «javob» keldi. Shundan keyin kimdir tovushini o'zgartiribroq:

– Kim kelayotir? – deb so'radi.

– Ispan dengizining qora Qasoskori Tom Soyer.

O'zlarining kimsizlar? Ismlaringizni aytinglar!

– Gek Finn – Qonli qo'l va Jo Garper – Dengizlar Dahshati.

Bu laqablarni Tom o'zining sevikli romanidan yodlab olgan edi.

– Xo'p, qani parolni aytinglar!

Kechaning sukunati ichida ikki kishi xirillagan tovush bilan birdaniga:

– «Q o n!» degan javobni berdilar.

Tom tepalikdan turib oldin go'shtni yumalatib yubordi, orqasidan o'zi sirpanib tushdi. Bu tepalikdan suv bo'yiga tushadigan tep-tekis, juda yaxshi yo'l bo'lsa ham, biroq u chin o'g'ri sifatida yomon va xavfli yo'ldan yurishni afzal ko'rghan edi.

Dengizlar Dahshati ham o'zida bor cho'chqa go'shtini zo'rg'a ko'tarib olib keldi. Finn – Qonli Qo'l, qayerdandir bir qozoncha hamda o'zidan boshqa hech kim tamaki chekmaydigan bo'lsa ham, bir das-ta tamaki yaproqlari bilan trubka qilish uchun bir necha jo'xoripoya topib kelgan edi. Qora Qasoskor, agar o't bo'lmasa, yo'lga tushishning ham hech bir ma'nosi yo'qligini bildirdi. Bu juda yaxshi fikr edi: gugurt u vaqtarda juda kamdan- kam ma'lum bo'lgan bir narsa edi. Bolalar ikki yuz qadam chamasi daryo oqimidan yuqoridagi bir solda olov borligini bilib, sekin-asta borib, undan bir chalani o'g'irlab keldilar.

Keyin ular yo'lga tushdilar. Tom yonidagilarga buyruqlar berib borar edi. Gek eshkaklarni eshib borar, Jo bo'lsa solning dum tomonida o'tirardi. Tom go'yo o'zini kapitan his qilar edi. Achchiqlangan bo'lib

qovoqlarini solib, qo'llarini ko'kragiga qovushtirib dahshat bilan komanda berib borar edi:

- Shamolga to'g'rilab yuringiz!
- Xo'p, ser!
- To'g'riga yur, to'g'riga!
- Xo'p, ser!
- Biroz bo'shat!
- Xo'p, ser!

Biroq sol daryoning o'rtaida ketib borayotganligi uchun bunday komanda berish shunchaki bo'lib, haqiqatda bundan hech bir foyda yo'q edi.

- Yelkanlarning qaysilari ko'tarilgan? – Pastkilari, ser!
- Hammalaringiz palubaga chiqinglar! Qani, chaqqonroq!

Azamatlardan oltitasi for-machtaga chiqsin. Qani, tez-tez qimirlanglar!

- Xo'p, ser!
- Katta yelkanni yoyib yubor. Qani, ha yigitlar, chaqqon bo'linglar!
- Xo'p, ser!
- Rulni shamolga to'g'rilab ushla! Bir chekkaga bur. Qarshidan kelayotgan urush kemasini ko'rdingmi? Chapga yur, chaproqqa! Yashanglar, azamatlar! Birgalikda harakat qilinglar! Chapga yuringlar!
- Xo'p ser!

Sol daryoning oqimiga chiqib oldi. Bolalar uni qo'yib yuborib, eshkaklardan qo'llarini bo'shatdilar. Daryodagi suv ko'p bo'lмаганидан, oqimi ham kuchli emas edi, oqish tezligi – soatiga ikki-uch milcha kelardi. Bolalar qirq minut chamasi bir-birlari bilan hech so'zlashmay bordilar. Sol bular tug'ilib o'sgan shaharcha yonidan suzib o'tib ketdi. Shaharcha tinch uyquda edi. Ahyon-ahyonda ikki-uch o't ko'rinib, shaharning qayerdaligini taxmin qilish mumkin

edi. U shaharcha ko'kda yulduzlar zumrad kabi yarqirab turgan bepoyon va tuman bilan qoplangan daryoning teparog'ida edi. Butun aholi shu paytda bo'layotgan bu buyuk voqeadan xabarsiz, tinch uyquda yotardi. Ispan dengizining Qora Qasoskori hanuzgacha solning o'rtaida tikka turgani holda, ilgari yaxshi yashagan va so'nggi vaqtarda ko'p azoblar chekkan shaharga so'nggi dafa ko'z tashlar, o'lindan qo'rmasdan, unga tikka borar, lablarida qandaydir tumanli tabassum bilan o'zining o'limga qarshi kelayotganini boshqalar ko'rishsin, deb bunday to'lqinli katta daryo ichida borardi. Taassurotni biroz kuchaytirish bilan Jekson oroli ham juda poyonsiz uzoqliklarga siljib ketgandek bo'ldi. Tom ham yuragi ezilgan, lekin mamnun holda o'zining tug'ilib o'sgan shahariga yana bir bor qarab qo'ydi. Uning o'rtoqlari ham shaharga tikilib qaray-qaray, oroldan o'tib ketayozgan edilar, lekin ular qo'rqinchni vaqtida bilib qolib, uning oldini oldilar. Kechasi soat ikkilar bolganda, sol ular to'xtamoqchi bo'lgan yerdan ikki yuz qadam chamasi yerdagi sayozlikka borib to'xtadi va ular o'zlarining bor narsalarini o'sha yerga tashib olgunlaricha ancha vaqt borib-kelib yurdilar. Shu orada ular solning yelkanlaridan birini olib kelib, oziq-ovqatlarning us-tini yopib qo'ydilar-da, o'zlari xuddi qaroqchilardek, ochiq havoda yotmoqchi bo'ldilar.

Ular o'rmonning yoqasidan yigirma qadamcha nariroqda o't yoqib, kechki ovqat uchun biroz go'sht qovurdilar-da, o'zlari bilan birga olgan zog'ora nonlarining yarmisini yedilar. Bunday erkinlikda, qalin o'rmonlar yonida, kishi ko'rmagan yerlarda ovqatlanib o'tirish - hayron qolarlik darajada qiziq edi-da! Bolalar ham o'zaro so'zlashib o'tirib, bundan keyin «madaniy turmush» sari hech qaytib bormaslikka va'dalashdilar. Yongan o't ularning yuzlarini yoritib,

katta yo'g'on daraxtlarning tanalariga va chirmashib yotgan tok yaproqlariga qizg'imtir nur sochmoqda edi. Oldilaridagi go'sht va nonlarni tamom yeb bitir-ganlaridan keyin bolalar lazzat va rohat bilan maysa o'tlar ustiga cho'zilishdilar. Ular bundan boshqa ham salqinroq joy topa olar edilar, lekin shunday chiroyli manzaradan o'zlarini mahrum etkilari kelmadi.

– Xo'sh, ayting-chi, shu o'tirishimiz ko'ngilli emas-mi? – dedi Jo.

– Juda ko'ngilli, – deb javob berdi Tom.

– Shu o'tirishimizni boshqa bolalar ko'rsalar nima der edilar?

– Nima deyishar edi, deysanmi? Ular rashkdan yuraklari yorilib o'lar edilar. Shunday emasmi, Gek?

– To'g'ri, – dedi Geklberri, – boshqalarni bilmayman, lekin o'zim juda xursandman. Menga bundan ortiq va bundan yaxshi hech narsa kerak emas. Boshqa vaqtida odat bo'yicha qornim to'yib ovqat ham yemayman. Undan keyin bu yerga birov kelib, bizlarni bo'lar-bo'lmasga tutib olib uravermaydi ham.

– Men xuddi shunday turmushni yaxshi ko'raman-da, – dedi Tom. – Ertalab erta turish ham kerak emas, mакtabga borish ham kerak emas, yuz-qo'l yuvib va boshqa shunday har xil bemaza ishlarni ham qilib yurmaysan. Bilasanmi Jo, qaroqchilar qирг'oqdaliklarida rohiblardan ko'ra yaxshiroq turmush kechiradilar, hech ish qilmay qo'l qovushtirib o'tiradilar. Rohib esa ibodat qilishga majbur, vaqtichog'lik qilish mumkin emas. Shu sababli u hech kimga aralashmay yolg'iz turishga majbur.

– Bu to'g'ri, – dedi Jo. – Ilgari bu haqda o'ylamas edim, endi qaroqchi bo'lganimdan keyin qaroqchilik ancha oson ish ekanligini sezdim.

– Bilasanmi, – dedi Tom, – hozir rohiblar ilgarigidek obro'li emas, qaroqchilarni esa kishilar ko'p hurmat qiladilar. Rohiblar doim juldur kiyimlar kiyib,

toshlar orasida boshlarini kulga bulab yotishlari, yomg'irda turishlari lozim...

Gek Tomning so'zini bo'lib:

– Nima uchun boshlarini kulga bulaydilar va nima uchun juldur kiyimlar kiyadilar? – degan savolni berdi.

– Bilmadim... Ulardagi tartib shunday bo'lsa kerak, rohiblar xohlashsa va xohlashmasalar ham shu ishni qilishga majburlar.

– Men bo'lsam bunday qilmas edim, – dedi Gek.

– Nima qilar eding?

– Bilmayman. Xohlamayman der edim, xolos.

– Yo'q, Gek, so'zingga qulqoq ham solmayman.

Shunday qoida bo'lgandan keyin, uni qanday qilib buza olar eding?

– Qochib ketar edim.

– Sen u vaqt rohib emas, bema'ni bir odam bo'lar eding, butun umring sharmandalik bilan o'tar edi.

Qonli Qo'l javob qaytarmadi, negaki u boshqa ishlar bilan band edi. Jo'xoripoyasining ichini tozalab, unga qandaydir bir o'tning qalin poyasini biriktirar, uchiga qadar tamaki barglar to'dirib, xuddi shu daqiqada uning ustiga gulkandan cho'g' olib qo'yar edi. Xushbo'y tutunlarni pag'a-pag'a chiqarib, xo'p huzur surayotgan edi. Boshqa qaroqchilar rashk bilan unga tikilishib, zimdan bu go'zal odatni o'zlashtirishga qaror qildilar. Gek yana Tomga murojaat qilib:

– Unday bo'lsa, qaroqchi-o'g'rilar nima ish qiladilar? – deb so'radi.

– O'ho', ular juda ko'ngilli hayot kechiradilar: kemalarni qo'nga tushirib olib, ularni kuydiradilar, pullarini bo'lsa, o'z orollariga olib kelib, jin va shaytonlar oralab yuradigan biror qo'rqinchli yerga ko'mib qo'yadilar. Matros va yo'lovchilarni bo'lsa o'dirib, suvga tashlab yuboradilar.

– Xotinlarni o'ldirmaydilar, – dedi Jo so'zga aralashib, – ular xotinlarni o'z orollariga olib ketadilar.

– Ha, shunday, – dedi Tom uning so'zini quvvatlab, – ular xotinlarni sira o'ldirmaydilar, chunki ular oljanob kishilar bo'ladilar. Undan keyin, xotinlar o'zlari ham juda chiroylik bo'ladilarda.

– Ularning ustlaridagi kiyimlarini aytmaysanmi, hammasi oltin-kumush va yoqtalar bilan to'lgan! – dedi Jo hayajonlanib.

– Kimniki? – deb so'radi Gek.

– Qaroqchilarniki-da.

Gek Finn ustidagi kiyimlariga parishonlik bilan qarab qo'ydi.

– Mening kiyimlarim qaroqchilarning kiyimlariga sira o'xshamaydi, – dedi u qayg'uli tovush bilan, – biroq, nima qilay, shundan boshqa kiyimim yo'q-da.

Bolalar uning ko'nglini ko'tarib: yaxshi kiyimlarga tez kunlarda ega bo'lib olish qiyin emas, biz bosqinchilik qila boshlashimiz bilan oltin-kumush ham, kiyim-kechak ham, boshqa narsalar ham bo'ladi; odat bo'yicha, o'g'rilar o'zlariga bir sidra yaxshi kiyim-kechak g'amlab oladigan bo'salar ham, lekin ish boshlashimiz uchun, ustimizdagи uvadalarimiz ham bizga bo'lib turar, der edilar.

Sekin-asta bu kichkina qaroqchilarning ko'zlari qisila boshlab, so'zlari tugab, uyqulari kela boshladi. Qonli Qo'lning barmoqlari orasidan trubkasi tushib ketib, u qari kishilardek bir zumdayoq uxlاب qoldi. Dengizlar Dahshati bilan Qora Qasoskor uxlamadilar. Uyqu oldidagi ibodatlarini yotgan holda yashirin ravishda qildilar, chunki tiz cho'kib bor ovoz bilan o'qitishga majbur qiluvchi kishi yo'q edi.

Ochig'ini aytganda, ular butunlay ibodat qilmoxchi emas edilar, biroq xudo chaqmoq yuborib, ularni shu yerdayoq halok qilishi xavfidan qo'rkar edilar. Tez vaqt ichida ular uyquga keta boshladilar.

Ammo shu vaqt vijdon deb ataluvchi chaqirilmagan mehmon kelib ularning ko'ngidan joy oldi. Ular uydan ketib qolishlari bilan yomon ish qilganliklarini sezib, qo'rqa boshladilar. Keyin o'g'irlab ketgan go'shtlarini esga olib, chinakam azob torta boshladilar. Ular bundan avvallari ham o'n martalab uydan somsalar va olmalar o'g'irlab yurganliklarini eslab, o'z vijdonlarini tinchitmoqchi bo'lalar ham, lekin ularning vijdonlari bunday bahonalarni juda zaif sanab, tinchitmas edi. Nihoyat, ular somsa yoki olma o'g'irlab olish hech gap emas, lekin birovning butun katta bir bo'lak go'shtini, umuman begona kishining qanday bolsa ham biror qimmatli narsasini olish, bu – chinakam o'g'rilik bo'ladi. Bu haqda Tavrotda maxsus nasihat ham bor.

Shuning uchun ular o'z ko'ngillarida: agar qaroqchi bo'lib qolsalar, qaroqchilik nomuslarini mayda-chuyda narsalarni o'g'irlash kabi jinoyat bilan qoralamasga qaror qildilar. Mana shunday shartlar bilan vijdonlari rozi bo'lib, qaroqchilarimiz tinchgina uyquga ketdilar.

## O'N TO'RINCHI BOB

### BAXLI QAROQCHILAR LAGERI

Tom ertalab uyqudan uyg'onar ekan, o'zining qayerda ekanini darhol payqab ololmadi.

U o'rnidan turib o'tirib, ko'zlarini uqalab va atrofini kuzatib chiqqandan keyingina payqadi. Salqin va ko'kintir g'ira-shira tong yorishib kelmoqda. O'rmonning haddan tashqari sukunati kishini shod va mammun etuvchi hissiyotini tevarak atrofga tarqatar edi. Birorta yaproq ham tebranmas, tabiatning buyuk o'ylarini birorta tovush ham buzmas edi. Daraxt yaproqlari va yerdagi maysa o'tlarga tushgan shabnam tomchilari marvariddek yarqirab turar-

di. Kechqurun yoqilgan olov oppoq kul qatlamlari ostida dimlanib qolib, faqat ko'kimir tutunning ingichka tolasigina buralib-buralib havoga ko'tarilar edi. Jo bilan Gek hali uxbab yotardilar. Uzoqlardan, o'rmonning eng ichkari tomonlaridan qushlar tovushi eshitila boshladi. G'ira-shira tong yorishib, atrofdagi narsalar aniqroq ko'rina boshlagan sayin, tevarak-atroflarda tovushlar ko'payib, hayot uyg'onib kelar edi. Tabiatning ajoyib manzaralari o'z yelkalidan uyquni olib tashlab, ishga tutinganlari holda, xayol daryosiga cho'mib o'tiruvchi bu bolaning ko'z oldidan birma-bir o'tib bormoqda edi.

Qirov tushib, nam bo'lgan yaproqlar ustidan yashil barg qurti o'rmalab kelar edi. Vaqt-vaqt bilan u tana-sining uchdan ikki qismini ko'tarib atrofga qaragan-day bo'lar, keyin yana o'rmalashda davom etar edi. Shu vaqt uni ko'rgan Tom: «Xuddi bichiqchilardek o'lchov olayotir-a?» dedi. Qurt uning oldiga yaqinlashganda toshdek qotib qoldi. Qurt o'z tomoniga kelayotganiga yoki boshqa yo'l bilan ketishni mo'ljalayotganiga qarab, Tomning ko'nglida goh umid tug'ular, goh yo'qolar edi. Nihoyat, barg qurti bir necha vaqtlargacha gavdasini yuqori ko'targanicha o'ylanib turgandan keyin, Tomning oyog'idan o'rma-lab chiqib, tanasida sayohat qilib, yura boshladi; buni ko'rgan Tom juda sevinib ketdi. Negaki bu unda yangi kiyim bo'lishi va u kiyim albatta juda go'zal, qaroqchilar kiyadigan kiyim bo'lishidan dalolat edi.

Qayerdandir bir gala chumolilar paydo bo'lib, hammalari birdan ishga kirishdilar. Ulardan biri o'zidan besh marta katta va o'lgan bir o'rgimchakni sudrab, darhol kavagiga olib kirib ketishga mu-vaffaq bo'ldi.

Tanasining hammasi xol-xol bo'lgan kichkina qo'ng'izcha baland bir o'tning uchiga chiqib o'tirdi. Tom uning ustiga engashib, shunday der edi:

*Ay qo'ng'izcha, qo'ng'izcha, uyingga tez uch, –  
Uyingga o't ketibdi, bolalaringni quch!*

Uning shu so'zlari bilan qo'ng'izcha ham bolalari-dan xabar olish uchun uyiga qarab uchib ketdi. Bu ish bolani ajablantirmadi, chunki qo'ng'izchaning har bir narsaga tezgina ishona berishini allaqachon-lar bilar va uning soddaligidan foydalanib, uni ko'p aldagani edi.

Undan keyin yumaloq gavdasini zo'rg'a sudrab go'ng qo'ng'izi keldi. Uning oyoqlarini tanasiga siqib, o'zini o'likka solib yotishini ko'rish uchun Tom unga bir tegib qo'ydi.

Shu orada qushlar dahshatli bir shovqin ko'tardilar. Yevropa qirg'iylari va Amerika qirg'iylari daraxt shoxiga qo'nib, yerdagi qo'shnilarini masxara qilib, xandon ura boshladilar. Ko'm-ko'k uchqun kabi bir tusda havodan sershovqin boyo'g'li ham uchib o'tib, Tomga xuddi qo'lini cho'za yetarli darajada daraxt shoxiga qo'ndida, boshini bir yon-boshiga qiyshaytirgani holda yangi kelgindilarga qaray boshladi. Bir ko'k olmaxon bilan undan kattaroq bir tulki jinsidan bir hayvon ikkalasi yu-gurganicha o'tib ketishdi. Bu hayvon har zamonda to'xtab, kutilmagan mehmonlarga tikilib qarab qo'yar edi. Bu hayvonlar, aftidan, bundan avval hech bir kishi zotini ko'rmagan bo'lib, bulardan qo'rqish-qo'rmasliklarini ham bilmay turishardi.

Butun tabiat uyg'ongan edi. Quyosh nurlari qalin yaproqlar orasidan o'qdek teshib o'tgan, havoda un-cha-muncha kapalaklar ham paydo bo'lgan edi. Tom yonidagi sheriklarini ham qo'zg'atdi-da, shundan ikki minut o'tar-o'tmas ular oppoq qumlar ustida sho'xlik qilib, bir-birlarini itarib-turtib, quvlashib o'ynay boshladilar. Suvning narigi tomonida hali uyquda yotgan shaharcha bularni o'ziga jalb qilmas

edi. Tasodify ravishda kelib qolgan suv to'lqini ularning solini oqizib ketdi, biroq bolalar buning uchun g'am yemadilar, balki shodlandilar. Buning ma'nosi go'yo o'zlar bilan shahar o'rtasida turgan ko'priki yondirib yuborishdek gap edi.

Ular lagerga qaytib kelganlarida, o'zlarini juda tiniqqan, shod va sog'lom his qildilar, lekin qorinlari juda och edi. Hademay qaroqchilar olovi yana gurullab yona boshladi. Gek shu yaqin o'tadan toza sovuq suv topdi, bolalar katta-katta eman va yong'oq barglaridan idish qilib oldilar-da: «Shunday tog'li yerlarda, jumjilik va salqin havo orasida bo'lgan suv qahva o'rnila o'tadi» degan qarorga keldilar. Jo nonushtaga go'sht kesib tayyorlashga urina boshlagan edi, biroq Tom bilan Gek uni to'xtatdilar. Ular suv bo'yidan bir holi tinch yer topib, qarmoq tashlagan edilar. Ovlari uzoq kudirmadi. Ular qo'llarida ancha baliqni ko'tarib kelib qoldilar. Ular baliqlarni go'shtga qo'shib qovurib olar ekanlar, taajjubda qoldilar. Chunki baliqning bunchalik shirin bo'lishini haligacha tatib ko'rmagan edilar. Daryo balig'ini tutib keliboq qovurilsa, yaxshi bo'lishligini bular bilmas edilar, shu bilan birga ochiq havoda uxmlash, yugurib o'ynash, cho'milish, ayniqsa, och qolishdan keyin ovqatning qanday mazalik bo'lishini ham endi bildilar.

Nonushtadan keyin Gek chilim chekib olgunicha, ular soyada yonboshlab yotdilar-da keyin hammalari birga razvedkaga chiqib ketdilar. Ular sho'xlik bilan dam-badam chirik to'ngaklar ustidan sakray-sakray, qalin chakalakzorlarni oralab, boshidan-oyog'iga-cha yovvoyi tok novdalari bilan o'ralib ketgan daraxt shoxlari orasidan yurib borar edilar. Vaqt-vaqt bilan ko'm-ko'k gilam to'shalgandek maysazor va atrofi behaho gullar bilan to'lgan yerlarni ham uchratar edilar.

Ular soat sayin cho'milishar, shuning uchun lagerga tushdan keyingina qaytib keldilar. Och qolib

kelgan edilar, shuning uchun yana qarmoq solib o'tirmadilar, yaxna go'sht bilan ovqatlanib oldilar-da, keyin yana qaytadan soyada ag'nashib, so'zlashib yotdilar. Biroq bularning suhbatlari bo'lina-bo'lina, ha demay jimib qoldilar. O'rmonning tantanali sukunati, yolg'izlik, kishilardan ajralib turish hissiyoti, bularning hammasi – bolalarga o'z ta'sirini bildira boshladi. Ular o'ylanib qoldilar. Ularning ko'ngillarida qandaydir bir g'amginlik, uylarini sog'inish hissiyoti tug'ilá boshladi. Hatto Qonli Qo'l Finga nima? O'sha ham o'ziga tanish eshik oldilari va bo'sh yotgan bochkalarni xotirlay boshladi. Biroq bularning har qaysisi ham ko'ngillari bo'shiligidan uyalar va hech qaysisi o'z fikrini ochiq aytishga jur'at qilolmas edi.

Bizlar ba'zi vaqtarda soatning chiqillab yurishiga o'xshash maxsus bir tovush eshitamiz-da, uning nima ekaniga e'tibor qilmay parvosiz yuraveramiz, bolalar ham xuddi ana shunday, bir necha vaqtlardan beri uzoqlardan qandaydir bir ajoyib tovush eshitib turar edilar. Bora-bora bu tovush aniqroq eshitiladigan bo'lib, o'ziga e'tibor qilishni talab eta boshladi. Bolalar seskanib, alanglab, diqqat bilan qulq sola boshladilar. Orada birmuncha vaqt hech qanday tovush eshitilmay tamom jimjitlik hukm surdi. Keyin uzoqdan qandaydir gungurt «bum!» – degan tovush keldi.

Jo shivirlab:

- Bu nima? – dedi
- Tushuna olmadim! – dedi shivirlab Tom.
- Bu havoning guldurashi bo'lsa kerak, o'rtoqlar,
- dedi Geklberri qo'rqqan holda, – chunki, havoning guldurashi...
- Jim tursang-chi! – dedi Tom unga baqirib.– Shov-qin qilmay qulq sola tur!

Ular bir daqiqa chamasi indamay turdilar, bu bir vaqt ham ular uchun allaqancha zamonlardek bo'lib

ko'rindi. Keyin tantanali sukunat ichida yana o'sha gungurt «bum»! degan tovush eshitildi.

– Yuringlar, o'rtoqlar, borib ko'ramiz.

Uchovlari ham o'rinalidan turib, o'z shaharchalari tomoniga qarab turgan qirg'oqqa yugurishib ketdilar. Chakalak shoxlarini ikki yoqqa surib, o'sha tomonga tikilib qaradilar. Suvning o'rtasida, shahardan bir mil chamasi pastroqda, bir kater suvning oqimiga qarab ketib borar, yana undan boshqa juda ko'p qayiqlar yuqori va pastga qarab suzib borar edilar. Biroq, bolalar o'sha qayiqlardagi kishilarning nima qilib yurganliklarini anglay ololmadilar.

Behosdan haligi kater ustida oq tutun paydo bo'ldi; tutun ko'payib bulutdek bo'lib ketdi va shu bilan qahramonlarimiz qulog'iga ketma-ket uchinchi marta boyagiday gungurt tovush eshitildi.

– Endi tushundim, – dedi Tom, – biror kishi suvga g'arq bo'lgan!

– Albatta shundaydir-da, – dedi Gek, uning so'zini quvvatlab, – o'tgan yil Bill Terner suvga g'arq bo'lganida ham xuddi shunday bo'lgan edi. O'shanda ham suv ustida to'p otib yurgan edilar. Shunday qilsalar, suvga botganlar suvning betiga qalqib chiqar emish. Yana shunday vaqtarda ozgina non olib, uning ustiga simob qo'yib suvga tushirar ekanlar, haligi non suvga botgan kishining yotgan yeriga borib to'xtab qolar emish.

– To'g'ri, buni men ham eshitgan edim, – dedi Jo. – Faqat men nonning qanday qilib o'sha yerga borib to'xtab qolishiga tushuna olmayman.

– Bunda, meningcha, gap nonda emas, – dedi Tom, – ish o'sha nonga o'qilgan duoda. Nonni suvga tushirgan vaqtida, albatta, uni indamay tushirmaydilar.

– Hech narsa demaydilar, – dedi Gek, – nonni suvga tushirganlarini o'zim ko'rganman-ku, hech narsa deb o'qiganlari yo'q.

– Qiziqsan-a!... – dedi Tom. – Balki ular sekingina o‘z ichlarida o‘qigandirlar. Albatta! Buni darrov payqab olish qiyin.

Tomning so‘zini ma’qul topdilar, chunki shunday bo‘limganda, oddiy bir bo‘lak nonning shunday ish bajarishiga ishonish qiyin.

– Oh, qani endi shu vaqt o‘sha yerlarga bora olsak,  
– deb qo‘ydi Tom.

– Mening ham borgim kelyapti, – dedi Gek. – Suvga cho‘kkanning kim ekanini juda ham bilging keladi kishi.

Birdan Tomning fikriga bir narsa kelib qoldi.

– Suvga cho‘kkanning kimligini bildim. Suvga cho‘kkan – O‘zimiz!

Ular o‘zlarini darhol qahramon deb his qila boshladilar. Qanday tantana, qanday baxt! Ularni axtarib, o‘ldi deb motam tutadilar, qanchadan-qancha qayqlar ovora, azob chekib, ko‘z yoshlarini to‘kadilar, toshmehrliklari uchun vijdon azobida qiynaladilar. Hammasidan katta quvonch shuki, ular to‘g‘risida butun shahar so‘zlaydi, ularning botirliklariga barcha shaharning bolalari rashk qiladi. Bu yaxshi ish emasmi? Nihoyat, bitta shu shov-shuv uchungina o‘g‘ri-qaroqchi bo‘lib yursang arziydi-ku!

Kun kech bo‘lib, qorong‘ilik tusha boshlashi bilan katerlar o‘z joyiga qaytdi va qayiqlarning hammasi ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Qaroqchilar ham o‘z lagerlariga qaytib keldilar. Ular shod-u xurramlik qilar, qarindosh-urug‘larini shuncha tashvish ichida qoldirishlari bilan mag‘rurlanar edilar. Ular baliq tutib, pishirib, kechki ovqatni yeb bo‘lganlaridan keyin, shaharda hozir bular to‘g‘risida nimalar so‘zlayotganliklari va qanday ishlar qilinayotganligi to‘g‘risida har xil taxmin va farazlar tuza boshladilar, shu bilan birga, ular shahardagi umumiy qayg‘uni ko‘z oldilariga shunday gavdalantirib keltirar edilar-

ki, undan o'zlariga zavq olar edi. Biroq qorong'i kechaning qora ko'lankalari ularni o'z quchog'iga olgandan keyin gap-so'zlari sekin-asta pasaya boshladi. Endi uchovlari ham yonib turgan o'tga tikilib o'tirar, fikrlari esa boshqa uzoq yerlarda kezib yurar edi. Tom bilan Jo, bu qilgan ishlari o'zlariga yaqin ba'zi bir kishilar uchun uncha ko'ngilli bir ish bo'lmasligini eslamasdan turolmadilar. Shubhalar tug'ildi. Ikkalasining ham ko'ngillari tinchimas, ikkalasi ham o'zlarini baxtsiz sanar edilar, hatto ba'zi vaqtlarda yuraklari to'lib ketib, ixtiyorsiz uh tortib yuborardilar. Hatto Jo o'z o'rtoqlaridan, hozir emas, qachon bo'lsa ham shaharga qaytib borishga qanday qarashlarini so'rashga ham jur'at qildi.

Tom bu fikrni istehzolari bilan ko'mib tashladi. Gek ham Tomning fikriga qo'shildi-da, bechora hardam-xayol qahramon o'zini oqlab olish uchun: «Buni shunchalik aytgan edim-da!» deb tushuntirishga shoshildi. Ha, isyon boshlanishi bilanoq bostirilgan edi...

Qorong'iliq qalinlasha borgan sayin Gek mudrab tez-tez burnini torta-torta, piravordida xurrak ota boshladi, uning orqasidan Jo ham uyquga ketdi. Tom bir qancha vaqt tirsagiga tayangani holda joyidan qo'zg'almay o'rtoqlariga qarab yotdi, keyin sekingina tiz cho'kib, gulxanning miltillab turgan yorug'ida yerdagi o'tlarning orasini timirskilab qaray boshladi. U yerdan uch-to'rtta katta-katta oq anjir po'stloqlarini topib, ularning orasidan ikkita durustrog'ini ajratib oldi-da, o'chay-o'chay deb miltillab yotgan olov yoniga cho'kkalab o'tirdi va bu ikki po'stloqning har qaysisini tirnab, uch-to'rt so'zdan iborat yozuv yozdi. Bulardan birini o'z cho'ntagiga soldi-da, ikkinchisini Joning qalpog'i ichiga tiqib, boshidan nariroqqa qo'ydi. Bunday tashqari, u yana o'sha qalpoq ichiga uch-to'rt narsani solib qo'ydi; bular ichida bir bo'lak bo'r, rezinka, uchta qarmoq va yana «chinakam

xrustal» deb ataladigan bir soqqa ham bor edi. Keyin sekingina oyoqlarining uchi bilan yurib, daraxtlar orasidan keta boshladi; u o'rtoqlari yiroqda qolganliklarini va qadam tovushlari eshitilmay yotganini sezgach, chopganicha daryo bo'yiga qarab ketdi.

### *O'N BESHINCHI BOB*

## **TOM O'Z UYIGA YASHIRINCHA KELIB OLADI**

Oradan bir necha daqiqa o'tgandan keyin Tom sayoz yerlarni kechib, Illinoys qirg'og'iga qarab jo'nagan edi. Daryoning suvi qoq beliga yetganda u yo'ning yarmini bosib o'tgan, lekin suvning oqimi tez bo'lganidan, bundan nariga yurib bo'lmagani uchun Tom dadillik bilan suzib ketdi. Suvning narigi chetiga atigi yuz qadamcha keladigan masofa qolgan edi. U suvning oqimiga qarshi suzib borar, lekin suv uni kutganidan ortiq darajada pastga olib ketib borardi. Shunday bo'sha ham u quruqqa chiqish uchun o'ng'ay yer topguncha, bo'ylab suzib bordi. Shu yerda u nimchasining cho'ntagiga qo'lini tiqib qaradi, po'stloq joyida turganini bilib, ko'ngli tinchigandan keyin kiyimlaridan suv oqib turganiga ham qaramasdan, o'rmon bo'ylab yurib ketdi. Qishloqning qarshisidagi ochiqlikka chiqqanida soat o'nga yaqinlashib qolgan edi; u yerda baland jar yonidagi daraxtlar ostida turgan katerga ko'zi tushdi. Tevarak-atrof jimjit edi. Tom yulduzlar yog'dusi ostida, daryoga diqqat bilan qaragani holda tovushini chiqarmasdan qirg'oqdan yurib borib, daryoga tushdi va suzib borib har ehtimolga qarshi katerning orqa tomoniga bog'lab qo'yilgan qayiqchaga chiqdi-da, uning tagidagi kursi ostiga yotib oldi va qo'rquv ichida nafasini chiqarmay, nima bo'lishini kutib yotdi. Birdan jaranglagan qo'ng'iroq ovozi eshitilib,

kimdir: «Bo'shatib yubor», deb buyruq berdi. Yana bir minutdan keyin katerning borti qayiqcha ustidan ancha baland ko'tarildi-da, ikkisi ham suzib ketdi. Tom muvaffaqiyatdan o'zini baxtli sanar edi. Oradan kishini zeriktirarlik darajada o'n besh yoki yigirma daqiqacha vaqt o'tdi. Kater to'xtadi. Tom qayiq ichidan chiqib, qorong'ida qirg'oqqa qarab suzib ketdi. Tasodifan o'tib boruvchilarga duch kelib qolmaslik uchun, u o'ziga kerakli joydan ellik qadam chamasi pastroqdan qirg'oqqa chiqib, kishi yurmas bir ko'chani tanlab, hovlima-hovli yurib borib xolasining uyiga yetdi. Devordan oshib tushib qaradi. Chiroq shu'lesi ko'rinar edi. Uy ichida Polli xola, Sid, Meri va Jo Garperning onasi nimalar haqidadir so'zlashib o'tirar edilar.

Tom eshik yoniga borib sekingina tambasini surdi-da, keyin sekin-asta eshikni itardi, eshik g'ijirladi, u har bir g'ijirlaganda qaltirab, shunday bo'lsa ham eshikni ohista ochishda davom etdi, eshik tizzasigacha sig'arlik darajada ochilgandan keyin, sekingina boshini tiqib o'zini uy ichiga oldi.

– Bu shamning shu'lesi nega birdan yelpinib qoldi? – dedi Polli xola Eshik ochilib qolgan bo'lsa kerak. Ha, aytmadimmi? Bor, Sid, eshikni yopib kel!

Tom o'z vaqtida karavot ostiga sho'ng'igan edi. U biroz nafasini rostlab oldi-da, keyin o'rmalab xolasining yoniga shunday yaqin borib qoldiki, uning oyog'iga tegib ketayozdi.

– Ha, men shunday der edim, – deb Polli xola so'zida davom etdi, – u badjahl, yaramas bolalar dan emas, faqat ko'p sho'xlik qiladi, o'g'il bolalar ma'lum, hammalari ham shunday toychoqdek bir yerda tinch turolmaydilar, axir uni ayblab bo'ladimi? U hech vaqt yomon niyat bilan biror ish qilgan emas, uning qalbi oltin edi.

Shu so'zlarni aytib u yig'lab yubordi.

– Mening bolam Jo ham xuddi shunday edi. Sho'xlikka, to'polon qilishga birinchi edi. Lekin ko'nglida kiri yo'q, juda yoqimli bola edi. Xudoyo-xudovando, men gunohkorman, gunohimni o'zing kechir, deyman. Men uni, qaymoqni ichib qo'ygansan, deb urgan edim. Keyin o'y lab qarasam, qaymoq achib qolgani uchun o'zim to'kib tashlagan ekanman. Endi bolam bechorani bu dunyoda ko'rolmayman. Esimga tushsa, yuraklarim ezilib ketadi!

Shu so'zlar bilan missis Garper ho'ngrab yig'lay boshladi, shunday ho'ngradiki, go'yo uning yuraklari pora-pora bo'lib ketgandek tuyuldi.

– Tom uchun hozirgi joyi yaxshiroq bo'lsa kerak, deb umid qilaman, – dedi Sid. – Biroq u bu yorug' dunyoda ba'zi masalalarda...

– Sid! – deb baqirda Polli xola (Tom garchi xolasining yuzini ko'rmay turgan bo'lsa ham, lekin hozir uning ko'zlari qanday yarqirab o'ynab ketganini sezgandek bo'ldi). – Mening bolam Tom bu dunyoda yo'q. Shuning uchun sen u haqida yomon so'zlama. Oh missis Garper, men endi bunday alamga qanday qilib chidayolaman. Men to'g'ridan-to'g'ri uning shu tariqa yo'q bo'lib ketishiga ishonolmayman. Garchi u mening keksa ko'nglimni ko'p ranjitgan bo'lsa ham.

– Shunday, bu og'ir. Oh qanday og'ir! O'tgan shanba kuni bolam Jo o'zining o'yinchoq to'pponchasini olib kelib xuddi mening burnimning tagida otib yubordi, men uni urgan edim, u ag'darilib tushdi. O'sha vaqtarda uning o'lishini bilmagan edim-da, bilsam shunday qilar edimmi?

– Ha, ha, bo'imsa-chi, missis Garper, men hissiyotlaringizni yaxshi tushunaman. Uzoq emas, xuddi kechagina mening Tomim ham mushukka dori ichirgan. Mushuk bechora shunday tipirchilab o'zini u yoqdan-bu yoqqa urdiki men, uyda birorta butun narsa qolmas, deb o'y lagan edim. Men ham

xudoyo tavba qildim, angishvona bilan urib, boshini teshayozdim. Oh, bolam, bechora marhumginam, mana endi uning butun sho'xliklari ham, o'zi ham yo'q, Undan eshitganim eng so'nggi so'zlarim ham ta'na va kinoya bo'ldi...

Tom Merining ham dam-badam uni yaxshi so'zlar bilan yodlab, yig'lab o'tirganini xolasining qayg'usi unga qattiq ta'sir qildi, u hozir karavot ostidan yugurib chiqib, bo'ynidan quchoqlab olgisi kelar edi. Biroq shunday bo'lsa ham o'zini tutib, karavot ostida tinchgina ularning so'zlarini tinglab yotaverdi. Ularning aytishicha, bolalar hoynahoy cho'milish uchun borib cho'kib ketganlar degan o'yga borishgan. Keyinroq esa bolalardan biri o'rtoqlari, bizlar yaqin kunlarda butun shaharni hayron qoldiramiz, deganini aytgan. Shundan keyin ko'pchilik «bolalar yaqin o'rtadagi shaharlarning biriga borish uchun solga tushib ketganlar», degan. Biroq solning shahardan atigi besh-olti milgina narida turgani ni ko'rib, butun umidlari puchga chiqqan. Agar ularning o'liklari yakshanba kuni ertalabgacha topilmasa, u vaqtda hech qanday umid qilmay, yakshanba kuni ular uchun motam tutishmoqchi.

- Tom bu so'zni eshitar ekan, qo'rqqanidan bir seskanib ketdi.

Missis Garper hammalari bilan xayrashib, ho'ngrab yig'lagani holda eshikka qarab yo'nalgan edi, yana to'xtadi va g'arib bo'lib qolgan bu ikki kampir to'satdan bir-birlariga tashlanib, ajralishdan oldin quchoqlashib, ancha yig'lashib oldilar. Polli xola uyquga yotish oldidan Sid bilan Merini avvalgidan ham katta muhabbat bilan o'mdi, shundan keyin Sid entikib yig'ladi, Meri bo'lsa ko'zları yoshga to'lgan holda uplash uchun ketdi.

Polli xola tiz cho'kib Tomni duo qiaa boshladidi. Uning titroq ovozida naqadar cheksiz muhabbat

sezilib turar, uning duosi shunday qizg‘in va jozibali ediki, Tomning ko‘zlarini ham jiq yoshga to‘ldi.

Polli xola o‘rniga yotgandan keyin ham ancha vaqtlargacha toqatsizlanib, u yoqdan-bu yoqqa ag‘darila bergani, tinmasdan yo‘talib yotgani va har zamonda qattiq uh tortib qo‘yganidan Tom ancha vaqtlargacha karavot ostidan chiqqa olmadi. Nihoyat, kampir tinchigandek bo‘ldi, faqat uyqusida ingrab qo‘yardi. Tom karavot ostidan chiqib qo‘li bilan shamni panalab, ancha vaqtgacha kampirning yuziga tikilib qarab turdi.

U kampirga chin ko‘ngildan achinar edi. Cho‘ntagidan bir bo‘lak po‘stloqni olib stol ustiga, sham yoniga qo‘ygan edi, keyinroq bir narsa esiga tushgandek bo‘lib, biroz o‘ylanib turgandan keyin shoshilinch ravishda po‘stloqni yana qaytib cho‘nta-giga solib qo‘ydi-da, engashib turib kampirning so‘lg‘in lablaridan bir o‘pdi. Keyin, sekingina chiqib, eshikni berkitdi.

U pristanga, kater turadigan yerga bordi. U yerda hech kim yo‘qligini bilgandan keyin dadillik bilan sakrab kemaga chiqib oldi. Kemada qorovuldan boshqa hech kim yo‘qligini bilar edi. Qorovul esa ko‘pincha kemaning ichkarisiga kirib uxbab yotardi. Tom arqonni yechib, sekingina qayiqqa chiqib oldi-da, eshkaklarni eshib, daryoning bosh tomoniga suzib ketdi. Bir mil chamasi yurganidan keyin, qarshisidagi qirg‘oqqa tomon yo‘l solib, daryoni kesib o‘tdi-da, qayiqni xuddi mo‘jalga olib borib to‘xtatdi, negaki u mazkur yerlarni endigina ko‘rgan emas edi. Bu qayiqchani o‘ziniki qilib olishga Tomning ishtiyobi zo‘r edi, chunki qayiqcha ham o‘z navbatida suvda yurish quroli hisoblanganligi uchun qaroqchi-larga qonuniy o‘ja bo‘lar edi, shunday bo‘lsa ham u kishilarning bu qayiqchani izlashlarini, balki bu orqali izlarini topib olishlarini bilar edi.

Shuning uchun u suv bo'yiga tushib, o'rmonda o'tirib, yaxshigina damini oldi-da, uqlab qolishdan o'zini zo'rg'a tutib, charchagan holda o'rtoqlari yoniga qarab ketdi. Tong otib qolayozgan edi; u joyiga yetib borganida, hammayoq yorishib qoldi. U yana biroz shu yerda o'tirdi-da, quyosh nurlari daryoning suvini biroz isitgach, o'zini suvgaga tashlab suzib ketdi. Birozdan keyin butun ust-boshlari ho'l holda turtinib-surtinib lagerga kelarkan, xuddi Joning quyidagi so'zlari ustidan chiqib qoldi:

– Yo'q, Gek, Tom ishonchli o'rtoq. U qochib ketmaydi, albatta qaytib keladi. U qochoq nomini olishni istamaydi. Qaroqchi uchun qochib ketishning uyat ekanini biladi. U qandaydir biror narsa o'ylagan bo'lsa kerak, biroq men uning o'ylagan narsasi nimaligini bilishni istarman.

– Durust, narsalari-chi, narsalari harholda bizniki bo'ladi-ku!

– Bizniki bo'ladi, Gek, biroq butunlay emas. U xatida: «Agar men ertalabki nonushtaga yetib kelmasam, narsalarimni sizlar olinglar», degan.

Shu vaqt to'satdan Tom o'zini ko'rsatib:

– Ana o'zi ham kelib qoldi! – deb baqirib yubordi. Bu juda kam uchraydigan ta'sirli voqeа bo'ldi.

Tezdan ular go'sht va baliqlardan ovqat hozirladilar. Ovqat ustida Tom o'zining tungi sarguzashtlarini (orttirmay va kamitmay, qanday bo'lsa shunday) o'rtoqlariga so'zlab berdi. Tomning hikoyasi oxiriga yetganida, bolalarning kibrilari haddan oshib ketdi. Qorinlari to'ygandan keyin, Tom uqlash uchun ko'lankaga borib yotdi, boshqa qaroqchilar bo'lsa, orolning atrofini tekshirib ko'rish va baliq ovlab keliш uchun chiqib ketdilar.

**BIRINCHI TRUBKALAR. –  
“MEN PICHOG’IMNI YO‘QOTDIM”**

Tushlik ovqatdan keyin qaroqchilar to‘planishib, toshbaqa tuxumlarini qidirib suv bo‘yiga ketdilar. Bolalar qo‘llarini qumga tiqib ko‘rdilar, qumning bo‘s sh yeri uchrasa darhol tizzalari bilan cho‘kkalab o‘tirib, o‘sha yerni qo‘llari bilan chuqulay boshlardilar. Shunday chuqurchalarning ba‘zilaridan ellik-oltmishtalab tuxum topib olardilar. Toshbaqa tuxumi yum-yumaloq, oppoq, yong‘oqdan sal kichikroq bo‘lar ekan. Qaroqchilarning shu kungi kechki ovqatlari – juda yaxshi va mazali bo‘ldi.

Ertalabki ovqatdan keyin bolalar suv bo‘yida yugurishib, sakrashib, o‘ynashib, bir-birlarini quvlashib, yurgan yo‘llarida kiyimlarini yechib o‘yin va sho‘xliklarini suv ichida ham davom etdirar, suv oqimi esa ba‘zida ularni ag‘darib yiqitar va shu bilan shodliklarini yana ortdirar, qo‘llariga suv olishib bir-birlarining yuzlariga sepishar, yuzlarini chetga burar edilar.

Ularning bu o‘yinlari kurash bilan tamom bo‘lar, ya‘ni bir-birlariga o‘ralishib, bitta yum-yumaloq kop-tokdek bo‘lishar, g‘olib mag‘lubning boshini suvgaga tiqib, sho‘ng‘ishga majbur etar, baqirishib kulishar, og‘izlari bilan suv purkishib, qichqirishar, entikib zo‘rg‘a nafas olar edilar.

Uzoq o‘ynashganlaridan keyin butunlay madorlari qurigan holda suvdan chiqib, qizib yotgan qum ustiga o‘zlarini tashlardilar; unda cho‘zilishib yotib, qumga o‘zlarini ko‘mar, keyin yana suvgaga tushar, yana qum ustiga chiqib yotar edilar. Bu o‘yin shu tartibda uzoq davom etardi. Nihoyat, ular o‘z tanlarining rangini bir xil triko rangiga o‘xshatardilar, qum ustida doira chizib, ot o‘yini qilardilar. Bu ot o‘yinida

birdaniga uchta masxaraboz bo'ldi, chunki bularidan birortasi ham bu qiziq rolni birovga berishni xohlamas edi.

Keyin ular marmar soqqalarini topib olib, to zerrickunlaricha soqqa o'ynay boshlardilar. Shundan so'ng Gek bilan Jo yana cho'milishga ketishdi, Tom bo'lsa quruqlikda qolaverdi, negaki u chalvorini yechgan chog'da bog'ichi qochib ketgan, unga bog'langan tumorini yo'qolgan edi. Bu sehrli tumorsiz qolib, o'zining changak dardiga uchramaganiga ajablandi. Tumorini topmaguncha cho'milishga bormaydigan bo'ldi. Bechoraning o'rtoqlari cho'milishdan juda horib-charchab, yastanib yotish uchun qirg'oqqa chiqqan edilar. Ular sekin-asta har qaysisi har tomonga tarqalishib, xayolga cho'mgan holda tug'ilib o'sgan yerlari, uzoqdan ko'rinish va quyosh nurlariga ko'milib yotgan shaharcha tomonga xafalik bilan qarardilar. Tom o'zi ham sezmagani holda qum ustiga katta-katta harflar bilan «Bekki» deb yozar edi. U o'zini jinoyat ustida tutib olib, darhol qum ustiga yozilgan yozuvni o'chirib tashladi va o'zining bo'shligi uchun xafa bo'ldi. Biroq, chidab turolmay o'sha ismni yana qaytadan yozdi. Yana o'chirib tashladi. Keyin yana shunday vasvasalarga berilib ketmaslik uchun o'rtoqlariga borib qo'shildi.

Ammo Jo umidsizlanib, ruhi butunlay tushib ketgan edi. U uyini sog'inib shunday qayg'urar ediki, ko'z yoshlarini zo'rg'a to'xtatib turardi.

Gek ham juda ma'yus edi. Tom tetiklashgan, uning ko'nglida bir sir bor edi, bu sirni vaqtি soati kelmaguncha o'rtoqlariga aytmaslikka qaror qilgan edi. Biroq endi o'rtoqlariga hozirdanoq aytib bermoqchi bo'ldi va yuzaki qaraganda o'zini g'amsiz ko'rsatib, o'rtoqlarini alday boshladi:

– Bilasizlarmi o'rtoqlar, men garov o'ynaymanki bu orolda bizlardan ilgari ham qaroqchilar bo'lgan. Qani yuringlar, uni yana bir marta aylanib chiqaylik.

Shunda biror yerda yashirib qo'yilgan dunyo bo'lsa topib olamiz. Ha, biz oltin-kumush bilan to'la chirigan bir sandiq topib olsak nima deysizlar?

Biroq uning bu taklifi unchalik shodlik tug'dirmadi.

Tom yana bir-ikki xil qiziqtiruvchi gap qilib ko'rgan edi, lekin bularning hech qaysisi ham ularga kor qilmadi. Keyin u juda bo'shashib tushdi.

Jo ma'yus holda qo'lidagi tayog'ini qumga tiqib turar, ko'rinishidan juda xafa edi. Nihoyat u so'z ochib:

– Oh, o'rtoqlar, shu ishlarimizni tashlasak bo'lar edi! Uyga ketgim kelayapti. Bu yer meni juda ham zeriktirdi.

– Qo'ysang-chi, Jo, unday dema, bora-bora o'rganib qolasan, – der edi Tom. – Bu yerning baliq ovi qanday yaxshi, ko'rayapsanmi?

– Menga hech qanday balig'ing kerak emas. Men uyga ketishnigina istayman.

– Cho'milish-chi, cho'milish uchun shunday yaxshi yerni qayerdan topasan?

– Menga cho'milish ham yordam bermaydi. Meni cho'milishdan hech kim qaytarmas ekan, cho'milishni ham xohlamay qoldim. Uyga ketishni xohlayman!

– Ana bemazachilik! Yosh bola onasining oldiga borishni istar emish!

– Albatta, onamning oldiga borishni istayman, agar sening ham onang bo'lsa, sen ham onangning oldiga borishni istar eding. Men kichkina bola emasman. Ikkalamizning yoshimiz teng.

Shu so'zlar bilan Jo ho'ngrab yig'lay boshladi.

– Ha yaxshi, bo'lmasa qo'yaver, bu yig'loqi bola uyga onasining oldiga ketaversin, biz uni jo'natib yuboramiz, shundaymi, Gek? Bechora, onasini sog'inib qolgan ekan. Ketsa ketaversin. Senga bu yer ma'qul-a Gek? Ikkovimiz shu yerda qolamiz, a?

– Ha, – dedi Gek beparvolik bilan.

– Endi sen bilan o'rtoq emasman, umr bo'yi sen bilan g'ijillashib o'taman, shuni bilib qo'y, – dedi Jo va o'rnidan qo'zg'alib, nariroqqa borib kiyina boshladi.

– O'rtoq bo'lmasang, g'am yermidim! – dedi Tom. – O'rtoq bo'lmasang, bo'lmay qo'yaqol, sening bu yerda hech kimga keraging yo'q. Bor, uyingga jo'na, ham-maga kulgi bo'l. Juda yaxshi qaroqchi ekan, desinlar. Gek bilan men senga o'xshash yig'loqi emasmiz. Ik-kalamiz shu yerda qolamiz, shundaymi, Gek? Ketsa ketaversin, usiz ham tirikchilik qila olamiz.

Jo uning so'zlariga javob bermay, qovoqlari solingan holda kiyinar, Tom bo'lsa o'zining yuzaki vazminligiga qaramay, ichidan juda xafa, buning ustiga Joning yig'ishtirinayotganini ko'rib, qovoqlarini solib turgan Gekning qiyofasi uni yanada tashvishga solar edi. Jo kiyinib bo'ldi-yu, xayrlashmay va biror so'z ham aytmay, Illinoys qirg'og'iga qarab ketdi. Tom ko'ngli juda g'ash tortib Gekka qarab qo'ydi. U buning qarashiga chidab turolmay yerga qaradi-da, keyin:

– Men ham ketay deyman, Tom. Kishi juda zerikib qoldi, bundan keyin yana zerikamiz, yur Tom, biz ham ketaqolaylik, – dedi.

– Ketsang ketaver, men ketmayman, shu yerda qolaman.

– Bo'lmasa men keta qolayin, Tom.

– Boraver dedim-ku, seni birov ushlayaptimi?

Gek sochilib yotgan narsalarini yig'ishtira boshlar ekan:

– Tom, yo'q dema birga keta qolaylik, o'ylab ko'r! Biz seni suv bo'yida kutib turamiz, – dedi.

– Uzoq kutib qolasizlar-da!

Gek xafachilik bilan yo'lga tushdi. Tom uning orqasidan qarab turar ekan, o'zining kibr-havosini yig'ishtirib qo'yib, o'shnalarning orqasidan ketishni orzu qilar edi. U bolalarni to'xtar, deb umid qilar,

bolalar bo'lsa sekin-asta uzoqlashib borardi. Tom birdan o'zining izzat-nafsi yengib, o'rtoqlari orqasidan yugurib borar ekan:

– To'xtanglar! To'xtanglar! Sizlarga aytadigan so'zim bor! – dedi.

Ular to'xtab, orqalariga burildilar. Tom ularga yetib olib, o'z sirin so'zlay boshladi; ular qiyofalarini o'zgartirmay uning so'zlarini tingladilar. Tomning aytadigan so'zining ma'nosini tushunib olgunlaricha ular shu holda turdilar, so'zlariga yaxshi tushunib olganlaridan keyin, shunday shodlandilarki, agar shu so'zlarni burunroq aytganingda, biz ketmagan bo'lar edik, dedilar.

Bolalar shodlanishib va yana qaytib kelishib, avvalgidek o'yinlari bilan shug'ullana boshladilar. Bular hamma vaqt Tomning o'ylab topgan ajoyib o'yinlari haqida so'zlab, uning aqliga qoyil qolar edilar. Tuxum bilan baliq go'shtidan tayyorlangan shirin ovqatdan keyin, Tom endi tamaki chekishni o'rganmoqchi bo'lganini bildirdi. Jo ham bu fikrni ma'qul topib, men ham chekib ko'raman, dedi. Gek trubkalarni tayyorlab, ularni tamakiga to'ldirdi. Bu ikkala yangi kashanda hozirgacha tok bargidan qilingan sigaralarni chekishar, biroq bunday sigaralar tilni achitar va umuman erkak kishilar uchun arzimaydigan bir narsa edi.

Ular yerga cho'zilishib va tirsaklariga tayanib yotib, uncha ishonmaganliklari holda, sekin-asta tutunni ichlariga torta boshladilar. Tutunning mazasi yomon bo'lib, ularni biroz bo'g'ar edi. Shunda Tom:

– Bu juda oson ekan-ku! Bundayligini bilganimda, allaqachonlar tamaki chekkan bo'lar edim, – dedi.

– Men ham, – dedi Jo. – Buni chekish hech gap emas ekan!

– Men hamma vaqt boshqalarning tamaki chekkalarini ko'rib: «Men ham o'rganib olsam», deb

yurar edim, lekin uddasidan chiqa olmasman deb o'ylardim. Men hamma vaqt shundayman, to'g'rimi, Gek? Sen buni mendan eshitgansan-kul! Mana Gek aytib bersin.

– Ha, ko'p aytgansan, – deb tasdiqladi Gek.

– Shunday, yuz marta aytganman. Esingda bormi, shu bir marta qushxona yonida bo'lgan edi, unda Bob Tanner, Jonni, Miller va Jeff Techer ham bor edi. Esingda bormi, Gek, men o'sha mahalda nima degan edim?

– Ha, esimda bor. Sen buni men koptogimni yo'qotgan kunim aytgan eding. Yo'q, undan bir kun burun ekan.

– Ana, Gekning esida bor ekan.

– Meningcha, shunday trubkani men kuni bo'yи cheksam ham ko'nglimni behuzur qilmas edi, – dedi Jo.

– Meni ham! – dedi Tom. – Men kuni bo'yи bo'lsa ham chekib o'tiraverar edim. Biroq, garov bog'lashamanki, Jeff Techer shunday chekolmas edi.

– Jeff Techer deysanmi? Unga yo'l bo'lsin! U aqalli ikki marta ham tortolmaydi. Qani chekib ko'rsin-chi!

– Albatta tortolmaydi, Jonni Miller ham shunday. Jonni Miller qanday chekar ekan, shuni ko'rsam edim.

– Jonni Millering nimaga yarar edi, u hech narsaning uddasidan chiqolmaydi. U birinchi tortishi-dayoq bo'lganicha bo'lib qoladi.

– Sening gaping to'g'ri Jo, menga qara: mana, o'rtoqlarimiz bizlarni hozir bir ko'rishsa edi.

– Oh, koshki edi! Menga qaranglar o'rtoqlar, hech kimga og'izlaringdan chiqarmanglar. Keyinroq, bolalarning hammasi yig'ilishib turganlarida, sening oldingga boraman-da: Jo, trubkang bormi? Tamaki chekkim kelayotir, – deyman. Sen bo'lsang, parvo

qilmay, go'yo oddiygina bir narsa to'g'risida so'zla-yotgandek: «Ha, bor, mening eski trubkam ham bor, yana boshqa bitta trubkam ham bor, faqat tamaki unchalik yaxshi emas», – deysan. Men esam: «Ha, baribir, ish qilib kuchli bo'lsa bo'ldi», – deyman. Shunda sen trubkani yoningdan chiqarasan-da, ikkalamiz ham tamaki chekamiz, ana shunda ular ko'rib, havaslari kelsin.

– Juda qiziq bo'ladi-da Tom! Men shu ishning hozir bo'lishini xohlar edim.

– Men ham! Biz ularga: «Tamaki chekishni shunday qaroqchilik qilib yurgan vaqtimizda o'rgangan-miz» desak toza hayron bo'ladilar-da.

– Albatta, hayron qoladilar! Bunga hech shubha yo'q!

Bularning suhbatlari shu xilda davom etardi. Lekin sekin-asta suhbat susayib, bo'linib-bo'linib, oradagi jimlik borgan sari kuchayardi.

Tamakiga yangi o'rgangan bu ikkala kashanda-ning ranglari oqarib, qiyofalari achinarli tus oldi. Joning bo'shashgan qo'llaridan trubkasi tushib ketdi. Tomniki ham xuddi shunday bo'ldi. Nihoyat, Jo zaif tovush bian:

– Men pichog'imni yo'qotdim, borib qidirishim kerak, – dedi.

Tom lablari qaltirab, tovushi bo'linib-bo'linib chiq-qan holda:

– Men senga yordamlashayin. Sen mana bu to-monga bor, men ana u yoqqa borayin. Yo'q, Gek, sen orqamizdan yurma, o'zimiz topib olamiz, – der edi.

Gek ularni bir soatdan ortiq kutdi. Keyin zerikib, o'rtoqlarini izlab ketdi. U o'rtoqlarini o'rmon ichidan, bir-birlaridan uzoq ikki joydan topdi: ularning ikkovlari ham ranglari o'chgan va qattiq uyquda edilar.

Shu kuni kechki ovqat vaqtida ikkovlari ham so'zlashmay, ko'z qarashlari ham go'yo biror narsadan qo'rqib turgandek bo'lib o'tirishdi. Kechki

ovqatdan keyin Gek o'zi uchun trubkaga tamaki joylab, ularga ham taklif qilganda, ular buni mutlaqo qabul qilmadilar. Tushki ovqatda biror yoqmag'an narsa yeb zaharlangan bo'sak kerak, tobimiz yo'qroq, deb bahona qildilar.

Yarim kechaga yaqinlashganda Jo uyg'onib, o'rtoqlarini ham uyg'otdi. Havo judayam dim edi. Kechaning issiq bo'lishiga qaramay, bolalar olov yoniga yaqin kelib, bir-birlariga tiqilishib o'tirdilar. Ular atrofga qulq solib o'tirardilar. Gulxanning orqa tomoni ko'z ilg'ammas qorong'ilik.

Birdaniga bir narsa yilt etib, yaproqlarni xiragina yoritib, yo'q bo'ldi. Keyin yana avvalgidan yorug'roq yarqirab, yana yo'q bo'ldi va yana takrorlandi. Keyin daraxt butoqlaridan eshitilar eshitilmas ingrash tovushi keldi, bolalar yuzlariga kimningdir nafas olgandek yengilgina hovri tekkanini payqab qoldilar. Birozdan keyin birdan yana haligidek mash'um, yarqiragan chaqmoq chaqnab, odatdan tashqari ravshanligi bilan yerdagi o'tlarni va gulxan yonida o'tirgan uch bolaning yuzlarini yoritdi. Osmon bo'ylab momaqaldiroq guldurab, uzoqlarga borib yanada yangrab ketdi.

Sovuq shamol esib daraxt yaproqlarining hammasini birdaniga shildiratib, gulxan atrofidagi kullarni sovurib yubordi.

Yana chaqmoq chaqib, xuddi shu onning o'zida osmon gulduradi. Bu guldurashdan go'yo daraxtlar ag'darilib, boshlariga ustiga tushib kelayotgandek ular bir-birlariga mahkam tiqilishib oldilar. Yomg'irning birinchi katta-katta tomchilari daraxt yaproqlari ustida shatirlay boshladidi.

– Tezroq bo'linglar, chodirga qarab yuguringlar! – deb baqirdi Tom.

Ular har yoqqa sochilgan holda yovvoyi toklarning tomirlariga qoqilib-qoqilib Yugura boshladilar.

O'rmon ichida dahshatli bo'ron ko'tarilib, uning zarbidan tevarak-atrofdagi butun narsalar qasirlar va egilardi. Ko'zni olarlik darajada yorqin chaqmoqlar birin-ketin uzlusiz yarqirab o'tar, har qaysisining ketidan osmon quloqni kar qilguday guldurab turardi. Yomg'ir ham chelaklab quygandek yog'a boshladi.

Bolalar qichqirishib bir-birlarini chaqiradilar. Biroq qattiq shamolning bo'kirishi va havo guldu-rashining zo'ridan ularning tovushlari bo'g'ilib, yo'q bo'lib ketar edi. Bolalarning usti boshlari ivib, o'zlarini sovuq yeb, yuz-qo'llari timdalangan holda birin-ketin chodirga yetib keldilar-da, o'zlarini panaga oldilar. Bolalar bunday baxtsizlikka duchor bo'lganliklaridan shodlanar edi. So'zlashishning iloji yo'q, chunki te-palaridagi eski yelkanning shatirlashi shu darajada dahshatli ediki, birovga gap uqtirib bo'lmas edi.

Bo'ron borgan sayin kuchaymoqda. Nihoyat, qat-tiq shamol yelkanni ham yulqib olib, pirpirak qilib uzoqlarga olib ketdi. Bolalar bir-birlarining qo'llari-dan ushlashib dam-badam turtinib-surtinib, hamma yerlarini ko'kartirishib, panoh izlab qirg'oqdagi katta qayin daraxtining tagiga qarab yugurib ket-dilar. Endi bo'ronning dahshati tamom kuchaygan. To'xtovsiz yarqirab turgan yashin engashgan daraxtlar, ko'pirib yotgan daryo, narigi qirg'oqdagi mo'ralab turgan baland jarlar qo'rqinch bilan ko'zga tashlanardi. O'rmon ichidagi zo'r-bahaybat keksa daraxtlar, atrofdagi yosh daraxtlarni yer bilan yakson qilib, dam-badam vahima bilan qulab tushmoqda, havoning guldurashi ham dahshatlar, uzuq-uzuq portlashlar bilan bo'linib eshitilar edi. Pirovordida bo'ron quturib shunday kuch oldiki, go'yo orolni parcha-parcha qilib, yondirib, daraxtlarni tomiri bilan yulib, yer yuzidan supurib tashlaydiganday ko'rinar edi. Boshpanasi yo'q bu uch bola uchun o'sha kecha eng dahshatli kecha bo'ldi.

Nihoyat bu ola-g'ovur pasayib, tabiat kuchlari tinchlana boshladı. Havoning guldurashlari ham sekin-sekin pasayib, o'rmon ichida yana jimjitlik hukm surdi. Bolalar anchagina qo'rqqan holda o'z lagerlariga qaytdilar. Ularni Xudo bir saqlagan edi, chunki har doim yotadigan yerlari katta anjir daraxtini yashin urgan, shu kecha o'sha daraxt ostida yotgan bo'lalar, albatta yashin tegib hammalari o'lar edi.

Lagerda hamma narsa butunlay ivib qolgan. O't o'chgan. Bolalar o'tni o'chirmay, saqlab qolish yo'lida hech qanday chora ko'rмаган edilar. Bu juda ko'ngilsiz bir hol edi, chunki ular uchovlari ham butunlay ivib, sovuq yeb qaltirashardi. Keyin qarasalar, o't yoqilgan yerdagi katta to'ngakning kavagida uch-to'rtta cho'qqa nam tegmay qolgan edi. Bolalar darhol ishga kirishib, daraxt shoxlarini va to'ngaklarning kovaklari orasidagi nam tegmay qolgan po'stloqlarni topib olib, zo'r chidam bilan harakat qilishlari natijasida o'tni yondirib yubordilar. Uning ustiga katta-katta shoxlardan qalab, katta gulxan qilib, yana ruhlari ko'tarilib ketdi. Ivib qolgan go'shtlarni olovda pishirib, ovqatlanib olganlaridan keyin gulxan yoniga davra qurib, boyagi dahshatlarni ertalabgacha so'zlashib o'tirdilar. Baribir uslashga imkoniyat yo'q, chunki atrofda bir parcha ham quruq yer qolmagan edi.

Quyoshning birinchi nurlari bilan bolalar mudray boshladilar; ular suv bo'yida, ho'l qum ustida yotib qoldilar. Quyosh bularni yetarli darajada qizdira boshlagandan keyin ular o'rinalardan turib, ma'yuslik bilan o'zlariga ovqat tayyorlay boshladı. Biroq ertalabki ovqatni yeb bo'lganlaridan keyin ham ularning charchog'i tarqalmagan, butun a'zolari zirqirab og'rib turar, dillarida yana xafachilik, uylarini sog'inish hissiyoti paydo bo'lgan edi. Tom buni

payqab, o'rtoqlarining xafachiliklarini yozish uchun qolidan kelgan ishlarning hammasini qilib ko'rdi. Biroq bularni endi soqqalar ham, ot o'yini ham, cho'milish ham ovuntira olmas edi. Tom o'zining katta sirini ularning esiga tushirgan edi. Shundan keyin ular biroz quvondilar. Tom bundan foydalanib, ularni yangi bir narsa bilan qiziqtirishga shoshildi va yangilik tariqasida qaroqchilikni vaqtincha yig'ishtirib qo'yib, bir necha vaqtgacha hindi bo'lishni taklif qildi. Bu fikr ularni qiziqtiradiganday bo'lib ko'rindi. Ular bir damda yechinib, boshlaridan oyoqlarigacha qora balchiqqa belanib, yovvoyi otdek chovkar bo'lib oldilar. Har qaysilari ham o'zlarini yo'lboshchi deb sanadilar, keyin hammalari birga ingliz qishlog'ini bosish uchun o'rmonga qarab jo'nadilar.

Ular bir-birlariga dushman bo'lgan uncha-muncha uchta qabilaga ajralib, jangovar shovqinlar bilan pistirmalar orqasidan chiqib, bir-birlariga hujum qilishar, minglab dushmanlarini o'ldirib, bosh terilarini shilib olar edilar. Urush juda qizg'in bo'lib, bundan bolalar mamnun bo'lishdi.

Kechki ovqat vaqtida ular och bo'salar ham, o'zlarini baxtli sezganlari holda lagerga yig'ilishdi. Biroq bunda bir qiyinchilik tug'ildi. Dushmanlik qilgan hindilar avval o'z o'rtalarida sulh tuzmay turib, birga o'tirib non ushatolmas va uning uchun esa bir trubka chekishmasalar sira iloji bo'lmas edi. Ular busiz sulh tuzilganini hech bir eshitgan emaslar. Ulardan ikkitasi qaroqchi holicha qolmaganlariga qariyb pushaymon edilar. Biroq boshqa iloj yo'q edi, o'zlarini mumkin qadar xursand qilib, navbat bilan trubkani tortishar edilar. Nihoyat ular o'zlarining hindi bo'lganlariga sevindilar, chunki ular biroz foyda ko'rар edilar: ular endi pichog'imni yo'qotdim, topib kelay deyishga ham ehtiyoj qoldirmay trubkani uncha-muncha chekadigan bo'lib oldilar.

Garchi ular uchun bu narsa biroz behuzurlik kel-tirsa ham, buni hech bir o'ng'aysizlik deb bo'lmas edi. O'z-o'zidan ma'lumki, ular bunday qulay sharoitdan foydalanishga shoshilib, kechki ovqatdan keyin tajriba uchun bu ishlarini ancha muvaffaqiyat bilan yana takrorladilar. Shuning natijasida o'sha kechasi ham juda ko'ngilli bo'lib o'tdi. Ular shodlanib, g'ururlanar va bu yangi o'ylab topgan hunarlari bilan o'zlarini shunday baxtli sanar edilarki, go'yo bular birdaniga hindi qabilalaridan oltitasining kalla terilarini shilib olgandek bo'lar edilar. Endi biz hozircha ularni tinch qo'yib turaylik. Bular trubklarini chekib: vaqillashib, maqtanib o'traversinlar. Vaqt kelguncha, biz atarsiz ham ish ko'ra olamiz.

### O'N YETTINCHI BOB

## QAROQCHILAR O'ZLARINING KO'MISH MAROSIMLARIGA ISHTIROK ETADILAR

Shanba kunlarining tinchgina kechki paytlari... Polli xola, Meri, Sid va missis Garperning barcha oilasi qayg'u-hasrat va ko'z yoshlariga ko'milib, motam kiyimlari kiyib olganlar. Bu yer avvaldan ham uncha to'polon joy bo'lmagani uchun, hozir ayniqsa jumjut bo'lib qolgan. Bu yerda yashovchilar xayollari parishon holda o'zlarining odatdagagi ishlarini bajarib yurar va dam-badam xo'rsinib qo'yar edilar. Bolalar bo'lsa, shanba kungi dam olishni ham o'zları uchun og'ir bir narsa deb sanaydilar. O'yinlar ham odatdagidek qovushmay, kam-kam bo'lib, nihoyat ular o'ynashni ham batamom yig'ishtirib qo'ydilar.

Kechga yaqin Bekki Techer yolg'iz edi, maktab hovlisida o'zini hech narsa bilan ovuntirolmay, o'z-o'zicha so'zlab o'tirar edi:

– Hech bo'lmasa, u menga hadya qilgan mis soqqa bo'lsa-chi! Hozir qo'limga xotirlaydigan hech narsa yo'q.

Bekki bir o'ksib qo'ydi-yu, yana davom etdi:

– O'sha uchrashuvimiz xuddi mana shu yerda bo'lgan edi. Oh, qani o'sha uchrashuvimiz yana takrorlansa, men endi unga hech bir yomon so'z aytmagan bo'lar edim. Biroq u endi yo'q va men uni endi hech vaqt ko'rolmayman.

Shunday fikrlar uning yuraklarini ezar edi. Ko'zlar jiqqa yoshga to'lib ketdi.

Keyin bir to'da o'g'il va qiz bolalar – Tomning maktabdoshlari kelib, hammalari devor yonida to'xtab, halok bo'lganlarga hurmat yuzasidan tovushlarini sekin chiqarib, Tomning qilgan ishlarini va Joning aytgan so'zlarini yodlashardi. Ularni eslovchilardan har qaysilari yo'qolgan bolalarning turgan yerlarini aniq ko'rsatib: «Men hozir qanday turgan bo'lsam, o'sha vaqtida ham xuddi shunday turar edim, u mana bunday qilib kulimsirab qo'ygan edi, o'shanda men buning ma'nosini bilmagan edim, hozir tushunib turibman», – der edi.

Ularni eng so'nggi va tirik vaqtlarida ko'rganlar kimlar degan mavzuda suhbatlashib ketdilar. Qachonki, o'sha halok bo'lgan o'rtoqlarini hamadan keyin ko'rib, so'zlashib qolganlar kimlar ekanı aniqlanganda, ular g'ururlanar, boshqalari esa bularga rashk nazari bilan qarab turar edilar. Bolalar dan biri boshqa durustroq so'z topolmay, sezilarlik bir kibr bilan:

– Tom Soyer meni bir kuni o'lgedek do'pposlagan edi, – dedi.

Biroq uning bu tariqa shuhrat qozonishi o'tinli bo'lib chiqmadi. Bolalar halok bo'lgan qahramonlarni ehtirom bilan yodlay-yodlay tarqalishdilar.

Ertasi kuni ertalab mакtabda mashg'ulotlar tamom bo'lgandan keyin, odatdagи shoshilish va jaranglagan tovush o'rniga, qo'ng'iroq sekin-asta og'ir va uzoq tovush bera boshladi. O'tgan-ketganlar

birin-ketin cherkov eshigiga to‘planishib, bu qayg‘uli voqea to‘g‘risida shivirlashib so‘zlashar edilar. Bu kichkinagina cherkovning qachon bo‘lsa ham shunchalik to‘la bo‘lganini hech kim eslayolmaydi. Birdan hamma yoq jimb qoldi. Cherkovga Sid bilan Merini ergashtirib, Polli xola, uning orqasidan Garperlar oilasi kirib keldi. Hammalari qop-qora motam kiyimiga o‘ralgan. Cherkovdagilarning hammalari bir kishidek, shu jumladan keksa domla ham hurmat bilan o‘rnidan turib, halok bo‘lganlarning qarindoshlari oldingi qatordagi kursilarga borib o‘tirgunlaricha tikka turdilar. Keyin yana tinchlik hukm surdi va bu tinchlikni bo‘g‘iq ho‘ngragan yig‘i tovushlarigina buzib turar edi. Nihoyat, domla qo‘llarini yozib ta’ziya marosimini boshladi. Kishiga qattiq ta’sir qiladigan va’z va ancha duolar o‘qildi.

Domla halok bo‘lgan bolalarning xususiyatlari, kam uchraydigan qobiliyatları va boshqachaliklari shunday ochiq va ravshan tasvirlab berdiki, cherkovda o‘tirganlar ichida halok bo‘lgan bechora bolalarning yaxshiliklaridan ko‘z yumib, faqat ularning kamchilik va nuqsonlarinigina ko‘rib kelganlari uchun vijdonan azoblanib o‘z ichida o‘kinmagan biror kishi ham qolmadı.

Domlaning so‘zlari borgan sari ta’sir eta bordi. Yig‘indagilarning ko‘ngillari tobora yumshab, hammalari bolalarning qarindoshlariga qo‘silib birdan ho‘ngrab yig‘lay boshladilar. Hatto domlaning o‘zi ham chidab turolmay, yig‘lab yubordi.

Xalq ichidan qandaydir bir shovqin chiqdi, lekin bunga hech kim e’tibor qilmadi. Oradan biror daqiqa o’tishi bilan, tashqari eshik g‘ijirladi.

Domla, yoshga to‘lgan ko‘zlaridan ro‘molchasini olib, boshini ko‘tarib qaragan edi, hayratidan surat bo‘lib qotib qoldi.

Buni ko'rib o'tirgan kishilardan biri, keyin ikkinchisi, so'ogra uchinchisi, to'rtinchisi qaradi va bir damda cherkov ichida o'tirgan butun xalq o'rnidan turib qaray boshladi. Ko'rsalarki, o'ldi deb hisoblangan bolalarning uchalasi ham domla turgan mehrobga tomon yurib kelmoqda edilar. Oldinda Tom, undan keyin Jo, eng orqada o'zining uvada bo'lib ketgan kiyimlariga qaray-qaray Gek kelar edi. Bular ko'p vaqtlardan beri o'zlarining motamlarini eshitib o'tirgan edi.

Polli xola, Meri va Garperlar o'zlarining tirilib kelgan sevikli bolalari oldiga yugurib borib, ularni o'pib quchoqlay boshladilar. Biroq bechora Gek shuncha tikilgan ko'zdan qayoqqa qochishini va o'zini qayoqqa urishni bilmay, uyalib qarab turar edi. U atrofga qaray-qaray endi qochmoqchi bo'lib turganida Tom uning qo'lidan ushlab olib:

– Polli xola, bunday qilish yaramaydi. Gek uchun ham kim bo'lmasin birov shodlanishi zarur-ku! – dedi.

– Ha, albatta, bolam. Men shu yetim bechorani ko'rganim uchun butun vujudim bilan sevinchlarga to'lamani.

Shu so'zlar bilan Polli xola Gekka qarab, uni avvalgidan ham ortiqroq uyaltiruvchi, erkalovchi so'zlar yog'dira boshladi.

Keyin hammalari birdan ashula aytib yubordilar. Qadim zamonlardan qolgan tashakkur duosining ashulasi bu choqqacha eshitilmagan darajada g'oyat jaranglab eshitilar, dengiz qaroqchisi Tom Soyer bo'lsa o'ziga rashk bilan tikilib turuvchi o'rtoqlariga qarar ekan, ko'nglida umrining eng yaxshi daqiqlarini kechirayotgandek his qilar edi. Kelgan kishilar uy-uylariga tarqalishar ekanlar, bir-birlari bilan so'zlashib, garchi o'zlarini uyatsizlarcha aldatgan bo'salar ham, ammo bunday ajoyib bajarilgan tari-

xiy munojotni yana eshitish uchun tag'in bir karra ahmoq bo'lishga rozi edilar.

Shu kuni Tom Polli xolaning kayfiyatiga qarab shuncha o'pish va shuncha chertmoqlar oldiki, agar hisoblasa, ular bir yilga yetarlik edi.

## O'N SAKKIZINCHI BOB

### **TOM HIKMATLI TUSHINI HIKOYA QILIB BERADI**

Tomning katta, maxfiy siri ham xuddi mana shunda: hammalari birga uylariga qaytib kelib, o'zlar uchun yig'ilgan ta'ziya marosimining boshida turishlarida edi. Ular shanba kuni bir xodaga minishib, daryoning narigi betiga o'tib oldilar-da, qishloqdan besh-olti mil pastroqdan chiqib, o'rmon ichida, uning bir chekkasiga yaqin yerida tunadilar. Tong otgan zamon cherkovning ichidagi siniq kursilar orasida uqlab olgan edilar.

Dushanba kuni ertalab nonushta vaqtida Polli xola bilan Meri ikkovlari ham Tomga juda mehribon bo'lishib, uning butun istaklarini bajarar edilar. Suhbat juda qizg'in davom etayotgan paytda Polli xola turib:

– Ko'rdingmi, Tom, men bu ishni qiziq emas, deb aytmayman, sizlar faqat o'zlaringizning xursandchiliklaringiz uchun hammamizni qariyb bir hafta azob chektirdingiz, biroq men sening tosh yurakligingdan, meni oz sevganligingdan xafa bo'laman. Sen o'zing uchun bo'layotgan ta'ziya va motam marosimining ko'rish uchun xoda ustiga minib suvdan o'tib kela olar ekansan, uyga kelib o'zingning o'lмаганлигингни, balki qochib ketганлигингни menga bildirsang bo'lar edi.

– Ha, Tom, sen bu ishni qila olar eding, – dedi Meri, – albatta, agar bu ish xayolingga kelganda, sen buni qilar eding.

- Shundaymi, Tom? Sen shunday qilar edingmi?
- Polli xolaning yuzida qayg'uli iljayish paydo bo'ldi:
  - qani ayt-chi, Tom, agar xayolingga kelib qolsa, shunday qilar edingmi?
  - Bilmadim... Agar shunday qilsam, ishlarimiz butunlay buzilar edi-da...
  - Oh, Tom, sen meni ozgina bo'lsa ham yaxshi ko'rarsan, deb umid qilar edim, – Polli xola bu so'zlar ni shunday qayg'uli ohangda aytdiki, buni eshitib bola ham ancha behuzur bo'ldi. – Hech bo'lmasa, sen bu haqda garchi bir o'ylab ko'rsang edi. Men seni shunday qilsang bo'lar edi, deb aytmayman, lekin, sen hatto shunday qilishni o'ylab ko'rmading ham.
- Ha, xola, bu hali hech gap emas, – dedi Meri so'zga aralashib. – Tomning miyasida har doim shamol aylanib yuradi, buni bilmaysizmi? U har doim shunday tashvishlar bilan yuradiki, bunday narsalarni o'ylashga vaqt ham bo'lmaydi.
- Ana shunisiga ko'proq achinaman-dal! Sid bo'lsa, buni o'ylar va albatta shunday qilar edi. Oh, Tom, bir kun kelarki, meni aqalli ozgina bo'lsa ham sevishga urinmaganing uchun achinarsan... achinarsan, lekin keyingi achinganining foydasi bo'lmas.
- Qo'ying endi, xola, sizni qanchalar yaxshi ko'rishimni o'zingiz yaxshi bilasiz-ku! – dedi Tom.
- Agar bu narsa ozgina bo'lsa ham sening harakat-laringdan ko'ringanida, men buni hammadan ham yaxshiroq bilgan bo'lar edim.
- Xayolimga shunday fikr kelmaganiga hozir juda achinmoqdamon, – dedi Tom o'kinch ohangi bilan, – xayolimga kelmasa ham men sizni tushimda ko'rdim, shuning o'zi ham katta gap emasmi?
- Tush ko'rish nima degan gap, mushuklar ham tush ko'radilar-da, harholda hech narsa bo'lma-gandan ko'ra, shu ham durust. Qani tushingda nimalarni ko'rding?

– Tushimda shuni ko'rdim. Chorshanba kuni kechqurun tushimda siz karavot yonida o'tirgansiz. Sid sizning oldingizda taxta yashik ustiga o'tirib olgan, Meri uning yonboshida o'tirar edi.

– Xo'sh, nima bo'libdi, o'zimiz ham xuddi sen aytgandek o'tirgan edik. Hamma vaqt ham shunday o'tiramiz.

– Keyin Jo Garperning onasi ham shu yerda o'tirgan emish.

– Chindan ham u shu yerda o'tirgan edi-ya! Xo'sh, tushingda tag'in nimalarни ko'rding?

– Ey, juda ko'p, har xil narsalarni ko'rdim, faqat hozir yodimda yo'q.

– Qani, esingga ol-chi, nahotki shuni ham eslay olmasang?

– Keyin, tushimda... shamol turib... shamol, shamol...

– Qani yaxshilab esingga ol, Tom shamol nima qildi?

Tom barmog'ini peshonasiga mahkam bosib turdi-da, biror daqiqa chamasi bularni kuttirgandan keyin:

– Ha, esimga tushdi. Esimga tushdi, shamol shamni o'chirdi.

– Xudoyo tavba, tavba. Qani, Tom, keyin nima bo'ldi?

– Keyin siz «eshik ochilib qoldimi?» – dedingiz.

– Undan keyin, Tom, undan keyin nima?

– To'xtang, esimga tushirib olay-da... Ha, ha, siz eshik ochilib qolganga o'xshaydimi, dedingiz.

– Ha, ha, men xuddi shunday degan edim, esingda bormi, Meri? Ha, undan keyin?

– Undan keyin... Undan keyin... Uyog'i mening esimda yo'q... Ammo siz Sidga buyurdingiz...

– Qani, qani, Sidni nimaga buyurdim?

– Siz uni... Siz unga eshikni yopib kel, deb buyurdingiz, shekilli.

– Xudoyo tavba qildim, bu qanday gap! Bunday tushni men umrim bino bo'lib eshitmagan edim. Mana, shundan keyin ham tushga ishonmang-chi! Men hozir yugurib borib shularning hammasini missis Garperga aytib beraman. Qani, shuni eshitgandan keyin ham bo'lmag'ur narsalarni so'zlar mikan. Qani, so'zla-chi, Tom, keyin nima bo'ldi?

– Men endi hammasini eslab oldim! Keyin siz meni, o'zi yomon emas, faqat juda sho'x dedingiz, keyin mendan bir narsani talab qilishni... nima? Allanarsa bilan, toychoq bilan teng dedingizmi?

– Ha, ha, men xuddi shunday degan edim. Ey xudo ye-y. Xo'sh, qani, Tom, keyin nima bo'ldi?

– Keyin siz yig'ladingiz.

– Rost, rost, o'shanda yig'lagan edim-a? Undan keyin-chi?

Keyin missis Garper yig'lab, Jo ham yaxshi bola edi, qaymoqni o'zim to'kkан ekanman, bekorga uni urganman, dedi.

– Ajab qiziq-a, bu tushdagi narsalar. Qani undan keyin.

– Keyin Sid aytdiki...

– Men hech narsa deganim yo'q edi-ku, – dedi Sid.

– Yo'q, Sid, sen o'shanda bir narsa degan eding, – dedi Meri.

– Bo'ldi, tinch o'tiringlar, so'zga aralash manglar. Qani, Tom, u nima dedi?

– U, u dunyoni yaxshiroq bo'lishiga umid qilganini aytди. Lekin men avvaldan yaxshi bola bo'lganimda edi...

– Voy tavba! Eshitdinglarmi? Xuddi o'shaning aytgan so'zlarining o'zginasi-ya.

– Shunda uni jim tur, deb urishdingiz.

– To'g'ri, men uni o'shanda urishgan edim. Yo'q, o'sha vaqtida bu yerda farishta bo'lgan va o'sha farishta borib sening ko'nglingga solgan bo'lsa kerak.

– So'ngra missis Garper, Jo to'g'risida gap ohib, uning to'pponchasini xuddi onasining burni ostiga keltirib otganlarini so'zladi, siz bo'lsangiz unga mushugimiz Piter va dorivor to'g'risida hikoya qilib berdingiz.

– So'zlarining hammasi to'g'ri.

– Keyin bizlarni suvdan qidirganlaringizni, yakshanba kuni biz uchun motam tutmoqchi bo'lganiningizni so'zlab, missis Garper bilan quchoqlashib yig'ladingiz, shundan keyin u chiqib ketdi...

– Xuddi o'zginasi-ya! Agar shunday bo'lmasa, mana shu o'tirgan yerimdan turmayin. Tom, agar shularning hammasini ko'rib, o'z qulog'ing bilan eshitganingda ham, bunday bataysil so'zlab bera olmas eding. Xo'sh, keyin nima bo'ldi?

– Keyin men uchun duo o'qidingiz shekilli, men bo'ssam duongizning har bir kalimasini eshitdim va sizni ko'rib turdim. Keyin siz uplash uchun yotdiningiz, mening sizga shunday rahmim keldiki, men bir bo'lak po'stloq olib o'sha po'stloqqa «Biz o'rganimiz yo'q, biz qochib ketib, qaroqchi bo'ldik», deb yozib stol ustiga, sham yoniga qo'ydim. Shu vaqt siz uxbab yotar edingiz, uyquda yotganingizda sizning yuzingiz shunday ko'rakam, shunday shafqatli ko'rindiki, men tepangizga borib, engashib, labingizdan o'pib oldim.

– Chindanmi Tom, chindanmi? Bo'lmasa, ana shu qilgan ishing uchun men gunohlarining kechirdim.

Shu so'zlar bilan kampir uni quchog'iga mahkam bosib oldi, bola esa o'zining eng so'nggi yaramas bola bo'lganini sezdi. Sid go'yo o'zicha so'zlagandek bo'lib:

– Garchi uning bu qilgan ishi tush bo'lsa ham, harholda u juda yaxshi ish qilgan, – dedi.

– Tovushingni o'chir, Sid! Kishi o'ngida qiladigan ishlarini tushida ham qila oladi. Ma, Tom, mana bu katta olma senga! Men bu olmani seni topilib qolar, degan umid bilan ko'p vaqtlardan beri saqlab

yurar edim. Qani, bolalar, mакtabga boringlar, endi vaqt bo'ldi...

... Bolalar mакtabga jo'nadilar, kampir bo'lsa, o'z bolasining ajoyib tushlarini hikoya qilib berish uchun missis Garperning oldiga ketdi. Sid uydan chiqib ketayotib o'yagan narsasini aytishni lozim ko'rmadi. U o'z xayolida:

«Shunchalik uzundan-uzoq va qiyin tushlarni ko'rish mumkinmi? Bular hammasi bo'lмаган, to'qima gaplar», – der edi.

Tom endi shunday qahramon bo'ldi-ya! U hozir irg'ish-sakrashlarni ham tashlagan, u go'yo hammaning ikki ko'zi o'zida ekanini sezib turgan qaroqchi o'g'rilardek, o'zini juda jiddiy tutadi. Chindan ham shu vaqt hammaning ko'zi unga tikilgan. U, sirtdan qaraganda, kishilarning o'ziga tikilib turushlarini ko'rmagandek va o'z to'g'risida aytilayotgan so'zlarni eshitmagandek bo'lsa ham, ammo ko'nglida bunday maqtovlardan zavqlanib yurar edi. Mayda bolalar to'planishib, uning orqasidan yugurishib borardilar, ular ham o'zlarining Tom bilan yonma-yon ketayotganliklarini kishilar ko'rishidan fahrlanar edilar. Tom go'yo biror marosimning oldiga tushib ketayotgan do'mbirachi yoki turli-tuman hayvonlar oldida ketayotgan bir filga o'xshar edi. Uning tengdoshlari o'zlarini uning ketib qolganidan xabarsizdek ko'rsatmoqchi bo'salar ham, shu bilan birga unga juda qat-tiq rashk qilar edilar. Bu bolalar Tomdek quyoshda kuygan qop-qora tanli va shunday shuhratli bo'lish uchun bor narsalarini berishga rozi edilar.

Maktabda bolalar Tom bilan Jo Garperni shunday maqtay boshladilar va ularning ko'zlarida shunday bir zavq va shodlik belgilari porlar ediki, ularni ko'rgan bu ikkala qahramon o'zlarini darhol jiddiy tutib, kibrana boshladilar. Nihoyat yonlaridan trub-kalarini chiqarib, hech bir uyalmay-netmay tamaki-

larini tutata boshlashlari bilan bularning shuhratlari yanayam ortib ketdi.

Tom o'zicha: «Endi Bekki Techersiz ham yura olarman» degan qarorga keldi. Uning shuhrati endi yetib ortardi. U endi shuhrat uchungina yashaydi. Hozir u shunday mashhur bir kishi bo'lgan paytda Bekki uning bilan yarashishni istardi. Mayli, bilganini qilaversin! U xuddi shuni o'ylab turgan paytda Bekki kelib qoldi. Tom uni ko'rsa hamki, o'zini ko'rmaganga soldi. U bir chekkaga borib, bir to'da o'g'il va qiz bolalarga qo'shildi-da, ular bilan suhbatga kirishib ketdi. Ko'p o'tmay Tom Bekkining shodlik bilan u yoqdan-bu yoqqa yugurib yurganini ko'rди. U, yuzlari qip-qizarib, ko'zlari chaqnagan holda shu qizlar bilan quvalashib yurishga butunlay berilib ketib, haddan tashqari shodlanar va qizlardan birortasini tutib olsa, shodlanib chinqirib yuborar edi. Lekin Tom sezdiki, qiz garchi shunday shod ko'rinsa ham Tom turgan yerga yaqinroq kelishga urinar va ko'z ostidan uni kuzatib yurar edi. Tom buni ko'rib juda kibrilanar, lekin u hali ham o'zini qizni ko'rmaslikka solib turar edi. Keyin Bekki qizlar bilan quvlashishdan to'xtab, nima qilishini bilmay, uzoqroqda yura boshladi va sekin-asta bildirmasdan Tomga qarab-qarab qo'yardi. Birdan u Tomning hammadan ko'proq Emmi Lorens degan qiz bilan so'zlashayotganini payqadi. Bekki ularga yaqinroq kelib, ular bilan deyarlik yonma-yon turdi-da, yasma shodlik bilan o'rtoqlaridan biriga qarab:

– Meri Ostin, sen juda yaramas qiz ekansan-a, nega yakshanba maktabga bormading? – dedi.

- Bordim-ku, ko'rmadingmi?
- Yo'q, ko'rmadim. Qayerda o'tirgan eding?
- Har qachongiday. Men seni ko'rdim-ku.
- Chindanmi? Men seni ko'rmabman. Bizda bog'sayili bo'ladi, senga shuni aytmcqchi edim.

- Ha, ha, bu juda qiziq bo'lar. Uni kim qiladi?
- Oyim, mening uchun qilayotir.
- Qanday yaxshi-ya! Meni ham chaqirarmikan?
- Albatta chaqiradi. Bu bog' saylini men uchun qilayapti. Demak, u xohlagan kishilarimning hammasini chaqiradi-da. Men sening ham o'sha yerda hozir bo'lishingni istayman.
- Rahmat aytaman. Qachon bo'ladi u?
- Hali bilmayman. Balki kanikul vaqtida bo'lib qolar.
- Juda qiziq bo'lar ekan-da! Sen o'g'il va qiz bolalarning hammasini chaqirasani?
- Ha, men bilan do'st bo'lib o'tganlarni yoki do'st bo'lishni istaganlarning hammasini chaqiraman.

Shu so'zlar bilan u sekin-asta ko'z ostidan Tomga qarab qo'ydi. Tom esa shu vaqt Emmi Lorensga kichkina oroldagi dahshatli bo'ron to'g'risida va o'zi turgan yerdan nihoyat uch qadamgina naridagi bir anjir daraxtiga chaqmoq tushgani hamda uni yondirib tashlagani haqida hikoya qilib turgan edi.

- Men ham borsam bo'ladimi? – deb so'radi Gresi Miller degan bir qiz.
- Bo'ladi.
- Men ham borsam bo'ladimi? – dedi Salli Rojers degan qiz.
- Albatta bo'ladi.
- Men ham boraymi? – dedi Suzi Garper, – Jo ham borsinmi?
- Ha, ha, bo'lmasa-chi.

Bolalarning hammasi unga shu bir xildagi savonni berar va undan qabul javobi olganlari uchun shodlanib chapak chalar edilar. Natijada Tom bilan Emmidan boshqa bolalarning hammasi taklif qilin-gan bo'ldi.

Biroq, Tom so'zini bo'lmasdan, tinchgina Emmi ni ergashtirib bir chetga chiqib ketdi. Buni ko'rgan

Bekkining lablari qaltirab ko'zlariga yosh keldi, bi-roq u xafachiligin bildirmasdan o'zini xursandlikka solib, so'zlashib turar, lekin shunday bo'lsa ham uning butun kayfiyati o'zgargan edi. U o'rtoqlaridan ajralib, bir panaroq yer topib oldi-da, sinfga kirish uchun qo'ng'iroq chalinguncha ranjigan holda o'sha yerda o'tirdi.

Qo'ng'iroq chalingandan keyin o'rnidan turdi-da, g'azab bilan ko'zlarini chaqnatib, o'z-o'ziga: «Endi bilib ishimni qilaman», deb qo'ydi.

Tanaffus vaqtida Tom yana o'sha Emmi Lorens bilan so'zlashishda davom etdi va Bekkining g'ashini keltirish uchun jo'rttaga uni axtarib ketdi. U Bekkini mакtab orqasidagi kursida Alfred Tempi bilan birga, bir kitobning rasmlarini ko'rib o'tirgan holda topdi. Ularning ikkovi ham qo'llaridagi kitobga shunday berilgan edilarki, go'yo hech narsani sezmas edilar. Boshlari bir-birlariga tegay deb turardi. Tomning tomirlarida rashk qoni jo'sh urdi. Yarashish uchun qilgan taklifini Bekki qabul qilmaganligi Tomga jundayam alam qildi. U o'zini ahmoq der va esiga kelgan har bir yomon so'zlar bilan so'kar, alamiga chidayolmay yig'lamoqchi ham bo'lar edi. Emmi avvalgidek shodlik bilan so'zlashishda davom etar, chunki uning ko'ngli shodlik bilan to'lgan edi, biroq Tom esa go'yo tili yo'q bo'lib qolgandek edi. U Emmining so'zlariga hech quloiq solmas va Emmining so'ziga javob qaytarish kerak bo'lib qolsa, qizning so'zlariga hech bir aloqasi bo'lmagan tuturiqsiz so'zlarni aytib, ming'illab qo'yari edi. Shu bilan birga u qiz bilan aylanib yurarkan, har qanday qilib bo'lsa ham ular o'tirgan kursining yaqinrog'dan o'tib ketishga tirishar edi. Nihoyat Emmining shodlik bilan chuldirab so'zlashi Tomni zeriktira boshladi. Tom unga: «Mening falon yerga borishim kerak, ana unday, mana bunday qiladigan ishlarim bor» degani ham kor qilmas, qiz

to'xtamay chuldirashda davom etar edi. «Obbo qurib ketkur-ey, sendan sira qutulamanmi, yo'qmi», – deb o'ylar edi Tom. Nihoyat, u chidab tura olmadi-da, hozir uyga borib kelishim kerak, deb ketib qoldi. «Koshki boshqa kishi bo'lsa ham mayli edi, – deb o'ylardi Tom, – kim bo'lsa bo'lsin, faqat o'zining yaxshi kiyimlari va oqsuyak ko'rinishi bilan maqtanib yurgan Sent-Luidan kelgan olifta bo'lmasa bo'lgani. Qarab tur, sen oliftani, jazoingni berib qo'yarman», – der edi. Shundan keyin Tom o'zini ovuntirish uchun o'zicha dushmanini urgan bo'lib, qo'lini havoda har tomonga qattiq siltay boshladи. «Mana senga! Mana senga! Qalay jazoingni oldingmi? Bundan keyin yana shu ishni qilma!» – der edi va go'yo mushtlashida Tom g'olib bo'lib chiqdi. Soat o'n ikki bo'lganda Tom maktabdan uyiga ketib qoldi. Bekki Alfred bilan birga surat ko'rishda davom etar edi.

Biroq vaqt o'tib borar, Tom qaytib kelmas edi, shuning uchun Bekki sirdan shod ko'rinsa ham, ichida xafa edi. U surat ko'rishdan ham zerikdi. O'zini dastlab jiddiy tutib, so'ngra indamay parishon holda ko'rindi. Keyin xafachiligi ortib, o'zini butunlay baxtsiz sezib Tom bilan o'zi o'rtasidagi adovatini shunchalik chuqurlashtirib yuborgani uchun achinar edi. Bechora Alfred, qizning nima sababdandir o'ziga e'tibor qilmay qo'yanini sezib, tinmay: «Oh, mana bu rasmni ko'ring. Mana bunisi qanday yaxshi, ekan-a!» der edi. Nihoyat qiz uning harakatlariga chidab tura olmadi-da: «Qo'ysangizchi, suratlaringiz ham qurib ketsin, juda bezor qildingiz-ku!» deb jerkib berdi va yig'lab o'rnidan turib ketdi. Alfred uni ovutmoqchi bo'lib, orqasidan yugurgan edi, u yana bunga o'shqirib:

– Gapirmang menga! Nari turing, juda yomon ko'rdim sizni! – dedi.

Bola unga nima yomonlik qilganini bilmay hayron bo'lib turib qoldi. U hamma tanaffuslarda bir-

ga o'tirib, surat ko'rmoqchi bo'lgan edi-ku! Endi birdan ketib qolishining sababi nima? Alfred xafa holda bo'sh sinf ichiga kirib o'tirdi. Uning g'azabi qaynab ketgan edi. Qizning u bilan birga o'tirishi faqat Tom Soyerning g'ashini keltirish uchun bo'lsa kerak. Shu fikr bilan unda Tomga zimdan adovat qo'zg'ala boshladi.

U qanday bo'lsa ham, dushmaniga yomonlik qilishni xohlar edi. Shu vaqt uning ko'ziga stol ustida ochiq yotgan Tomning o'qish kitobi ko'rindi. Ana qulay ish!

U kitobning xuddi shu bugun darsda o'qiladigan yerini topib, o'sha betiga siyoh to'kdi. Xuddi shu vaqtda Bekki deraza yoniga kelib, buning qilayotgan ishini ko'rdi-yu, o'zini ko'rsatmay chetga oldi. Tomni ko'rib, unga bu voqeani aytib berarman, degan umid bilan Tomning uyiga qarab yugurib ketdi. Buni borib aytgani uchun Tom shodlanar va shu bilan avvalgi xafachiliklari yozilib, yana topishib ketarlar, deb o'ylagan edi. Biroq yarim yo'nga borib, bu fikridan qaytdi. U mакtabda bolalarga bog' sayili to'g'risida so'zlayotganida Tom buni eshitsa ham e'tibor qilmagani esiga tushdi-da, bu ishga aralashmaydigan bo'ldi. «Menga nima? Kitobni rasvo qilgani uchun yaxshilab ta»zirini yesin. Men endi uni yomon ko'raman, umrbod yomon ko'raman», der edi.

### O'N TO'QQIZINCHI BOB

#### «MEN BUNI O'YLAMASDAN QILGANMAN»

Tom qovoqlari solingan holda uyga qaytib keldi va xolasining birinchi so'zaridanoq, xafachiligidagi yupanch topolmasligini tushundi.

- Tom, endi teringga somon tiqaman-da!
- Xolajon, nima gunoh qildim?

– Bo'ldi. Tag'in meni qarri ahmoq, missis Garperning oldiga borib, tush to'g'risidagi bu bemaza gaplarni unga ma'qullamoq va uni ishontirmoq umidida yuribman. Natijada nima bo'ldi? Bildim sening qilgan ishlaringni. Jondan aldab so'ragan ekan, u sening bu yerga kelib ketganiningni aytib beribdi. Shunday uyatsizlarcha yolg'on so'zlagan boladan nima kutib bo'ladi? Sen menga bu to'g'rida bir og'iz ham so'zlamay, meni missis Garperning oldiga yuborib, hammaga masxara qilding va ular oldida kulgi qilding.

Bularning hammasi Tom uchun yangi voqeа bo'lib chiqdi. Ertalab uning qilgan ishlari ortiq darajada o'ylab qiziqchilik bo'lib ko'ringan bo'lsa, hozir yaramas ish qilganini bildi. U boshini yerga egib, daf'atan nima deb javob berishini bilmay turdi-da, keyin:

– Xolajon, bu qilgan ishim uchun juda achnaman... men buni o'ylamasdan qilganman, – dedi.

– Oh, bolam, sen har vaqt o'ylamaysan. Sen har qachon vaqtichog'ligingdan boshqa hech narsani o'ylamaysan. Jekson orolidan kechasi kelib, g'am-kulfatlarimizni ko'rib, kulib ketishga aqling yetgan, bo'limg'ur ishlaring bilan boshimni qotirib o'tirishga aqling yetgan, biroq bizlarga achinib shu g'am-g'us-salardan bizni qutqarishga aqling yetmagan.

– Xolajon, bu mening tomonimdan qilingan juda yomon ish ekanligini endi angladim. Lekin men qasddan yomonlik qilmoqchi emas edim. O'sha kechasi ham men mutlaqo sizlardan kulib masxara qilish uchun kelgan emasman.

– Bo'lmasa, nima uchun kelgan eding?

– Men sizga: «Bizni suvg'a cho'kishdi, deb tashvishlanmasinlar», deb aytgani kelgan edim.

– Tom, agarda miyangga shunday yaxshi bir fikr kelganiga ishona olsam, jon-dilim bilan shodlanar edim, biroq o'zing bilasanki, bunday fikrlar senda bo'lmaydi, men buni yaxshi bilaman.

– Rost xolajon, rostini aytaman, xuddi shunday maqsad bilan kelgan edim. Agar yolg'on so'zlasam, shu turgan yerimda o'lib qolay.

– Qo'ysang-chi, Tom yolg'on so'zlama... Bu yolg'o-ning yana yuz marta yomonroq.

– Bu so'zim yolg'on emas, xolajon, bu so'zlarim rost, sizning g'am-kulfatlar chekib yotganingiz uchun rahmim keldi-da, shuning uchun kelgan edim.

– Agarda sening shu so'zlaringga ishona olsam, butun bor-yo'g'imni berishga ham rozi edim va buning natijasida sening ko'p gunohlarin kechirilgan bo'lar edi. Hatto sening qochib ketib, shunday yomon ishlarni qilganing uchun ham shodlanishga tayyor edim. Biroq, men bunga ishonishdan ojizman. Jon bolam, agar shunday ekan, nima uchun o'sha vaqtida buni menga bildirmading?

– Mana bunday-da, xola. Siz ta'ziyamiz to'g'risida so'zlayotganingizda, miyanga shu cherkovga kirib yashirinib yotish fikri keldi va bu narsa men uchun juda qiziq tuyuldi. Shuning uchun xat yozilgan anjir po'stlog'ini ham qaytarib yonimga solib qo'ydim.

– Qanday po'stloq?

– O'sha, bizlar qaroqchilikka ketdik, deb sizga xat yozgan po'stloqni-da! O'sha vaqtida sizni o'pganimda, uyg'onmaganingiz uchun endi achinayapman. Rost aytaman, juda achinaman.

Xolasining yuzidagi g'azab ifodasi yo'qolib, ko'zla-rida muloyimlik belgilari sezila boshladi.

– O'sha kuni meni chindan o'pdingmi, Tom?

– Chindan o'pdim, xola.

– Aldamayapsanmi?

– Yo'q.

– O'shanda meni nima uchun o'pgan eding, Tom?

– Men sizni juda yaxshi ko'raman-da, xola, shuning uchun o'pdim. Undan tashqari o'sha kuni uy-qingizda ingrab yotgan edingiz, sizga juda rahmim kelgan edi.

Tomning bu so'zlaridan samimiyat sezilib turardi. Kampirning tovushi ixtiyorsiz qaltirab:

– Kel, meni bir o'p, Tom! – dedi. – Endi maktabinga bor, menga ko'p xarxasha qilaverma.

Oradan biror daqqa o'tgandan keyin Tom maktabiga ketdi. Polli xola bo'lsa uy yonidagi qaznoqqa bordi, – u yerda Tomning qaroqchilik qilgan vaqtida kiyib yurgan nimchasining uvadalari osilib turar edi. Nimchani qo'liga olar ekan, Polli xola o'ylanib qoldi:

– Yo'q, bunday qilmaganim yaxshi! Bechora bolam! Men ishonamanki, u yolg'on so'zlagan... biroq bunday yolg'on so'zlash gunoh emas. Uning so'zları meni ancha yupatdi. Men ishonaman, xudo uning gunohlarini kechiradi, u buni yomon niyat bilan qilgan emas, buning yolg'onligiga ishongim kelmaydi, – deb qo'ydi o'zicha.

U nimchasini qo'yib, bir daqqa unga qarab turdi-da, ilgarigi fikridan qaytdi. Keyin yana unga qo'lini cho'zib, yana tortib oldi, nihoyat: «Bu chin ko'ngildan chiqarilib, yaxshi maqsad bilan to'qilgan yolg'on, buning uchun o'zimni xafa qilmayin», degan fikrda mustahkam turish qaroriga keldi. Oradan biror daqqa o'tgandan keyin u Tomning anjir po'stlog'iga yozgan so'zlarini o'qir ekan, ko'zları yoshga to'lib:

– Men bu bolaning yuz minglab gunohi bo'lsa ham kechira olar edim! – der edi.

## *YIGIRMANCHI BOB*

### **TOMNING YANA BIR JASORATI**

Polli xola Tomni o'pgan vaqtida uning chehrasi shunday ediki, uni ko'rishi bilan Tomning ma'yusligi birdan yo'q bo'lib ketdi, yuragida yaxshi hislar tug'ilta boshladi. U maktabga bordi va shu damdan boshlab uning ishlari o'nglanib ketdi. Tom yo'lda bir ko'kalamzorda Bekki Techerni uchratdi. Tom har

doim shu ayni fursatdag'i daqiqaning taassuroti bilan harakat qilar edi. U uzoq o'ylanib turmay Bekkining oldiga yugurib borib:

— Men bugun juda yomon ish qildim, Bekki, keyin juda achindim. Bundan keyin bunday ishni hech vaqt qilmayman. Kel, endi yarashaylik, xo'pmi? — dedi.

Qiz to'xtab, uning yuziga bir tikilib qaragandan keyin:

— Mister Tomas Soyer, siz meni bundan keyin tinchgina o'z holimga qo'ysangiz, sizdan juda minnatdor bo'lar edim. Men bundan keyin siz bilan so'zlashishni xohlamayman, — dedi.

Qiz shu so'zlar bilan boshini bir silkib, uning yonidan o'tib ketdi. Tom shunday achchig'langan ediki, hatto unga: «Qanday baxtsizlik-a, so'zlashmasangiz undan nari!» deyishga ham ulgurolmay qoldi. U ma'yuslik bilan maktab hovlisida aylanib yurar ekan, Bekkining o'g'il bola bo'l magani uchun mushtlashib undan o'chini ololmaganiga afsuslanar edi. Shu vaqt Bekki uning yonidan o'tib boraturib, unga tegizib, alam qiladigan bir so'z aytib o'tdi. Tom ham shunday qo'pol bir so'z bilan unga javob qaytardi-yu, shu bilan bularning orasi yana qaytadan butunlay buzildi. Tomga nisbatan g'azab o'ti alangananib ketib, Bekki tezdan yana dars boshlanishini kutar, chunki kitobga siyoh to'kilib buzilgani uchun Tomning tezroq jazolanishini istar edi. Shu paytgacha Alfred Templning siyoh to'kkaniyi aytib bermoqchi bo'lib yurgan bolsa, endi Tomning shu daraja zaharli hazilidan keyin Alfred ustidan chaqimchilik qilish fikri butunlay yo'qolib ketdi.

Bechora qiz! U o'zining boshiga keladigan balolardan mutlaqo xabarsiz edi. Maktab muallimi mister Dobbins, yoshi anchaga borgan bo'lsa ham, shu choqqacha qozongan obro'va e'tiboridan norozi edi. Uning ko'p zamonlardan beri orzu qilib yurgan

narsasi doktorlik bolsa ham, biroq kambag'alligi natijasida maktab o'qituvchiligidan nariga o'tolmadi. U har kuni sinfda o'tirgan vaqtida, bolalar darslariga javob bermay turganlarida yoki boshqa shunga o'xshash bo'sh vaqtvari bo'lib qolganda o'zining stol yashigidan qandaydir sirli bir kitobni olib o'qishga berilib ketar edi. Bu kitobni har doim stoli yashigiga solib, qulflab qo'yardi. Maktabda uning bu kitobini aqalli salgina bolsa ham ko'rib, nima ekanini bilib olish orzusida bo'lмаган birorta ham bola yo'q. Lekin buni ko'rish hech kimga muyassar bo'lmas edi. Bu kitobning qanday kitob ekani to'g'risida bolalarning har qaysilari o'zlaricha har xil narsalar o'ylar edilar. Lekin haqiqatni topish mumkin emas edi. Bir kuni Bekki o'qituvchining stoli yonidan o'tib borayotib, eshikka yaqin joyidan turib stol yashigining kaliti og'zida qolganini ko'rib qoldi: o'qituvchi kalitni unutib qoldirib ketgan edi. Shunday to'g'ri kelib qolgan qulay paytni qo'ldan berish mumkinmi? Qiz atrofga qaradi, hech kim ko'rinnadi. Oradan bir daqiqa o'tar-o'tmas, qiz kitobni qo'lida ushlab turar edi. Kitobning sarlavhasidagi «Anatomiya» degan so'z unga hech narsani anglatmadni. Shuning uchun u kitobning ichini ochib varaqlay boshladi. Uning birinchi varag'idagi chiroyli ranglar bilan ishlangan kishi suratiga ko'zi tushdi.

Shu vaqt kitobning betiga soya tushdi: eshik oldida Tom Soyer turar, uning ham ko'zi kitobdagi rasmida edi. Bekki shoshilib kitobni yopar ekan, qo'pol harakati bilan o'sha rasmlik bir varaqni yirtib yubordi. U darhol kitobni yashikka tashlab, kalitni buradi-da, uyat va achchig'iga chiday olmasdan yig'lab yubordi.

— Tom Soyer! Bunday qiliq albatta sizdan bo'ladi. Birovning orqasidan poylab, unga chuqur qazish qanday yomon ish!

– Nega poylab yurayin? Men qilayotgan ishingizni bilgan edimmi?

– Uyaling, Tom Soyer? Siz endi, albatta menin ustimdan chaqimchilik qilarsiz, unda nima qilaman? Meni albatta kaltaklaydilar. Shu choqqacha maktabda hech kaltak yemagan edim.

U oyog'i bilan yerga qattiq bir tepindi-da:

– Bo'ldi, mayli, kaltak yesam yerman, menin ham bilgan narsalarim bor. Qarab turing, hali ko'rib qolarsiz, yaramas bola! – dedi-da, yig'lab tashqariga chiqib ketdi.

Tom, bu tariqa kutilmagan hujumdan hayron bo'lib, turgan yerida qotib qoldi. Keyin o'z-o'zicha:

– Shu qiz bolalar ajab bir qiziq va ahmoq bo'ladi-lar-da. Shu choqqacha maktabda hech kaltak yemagan emish. Kaltaklasalar nima bo'lar ekan. Bu qizlar hamma vaqt ham shunday qo'rkoq va nozik bo'ladi. Albatta men bu ahmoqning qilgan ishlarini Dobbins cholga borib aytmayman-ku, shunday bo'lsa ham baribir, qo'nga tushib qoladi. Dobbins albatta kitobni kim yirtdi, deb so'raydi. Hech kim javob bermagach, u har safargidek, bolalarning hammasini birma-bir tekshirishga tutunadi-da, navbat aybdorga yetganda, so'ramay-netmay uning basharasidanoq bilib oladi. Qizlar har qanday ish qilsalar ham, ularni darhol basharalaridan bilib olish mumkin: ular hech narsani yashirolmaydilar. Shunday bo'lgandan keyin albatta u kaltak yeydi. Bekki Techer endi albatta qo'nga tushdi, u endi qutulolmaydi.

Tom biroz o'ylanib turdi-da:

– Ajab bo'ldi! Agar men shunday bo'lib qo'nga tushsam, u xursand bo'lar edi, qani endi o'zi bir ko'rsin-chi! – dedi.

Shundan keyin Tom hovlida o'ynab yurgan bir to'da bolalarga borib qo'shildi. Birozdan keyin o'qituvchi keldi-da, dars boshlandi. Tom dam-ba-

dam qizlar o'tirgan tomonga qaraydi-da, Bekkining chehrasi o'zgarishini ko'rib, bezovtalana boshlaydi. U qizga rahmdillik qilishni mutlaqo istamas, lekin shunday bolsa ham unga rahm qilmay turolmas edi. U qancha urinsa ham, o'zida zarracha shodlik his qila olmadi. Biroq, bir qancha vaqt o'tgach, o'qituvchi Tomning kitobidagi siyoh to'kilgan yerni ko'rib qolishi bilanoq endi Tomning butun diqqati buyoqqa og'ib ketgan edi. Bekki ham o'zining diqqatchiligini bir nafas esidan chiqarib, Tomning kitobi ustidagi ishga qiziqqanday bo'ldi. U o'z xayolida Tomning bu ishni o'zim qilganim yo'q, deb aytishi foyda bermas deb o'ylagan edi, xuddi shunday bo'lib chiqdi. Tomning indamay turishi ishni chatoq qildi. Bekki shu ishga, ya'ni Tomning jazolanishiga shodlanaman, deb o'ylagan va shodlanishga urinib ham ko'rghan edi, lekin bu unchalik oson bo'lmasdi. Bekki o'rnidan irg'ib turib, kitobga siyoh to'kkon Tom emas, balki Alfred Tempi deb aytmoqchi ham bo'lgan edi, biroq u: «Baribir u kitobdagi suratni yirtdi, deb chaqimchilik qilar-ku, mana endi men ham aytmayman».

Tom o'ziga yarasha jazosini tortib rosa kaltak yeb, o'rniga qaytib kelib o'tirdi. U o'z ko'nglida: «Balki buni o'ynab yurgan vaqtimda, o'zim to'kib yuborib bilmay qolgandirman», deb o'yladi.

Oradan bir soatcha vaqt o'tdi. O'qituvchi o'zining baland kursisida bolalarning dars takrorlab, gurunglashgan tovushlaridan uyqusi kelib o'tirar, ob-havoning o'zi ham uyqu keltiradigan edi. Ni-hoyat, mister Dobbins qaddini to'g'rilab bir esnab oldi-da, keyin kitobni olishni ham, olmasligini ham bilmay qo'lini yashikka cho'zdi. Bolalardan ko'plari o'qituvchining bu harakatiga parvosizlik bilan qarab tursalar ham, lekin ulardan ikkitasi uning har bir harakatini diqqat bilan kuzatib turardilar. O'qituvchi kitobini olishdan ilgari yashik ichida ancha vaqtga-

cha u yoq-bu yog'ini ag'darib ko'rib, keyin qo'liga oldi-da, uni o'qish uchun kursiga o'tirdi.

Tom Bekkiga qarab qo'ydi. Bechora Bekkining tusi shu vaqt butunlay o'zgarib, o'zini yo'qotgan, juda achinarlik holda, go'yo ovchining nishoni ostida tur-gan quyonga o'xshar edi. Tom o'zining u bilan urish-ganini darhol unutib yubordi. Hozirdanoq buning oldini olib, bir minut ham kechiktirmay biror chorasi ni ko'rish kerak! Biroq qo'rqnichning muqarrarligi uni shoshirib qo'ygan edi. Nihoyat xayoliga yaxshi bir fikr keldi. U hozir yugurib borib, o'qituvchining qo'lidan kitobni yulib oladi-da, qochadi. Lekin u birozgina o'ylanib qolgan edi, fursat o'tib ketdi-da, o'qituvchi kitobni ochdi. Qani, boy berilgan shu fursatni endi qaytarib bo'lsa! «Endi vaqt o'tdi, hozir Bekki uchun najot yo'q!» der edi Tom o'z-o'zicha.

Oradan yana biror daqiqa o'tishi bilan o'qituvchi sinfga ko'z yogurtira boshladı. Uning dahshatlı suratda tikilib qarashiga chidab turolmay, bolalarning hammasi ko'zlarini yerga qaratdilar. Uning hozirgi o'qrayib qarashi shunday ediki, hatto o'zlarida hech qanday ayb sezmag'an bolalar ham qo'rqb ketdilar. Orada ancha vaqt jimjitlik hukm surdi. Shu vaqtida o'qituvchi butun qahr-u zahrini sochishga tayyorlanib turar edi. Nihoyat, so'zga og'iz ochib:

– Kitobni kim yirtdi? – deb so'radi.

Hech kim churq etmadı. Maktab ichi shunday jimjit ediki, agar shu vaqt yerga igna tushib ketsa, o'sha ignaning tovushi eshitilar edi. Jimjitlik davom etar, o'qituvchi aybdorni topish ilinjida bolalardan har birining yuziga birma-bir tikilib qarar edi.

– Benjamen Rojers, kitobni sen yirtdingmi? Undan: «yo'q!» degan javob eshitilgandan keyin yana jimjitlik boshlandi.

– Jozef Garper, sen yirtdingmi?

Yana «yo'q» degan javob olindi. Tomning tashvishi borgan sari ortib borardi. Bu savol va javoblar

Tom uchun go'yo sekin-asta bo'layotgan qiyonoqdek ko'rinar edi. O'qituvchi o'g'il bolalardan so'rab bo'ldi-da, qiz bolalarga qarab:

– Emmi Lorens yirtdimi? – deb so'radi.

U boshini chayqab qo'ydi.

– Gresi Millermi?

U ham xuddi shunday qildi.

– Suzanna Garper, bo'lmasa sen ekansan-da?

Yana «yo'q» degan javob olindi. Endi navbat Bekki Techerga kelib yetdi. Tomning oyoq-qo'llari, hatto butun a'zoyi-badani titray boshladи.

– Rebekka Techer (Tom qizning yuziga qaradi: qiz qo'rqqanidan rangi oppoq bo'lib ketgan edi), bu kitobni sen yirtdingmi... yo'q deysanmi... qani, men-ga qara-chi (Bekki yalingansimon qo'lini ko'tardi)... kitobni yirtgan sen emasmi?

Shu vaqt Tomning miyasiga xuddi yashin tezligida bir fikr keldi. U o'rnidan irg'ib turdi-da:

– Kitobni men yirtdim! – dedi.

Bolalarning hammasi odatdan tashqari jasorat ko'rsatgan bu bolaga tikilib qoldilar. Tom o'zining chuvalgan fikrlarini yig'ishtirib olish uchun biroz to'xtab turdi-da, keyin jazoni tortish uchun burchakka qarab borar ekan, bechora Bekki ning ko'zida aks etib turgan hayronlik va undan minnatdorligi, uni yuz qamchi uchun bo'lsa ham mukofotlagandek ko'rinar edi. O'zining bunday jasorati tufayli ortib ketgan qahramonligi bilan Tom bu ayovsiz jazoni churq etmay boshidan kechirdi va qo'shimcha jazo tariqasida darsdan keyin ikki soat mактабда yolg'iz qolish jazosini ham hech tashvishlanmay qabul qildi. U shunday jazolardan qutulib chiqqan vaqtida, hovlida kutib o'tiruvchi kishilar bo'lar, shuning uchun, maktabda yolg'iz qolib zerikib o'tirish ham uning uchun ortiqcha bir mashaqqat qatoriga kirmas edi.

Tom shu kecha uyquga yotish oldidan Alfred Templdan qanday qilib o'ch olishi to'g'risida juda uzoq va jiddiy o'ylanib o'tirdi. Chunki Bekki o'kinch va uyat aralash hamma voqeani, shu jumladan o'zingning xiyonat qilganini ham so'zlab bergen edi.

Biroq o'ch olish rejasining o'rnini yoqimli, shirin xayollar egalladi va u ko'zi uyquga ketar ekan Bekkining:

- Tom, qanday qilib sen shu qadar muruvvatlik bo'lding? - degan so'nggi nidolari hamon qulqlariga jaranglab eshitilar edi.

## *YIGIRMA BIRINCHI BOB*

### **OLTIN SUVI YUGURTIRILGAN GUMBAZ**

Ta'til kunlari yaqinlashib qolgan edi. Azaldan o'zini jiddiy tutadigan o'qituvchi hozir yana ham jiddiyoq va talabchan bo'lib qolgan edi: u imtihon vaqtida o'z mакtabining begona odamlar oldida afzalroq bo'lib ko'rinishini istardi. Uning jazvar taxta bilan xivichi ayniqsa kichik sinflarda kamdan-kam turar, faqat kattaroq yoshdagи bolalar va o'n sakkiz-yigirmalarga borib qolgan qizlargina bu kaltakdan chetda edilar. Mister Dobbins bolalarni juda yomon urardi, chunki u o'zining butunlay sochsiz yarqiragan boshini sun'iy soch ostiga yashirib yurishiga qaramay, o'zi unchalik qari emas va mushaklari ham hali ancha kuchli edi. Ulug' kun yaqinlashib qolgan sayin uning ichida yashirinib yotgan, ya'ni arzimagan gunohlari tufayli bolalarni qiynashga qaratilgan zo'r ishtiyoq yana jo'sh ura boshlagan edi. Bechora kichik bolalar kunduzlarini badanlarida hosil bo'lgan og'riq va kaltak yeish xavfi ostida o'tkazsalar, kechalarini o'qituvchidan o'ch olish yo'lida reja tuzish bilan o'tkazar edilar. Ular o'qituvchiga yomonlik qilish yo'lida to'g'ri kelgan fursatni qo'ldan bermas edilar. Biroq

bolalar uning bilan tenglasholarmidilar? Maktab bolalarining qila olgan shu xildagi har qanday yomonlik ishlari tufayli ularga shunday yomon va dahshatli jazo berar ediki, natijada har doim bolalar yengilib, sharmanda bo'lib chiqar edilar. Nihoyat, bular hammalari so'zni bir yerga qo'yib, yana qaytadan o'ch olish rejasini tuzdilar va bu plan ularga muvaffaqiyatlgi g'alaba va'da qilar edi. Ular lavha yozuvchi bir bo'yoqchining o'g'lini topib, unga o'z sirlarini bildirdilar va uni shu ishda yordam berishga ko'ndiradilar. Buni eshitib u bola ham juda shodlandi. O'qituvchi hamma vaqt o'sha bolaning otasinikida ovqatlanib yurar va shu tufayli bola ham ko'p sabablar bilan uni yomon ko'rар edi. O'qituvchining xotini, xuddi qasd qilgandek, uch-to'rt kun turib kelish ilinjida o'z tanishlarinikiga mehmondorchilikka bormoqchi bo'lib qoldi. Demak o'ch olishga halal beradigan hech narsa yo'q edi. O'qituvchi ichkilikni ko'p ichadigan araqxo'r odam edi, shuning uchun haligi bo'yoqchining o'g'li o'rtoqlariga va'da berib, imtihon bo'ladijan kuni kechasi o'qituvchi ichkilikni ichib, o'z kursisida uxlab qoldi deguncha «ishni to'g'rilab», o'zi qochib ketmoqchi bo'ldi.

Hamma ish xuddi mo'ljallangandek bo'lib chiqdi. Belgilangan kuni kechqurun soat sakkizda maktab binosi chirog'lar bilan yoritilgan, har xil gullar va ko'katlar bilan bezatilgan edi. O'qituvchi baland kursida o'tirar, orqa tomonida qora taxta bor edi. O'qituvchining basharasidan vinoga xo'p to'yib kelganligi sezilib turardi. Uning qarhisidagi oltita va ikki tomonidagi uchtadan oltita kursilarda shaharning amaldorlari va bolalarning ota-onalari o'tirar edilar. Chap tomonda tomosha qilib o'tirganlarning kursilari orqasida vaqtincha o'rnatilib qo'yilgan keng va baland taxta ustida bu kungi imtihindona qatnashishlari lozim bo'lgan bolalar o'tirardilar. U

yerda yuz-qo'llari toza yuvilgan, har kungi rasmiy kiyimlaridan o'ng'aysizlik sezgan va ust-boshlari yangilangan bolalar, undan keyin yana bir qatorda kiyimbosh va boshqa tomonlariga uncha e'tibor qilmagan o'xshovsiz, shaltoq o'smir bolalar, nihoyat, yana bir qatorda turli-tuman batis, doka va shunday kiyimlar kiyib, yasanib olgan yosh va bo'yи yetgan qizlar, ko'rinishlaridan o'zlarining yalang'och bilakkari, bo'yinlariga taqib olgan buvilarining marjon va munchoqlarini, boshlaridagi ochpushti va havorang gul va lentalarini bir daqiqa ham eslaridan chiqarmay o'tirar edilar. Qolgan o'rnlarda imtihonda qatnashmaydigan maktab bolalari o'tirardilar. Ish shundan boshlandiki, pastgina bo'yli bir bola o'rnidan turib, titragan tovush bilan shunday o'qidi:

*O, bilaman, odatlanmagansiz,  
Chaqaloq xalqqa qilsa va'z...*

u har bir so'zini aytganda, go'yo bir yeri buzilgan mashinadek uzoq va qaltiroq harakatlar qilib turar edi.

Shunday bo'lsa ham so'zini oxiriga yetkazdi, qarsaklar bilan mukofotlanib, ta'zim qildi-da, chiqib ketdi.

Kichkinagina bir qiz chiqib, uyalgan holda: «Meringning bir qo'zichog'i bor edi», degan hikoyani bijillab so'zlardi-da, bilar-bilmas oyog'ini bukib ta'zim qilgandan keyin uyalganidan qizarib ketdi va o'zini baxtli his qilgani holda u ham o'rniga borib o'tirdi.

Keyin qiyofasida yasama parishonlik sezilib turgan Tom Soyer sahnaga chiqib keldi-da, juda eski bo'lsa ham hech vaqt urfda bo'lib kelgan «Menga ozodlik bering yo meni o'ldiring» degan she'rni aytan boshladı. U tovushini dahshatli ravishda yuqorilatib, qo'llari bilan qattiq-qattiq ishoralar qilar edi. Biroq baytning yarmiga borganida tutilib qoldi-da, birdan uni qo'rqinch o'rabi oldi. Oyoqlari qaltirab, mayishib

borar, tomog'ida esa bir narsa tiqilib qolgandek, o'zini bo'g'ilgandek his qilar edi. Bundan keyin u biror so'z ham aytolmadi. Tinglab o'tiruvchilar, aftidan, unga xayrixohlik bilan qarab, indamay o'tirar edilar. Ularning mana shu indamay o'tirishlari Tomning qayg'usini yana oshirar edi. Buning ustiga shu vaqt o'qituvchi bir qovog'ini solib qaragan edi, shundan keyin bola butunlay o'zini yo'qotib qo'ydi. U yana biroz urinib turdi-da, uyalib qizargani holda sahnadan tushib ketdi. Unga dalda berishga urinuvchilar bo'lsa ham, bu harakat behuda bo'lib chiqdi.

Keyin yosh shoirlar o'zlari yozgan asarlarini o'qidilar. Bolalardan har qaysilari sahnaning chetiga tomoqlarini qirib olganlaridan keyin, chiroyli lenta bilan bog'langan qo'lyozmani olib o'qiy boshlar edilar. Asarlar mavzu jihatidan bu qizlarning onalari, buvilari va katta buvilari shunday kezlarda qanday yozgan bo'salar, o'shanday bo'lib, hatto salib yurishigacha borib taqalar edi. Chunonchi: «Do'stlik», «O'tganni eslash», «Tarixda ilohiy kasb», «Afsonaviy podsholik», «Ilmning afzalligi», «Turli davlatlarning idora qilish formalari, ularning farqlari va o'xshashliklari», «Qayg'u», «Ota-onaga muhabbat» va hokazolardan iborat edi.

...Birinchi o'qilgan asarning nomi «Shu ham turmush bo'ldimi?» deb atalar edi.

Balki o'quvchilar bu asarning qisqa bir parchasini o'qib chiqich uchun hafsala qilarlar:

«Turmushning oddiy so'qmoq yo'llarida anchadan beri kutilgan bayramni yosh aql egalari zo'r tashvish bilan o'ylab lazzatlanadilar. Ularning taassurotlari gul rangiga bo'yalgan shodlik manzaralarni tasvir qilardi. Oq harir kiyimlarga o'ralgan uning nozik qaddi-qomati ko'ngilli raqlar bilan huzurlanar edi. Uning qo'ygan qadamlari ham juda muloyim, ko'zlari esa hammanikidan

shahlo. Bunday shirin xayollar ichida vaqt ham tez o'tib ketib, qizg'inlik bilan orzu qilgan shu dunyo jannatiga kira oladigan soati yetadi. Bu yangi dunyoning barcha go'zalliklari unga qanday ajoyib bo'lib ko'rindi! Har bir ko'rgan yangi narsasi uni bilgan sari ko'proq qiziqtiradi. Ammo ko'p o'tmay, u yuzakigina yaxshi ko'ringan bu narsalarning tagi bema'niliklardan iborat ekanligini anglab ola-di. Uning ko'nglini lazzatlantirib kelgan ishonch endi uni faqat jirkantiradi. Bezalgan zallar kishini qiziqtirish xususiyatlarini yo'qotgan va u qayg'u va hasrat bilan zaldan chiqib ketar ekan, hech bir yupatishlar o'zining ruhiy intilishlarini bosishiga ishonmas edi».

Uni o'qilayotganda tinglab o'tiruvchilar orasidan vaqtি-vaqtি bilan: «Qanday go'zal!», «Qanday jozibali!», «Qanday haqiqat!» degan maqtovlar eshitilib turar edi.

So'ngra g'am-g'ussadan rangida qon qolmagan nozik va qayg'uli bir qiz o'rnidan turib, «doston» o'qib berdi.

Men bu «doston»dan faqat ikki baytini bu yerda keltirib o'taman:

### **Missurili qizning Alabama<sup>16</sup> bilan xayrlashuvi**

*Alvido Alabama! Sevgan makonim,  
Noiloj ketaman sendan yiroqqa.  
Qayg'uli o'ylarga cho'mdirding, jonim,  
Qalbimdan joy berdim hasrat-firoqqa.  
Gulzor, o'rmonlaringda bo'ldim sargardon.  
Tallapuzang<sup>17</sup> oqimlaridan bo'ldim sargardon.  
Kuza yonbag'irlarida yostanib oldim  
Hayajon-la Tallasga men quloq soldim.*

<sup>16</sup> Alabama – Shimoliy Amerika shtatlariidan biri.

<sup>17</sup> Tallapuza va Kuza – Alabama daryosining jilg'aları.

*Xayrlashganimda, ho'ngreyman bot-bot,  
Chunki g'am-g'ussa emasdir uyat.  
Taqdir demaydi yot yerni tashla,  
Sen qadrdon, menga oshna.  
Shu shtatda turdim, qadrlanardim,  
Alabama, mening qadrdonim!  
Agar seni men sevmasam edim,  
Tyotem<sup>18</sup> uquvsiz ekan-ku derdim.*

Tyotem nima ekanligi tinglovchilarning hammasiga ma'lum bo'lmasa-da, harholda bu doston yoqdi.

Uning ketidan bug'doyrang, qorako'z, qora soch bir qiz chiqdi-da, ta'sirli bir tin olgandan keyin, yuziga fojiali bir ifoda berib, sekin-asta o'qiy boshladi:

## **Xayol**

Ko'zlarimga ko'ringani – qorong'i va bo'ronli bir kecha edi. Keng osmon qo'ynida, birorta ham miltillagan yulduz ko'rinxaydi. Lekin shunday bo'lsa ham kishining qulog'ida havoning gungurt tovush bilan guldurashi doim jaranglab turar, dahshatli yashin bo'lsa g'azab bilan osmondagi bulut gumbazlarining u yog'idan-bu yog'iga yorib o'tgandek, shuning bilan mashhur Franklin<sup>19</sup> tomonidan vujudga chiqarilib, ularning dahshatli quvvatlari ustidan yurgizib qo'ygan hukmronligiga nafrat bildirgandek bo'lar edi. Hatto dahshatli shamollar ham hamjihatlik bilan o'zlarining yashirin makonlarini tashlab va vahshiy manzaraga yana ortig'roq dahshat berishni istagandek to'polon qilmoqdalar.

<sup>18</sup> Tyote – Fransuzcha bosh (odamning boshi).

<sup>19</sup> Venyamin Franklin – XVIII asrda yashab o'tgan Amerikaning mashhur olimi. O'sha vaqtarda kamdan-kam ma'lum bo'lgan elektrik ustida tajriba qilib, gromootvod (uylarga zarar keltirmay chaqmoqni o'ziga tortadigan asbob, ya'ni yashin qaytarqich) kashf etgan.

«Shunday zulmat va dahshat ichida mening ruhim kishilik ruhi ishtirokini istar edi, mana mening huzurimga: Yaqin do'stim, ovunchog'im, rahbarim, qayg'u-hasratimga yo'dosh hamrohim, keldi.

U dunyo jannatining nurli yo'llarida yosh va romantik qalblarning shirin xayolida bo'lgan, hech bir qimmatbaho narsalar bilan bezalmagan, faqat o'z husni bilan go'zallar go'zali bo'lgan ko'k maxluqlaridan biridek namoyishkorona kular edi. U nozik qadamlarini shunday ohista va sekin tashlar ediki, agar uning tegib ketishidan qaltirasang, yoningdan sezdirmay o'tib ketgan bo'ldi. U bir-biriga dushman ikki ofat urushishini barmog'i bilan ko'rsatganda va shu yerda o'tirgan ikki kishiga diqqat qilishimni buyurganda, uning yuzi muzdek sovuq edi va unda hech bir qon asari qolmagan edi».

Asarning hammasi o'n bet bo'lib, oxiri juda dahshatli va'z-nasihatlar bilan tamomlanar edi. Bu asar juda maqbul bo'lib, buyuk mukofotlarga sazovor bo'ldi. Shahar boshlig'i bu asarning yozuvchisiga mukofot bera turib, yoqimli bir nutq so'zladi va unda «men hech vaqt bunday go'zal nutqni eshitmagan edim», – dedi.

Bu yerda shuni ham aytib o'tish kerakki, «maftun etuvchi» so'zi gavdalangan va turmushga oid **xarxashalar** «tur mush sahifalari» deb atalgan asarlar soni ham kam emas edi.

O'qituvchi ichkilikning kayfi bilan nihoyat darajada xursand bo'lib, o'rnidan turdi va kursisini nariroq surib qo'ydi-da, xalqqa orqasini o'girib, jug'rofiyadan imtihon o'tkazmoqchi bo'ldi, taxtaga Amerikaning xaritasini chiza boshladi. Biroq uning qo'li kelishmas edi. Bolalar orasida qiqirlab kulgan tovushlar ham eshitildi. U nima gap ekanini bilgandek, o'z aybini tuzatmoqchi bo'lar edi. U chizgan

narsalarini o'chirib, qaytadan chizdi, lekin bu gal chizgani avvalgisidan ham battarroq chiqdi, shu bilan mактаб ichidagilarning qиqirlashlari yana avj oldi. O'qituvchi bunday o'rinsiz vaqtixushlikka xotima berish ilinjida o'zining butun diqqatini to'plab, yana chiza boshladi. U hammaning ikki ko'zi o'zida ekanini bilar va o'z ishini endi o'nglanib kelayotgandek sezар edi. Biroq bolalarning qиqirlab kulishlari bosilmay, aksincha kuchayib borar edi. Buning ajablanarlik yeri ham yo'q. Xuddi o'qituvchi turgan yerning tepasida – shipda havo kirib-chiqib turadigan bir teshik bo'lib, shu teshikdan bir ipga bog'langan mushuk tushib kelar edi. Mushuk mi-yovlamasin uchun uning boshi latta bilan mahkam bog'lab qo'yilgan edi. Mushuk butun tanasi bilan egilib-bukilib sekin-asta pastga tushar va arqonni ushlab olmoqchi bo'lib, qo'llarini yuqoriga cho'zar, biroq faqat havoni changallar edi. Bolalarning qиqirlashlari borgan sari kuchaya bordi. O'z ishiga berilib ketgan o'qituvchining boshiga mushuk ke-lib tegishiga nihoyat olti vershok chamasi masofa qolgan... Yana pastroq, yana pastroq tushdi... Yana bir lahzadan so'ng mushuk kelib o'qituvchining boshiga yopishdi-da, uning yasama sochini boshidan yulib olib, bir nafasda yuqoriga ko'tarilib ketdi. Hamma hayron bo'lib qarab o'tirar edi. Shundan keyin mister Dobbinsning sochsiz boshi to'satdan yarqirab ketdi, chunki bo'yoqchining o'g'li uning sochsiz boshini oltin hal bilan bo'yab qo'ygan edi.

Shundan keyin majlis tarqaldi. Bolalardan qasos olindi. Ta'til kunlari ham kelib qolgan edi.

**TOM KO'KDAN JAZO KUTADI**

Tom yangi bir jamiyatga, ya’ni «Hushyorlikning yosh do’stlari» jamiyatiga kirdi, chunki bu jamiyatning a’zolariga juda g’alati nishonlar berar edilar. Undan hech vaqt tamaki chekmaslik, yomon so’zlar bilan so’kinmaslikka va’da oldilar. Shundan keyin u yangi bir haqiqatni kashf qildi: agar biror kishining bir ish qilishini istasang, o’sha kishi bu ishni umr bo’yi qilmaslikka va’da bersin. Bu juda to‘g’ri yo’. Qizig‘i shundaki u odamda o’sha ondayoq ichkilik ichish va so’kishishga kuchli istak tug‘iladi. Undagi bu istak borgan sari o’sib boradi, uni faqat tezdan qip-qizil ro’molga o’ralib xalq oldida ko’rinish umidigina to’xtatib turar, bo’lmasa u albatta Hushyorlik jamiyatidan chiqib ketib qolar edi. To’rtinchi iyul<sup>20</sup> yaqinlashib kelardi, biroq hushyorlik ishonchxonasida tura boshlaganining uchinchi kuniyoq u bu kun to‘g’risida o’ylamaydigan bo’lib, o’zining butun umidini Frezer degan qari sudyaga bog’lagan edi. Bu sudyga shu vaqtda o’lim to’shagida yotardi. U o’lganidan keyin ko’mish marosimi ham juda dabdabali bo’lsa kerak, chunki u xiyla obro’li kishi. Tom uch kun qatorasiga sudyaning sog’lig‘i to‘g’risida juda qiziqib yurdi, u sabrsizlik bilan dam-badam borib uning o’lgan-o’Imaganligini so’rab turar edi. Ba’zida Tomning umidlari shunchalik zo’rayib ketardiki, u qaysarlik bilan borib komoddan o’zining nishonlarini olib, ko’zguga solib ko’rar edi. Biroq sudyaning sog’lig‘i goh yaxshi, goh yomon bo’lib turar edi. Ni-hoyat, sudyaning ahvoli avvalgidan ancha yaxshi, keyin esa butunlay tuzalib ketayotir, degan xabar

<sup>20</sup> To’rtinchi iyul – Amerika Qo’shma Shtatlarida nishonlanadigan Amerika mustaqilligining bayrami (1776-yil).

tarqaldi. Tom juda diqqat bo'ldi, uning nazarida sudya uni masxara qilgandek bo'lardi.

Tom o'sha ondayoq «iste'fo» berdi. Jamiyatdan o'zicha chiqdi. Biroq nima bo'ldi? Sudya o'sha kuni kechasi qattiq kasal bo'lib birdan o'lib qoldi. Tom bundan keyin hech bir kishiga ishonib bo'lmas ekan, degan qarorga keldi. O'likni ko'mish marosimi juda tantanali bo'ldi. Hushyorlik jamiyatining yosh a'zolari janoza marosimida shunday ulug'vorlik bilan qatnashdilarki, ularning sobiq o'rtoqlari rashkiga chiday olmay, yuragi yorilib o'layozdi.

Biroq Tom hozir qushdek erkin – bu ham ancha katta gap-ku! U istaganicha o'z erki bilan tamaki ham chekadi, so'kisha beradi ham. Biroq shunisi qiziqliki, u endi bunday narsalarni qilishni xohlamaydi. Gap shundaki, unga hech kim to'sqinlik qilmagani uchun uning shu tariqa ishlarga urinishi yo'qolib ketdi.

Tomning shuncha orzu qilib yurgani ta'til kunlari ham unga malol kela boshladи. Tomning o'zi ham buni sezib hayron bo'ldi. U kundalik daftar yurgizmoqchi bo'lgan edi, biroq uch kungacha hech qanday arzirlik voqeа yuz bermagani uchun bu ishni ham yig'ishtirib qo'ydi.

Biroq shaharchaga negrlarning orkestri kelib, katta shov-shuv bo'ldi. Tom bilan Jo Garper ham o'zlaricha bir to'da muzikachilarni to'plab, bular ham ikki kungacha o'zlarini baxtli sanab yurdilar.

Hatto mashhur va shonli To'rtinchи iyul kuni ham muvaffaqiyatsiz o'tdi: yomg'ir yog'ib turgani uchun marosim qilib bo'lmadi, dunyoda eng ulug' odam sanalgan (Tomning fikricha shunday) va Qo'shma Shtatlarning chinakam senatori bo'lgan mister Bentonning ham hafsalasi pir bo'ldi, chunki u bo'yи yigirma besh futlik pahlavon bo'lmay, pak-pakana bir kishi bo'lib chiqdi.

Ot o'yini keldi. Bolalar shundan keyin uch kungacha yirtiq gilamlardan tikilgan chodirlar ichida tomoshalar ko'rsatib, unga kirish uchun o'g'il bolalardan uchtadan, qiz bolalardan ikkitadan to'g'nog'ich olib turdilar, biroq keyinchalik borib bu ham jonlariga tegdi.

Keyin gipnozchi keldi.

Ba'zida o'g'il va qiz bolalar uchun kechalar o'tkazilar, biroq bunday kechalar shunchalik kam bo'lar va shunchalik ko'p shodlik keltirar ediki, ularning orasidagi cho'zilib ketgan vaqt go'yo kishining tanasidagi og'riqdek sezilib turar edi.

Bekki Techer yozni o'tkazib kelish uchun, otonalari bilan birga tug'ilgan shahri – Istanbulga jo'nab ketdi; u jo'nab ketgandan keyin turmushning butun shodlik va lazzatlari ham yo'qoldi.

Odam o'ldirishning dahshatli siri Tom uchun qutulib bo'lmaydigan bir baxtsizlik edi. U go'yo yiringlagan yaradek tinmay azob berar edi.

Keyin qizamiq degan kasal paydo bo'ldi.

Tom ikki haftacha tutqundek yotdi. Kasali juda og'ir, uni hech narsa qiziqtirmas edi. Nihoyat uning ahvoli biroz yaxshi bo'lib, birinchi marta oyoqlarini zo'rg'a sudrab shaharni aylangani chiqqanida, u qayerga bormasin va nimani ko'rmasin, hamma narsa uning ko'nglini qoldirar edi. U Jo Garperning oldiga borgan edi, biroq u Injilni o'rganmoqda ekan, Tom xafa bo'lib, bunday ko'ngilsiz tomosha oldidan tezroq ketishga shoshildi. U Benn Rojersni qidira boshlagan edi, Benn savatga diniy kitobchalarni to'ldirib olib, eng kambag'al kishilarning uylarini aylanib yurar ekan. Nihoyat u Jim Xollisni izlab topgan edi, u Tomga qarab: – Senga o'z gunohlaringga tavba qildirish uchun ko'kdan qizamiq balosi keldi, – deb aytdi. Unga uchragan yangiliklarning har bittasi uni ezib yotgan og'irlikka battar og'irlik qo'shar edi. Shu

ishlardan keyin u to‘la umidsizlikka berilib, o‘zi uchun Geklberri Finn yonidan panoh istagan edi, biroq u ham Tomni Injil oyatlari bilan qarshi oldi. Tom bunga sira chidab turolmadi, uning yuragi yorilib ketgan edi: u oyoqlarini sudray-sudray uyi-ga zo‘rg‘a yetib kelib, o‘zini karavotga tashladi va endi o‘zini butun shaharda halokat chuquri yoniga borgan birdan-bir gunohkor deb hisoblay boshladi.

Kechasi qattiq bo‘ron turdi, havo guldirab, chaqmoq chaqdi-da, qattiq yomg‘ir yog‘di.

Tom boshini ko‘rpaga burkab, hayajon ichida o‘zining halokatini kutar edi. Bu g‘avg‘o-to‘polonlar-ning hammasi uning tufayli bo‘lganiga hech shubha qilmas edi. U o‘z gunohlari bilan Xudoning ham sabr-toqatini tugatgan va endi omon qolmasligiga qattiq ishongan edi. Basharti biror kishi kana-ga qarshi artilleriya batareyasini qatorlashtirib qo‘yganida, Tom buni behuda kuch va o‘q sarf qiliш deb hisoblar edi, biroq shu Tomdek arzimas bir hasharotni halok qilish uchun osmondan shunday qimmatbaho guldurak va yashinlarning tushib ke-lishiga u hech ajablanmas edi.

Sekin-sekin bu gulduraklar tarqalib, o‘zining asosiy vazifasini bajarmay ketdi. Bolalarning bi-rinchi istaklari, xudoga shukr qilish va bundan keyin o‘zlarini tuzuk tutishga harakat qilish, ikkinchi istaklari – biroz sabr qilib turishdan iborat edi, chunki havoning qaytadan ayniydigan va dovul-bo‘ronlar qo‘zg‘aladigan avzoyi yo‘q emas edi.

Ertasi yana doktor chaqirishga to‘g‘ri keldi, chunki Tom tag‘in kasal bo‘lib qolgan edi. Chalqanchasiga yotib o‘tkazgan uch hafta bu gal unga bir necha yildek tuyulgan edi. Nihoyat u uydan tashqariga chiqar ekan, ajaldan omon qolganiga xursand ham bo‘lmadi. U so‘nggi vaqtarda qan-day yolg‘izlik bilan yashaganini unutgani yo‘q. U,

atrofga qaramay, ko'chada to'ppa-to'g'ri ketib borar edi, u birdan Jim Xollisga duch kelib qoldi; Jim bir mushukni qiy nab o'dirgan bir to'da bolalar ichida bosh sudyalik qilib o'tirar, aybdorni qotilikda ayblar edi. Shu yerning o'zida o'dirilgan bir qushcha ham yotar edi. Bir burchakda Jo Garper bilan Geklberri Finn o'g'irlab olgan qovunlarini yeb o'tirar edilar. Bechoralar! Yaqinda Tomda bo'lga-nidek bularning ham eski kasallari qo'zg'alibdi.

## *YIGIRMA UCHINCHI BOB*

### **MEFF POTTERNING QUTQAZILISHI**

Nihoyat shaharchadagi uyquli holat tebrandi – judayam kuchli tebrandi. Doktorni o'dirganlar ustidan sud kuni belgilandi. Hamma shahar xalqining og'zida faqat shu so'z. Gap-so'zdan qochib qutuladigan yer yo'q edi. Odam o'dirish to'g'risidagi har bir ishora Tomning tomiridagi qonlarini to'xtatib qo'yar, go'yo bu so'zlar uning oldida bejiz so'zlanilayotgani yo'q edi. U Gek bilan biroz yuragini bo'shatish ilinjida edi, bu bilan u o'zining g'am-g'ussalarini o'zi bilan birga jafo chekkan kishiga so'zlamoqchi bo'ldi, uni bir xilvat yerga olib bordi. Bundan tashqari u Gekning ichida gap saqlay olish-olmasligini bilmoqchi edi.

- Gek, sen shu ish to'g'risida biror kishiga so'zlagan edingmi?
- Niman?
- Nimaligini o'zing bilasan-ku...
- Albatta hech kimga aytganim yo'q.
- Biror so'z ham aytmadningmi?
- Hech bir. Agar yolg'on so'zlasam, meni hozir yer yutsin. Sen buni nima uchun so'rayapsan?
- Shunchaki so'rayapman. Qo'rqqan edim.

– Men senga aytsam, Tom Soyer, agar bu to‘g‘rida og‘zimizdan biror so‘z chiqib ketsa, boshimiz ketdi deyaver. O‘zing yaxshi tushunasan.

Tom biroz yengil tortgandek bo‘ldi. Nihoyat, biroz indamay turgandan keyin:

– Gek deyman, buni aytib berish uchun seni hech kim majbur eta olmaydi-ku, a? – dedi.

– Meni aytib berishga majbur qiladi, deysanmi?

Bo‘lmaq‘ur gapingni qo‘ysang-chi, agar la’nati hindining qo‘lida o‘lib ketishni istasam, shunda aytib bersam ehtimol, bo‘lmasa yo‘q.

– Unday bo‘lsa juda yaxshi. Meningcha, agar biz jim yoursak, bizni hech kim hech narsa qilolmaydi. Shunday bo‘lsa ham ikkalamiz yana bir marta ont ichishib qo‘ysak yaxshiroq bo‘lar edi. Kel, shunday qilaylik.

– Xo‘p, mening qarshiligidim yo‘q.

Shunday qilib, ular o‘zlariga yarasha tantanalar bilan ont ichishib, bir-birlariga so‘z berishdilar.

– Xo‘sh, Gek, kishilar nima deb so‘zlashayaptilar? Kimdan gumon qiladilar? Men ularning so‘zlarini eshitaverib quloglarim kar bo‘ldi, nima deganlarini anglayolmaydigan bo‘lib qoldim.

– Nima deb so‘zlashadilar deysanmi? Doim shu bir xil so‘z: Meff Potter, Meff Potter, Meff Potter... Shundan boshqa gap yo‘q. Shuni eshitganimda meni hatto ter bosib ketadi, iloji bo‘lsa boshim oqqan tomonga ketsam-da, biror yerga borib hech kimga ko‘rinmay yashirinib olsam deyman.

– Ana men ham xuddi shunday bolaman. Bechoraning ishi juda yomon bo‘ldi. Sening ham unga rahming keladimi?

– Bo‘lmasa-chi! Dam-badam esimga tushib juda achinaman. O‘zi ham juda bechorahol odam-da. Hech kimga yomonlik qilmaydi. Ichkiligiga yetarli miqdorda baliq ovlaydi-da, boshqa ko‘p vaqtini bekor

yurib o'tkazadi... Biz hammamiz ham shunday-da! Harholda u ko'ngli ochiq kishi. O'zi uchun g'amlab qo'ygan va bir kishi to'yar-to'ymas baliqning ham yarmini menga berdi. Necha martalab har xil ishlarda meni yoqlab chiqqan va shunday qilib qancha o'limlardan qutqazgan.

– Menga esa varraklar yasab berar, qarmoqlarimni yog'ochlariga bog'lab berar edi. Uning qamoqxonadan qochishiga yordam bersak juda soz bo'lardi.

– E-ha, juda katta ketding-ku! Qanday qilib uni qutqazar edik? Agar qamoqdan chiqarib yuborsak, baribir uni ushlab oladilar.

– Rost, ushlab oladilar. Biroq qilmagan ishlari uchun uni jazolashlariga men hech chidab tura olmayman-da!

– Men ham shundayman, Tom. Hamma uni eng yomon o'g'ri deydilar va shu vaqtgacha osib yuborishmaganlariga hayron bo'ladilar.

– To'g'ri, xuddi shunday deydilar. Men xuddi o'z qulog'im bilan eshitdim: basharti uni oqlab yuborsalar, linch<sup>21</sup> qonuni bilan osib o'dirmoqchi bo'layaptilar.

– To'g'ri, shunday, uni osib o'diradilar.

Bolalar o'zaro ancha uzoq suhbatlashsalar ham, bu suhbatlaridan hech qanday taskin topolmadilar. Ular g'ira-shira qorong'ilikda biror hodisa yuz berib, birdan qiyinchilikdan chiqarmizmi, degan ishonchsiz umid bilan gangib, kichkinagina yolg'iz qamoqxonaning yonidan yura boshladilar.

Biroq hech qanday hodisa yuz bermadi: aftidan, farishtalar ham, bu baxtsiz tutqunning taqdiri bilan qiziqmas edilar.

Bolalar avvallari nima qilib kelgan bo'salar, bu gal ham shundan ortiq ish qila olmadilar: Potter-

<sup>21</sup> Xalq orasida odat bo'lib qolgan, ya'ni gunohkorni sudsiz jazolash yo'li. «Linch qonuni» Amerikada asosan oqlarga nisbatan yomonlik qilgan negrlarga qo'llanilib kelgan.

ga temir panjaraning orasidan biroz tamaki bilan gugurt uzatdilar. U qamoqxonan binosining pastki qavatida qamalgan bo'lib, yaqin o'rtada soqchilar ham ko'rinxmas edi.

Bolalarning bu qilgan ishlari uchun uning bildirgan minnatdorchiliklari ularni vijdonan qiynar edi. Bu gal esa uning minnatdorchiligi bolalarning yuraklariga ignadek qadaldi. Potter ularga murojaat qilib, tubandagi so'zlarni aytganida, ular o'zlarini qo'rqoq va eng yomon xoin deb hisobladilar:

- Mehribon bolalarim! Bu yerda men uchun hammadan ko'ra sizlar achinasizlar. Men ham buni unutmayman. Men aksari o'z-o'zimga: men-ku har doim hamma bolalarning varraklarini yasab, ularga har xil narsalar qilib berar, baliq tutadigan yerlarni ko'rsatib qo'yay edim, umuman ular bilan do'stlikda yashar edim. Hozir bo'lsa qarib qolgan Meffning boshiga kulfat tushgan paytlarda, ular hammalari meni unutib yubordilar. Faqat Tom bilan Gek ikkovi meni unutmaydilar... Men ham ularni unutmayman... Shunday bolalarim, men juda yomon ish qilib qo'ydim; aftidan, ichkilik meni juda jinni qilib qo'ygan ekan, men buning sababini faqat shundan ko'raman... Endi mening jazomni beradilar. Asli shunday bo'lishi ham o'rinsiz emas... Harholda men uchun yaxshi ish. Endi buni so'zlamay qo'yaqolaylik. Men sizlarni xafa qilishni istamayman, sizlar menga har doim do'stlik qilib keldingiz. Men sizlarga faqat shuni aytmoqchiman. Agar sizlar ham shu temir panjara ichiga tushib qolishni istamasangiz, ichkilik ichmanglar bolalar, mastlik holda kishi o'zini-o'zi tutolmaydi... ixtiyorsiz bo'ladi. Undan bir chekkaroqda turinglar. Ha, ana shunday. Kishi shunday kulfatga uchrab qolgan vaqtida do'stlarning yuzini ko'rsa, juda shodlanar ekan. Bu yerda bo'lsa, mening oldimga sizlardan boshqa hech kim kelmaydi. Juda

yaxshisizlar bolalarim, bir-biringizning yelkalaringga chiqinglar, qo'lim sizlarga tek sin. Ha, ana shunday. Qani endi qollariningizni beringlar, sizlarning qolla ringiz temir panjara orasidan sig'ar, mening qo'lim yo'g'on, sig'maydi. Bu qo'llar kichkina va zaif bo'salar ham Meff Potterga ancha yordami tegdi. Agar qodir bo'lsa, yana bundan ham ko'proq yordami tegar edi.

Tom, juda ham ko'ngli buzulib, o'zini baxtsiz his qilgani holda uyiga ketdi va butun kechasi bilan qo'rqinchli tushlar ko'rib chiqdi. Ertasi va indiniga ertalabdan boshlab sud binosining atrofida aylanib yurdi. U yerga kirmoqchi bo'lar, lekin o'zini zo'rg'a bosib olar edi. Gek ham xuddi shunday bo'ldi. Ular shu kunlarda bir-birlaridan uzoqroq yuradigan bo'ldilar. Ular astoydil bir-birlaridan qochar, dambadam ajralishib, bir-birlaridan uzoqlashib ketar, lekin qandaydir noma'lum bir kuch hamma vaqt ularni bir-birlariga yaqinlashtirib turar edi. Sud zalidan biror kishi chiqib, unda bo'layotgan gaplardan so'zlab qolsa, Tom butun diqqatini shunga berib, uning har bir so'zini ilib olar, biroq ichkaridan chiquv-chilarining og'zidan birorta bo'lsin yupanturuvchi xabar eshitolmas edi: bechora Potter so'zidan tobora yanglishib borardi. Ertasi kechga tomon shaharcha-dagi kishilarining hammasi: «Hindi Joning ko'rsatib bergenlari tasdiqlandi va sudning bechora Potter ustidan chiqaradigan hukmida ham hech qanday shubha yo'q» degan fikrga kelganlar.

Tom shu kecha uyiga juda kech qaytib keldi-da, odatdagiday derazadan yotog'iga oshib tushdi. U ortiq darajada tashvishlanib, behuzur bo'lib qolganidan, ancha vaqtgacha uyqusi kelmadni. Ertasi sahardan boshlab butun shahar xalqi sud zalining oldida uy malashib yotar, chunki bu kun buyuk va hal etuvchi kun edi. Sud zali kishilar bilan liq to'lgan. Uzoq vaqt kutib turilgandan keyin, oqlovchi-qoralovchilar kirib

o‘z o‘rinlariga o‘tirdilar, shundan sal keyin oyoqlari kishanli, ozib qolgan, o‘zini yo‘qotib esankiragan Potterni olib kirib aybdorlar kursisiga o‘tqizdilar. Yaqqol ko‘rinarlik bir yerda hindi Jo har qachon-giday tinch o‘tirar edi. Yana qaytadan jimjitlik hukm surib, sud a’zolari kirib keldilar-da, keyin suda majlisni ochiq deb e’lon qildi. Advokatlar o‘zaro shivirlab, mirzalar qog‘ozlarini shaldiratib qoldilar. Bular hammasi zalda tashvishli, diqqatli bir intazorlik tug‘dirdi.

Daf’atan chaqirilgan kishi o‘sha odam o‘ldirilgan kuni ertalab Meff Potterning suv bo‘yida yuvinib o‘tirganini ko‘rgan guvoh bo‘ldi. U Meff Potter o‘sha kuni meni ko‘rishi bilan qochib ketdi, – dedi. Prokuror unga bir necha savol bergandan keyin himoyachiga qarab:

– Endi navbat sizniki, guvohdan so‘roq qiling, – dedi.

Javobgar unga bir ko‘tarilib qarab qo‘ydi-da, o‘z himoyachisi:

– Mening hech qanday savolim yo‘q, deganidan keyin shu zamon ko‘zlarini yerga qaratdi.

Guvohlardan ikkinchisi o‘likning oldidan pichoq topib olganini aytdi.

Prokuror yana himoyachiga qarab:

– Guvohdan so‘roq qilishingiz mumkin, – dedi.

Himoyachi yana:

– Mening hech qanday savolim yo‘q, – deb javob berdi.

Uchinchchi guvoh qasam ichib turib, shu pichoqni Potterning qo‘lida ko‘p ko‘rganligini aytdi. Prokuror yana himoyachiga murojaat qilib:

– Guvohdan so‘roq qilishingiz mumkin, – dedi.

Himoyachi yana:

– Mening hech qanday savolim yo‘q, – deb javob berdi.

O'tirgan kishilarning yuzlarida norozilik alomatlari sezilib turar edi. Bu qanday himoyachi? Nahotki u o'z himoyasiga olgan kishisini qutqazib olish yo'lida urinmasa?

Guvochlardan bir necha kishi Potterni kishi o'ldirilgan yerga olib borilganda, uning qiliq va harakatlari dan aybli ekani sezilib turganini so'zladilar. Advokat bo'lsa bulardan ham aqalli bir og'iz so'z so'ramadi.

Hech esdan chiqmaydigan o'sha kunlarda, sahar chog'ida qabristonda yuz bergen qayg'uli voqealar ning har bir mayda-chuyda tafsilotini ham guvohlar oqizmay-tomizmay so'zlab berdilar, lekin Meff Potterning himoyachisi loaqal ulardan birontasini ham so'roq qilmadi. Xalq juda ajablandi va sud raisining unga ta'sir ko'rsatishini qat'iy talab qildi.

Shunda prokuror o'rnidan turib:

– Eng ishonchli guvohlarning qasamyod qilib bergen guvohliklari bu dahshatli jinoyatni qilgan kishi mana shu aybdorlar kursisida o'tirgan bechoradan boshqa kishi emasligini ochiq bildiradi. Endi mening bunga ilova qiladigan boshqa gapim yo'q, – dedi.

Bechora Potter ingrab, yuzini ikki qo'li bilan berkitgani holda gandiraklab turar edi. Sud zalini og'ir jimlik bosdi. Erkaklardan ko'plari qattiq ta'sirlangan, xotinlar esa unga achinib yig'lar edilar.

Shunda himoyachi o'rnidan turdi-da, sudyaga murojaat qilib:

– Hurmatli ser! Sudning dastlabki muzokalarida o'z himoyam ostida bo'lgan kishining bu dahshatli jinoyatni mastlikda qilganligini isbot qilmoqchi bo'lgan va shunday deb ma'lumot bergen edim. Lekin men endi maqsadimni o'zgartirdim va suddan bunga yengillik berilishini so'rab murojaat qilmayman, – dedi.

Keyin u sud ijrochisiga qayrilib qarab:

– Tom Soyerni olib kiring, – dedi. Hammaning, shu jumladan Potterning ham yuzida taajjub alomatlari paydo bo'ldi. Hammaning ko'zi Tomga tikildi. Bola juda ham shoshib qolgan va qattiq qo'rqrar edi. Uni guvohlar o'rniga olib keldilar-da:

– Tomas Soyer, siz o'n yettinchi iyun kuni yarim kechada qayerda bo'lgan edingiz? – deb so'radilar.

Tom hindi Joning temirdek yuziga bir qaradi-da, tili tanglayiga yopishib qolgandek bo'ldi. Kishilar nafaslarni ichlariga olib, diqqat bilan tinglab turardilar. Ammo guvoh indamay turar edi. Oradan biroz vaqt o'tgandan keyin bola o'zini shunday o'nglab oldiki, uning juda sekin, lekin tushunarli qilib:

– Qabristonda edim! – degan so'zini hamma eshitdi.

– Biroz tovushingizni chiqaribroq so'zlang. Qo'rqmang. Shunday qilib, qayerda bo'lgan edim dedingiz?

– Qabristonda.

Hindi Joning basharasida kishi nafratlanadigan bir iljayish sezildi.

– Siz o'sha vaqtida Gors Vilyams degan kishining qabriga yaqin yerga turar edingizmi?

– Shunday, ser.

– Tovushingizni chiqaribroq so'zlang. O'sha qabr bilan siz turgan yer orasi qancha masofa edi?

– Hozir siz bilan men turgandek, ikki qadam narida edi.

– Siz yashiringan edingizmi yoki ko'rinarlik yerdaga turgan edingizmi?

– Yashiringan edim.

– Qayerda?

– Qabrnning chetidagi qayrag'och butoqlari orasida.

Hindi Jo sezilar-sezilmas bir seskanib qo'ydi.

– Siz bilan birga boshqa kishi ham bor edimi?

– Shunday, men u yerga...

– To'xtang biroz, sabr qiling, hozircha yo'ldoshingizning nomini aytishingizga ehtiyoj yo'q. Fursati kelganda undan ham so'rarmiz. Siz qabristonga borgan vaqtingizda, qo'lingizda biror narsangiz bormidi?

Tom, aftidan, uyalgan bo'lsa kerak, nima deb javob berishini bilmay, ikkilanib turar edi.

– So'zlayvering, qo'rqmang. To'g'ri so'z qilichdan o'tkir, – deganlar. Siz u yerga nima olib borgan edingiz?

– Faqat... faqat bittagina o'lik mushuk.

Zalda o'tirgan xalq gurillab kulib yubordi. Rais qo'ng'iroq chalib, ularni tartibga chaqirib qo'ydi.

– Biz dalil qatorida o'sha mushukning suyagini ko'rsatamiz. Endi, do'stim, siz bizga ko'rgan bilganlaringizning birontasini ham qoldirmay, qo'rmasdan birma-bir so'zlab bering.

Tom avvali tortinibroq so'zga kirishgan edi, keyinchalik o'z-o'zidan qiziqib ketdi. Uning so'zları birin-ketin tartibli ravishda bir-biriga ulanib bora boshladi: tezda butun zal ichida faqat Tomning tovushigina yangrardi. O'tirgan xalq uning hikoyasi ga shunday qiziqib ketgan ediki, ulardan birortasi ham nafaslarini chiqarmay, og'izlari ochilib, uning bir og'iz so'zini ham qoldirmay diqqat bilan tinglab o'tirar edilar. Tomning hikoyasi odam o'ldirgan yerga kelganda, xalqning hayajoni eng so'nggi nuqtasiga borib yetdi:

– Doktor Meff Potterring boshiga taxta bilan urib yiqitganidan keyin, hindi Jo qo'lidagi pichog'i bilan doktoring oldiga yugurib bordi-da, uni...

Shu vaqt hindi, yashin tezligida irg'ib o'rnidn turdi-da, ushlar moqchi bo'lgan kishilarni itarib-yiqitib, o'zini derazadan tashlab qochdi.

**PORLOQ KUNLAR –  
QO'RQINCHLI TUNLAR!**

Tom yana bir marta atoqli qahramon nomini oldi. Kattalar uni erkalatsalar, o'zi tenggi yoshlar undan rashk qilishib, shunday qahramon bo'lishni havas qilar edilar. U o'zi uchun abadiy shuhrat qozongan edi: uning nomi matbuotda ham ko'rinish, mahalliy gazetalardan biri uni ortiq darajada maqtab chiqdi. Shunday kishilar ham bor ediki, agar uni oldinroq osib yubormasalar, u bora-bora prezident ham bo'lib ketar, deb o'ylar edilar.

Kishilarning hammasi Meff Potterni hurmatlab, dordan qutulgani uchun uni qizg'in tabriklar edilar.

Tom kunduz kunlari shuhrat va shodliklarga to'lib yurar, kechasi bo'lsa uni cheksiz qo'rquv bosar edi. U doimo tushida hindi Joning intiqomli bir nazar bilan tikilib turganini ko'rар edi. Kun kech bo'lib, qorong'ilik tushdi deguncha, uydan tashqariga chi-qish uchun uni hech narsa qiziqtirmas edi. Gek bechora ham xuddi shunday kun kechirar, chunki Tom sud bo'ladigan o'sha kundan bir kun oldin advokatga bo'lgan butun voqeani so'zlab bergen edi. Hindining qochib ketishi garchi Gekni so'roq berishdan qutqazgan bo'lsa ham, u o'zining shu ishda aralashgani yuzaga chiqib qolishidan juda qo'rkar edi. Advokat bu voqealarni hech kimga og'zidan chiqarmaslikka so'z bergen edi. Biroq bundan nima foyda? Tomning vijdoni uni yarim kechada advokatning uyiga haydab kelgan va bu yomon ishni birovga aytmaslik uchun qasam bilan yopilgan og'zini yana ochishga majbur etgan kundan boshlab Gek umuman inson ahliga ishonchini yo'qotib qo'ygan edi.

Tom kunduz kunlari Potterning tuganmas min-nattdorchiliklarini eshitib, bu sirmi ochib bergeniga

shodlanar, kechasi bo'lganda esa, buni og'zidan chiqarib qo'yganiga achinib xafa bo'lar edi. U ba'zan hindi Joni endi sira qo'lga tushira olmaydilar, deb qo'rqlas, ba'zan uni qo'lga tushiradilar, deb qo'rqlas edi. U shu kishining o'lganligini o'z ko'zi bilan ko'rgan vaqtdagina erkin nafas olishiga ishonar edi.

Butun okrugni tintib chiqdilar, hindini tutib beruvchiga katta mukofotlar va'da qildilar. Biroq uni topa olmadilar. Sent-Lui shahridan hamma narsani biladigan ajoyib bir jesusni topib keltirdilar. U u yoq-bu yoqni axtargan, iskab ko'rgan bo'ldi-da, keyin boshini chayqab, odat bo'yicha xuddi shu kasbdagi kishilar qanday natija chiqaradigan bo'salar, bu ham muvaffaqiyat bilan shunday natija chiqazdi, ya'ni: «Izi topildi» degan natijaga keldi. Biroq, odam o'ldirgani uchun o'ldiruvchi kishining o'zi bo'lmasa, uning «izi»ni dorga osib bo'lmaydi-ku! Shuning uchun jesus jo'nab ket-ganidan keyin ham, Tom avvalgiday xavf ichida qolaverdi.

## *YIGIRMA BESHINCHI BOB*

### **KO'MILGAN XAZINANI IZLASH**

Har qanday aqli raso bolaning hayotida ham yer qazish va yer ostiga ko'mib qo'yilgan xazinani izlab topish sari yo'nalgan, yengib bo'lmas bir orzuni kechirish davri bo'ladi. Yaxshi kunlarning birida Tomda ham shunday mayl tug'ilди. U Jo Garperni izlab chiqib ketgan edi, lekin topolmadi. Keyin Ben Rojersni izlab topgan edi, u baliqqa qarmoq solish bilan ovora ekan. Nihoyat u Gek Finnga duch keldi. Gek albatta uning uchun eng muvofiq o'rtoq! Tom uni bir chetga, o'z o'ttalaridagi so'zlarni hech kim

eshitmaydigan yerga boshlab borib, o'sha yerda unga o'zining butun maqsadini bildirdi. Gek ham rozi bo'ldi. Gek o'zi shunday ediki, o'zidan biror narsa chiqim qilmay ko'ngilli vaqt o'tkazadigan har qanday ish bo'lsa ham rozi bolalar edi, chunki uning bo'sh vaqt shunchalik ko'p ediki, u vaqtini nima qilib o'tkazishni bilmas, shuning uchun albatta mening vaqtim – oltin deb ayta olmas edi.

– Xo'sh, qani qayerni kavlaymiz? – deb so'radi Gek.

– O'xo', bizmi? Biz har bir yerga borib yer qaziyveramiz.

– Yer ostiga ko'milgan xazina har yerda ham bo'laveradimi?

– Albatta har yerda bo'lavermaydi. Uni maxsus yerkarda, orollarda yoki birorta chirib qolgan, har tarafga shox otgan qari daraxt to'nkalari ostiga, eski, qurt yegan sandiqlarga solishib, xuddi yarim kechada soya tushadigan yerga, hammadan ko'proq jinlar yuradigan uyning ichidagi polning ostiga ko'madilar.

– Ularni kim ko'madi?

– Albatta qaroqchilar ko'madilar. Bo'lmasa, yashanba kuni maktab nazoratchilari ko'mib qo'yadilar, deb o'ylagan edingmi?

– Bilmadim. Agar shunday mol-dunyo menda bo'lsa, uni yerga ko'mmasdan, o'z erkimcha xarajat qilib, shodlik bilan vaqt o'tkazar edim.

– Men ham shunday qilar edim, biroq qaroqchilar unday qilmaydilar, ular topgan dunyolarini yer tagiga ko'mib qo'yadilar.

– Keyin qaytib kelmaydilarmi?

– Yo'q, ular qaytib kelmoqchi bo'lib ketadilar-da, keyin qo'ygan yerlaridan adashib qoladilar, yo bo'lmasa o'zları o'lib ketadilar-da, dunyolari shu yer ostida qolib ketadi. Ana shunday qilib bu xazinalar zang bosib yotaberadi. Keyin kim bo'lsa ham birov sarg'ayib ketgan eski bir qog'oz topib oladi va o'sha

qog'ozda yerga ko'milgan mol-dunyolarni qayerlardan, qanday belgilar bilan topib olish yozilgan bo'ladi. Lekin shunday bolsa ham u qog'ozlarni kamida bir haftalab tekshiradilar, chunki u qog'oz kishi bilmaydigan maxsus belgilar bilan yozilgan bo'ladi.

– Senda ham shunday qog'oz bormi, Tom?

– Yo'q.

– Bo'lmasa sen xazina ko'milgan yerning belgilarni qanday qilib bilasan?

– Menga uning belgilari kerak emas, xazina hamma vaqt uylarning ostiga, jinlar tentirab yuradigan yerlarga yo bo'lmasa orollarga, shoxlari tashqariga qarab cho'qqayib chiqib qolgan va qurigan daraxtlarning tagiga ko'milgan bo'ladi. Biz Jekson orolida ham yerni kavlab ko'rgan edik-ku, yana kavlab ko'rarmiz. Suvning narigi tomonida esa jinlar aylanishib yuradigan eski uy bor, o'sha yerda qurigan daraxtlar ham ko'p.

– O'sha daraxtlarning har bittasi tagida xazina bormi?

– Sen qiziq so'zlaysan-a, albatta unday emas.

– Bo'lmasa qaysi bir daraxtning tagida ekanini qayoqdan bilasan?

– Hamma daraxtning tagini kavlab ko'rarmiz.

– Oho, bunday qilganimizda butun yoz bo'yи izlab yuramiz-ku!

– Yoz bo'yи izlasak nima qipti? Basharti birdan-bir mis ko'za topib olsak, uning ichida yuz dollar bolsa yoki bir eski qurt yegan sandiq topib olsak, ichi to'la brilliant bolsa, unda nima deysan?

Gekning ko'zlarini yarqirab ketdi.

– Juda yaxshi bo'lar edi-da! Ayniqa menga yaxshi bo'lar edi. Agarda shuni topib olsak, sen menga yuz dollarni bersang, bo'ladi, brilyantlarni o'zing olaqol, ularning menga keragi yo'q.

– Juda soz! Brilyantlarni men tashlab qo'ymayman, xotirjam bo'l, ulardan ba'zilarining bir donasi

yigirma dollar turadi va ular orasidan bir dollardan kam bahoda bo'lgan birorta ham brilyant topa olmaysan.

- Rostdanmi?

- Albatta shunday, buni senga har kim ham aytib beradi. Sen brilyantni hech ko'rgan emasmisan, Gek.

- Esimda yo'q, ko'rmagan bo'lsam kerak.

- Lekin podsholarda brilyantlar botmon-botmon.

- Men podsholar bilan tanish emasman-ku, axir!

- Qayoqda eding! Basharti Yevropaga borib qolgünday bo'sang, brilyantlarning botmon-botmonini ko'rarding. U brilyantlar qaynashib-sakrashib yotishardi.

- Sakrashib yotishardi deysanmi?

- Tentak ekansan-ku! Ular sakrashib nima, qiladi?

- Ular sakrashib yotishardi, deb o'zing aytding-ku!

- Tentak! Ular Yevropada istaganingcha topiladi, demoqchi edim. Ular albatta sakramaydi, sakrab nima, joni bormidi? Sen ularga ko'z tashlasang, ular xuddi o'sha Richardga o'xhash son-sanoqsiz bo'lib, ko'zing jimirlashardi...

- Richard dedingmi? Familiyasi nima?

- Karollarda familiya bo'lmaydi. Ular faqat ismlari bilan yuritiladi.

- Nima deyapsan?

- Rostini gapirayapman.

Bunday bo'lsa, karol bo'lishni istamas edim. Ularни xuddi negrlardek faqat ismlari bilan chaqirish balki ularga ma'qul tushadigandir. Lekin men buni unchalik xush ko'rmayman. Xo'sh, qani qayerdan kavlay boshlaymiz?

- Bilmadim, anavi suvning narigi tomonidagi shoxi tarvaqaylagan keksa daraxtdan boshlasakmi, deyman.

- Bo'ladi.

Ular egilgan kerki bilan egilgan belkurak olishib, yo'nga tushdilar.

Boradigan yerlari uch mil yiroqlikda edi. Ular yetib borganlarida hansirab, qizarib va charchab qolgan edilar. Dam olish va tamaki chekish uchun bir daraxt soyasiga yonboshladilar.

– Bu ish menga juda yoqdi-da, – dedi Tom.

– Menga ham.

– Menga qara Gek, agar biz shu yerdan xazina topib olsak, o'z ulushingni nima qilar eding?

– Menmi? Men har kuni shirinliklar olib yeysman va shirin suvlar olib ichaman, ot o'yini kelib qolsa, har kun ot o'yiniga kiraman. Men-ku yaxshi turmush kechirib o'zimni xursand qilishni bilaman-a!

– Ehtiyotdan biror qismini ajratib qo'yamsanmi?

– Ajratib qo'yishning nima keragi bor?

– Nima keragi bor, deganing nimasi? Ajratib qo'ysang, keyin bir kuningga yaraydi-da!

– Yo'q, buning foydasi yo'q. Agar bu pullarni tez-roq sarf qilmasam, bir kuni otam qaytib kelib qolsa, darrov bu pulga o'zining changalini soladi. Undan keyin bu puldan maza topolmayman. Xotirjam bo'l, biror tiyinini ham qo'ymaydi. Sen-chi, sen o'zingga tekkan ulushingni nima qilasan?

– O'zimga bir yangi do'mbira, bitta yaxshi qilich, bir qizil bo'yinboq, bir yaxshi kuchukbola olaman, undan keyin uylanaman.

– Uylanaman deysanmi?

– Ha, uylanaman.

– Tom, senga nima bo'ldi... aqlingni yeb qo'ydingmi?

– Qarab tur, mana ko'rarsan.

– Tom, sening bu ishing juda behuda-ku! Bundan ham bemazaroq narsa topolmadingmi? Ana, otam bilan onamni qara, – o'zing bilasanki, ular ertalabdan kechgacha urush-janjaldan bosh ko'tarmas edilar. Men buni yaxshi bilaman.

– Buning hech zarari yo'q. Mening oladigan xotinim janjal qilmaydi.

– Menga qolsa, ularning hammasi ham bir go'r. Yo'q, Tom, yaxshilab o'ylab qara, senga to'g'risini aytaman – o'ylab qara. Qizchaning oti nima?

– U qizcha emas, qiz endi.

– Baribir, ba'zilar unday deydi, ba'zilar bunday. Xo'p, oti nima?

– Otini bir kun aytarman, hozir emas.

– Mayli, bilganiningni qil. Faqat shunisi borki, agar xotin olsang, men avvalgidan ham battar yolg'izlanib qolaman.

– Yo'q, Gek, sen biz bilan birga turasan. Qani, tur, bo'lar endi shuncha ag'nab yotganimiz, endi yer qazishga kirishaylik.

Ular yarim soat chamasi yer qazidilar, terlab-pishib ketdilar, lekin hech narsa topolmadilar. Yana yarim soatcha ishladilar, yana hech gap yo'q. Nihoyat Gek:

– Xazina ko'mganlarida shunday chuqur ko'mar ekanlarmi? – dedi.

– Ba'zan shunday bo'ladi, lekin hamma vaqt bunday bo'lavermaydi. Biz boshqa yerni kavlayotgan bo'lsak kerak.

Ular boshqa bir yerni tanlab, yana qazishga kirishdilar. Endi ish avvalgiday tez bormas, shunday bo'lsa ham kam-kam ilgarilab borar edi. Bir mahal ikkoblari ham juda qattiq g'ayrat bilan ishlab ketdilar, keyin Gek ishdan to'xtadi-da, kavlagan yeridagi jarlikka suyanib turib, peshonasidagi katta-katta ter tomchilarini artib:

– Bu yerni kavlab bo'lganimizdan keyin qayerni kavlaymiz? – deb so'radi.

– Beva xotinning uyi orqasidagi keksa daraxt tagini kavlab ko'rsakmi, deyman.

– Menimcha ham o'sha yer durust bo'lsa kerak. Biroq, shunisi borki, Tom, sen qanday o'ylaysan,

topib olgan narsamizni beva xotin tortib olib qo'ymas-mikan? Yer o'shaniki-ku!

– Topib olgan narsamizni tortib oladi deysanmi? Qani, yaqinimizga yo'lاب ko'rsin-chi! Yo'q, yer-dan topilgan narsa shunday bo'ladi: yer kimniki bo'lmasin, baribir, dunyoni yerdan kim topib olsa, o'shaniki bo'ladi.

Bu gap ularni biroz tinchsizlantirdi. Ular yerni qazishda davom etardilar. Keyin Gek yana so'z ochib:

– Yo'q, biz aftidan, yana boshqa yerni qaziyotganga o'xshaymiz. Seningcha qanday, Tom?

– Juda qiziq bu ish, Gek, juda ham qiziq? Men tu-shunmay qoldim. Balki bizga halal berayotgandirlar, ba'zan shunday ham bo'ladi.

– Seni gapingni qara-ya! Jinlar kunduz kuni hech narsa qilolmaydilar. Kunduzi ularda hech qanday quvvat bo'lmaydi.

– To'g'ri, to'g'ri, men bu tomonini o'ylamagan ekanman. Ha, bo'ldi, men endi tushundim. Ikkala-miz ham juda ahmoq ekanmiz-da! Avval shu daraxt shoxining yarim kechada soyasi tushgan yerini topib, undan keyin xuddi o'sha yerni qazish kerak.

– Ha, seni-ya. Shuncha qilgan mehnatlarimiz bekor ketdi. Endi bu yerga yana bir marta kechasi kelishimiz kerak. Juda uzoq-da, sen uyingdan chiqa olasanmi?

– Men-ku chiqaman-a. Bu ishni albatta shu kecha qilish kerak, bo'lmasa shu qazilgan chuqurni birov ko'rsa, darhol boylikni kavlab olib ketadi.

– Xo'p bo'lmasa! Men bugun yana derazang yoniga kelib miyovlayman.

– Mayli. Kel endi asboblarni ana shu shoxlarning orasiga yashirib qo'yaylik.

Kechasi soat o'n ikkiga yaqinlashganda, bolalar o'sha yerga kelib, soyaga o'tirib kuta boshladilar. Vaqt kech, joyning o'zi ham juda xilvat edi. Uzoq-

dan bir itning vovullagan tovushi eshitildi, unga javoban bir boyo'g'lining mudhish qichqirig'i ham keldi. Kechaning sukunati ichidagi og'ir vaziyat bolalarni bo'g'ib turar, ular indamasdan o'tirar edilar. Nihoyat ular yarim kecha bo'ldi, degan qarorga kelishib, soya tushib turgan yerni kavlay boshladilar. Ularning ishonch va umidlari katta edi. Ular hech to'xtamay, borgan sari qiziqib ishlaromoqdalar. Kavlagan yerlari ancha chuqurlashib bordi. Qo'llaridagi asboblari biror narsaga tegib ketsa, ular hovliqib nafaslarini chiqarmay to'xtab qolar edilar. Biroq har gal bularni umidsizlik kutar edi. Asboblari yo tosh, yoki daraxt tomiriga borib tekkan bo'lar edi. Nihoyat, Tom o'z o'rtogiga qarab:

— Gek deyman, bu ishni davom etdirishimizdan hech foyda chiqmaydiganga o'xshaydi. Bu gal ham boshqa yerni kavlay boshlaganmiz, — dedi.

— Nega boshqa yer bo'sin? Biz yanglishganimiz yo'q. Xuddi soya tushgan yerni kavladik-ku!

— Bilaman, lekin gap unda emas.

— Bo'lmasa nimada?

— Ish shundaki, bizda soat yo'q. Vaqtini taxminan mo'ljalladik, balki o'sha vaqtda ancha erta yoki ancha kech bo'lgandir.

Gek qo'slidagi belkurakni tushirib yubordi.

— To'g'ri aytasan... Ish xuddi ana shunda. Demak, bu ishni yana keyinga qoldirishga to'g'ri keladi. Baribir biz vaqtni aniq belgilay olmaymiz-ku! Yana buning ustiga, atrof hammasi jin va shaytonlar bilan o'ralib yotganda, bu ish juda qo'rqinchli ham. Men ishlab tursam, nazarimda xuddi orqamda bir kishi turganga o'xshaydi. Orqamga qayrilib qarashga qo'rqaman, balki shu vaqt oldimda bittasi payt poylab turgandir! Doim badanim jimirlashib turadi.

– Men ham juda qo'rqaman, Gek. Men ham xuddi sen aytgandek bo'laman. Kishilarning so'zicha, daraxtning tagiga xazina-yu dunyo ko'mganlarida, o'shangang qarab turish uchun shu yaqin o'rta ga bir o'lik ham ko'mar emishlar.

– Xudoyo tavba!

– To'g'ri, shunday qilar emishlar, men buni ko'p eshitganman.

– Yo'q, Tom, menga qara. Shu o'lik bor yerda o'ralashishni sira xohlamayman. O'lik bor yerga yaqin yursang, albatta bir baloga yo'liqasan.

Shunday ishga mening ham tobim yo'q, Gek. Basharti shu yerda yotgan o'lik birdan boshini ko'tarib, baqirib yuborsa bormi...

– Qo'ysangchi, Tom, bunaqa vahimali so'zlarni gapirma!

– Chindan aytayapman, Gek, shularni o'ylab juda qo'rqib ketayapman.

– Menga qara, Tom, qo'y, esimiz borida etagimizni yig'ishtirib, shu yerdan tinchgina ketaylik. Baxtimizni boshqa yerdan qidiraylik.

– Rost aytasan, ketaqolaylik. Shunday qilsak, yaxshiroq bo'lar.

– Xo'sh, qayerga boramiz?

Tom biroz o'ylanib turdi-da, keyin:

– Qaysi uyda jin va devlar aylanib yuradigan bo'lsa, o'sha yerga boramiz, – dedi.

– Qo'ysang-chi, Tom! Shunday narsalarni juda yomon ko'raman. Bular o'liklardan ham yomonroq bo'ladi. O'liklar jilla bo'lmasa so'zlashib yuradilar, lekin bularga o'xshab kafanlariga o'ralganlari holda oldingda o'ralashib yurmaydilar va tishlarini g'ijirlatib, basharangga tikilib qaramaydilar. Bunday narsalarga mening toqatim yo'q, Tom. Faqat mengina emas, hech kim ham toqat qilolmaydi.

– Shunday-ku, lekin jinlar faqat kechalari yuradilar, kunduz kunlari esa bizga yer qazish uchun xalal bera olmaydilar.

– Bu gaping to'g'ri, lekin kishilar bunday joy-larga kechasi uyoqda tursin, kunduz kuni ham bormaydilar.

– Buning sababi, kishilarning askariyati birovni o'ldirgan yerga borib yurishni yoqtirmaydi. Biroq bu uyning oldida kechasi hech narsa ko'rinnmaydi. Faqat derazadan qandaydir ko'm-ko'k yorug'lik ko'rini turadi. Bunda jin ko'rinnmaydi.

– Men senga aytsam. Tom, basharti biror yerda ko'k tusda olov ko'rib qolsang, albatta bilginki, o'shangan yaqin joyda jinlar ham bo'ladi. O'zing o'ylab qarasangchi, ko'k tusdag'i o'tni jinlardan boshqa hech kim yoqmaydi-ku!

– To'g'ri, lekin harholda ular kunduz kunlari yurmaydilar. Shunday bo'lgandan keyin, ulardan qo'rqli shuning nima keragi bor?

– Xo'p, bo'lmasa, modomiki sening shu ishga istaging bor ekan, borib biroz kavlaylik, harholda juda qo'rqlinchli ish-da!

Bolalar tepalikdan pastga tushdilar. Pastda, oy yorug'ida yarqirab yotgan keng vodiy o'rtasida, sehrli bir uy turar edi. Uning atrofidagi devorlari allaqachonlar buzilib ketgan. Eshik oldilarini yovvoyi o'tlar bosib, mo'risi ham buzilib tushgan.

Derazalarida oynalari yo'q. Tomining bir bur-chagi ham ichiga o'pirilib tushgan edi. Bolalar ancha vaqtgacha qarab turdilar, derazadan ko'k olov yorug'i ko'rini qolishini kutib, bir-birlari bilan shivirlashib so'zlashib turdilar. Keyin o'ng tomonga burildilar-da, bu dahshatli uy yaqinidan yurmaslik uchun ancha yerni aylanib o'tib, Kardif tog'i qarshisidagi o'rmonlarni oralab, uylariga qaytib ketdilar.

**QAROQCHILAR XAZINANI  
O'G'IRLAB KETDILAR**

Ertasi tushga yaqin, bolalar o'z asboblarini olib kelish uchun o'sha qurigan daraxt yoniga bordilar. Tom bo'lsa, ichida jinlari bor uyga tezroq yetib olmoqchi, Gek esa bu ishga uncha oshiqmas edi.

– Tom deyman, – deb so'z boshladi Gek, – bugun kun nima, bilasanmi?

Tom o'z ichida sekin-asta bir haftaning hamma kunlarini sanab chiqdi-da, hayron bo'lib darhol o'rtog'iga qaradi.

– Voy, voy, voy! Esimdan chiqarib qo'yibman-ku, Gek.

– Men ham buni o'ylamaganman va bugun juma ekani hozirgina esimga tushdi.

– Obbo qurib ketsin-ey! Mana shunday ishda ehtiyoj bo'lish kerak, Gek. Biz bu ishni juma kuni qilib qo'yib baloga qolayozgan ekanmiz.

– To'g'ri, shunday bo'lar edik. Albatta baloga yo'liqar edik, degin. Balki baxtli kunlar bordir, lekin harholda juma kuni emas.

– Buni har qanday ahmoq biladi. Buni bilgan faqat sengina emas, Gek.

– Buni faqat men bilaman dedimmi? Gap faqat juma kunining o'zida ham emas-da! Men bugun kechasi juda yomon tush ko'rib chiqdim... Tushimda kalamushlarni ko'rdim.

– Bee. Bu juda yomon tush. Kalamush ko'rding, albatta bir falokat bo'ladi. Nima qildi, kalamushlar bir-birlari bilan urushdilarimi?

– Yo'q.

– Ha. Unday bo'lsa durust. Basharti kalamushlar bir-birlari bilan urushmasalar, demak yuz beradi-gan falokatning yaqin o'rtada bo'lmasligini bildiradi.

Faqat falokatga yo'liqib qolmaslik uchun juda ehtiyot bo'lish kerak. Kel, bugun shu ishimizni qo'yaylikda, biroz o'ynaylik. Gek, sen Robin Gudni bilasanmi?

– Yo'q, Robin Gud deganining kim?

– U Angliyada bir zamonalr yashagan eng ulug' kishilardan biri... ya'ni, masalan, eng yaxshi qaroqchi edi.

– Ha, ha, qani men ham o'shanday bo'lsam! Xo'sh, u kimlarni talar edi?

– Faqat domnalarni, sud amaldorlarini va podsho hamda boylarnigina talab, kambag'allarga hech tegmas edi. Kambag'allarni ko'rganida qo'ldan kelganicha ularni sevib, yordamlashib yurar edi.

– Juda ham yaxshi kishi bo'lgan ekan-da.

– Yaxshiligini ta'riflab bitirib bo'lmaydi. Unday saxiy kishi dunyoda hech bo'lмаган. Hozir bo'lsa bunday kishilar mutlaqo yo'q, mening so'zimga ishonaver. U bir qo'li orqasiga bog'lanib qo'yilgan holda faqat bir qo'li bilan butun Angliya halqi orasidan xohlagan kishisini urib yiqita olar edi. O'zining kamoni bilan bo'lsa bir mil uzoqlikda o'n sentlik chaqani urib tushirar edi. Agar o'qi chaqanining bir chetrog'iga tegib qolgan bo'lsa, xafa bo'lib yig'lar edi. Ana shunday qilib hozir Robin Gud o'yinini o'ynaymiz. Bu juda yaxshi o'yin, men senga o'rgatib qo'yaman.

– Durust, men ham roziman.

Bular kun bo'yi Robin Gud o'yinini o'ynadilar. O'yinda davom etar ekanlar, damba-dam ajinalar bor uyga ko'z tashlab qo'yar va ertasi ularni nima kutib turgani to'g'risida o'ylamas edilar. Kun botishga yaqinlashganda, ular uylariga qarab jo'nadilar. Yo'lda daraxtlarning uzun-uzun ko'lankalarini bosib o'ta-o'ta, o'rmon ichiga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldilar.

Shanba kuni, tushdan keyinroq bolalar yana o'sha qurigan daraxt oldiga keldilar. Ular daraxtlar ko'lankasida biroz yotib, so'zlashib, tamaki chekishib oldilar-da, keyin, biror narsa topishga ishonchlari

bo'limasa ham, kavlangan chuqur ichini biroz timirs-kilab turdilar. Tomning aytishicha, ba'zi bir kishilar shu tariqa dunyo axtarib, yerni kavlab-kavlab zerikanlaridan keyin xazinaning chiqishiga oz qolgani ni bilmay, tashlab ketar ekanlar. Keyin bularning orqasidan boshqa bir kishi kelar ekanda, bir marta kerki urish bilan besh-olti qarich chamasi yerdan haligi xazinani topib olar ekanlar. Biroq bolalarning bu galgi g'ayratlari ham bekorga ketdi, ular kerki va belkuraklarini yelkalariga tashlab, jo'nab ketdilar. Ular nazarlarida baxt bilan hazilkashlik qilmay, xazinani axtarib topish yo'lidagi bor shartlarning hammasini halollik bilan bajarganliklarini o'ylab borar edilar. Nihoyat, ular o'sha «ajinalik» uy yoniga ham yetib ketdilar.

Bu ayni tush vaqtidagi jimjitlik ular uchun qo'r-qinchli bo'lib ko'rindi. Ular sekin-asta eshik yoniga yaqin borib, qo'rqib-qaltiraganlari holda ichkariga qaradilar. Uyning ichida taxta pol o'rniga o'tlar o'sib yotar, derazalarining oynasi yo'q, zinalari sinib ketgan edi; ship va devorlarining hammasini o'rgimchak uyalari qoplagan edi. Bolalar o'zlarini dadil tutib, ichkariga kirdilar. Ular o'zaro sekingina shivirlashib so'zlashar, yuraklari o'ynab, har bir tiq etgan tovushni diqqat bilan tinglar edilar. Biror narsaning tovushi qulqoqqa chalinib qolsa, qochib qolish uchun ham tayyor edilar.

Biroq, sekin-asta bu yerning sharoitiga ko'nikib, qo'rqlaydigan bo'lib qoldilar. Ular qiziqib, uy ichini tomosha qilib yurar, shu bilan o'zlarining botirliklariga hayron qolar va buning uchun faxrlanar edilar: keyin ular yuqorini ham chiqib ko'rmoqchi bo'ldilar. Bu bilan ular o'zlarining qochish yo'llarini to'sar edilar, biroq ular bir-birlariga dalda berib, nihoyat kutganlariday natija kelib chiqqanday bo'lib, qo'llaridagi asboblarini bir burchakka yig'ishtirib qo'ydilar-da, yuqoriga chiqdilar; unda ham xuddi

pastdagidek xarobaga duch keldilar. Ular uyning bir burchagida kichkina bir hujra ko'rib, unda biror g'animat bordir, deb ishongan edilar, biroq kutganlariday bo'lib chiqmadi. Hujra bo'sh edi. Endi ular juda dadil, hech narsadan qo'rqlmay yurardilar. Endigina pastga tushib, ish boshlamoqchi bo'lib turgan edilar, Tom birdan:

— Tss! — deb qo'ydi.

— Nima gap? — dedi Gek, qo'rqqanidan rangi oppoq oqarib.

— Tss! Anovi joyda... eshitayapsanmi?

— Ha, ha. Voy-bo'-y-y! Kel, qochaqolaylik.

— Qayoqqa qochar eding, tinch tur, nafasingni chiqarma, ular eshikka yaqinlashib kelayotirlar.

Bolalarning ikkalasi ham eshik yorig'idan biror narsa ko'ramizmi deb yerga cho'zilishib, qo'rqqanlaridan damlarini chiqarmay yotar edilar.

— Ana, to'xtadilar... yo'q... tag'in yurib kelayotirlar... ana, kelib qoldilar. Bijirlay bermasang-chi, Gek, — eshitib qoladilar. Oh, qayoqdan ham shu yerga kelib qoldim.

Eshikdan ikki kishi kirib keldi. Ulardan biri so'nggi vaqtarda har zamon-har zamonda shaharda ko'rinish qoladigan ispaniyalik jingalak chol edi, ikkinchisini bolalar tanimadi.

«Ikkinchisi»si iflos, ust-boshlari uvada, ko'rimsiz bashara, juda ham chirkin bir vujud edi. Ispaniyalik chol bir plashga o'ralib olgan, soch-soqollari oqargan va hurpaygan, keng yoyiq qalpogi ostidan oppoq uzun jingalak sochlari osilib tushib turar, ko'k ko'zları ko'zoynak bilan qoplangan edi. Ular kirib kelayotganlarida, «ikkinchisi»si o'z o'rtogiga nimalarnidir pichirlab so'zlab kelar edi. Ikkovlari ham orqalarini devorga o'girib, yuzlarini eshikka qaratib o'tirib oldilar. Gapirib kelayotgan odam hikoyasida davom etdi. Sekin-asta u ehtiyyot bo'lishni ham unutib, tovushini baland qo'yib so'zlay boshladi.

– Yo‘q, – der edi u, – men hammasini o‘ylab qaramdim, bu ish menga ma’qul emas. Bu juda xavfli ish.

– Xavfli emish, – dedi bolalarni juda hayron qoldirib «jingalak», – o‘zing ham juda shaltoq ekansan-da!

Bu tovushni eshitar ekan, bolalar qo‘rqib qichqirib yuborayozdilar. Bu tovush Joning tovushi edi. Ikkovlari ham biroz jim turganlaridan keyin, Jo yana:

– Ana unisi qanday qo‘rquinchli edi, shunday bolsa ham o‘tib ketdi-ku, – dedi.

– U butunlay boshqacha edi. Unisi – bu yerdan ancha uzoqda, daryoning bosh tomonida.

– Bu yerga kunduz kuni kelishning o‘zi naqadar qo‘rquinchli, bizlarga har qanday kishining ko‘zi tushishi bilanoq, darhol shubhalanadi.

– Bilaman, bilaman! Lekin shunday ahmoqona ishni qilib qo‘yganimdan keyin darhol yashirinish uchun yaqin o‘rtada qulay joy topolmadim-da! O‘zimning ham umuman bu yerda qolishga tobim yo‘q. Bu yerdan kecha kechqurunoq chiqib ketar edim, lekin birovga sezdirmay chiqib ketish to‘g‘risida o‘ylash ham mumkin emas edi, negaki anavi juvonmarg ikkita bola xuddi uyning oldidagi tepada o‘ynab o‘tirishardi.

Hindining bu so‘zlarini eshitar ekan, «juvonmarg ikki bola»ning badanlari jimirlashib ketdi. O‘ylagan ishlarini juma kuni qilmay, bir kunni kutmoqchi bo‘lganlari ham juda yaxshi bo‘lgan edi. Bular o‘z ko‘ngillarida shu ishlarini biror yil orqaga qoldirma-ganlari uchun achinar edilar.

Haligi daydilar xaltalaridan ovqat olib yeya boshladilar. Hindi Jo ancha vaqt o‘ylanib o‘tirganidan keyin:

– Menga qara, hoy bola, – dedi, – sen qaytib o‘sha suv bo‘yiga bor, sening uchun eng qulay yer o‘sha. O‘sha yerga borib mendan bir xabar bo‘lishini kutib tur. Men bo‘sam, fursatni topib, shahar ichiga kirib, undagi ahvolni bilib chiqaman. Avval hamma yerni

yaxshilab tekshirib g'ovur-g'uvur bosilganini bilgandan keyin, bu qo'rqinchli ishni boshlasak bo'ladi. Undan keyin ikkovimiz Texasga qarab qochib qolamiz.

«Ikkinchı» kishi bu gapdan juda mammun bo'ldi. Keyin ikkovlari ham og'izlarini katta ochib esnay boshladilar, hindi esa sheri giga qarab:

— Poyloqchi bo'laverib o'lgudek uyg'ım kelayapti, endi navbat seniki, — dedi.

U yerda o'sib yotgan o't ustiga g'ujanak bo'lib yotib oldi-da, darrov xurrak ota ketdi. O'rtog'i uni bir-ikki marta turtib qo'ygan edi, xurragi bosildi. Keyin poylab o'tirgani ham tumshug'ini pastga egib uxlab qoldi, endi bularning ikkovi ham xurrak tortishardi. Bolalar endi biroz erkin nafas oldilar.

— Endi biz qutuldik! — deb shivirlardi Tom. — Yur endi tezroq!

— Yo'q, yo'q, — dedi Gek. — Agar ular uyg'onib qolsalar, men turgan joyimda qotib qolaman.

Tom yalinar, Gek esa sira ko'nmas edi. Oxiri, Tom sekingina o'rnidan turib, yolg'iz o'zi keta boshladi. Lekin u birinchi qadam qo'yishi bilanoq oyog'i ostida bir narsa qattiq g'ijirlab ketdi. Tom qo'rqqanidan o'sha yerning o'zida o'tirib qolib, yana qaytib qo'zg'alishga jur'at qilolmay qoldi. Daqiqalar judayam sekin o'tib borardi. Bolalarning nazarida go'yo vaqt butunlay to'xtab, abadiylik davri boshlangandek edi. Nihoyat ular quyoshning botayotganini ko'rib, shodlanib ketdilar.

Endi xurrak tortuvchilar ikki kishi emas, faqat bittagina edi. Hindi Jo boshini ko'tarib o'tirdi-da, atrofiga ko'z tashladi. Keyin o'zining o'rtog'iga ko'zi tushdi. Uning boshi egilib, tizzasiga tegib turardi. Jo uni ko'rib, zaharxanda qilib qo'ydi. Keyin uni oyog'i bilan bir tepib qo'ydi-da:

— Tur o'rningdan! Zap poyloqchi ekansan-ku!..  
— Nahotki men uxlab qolgan bo'ssam-a?

– Xayr, gunoh qilishga qilding. Qani, do'stim, endi yo'iga tushishimiz kerak. Bizda hali ozgina zapas ham borku! Pulni nima qilamiz.

– Bilmadim, har safargidek shu yerda qoldirib ketsak qanday bo'lar ekan? Biz janubga qarab jo'nagunimizcha, u bizga kerak bo'lmaydi-ku! Olti yuz ellik dollar kumushni doim yelkamizda ko'tarib yurish tag'in qiyin.

– Shunday... lekin yana qaytib shu yerga kelib yurishga tobim yo'q...

– Hech gap emas, har safargidek bir kuni kechasi kelib ketamiz-da... shunday qilganimiz yaxshi.

– Bu to'g'ri, lekin bunda bir gap bor, do'stim: biz anavi ishimizni balki tezda bitirmasmiz, qayoqdan bilasan, hali nimalar bo'ladi. Pullarimiz bo'lsa yaxshigina yashirilgan emas. Kel, undan ko'ra pullarimizni yaxshilab chuqurroq yerga ko'mib qo'yaylik.

– Yaxshi maslahat, – dedi o'rtoq'i va uyning narigi tomoniga o'tdi-yu, tiz cho'kib, o'choqning orqa tomonidagi g'ishtdan bittasini ko'tarib, uning ichidan bir qop oldi. Qopning ichidan yoqimli kumush tovushi eshitildi. U qop ichidan o'ziga yigirma-o'ttiz dollar oldi va o'rtoq'iga ham o'shancha olib berdi-da, qopni hindiga uzatdi. Hindi uyning bir burchagida tiz cho'kib, pichog'i bilan yerni kavlay boshladi.

Bolalar buni ko'rib qo'rquvni eslaridan chiqarib yubordilar. Ular o'sha ikki kishining har bir harakatini sinchiklab kuzatib turar edilar. Axir, qanday baxt! Bunday dunyo, bunchalik pullarni bular xayollariga ham keltirmagan edilar. Olti yuz dollar-a! Bu pul shularga o'xshagan bolalardan oltitasini boy qilib yuborishga ham yetadi. Xazinaning o'zi to'ppa-to'g'ri qo'nga kirib turardi. Endi qayerni kavlash kerakligini o'ylab o'tirishning ham hojati yo'q.

Bolalarning ikkalasi ham tirsaklari bilan damba-dam bir-birlarini turtib qo'yardilar va har qaysisi

bu turtkilarning: «Har qalay endi, bu yerga kelganimizga xursand bo'ldingmi?» degan ma'noni anglatganini tushunar edi.

Hindining pichog'i qandaydir bir qattiq narsaga borib tegdi.

– Eha! – dedi u.

– Nima bor ekan bu yerda? – deb so'radi o'rtogi.

– Chirik taxta shekilli... Yo'q, sandiqchaga o'xshaydi. Buyoqqa kel, olishib yubor! Ko'raylik-chi, nima ekan. To'xta, to'xta, men uning ustini teshib yubordim.

U, qo'llini yashikka tiqdi-da, darhol tortib oldi.

– Menga qara, bu hammasi pul ekan-ku!

Qo'llariga bir hovuch tillani olib, ikkalasi ham engashib qarab turishardi. Buning hammasi oltin edi. Bolalar yuqorida qarab turib, bu ikkala daydidan ham ortiqroq hovliqar edilar.

– Sandiqchani tezroq kavlab olish kerak, – dedi Joning o'rtogi. – Men boy'a ana u burchakda, ko'k o'tlar orasida, zang bosgan bir eski kerki ko'rgan edim, borib o'shani olib kelayin.

U yugurib borib bolalar qo'yib ketgan kerki bilan belkurakni olib keldi. Hindi kerkini qo'liga olib, sinchkovlab unga qarab chiqdi, boshini chayqab qo'ydi va o'zicha bir narsa deb ming'illadi-da, kavlay boshladи.

Tezlikda sandiqni kavlab oldilar. Sandiqcha uncha katta emas, usti temir bilan qoplangan, juda pishiq bo'lsa ham, lekin ko'p zamonlar yer ostida yotib chirib ketgan edi.

Bu ikkala daydi bir necha daqiqa davomida shodliklari ichlariga sig'may, topgan dunyolarini tomosha qilib o'tirdilar.

– Do'stim, buning ichida juda pul ko'p, – dedi hindi Jo, bir necha ming dollar bor.

– Kishilarning aytishlaricha, bir zamonlar shu yerlarda Merrel degan shayka tentib yurar ekan, – dedi «ikkinchisi»...

– Men ham shunday deb eshitgan edim, bu xazinalarni shu yerga o'shalar yashirib ketgan bo'lalar kerak.

– Endi sen ana u ishingni qilmasang ham bo'ladi. Hindining qovog'i solinib ketdi.

– Sen meni bilmaysan yoki shu ishning boshidan oyog'igacha tushunib yetmagansan. Bunda gap o'g'rilikda emas, gap o'ch olishda. – Shu so'zlar bilan uning ko'zlarida g'azab o'ti yonib ketdi. – Ana shu ishni tamom qilsak, keyin Texasga qarab ketaveramiz. Endi sen uyingga, xotining Nensi va bolalaring oldiga borib mendan xabar kutib tur.

– Durust, sening aytganingcha bo'lsin. Buni-chi, buni nima qilamiz, yana ko'mib qo'yamizmi?

– Ha. – (Yuqorida bolalar shodlanib ketdilar).

– Yo'q, ulug' saxem nomi bilan qasamyod qilamanki, yo'q, – (Yuqoridagilarni zo'r qayg'u bosdi). – Mening esimdan chiqayozgan: belkurakda yangagina qazilgan tuproq belgisi bor. – (Bolalar qo'rqqanlaridan ko'zlarining oldini qorong'ilik bosib ketdi.) – Bu belkurak bilan kerki bu yerdan nima qilib yotibdi? Undagi yangagina qazilgan tuproq yuqi qayerdan tekkan? Bularni kim bu yerga olib kelgan va olib kelgan kishining o'zi qayoqqa ketgan? Sen bu yerda hech kimni ko'rmading va eshitmadingmi? Endi yana bu pullarni shu yerga ko'mamizmi? Biror kishi kelsin-da, yerning yangagina qazilganini ko'rib, kavlab olib ketsinmi? Yo'q, biz buni mening g'orimga olib borib qo'yamiz.

– To'g'ri, to'g'ri! Men bu haqda o'ylab ham ko'r-mabman. Qaysi g'orga? Birinchi g'orgami?

– Yo'q, ikkinchi g'orga, xoch ostiga ko'mamiz. Birinchisi bo'lmaydi, juda ko'zga tashlanib turadi.

– Yaxshi. Endi qorong'i bo'lib qoldi. Boraversak ham bo'ladi.

Hindi Jo o'rnidan turib, u derazadan bu deraza-ning yoniga borib atrofga ko'z solib qaradi.

– Bu kerki bilan belkurakni bu yerga kim olib keldi ekan? Sen nima deb o'ylaysan, yuqorida birov yo'qmikan?

Bolalarning kayflari uchib ketdi. Hindi Jo qo'lini pichog'iqa qo'yib, bir nafas qat'iyatsizlik bilan turdi-da, keyin zinaga qarab yurdi. Bolalar bolaxonada kichkina hujra borligini eslariga tushirgan bo'salar ham, lekin o'rinalidan qo'zg'alishga yuraklari dov bermadi. Joning og'ir qadamlari ostida narvonning bosqichlari g'irchillab ketdi.

Bolalarda yuz bergan chidab bo'imaslik qo'rquv, nihoyat ularda jur'at tug'dirdi: ular endigina hujraga qarab qochmoqchi bo'lib turgan edilar, birdan chirib qolgan narvon Joning og'ir gavdasini ko'tarolmay qarsillab sinib ketdi, hindi Jo narvonning mayda-chuyda bo'laklari bilan yerga dumalab tushdi. U ingrab va so'kinib o'rnidan turdi, o'rtog'i esa unga qarab dedi:

– O'sha yoqqa chiqishning nima keragi bor edi? U yerda birov o'tirgan bo'lsa, o'tiraversin, bizning nima ishimiz bor? Agar o'sha yerdan o'zini tashlab, yiqilib o'lmoqchi bo'lsa, unga ham qarshiligidiz yo'q. Chorak soatdan keyin juda qorong'i bo'lib qoladi, o'shanda orqamizdan quvishni istasa, quvaversin. Men shunday deb o'ylayman, bu narsalarni olib kelgan kishilar, bizlarni ko'rishib, shaytonlarmi yoki jinlarmi deb jonlari boricha hanuz qochib ketayotgan bo'salar kerak.

Jo biroz ming'illadi-da, o'rtog'ining: «Endi axtarib o'tirishga vaqt yo'q, kunning yorug' vaqtidan foydalananib yo'nga chiqish kerak» degan maslahatiga rozi bo'ldi. Ko'p o'tmay, ular uydan sekingina chiqdilar-da, qalinlashib kelayotgan qorong'ilik pardasi ichida qimmatbaho sandiqchani olib, daryo bo'yiga jo'nadilar.

Tom bilan Gek uzoq yotganlaridan va qo'rqaqlaridan badanlari bo'shashgan holda o'rinalidan

turdilar va endi biroz erkin nafas olib, uyning yog'och devorlari orasidan mo'ralab, haligilarning orqasidan qarab qoldilar. Ularning orqalaridan poylab borish kerak edimi, deysizmi? Uni asta so'zlamang. Bizning qahramonlarimiz bo'yinlari uzilmay, sog'-salomat pastga tushib olganlariga shodlanar edilar. Ular te-palikdan oshib uylariga qarab jo'nadilar. Yo'lda ketar ekanlar, ular ko'p so'zlashmas edilar, ikkovlari ham aqlsizliklari uchun o'zlaridan o'zları ranjib borardilar. Belkurak bilan kerki olib kelib qo'yganlari ham bularga katta zarar bo'ldi, agar shu asboblar ko'rinsama, hindi Jo bu yerdan hadiksiramas edi. U o'z oltin-kumushlarini yana shu yerning o'ziga ko'mib qo'yib, birovdan «o'ch olish» uchun ketar edi-yu, qaytib kelmas edi. Shu yerga keltirib qo'yishlari yomon bo'ldi-da. Bular ispaniyalik kishi shahar ichiga kirib, undagi ahvolni bilib, keyin o'zining o'ch olish ishini yuzaga chiqarish uchun muvofiq payt topishini ta'qib etishib, so'ngra uni o'zları aytgan ikkinchi sonli g'orgacha kuzatib bormoqchi bo'lgan edilar. Birdan Tomning xayolida qo'rqinchli bir fikr tug'ildi:

– Gek deyman, bularning o'ch olaman, degan kishilari biz bo'lmaylik tag'in?

– Qo'y, qo'y, so'zlama! – dedi Gek, qo'rqqanidan taxta bo'lib.

Bular hamma narsani mulohaza qilib ko'rdilar va shaharga yaqinlashib qolganlarida hindi balki boshqa kishidan shubhalangandir, yoki Tomning o'zidangina shubhalanishi mumkin, chunki unga qarshi guvohlik bergen faqat Tomning o'zi edi, degan qarorga keldilar.

Xavf faqatgina Tomgagina tegishli degan fikr uni ovuntirmas, ko'pchilik bilan bo'lsam unchalik xavf-xatarda qolmas edim, deb o'ylar edi Tom.

**TITRAYDI VA IZIDAN TUSHADI**

Tomning kunduz kuni kechirgan butun sarguzashtlari uni kechasi bilan qiy nab chiqdi. Uyqusida halovat bo'lmadi. U tushida xazinani to'rt marta qo'liga kirgizdi, lekin to'rttovida ham uyg'onib ketib qo'lidan chiqarib yubordi.

Ilk tong paytida Tom o'rnida yotarkan, sarguzashtning butun tafsilotini esiga tushira boshladi. Bular hammasi unga allaqanday tumanli va uzoq narsalar, butunlay boshqa bir dunyoda bo'lgan ish kabi, yoki allaqachonlar bo'lib o'tgan eski voqealarning hammasi tushida bo'lgandek tuyuldi. Shunday taxminlashiga bir narsa dalolat berar edi; u yerda oltin zapaslari shu qadar ko'p ediki, bunday ko'p miqdordagisi hech ko'rilmagan edi. Hatto birdaniga ellik dollarlik oltinni Tom hech mahal ko'rmagan va kambag'al oilalarda yashovchi bolalarning hammasi singari, «yuz» va «ming» dollarlar degan so'z faqat lop gap, haqiqatda esa bunday katta pullar olamda yo'q, deb o'yldi. Yaxlit aqcha hisobida yuz dollardan iborat bo'lgan katta summani haqiqatan ham birovning egallaganini bir minut bo'lsa-da tasavvur eta olmadi. Basharti uning xazinalar haqidagi tasavvurlarini tekshirilganda, bu xazinalar go'yo bir hovuch chaqalardan va qo'nga kiritib bo'lmaydigan, go'zal, mavhum allaqanday narsalar yig'indisidan iborat bo'lgandek ko'rindi.

Biroq u qancha ko'p o'ylasa, o'sha narsalar shuncha ochiqroq va keskinroq bo'lib, butun tafsilotlari bilan ko'z oldida jonlanar, nihoyat u yana qaytib, bu tushim emas, o'ngimda bo'lgan ishlardir, degan fikr ga ketar edi. Harholda bu masalani aniqlash zarur. U nonushtani apil-tapil yeb bitirdi-da, Gekni qidirib chiqib ketdi.

Gek bir yuk tashiydigan kemaning chetida, oyoqlarini suvgaga solib, o'ynatib o'tirar va basharasidan juda ma'yus ko'rinar edi. Tom o'ylaganini undan ochiqdan-ochiq so'ramasdan, o'zini bundan xabsizdek ko'rsatib, uni gapga solmoqchi bo'ldi. Agarda Gek buning ishoralaridan anglab ololmasa, demak bularning hammasi Tomning ko'rgan tushlari ekanini aniq bo'ladi.

– Omonmisan, Gek!

– Shukr!

Bir daqiqacha jimlik hukm surdi.

– Oh, Tom! Shu belkuragi qurg'urni o'sha qurigan daraxt ostiga bekitib kelgan bo'lsak, shu pullarning hammasi bizniki bo'lar ekan. Qanday yomon ish bu-a?

– Demak, bu tush emas ekan-da? Xudo ursin agar, men tush bo'lmaganiga achinaman.

– Tush deganining nimasi?

– Kechagi ishimiz haqida so'zlayapman. Hozir u menga go'yo tushimda ko'ringandek bo'lib qoldi.

– Tushimda emish-a! Agar uning oyoqlari ostida narvon sinib ketmaganida, tushingni ko'zingga ko'rsatib qo'yar ediku-ya! Mening tushimga bo'lsa, anavi qurib ketkurd ispaniyalik kirib, tun bo'yini meni quvlab yurdi.

– Nega uni qurib ketkurd deysan? Biz uni va pullarni topib olishimiz mumkin-ku!

– Biz uni endi hech vaqt topolmaymiz. Bunday qulay payt bir marta keladi, ikkinchi marta kelmaydi: to'g'ri kelganda uni eplay olmadikmi, hamma ishimiz puchga chiqdi. Bilasanmi, men u bilan duch kelib qolamanmi, deb kayfim uchib ketadi.

– Men ham shunday, Gek. Lekin shunday bo'lsa ham men uni bir ko'rib va orqasidan poylab borib, o'sha paytdayoq ikkinchi g'orning qayerda ekanini bilib olmoqchi edim.

– Ikkinchı g'or deysanmı? Ha, ha, o'zim ham shuni o'yłagan edim. Seningcha bu nima ekan?

– Bilmadim. Harholda bu noma'lum bir narsa. Menga qara, Gek, balki bu uy nomeridir?

– Senga bir gap bo'ldimi, Tom? Albatta unday emas. Bizning shaharchamizda uning bo'lishi ham mumkin emas. Bizning uylarimizning hammasi nomersiz-kul!

– To'g'ri. To'xtab tur, men o'ylab ko'raychi. Bilsanmı? Balki bu qovoqxonaning ichidagi bo'lma nomeridir.

– Ana bu gaping joyida! Bizda faqat ikkitagina qovoqxona bor, buni tekshirib ko'rish ham uncha qiyin emas.

– Gek, men qaytib kelguncha shu yerda turatur.

Shu so'zlar bilan Tom ko'zdan yo'qoldi. U xalqning ko'z oldida Gek bilan birga yurishni istamas edi. U yarim soatdan keyin qaytib keldi.

Qovoqxonalardan yaxshirog'ida bo'lmish va u dastlab kirgan ikkinchi nomerni allaqachon bir yosh advokat egallab olgan edi. Undan ko'ra yomonroq qovoqxonadagi ikkinchi nomerni qandaydir bir noma'lum kishi band qilgan. O'sha yerdagi qovoqxonachi o'g'lining so'ziga qaraganda, bu nomer doim qulflı bo'lib, unda kechasidan boshqa vaqtida biror kishining kirgan yo chiqqanini ko'rmas ekan. Bola bu ajoyib holning sabablarini bilmasdan, ikkinchi nomerda «jinlar» bor deb o'ylab yurar ekan. Shu bilan birga u kecha kechasi shu yerda chirog' yonganini ham aytib berdi.

– Gek, men mana shunday xabar bilib keldim. Menimcha, ularning so'zlaganları ikkinchi nomer albatta shu bo'lsa kerak.

– Men ham shunday deb o'ylovdim, Tom. Xo'sh, endi nima qilamiz?

– To'xtab tur, biroz o'ylab ko'rayin.

Tom anchagacha o'ylanib turdi-da, keyin:

- Mana bunday qilish kerak. Shu ikkinchi no-morning orqa eshigi oshxona bilan yarim xaroba g'isht saroyning o'rta sidagi torko'chaga chiqadi. Sen mumkin qadar ko'proq har xil kalit yig'ib ol, men ham xolamning hamma kalitlarini olaman-da, birinchi marta to'g'ri kelgan qorong'i kechada uni ochishga urinib ko'ramiz. Agar hindi Jo shaharda paydo bo'lib qolsa, uni kuzatishni esingdan chiqarma. Esingda bormi, u o'ch olish maqsadida, paytning qulayligini bilish uchun shaharga kirib chiqaman degan edi-ku? Uni ko'rishing bilan darhol orqasidan poylab bor, agar shunda u ikkinchi nomerga kirmasa, bizning topolmaganimiz bo'ladi.

- Voy, sening gapingni qara! Yolg'iz o'zim uning orqasidan qanday qilib boraman? Qo'rqaman.

- Nimasidan qo'rqasan, kechasi bo'lsa. U balki seni ko'rmay ham qolar. Ko'rib qolganda ham, poylab yurganiningni sezmaydi.

- Ha, durust, agar qorong'i kechada boradigan bo'lsam, mayli, roziman, borib ko'raman...

- Agar kecha qorong'i bo'lsa, uning orqasidan men ham boraman, Gek. Bo'lmasa, u o'ziga kerak bo'lgan narsani bilib olib, pulini ko'tarib jo'nab qolar.

- To'g'ri, Tom, to'g'ri! Men uning orqasidan boraman. Azbaroyi xudo, boraman!

- Ana shunday degin-dal! Mana bu ishing yaxshi. Faqat, ehtiyol bo'll! Sen ishni buzib qo'ymasang bo'lgani, men ishni xom qilmayman.

## **YIGIRMA SAKKIZINCHI BOB**

### **HINDI JONING KULBASIDA**

Tom bilan Gek o'sha oqshomdayoq o'ylagan xavfli ishlarini qilib ko'rmoqchi bo'ldilar. Ular soat to'qqizgacha qovoqxonaning oldida aylanib yurdilar. Birovi katta ko'cha tomonidagi eshikni poylasa,

ikkinchisi boshi berk ko'chaga chiqadigan eshikni kuzatar edi. Torko'cha ichida hech kim ko'rinnmasdi. Oshxonaga kirgan va chiqqanlar orasida ana u ispaniyalikka o'xhash kishi ko'rinnmas edi.

Kecha bulutsiz bo'ladigandek ko'rinar edi. Tom, agar qorong'i bo'lsa, o'rtog'ining derazasi yaqiniga kelib miyovlamoqchi bo'ldi-da, uyiga qarab ketdi. O'rtogi kelib miyovlab chaqirsa u chiqadi-da, ikkoblari borib, kalitlarni solib ko'ra boshlaydilar. Lekin kecha oydin bo'ldi, shuning uchun Gek soat o'n ikkidan keyin kuzatuvchilik ishini yig'ishtirib qo'ydi-yu, bo'sh bir qand bochkasining ichiga kirib uyquga ketdi.

Seshanba kuni bolalarning ishlari yana o'ngidan kelmadni. Chorshanba kuni ham shunday bo'ldi. Ammo payshanba kuni kechasi juda qorong'i bo'ladiganga o'xshab turar edi. Tom qo'liga xolasining eski fonusini va uni yopib yurish uchun bir sochiq olib, uydan chiqdi. Fonusni Gek yotib yuradigan bochkaning ichiga yashirib qo'ydi-da, ikkoblari ham poylab yura boshladilar. Yarim kechaga bir soat qolganda, qovoqxonani berkitib, chiroqlarini o'chirdilar. Boshqa uylardagi chiroqlar bo'lsa allaqachon o'chgan. Ispaniyalik ko'rinnmas edi. Umuman hozirgi sharoit bular uchun juda qulay edi. Kechaning qorong'iligidan hech narsani ko'rib bo'lmasdi. Jimlikni har zamonda uzoqlardan eshitiladigan momaqaldiroqning gurullahigina buzar edi.

Tom fonusini oldi, bochkaning ichida yoqdi, sochiq bilan mahkam qilib o'radi, shu holda qahramonlarimiz qovoqxonanomda qarab jo'nadi-  
lar. Gek qovoqxonanining katta ko'cha tomonidagi eshigi yonida poylab qoldi, Tom bo'lsa paypaslab torko'chaning ichiga qarab yurib ketdi. Qorong'ilik va jimxitlik ichida Gekni dahshatli vahima bosib ketdi. U endi shunday qorong'ilik ichida fonus yorug'inining bir marta yarqirab ko'riniib ketishini istay boshladi. Garchi to'satdan chiroq yorug'i

ko'rinishi bilan u qo'rqib ketsa ham, lekin bu bilan Tomning hali tirik ekaniga ishongan bo'lar edi.

Tom yo'q bo'lib ketganidan beri bir necha soatlar o'tib ketgandek ko'rinar edi.

«Aftidan, uning uchun yomon bir narsa yuz bergan bo'lsa kerak. Balki u hayajonlanganidan va qo'rqqanidan o'lib ham qolgandir», – deb o'ylar edi Gek.

Shunday tashvishli xayollar ichida Gek sekin-asta torko'chaga yaqinlashib borar ekan, ko'z oldiga har xil yomon narsalar ko'rinar va damba-dam biror falokat yuz berishidan xavfsirar edi. U zo'rg'a nafas olar, yuragi bo'lsa shunday qattiq urar ediki, Gek: «Yuragim yorilib ketadimi», deb o'zidan-o'zi qo'rqrar edi.

Birdan chiroq yorug'i ko'rindi-da, oldidan Tom yugurganicha o'tib keta turib:

– Yugur, qochib qol, tezroq o'zingni qutqar! – deb shivirladi.

Takrorlab o'tirishga to'g'ri kelmadi. Tom so'zini tamom qilmasdanoq Gek allaqachon shataloq otib qolgan edi. Bolalar shaharning narigi chekkasidagi eski qushxonaga yetgunlaricha to'xtamay yugurrib ketdilar. Ular ayvon tagiga kirib yashirinishga ulgurmagan ham edilarki, birdan havo guldurab, chaqmoq chaqdi-da, jala quyib yubordi. Tom nafasini biroz rostlab olgandan keyin so'zlay boshladi:

– Oh, Gek, qanday qo'rqinchli bilsang. Men kallitlardan ikkitasini solib ko'rdim. Mumkin qadar tovush chiqarmaslikka tirishdim, biroq, shuncha ehtiyot qilishimga qaramay, ular sharaqlar edi. O'zim ham sezmasdan eshikni itarib yuborgan edim, eshik ochilib ketdi. U quluflanmagan ekan. Men sakrab turdim-da, sochiqni ham tushirib yuborib, keyin... hoy, buyuk Sezarning sharpasi...

– Xo'sh, keyin nima bo'ldi, Tom?

– Gek! Men xuddi hindi Joning qo'liga tushit qolayozdim.

- Rostdanmi?
  - Rost.
  - U o'sha hujrada, qo'llarini ikki yoqqa tashlab yerda cho'zilib uqlab yotgan ekan.
  - Xo'sh, keyin nima qilding uyg'ondimi, u?
  - Yo'q, u hatto qimirlamadi ham. Aftidan mast bo'lsa kerak. Men sochiqni oldim-da, qochib qoldim.
  - Shunday vaqtda sochiq esingga kelganini qara!
  - Sochiqni yo'qotib qo'ysam, xolamdan kaltakka o'lardim.
  - Menga qara Tom, sandiqchani-chi, sandiqchani ko'rmadingmi?
  - Ana bu gapingni qara, Gek! Shunday vaqtda qarab turishga fursat bo'ladimi? Yerda, hindi Joning yonida, bir tunuka quticha bilan bir bo'sh shisha yotar edi, undan boshqa na sandiq, na xoch ko'rdim. Yana o'sha uy ichida ikkita kichkina bochka bilan juda ko'p shisha ko'rdim. Endi u yerda qanday jinlar yurishini bildingmi?
  - Xo'sh, qanday jinlar yurar ekan?
  - Araqning jini-da! Balki Hushyorlik jamiyatiga qarashli shunday yerlarda doimo shunday «jini bor» uylar bo'ladigandir-da? Sen qanday deb o'ylaysan, Gek?
  - Shunday bo'lishi ham mumkin. Kim buni shunday deb o'ylar edi. Tom deyman, hindi Jo mast bo'lib yotgan bo'lsa, hozir sandiqchani olish uchun juda qulay vaqt ekan-da!
  - Borib ko'r bo'lmasa...
  - Gek bir seskanib ketdi.
  - Yo'q, bormayman.
  - Mening ham borgim yo'q, Gek. Hindi Joning oldida birgina shisha yotgan bo'lsa, bu - oz. Uning oldida aqalli uchta shisha bo'shab yotgan bo'lsa, unda balki borsa bo'lar edi.
- Ular anchagacha jim turdilar-da, keyin Tom:

– Bilasanmi, Gek, – dedi, – bu hindining shu uyda yo‘qligini aniq bilmagunimizcha bu ishga urinmaymiz, negaki juda qo‘r qinchli. Agarda har kuni kechasi poylab yursak, uning birdamas-birda uydan chiqib ketayotganini ko‘rib qolamiz. Shundagina biz darhol yugurib kirib, sandiqchani olib cochishimiz mumkin.

– Bo‘ldi bo‘lmasa, men har kuni tong otguncha poylab yurishga ham roziman, faqat qolgan ishni bo‘yningga olsang bo‘lgani.

– Durust, men ham roziman. Faqat sen bizning ko‘chadan o‘ta turib, miyovlab qo‘ysang bo‘ldi. Basharti anchagacha uyg‘onmasam, derazaga ozroq qum sochib yuborsang, men darhol sezib, yugurib chiqaman.

– Endi gap shu, bilib qo‘y, shartimizdan qaytmaymiz.

– Qani, Gek, momaqaldiroq va jala tindi, endi men uyg‘a borayin. Tong otarga ham ozgina qoldi, ko‘p bo‘lsa ikki soat qolgandir. Sen endi o‘sha yerni poylab yur, durustmi?

– Xo‘p, xo‘p, men bu qovoqxonaning oldida bir yilgacha bo‘lsa ham aylanib yuraveraman. Kunduzi uxlayman, kechalari bo‘lsa poylab yuraman.

– To‘g‘ri, Gek. Biroq, sen qayerda yotasan?

– Men Rojers pichanxonasida yotaman. U men ga hech narsa demaydi. Ularning negri Jek amaki ham menga indamaydi. Ba‘zida o‘sha Jekka men suv keltirib beraman. Ba‘zida u menga, ovqati bor mahalda, ovqat ham beradi. U juda yaxshi kishi-da, Tom, u meni juda yaxshi ko‘radi, chunki men uning oldida tumshug‘imni yuqori ko‘tarib, takabburlik qilavermayman. Hatto ba‘zi vaqtida men u bilan bir tovoqdan osh yegan vaqtlarim ham bo‘ldi. Men unday takabbur emasman. Faqat sen buni hech kimga aytma. Ochlik bu yomon narsa, och, och qolsang shunday ishlarni qilasanki, to‘q bo‘lsang bunday ishlar yetti uxlab tushingga ham kirmas edi.

– Yaxshi, Gek, men seni kunduz kurnari bezovta qilmayman. Agarda seni uyg'otadigan bo'lsam, juda zarur vaqlardagina uyg'otaman. Basharti sen kechasi biror narsani sezib qolgudek bo'lsang, darhol derazaning tagiga kelib miyovlasang bas.

## YIGIRMA TO'QQIZINCHI BOB

### **GEK BEVA XOTINNI QUTQARADI**

Tom juma kuni ertalab o'rnidan turishi bilanoq juda sevinchli xabar eshitdi: sudya Techerning kanikul munosabati bilan Istambulga jo'nagan oilasi shaharga qaytib kelibdir! Bu bilan hindi Jo ham, xazinalar ham Tomning xayolidan vaqtincha ko'tarilib, endi uning butun es-hushi Bekkida bo'lib qoldi.

Bularning ikkalasi bir-birlari bilan ko'rishib, boshqa maktab bolalari bilan bирgalikda har xil o'yinlar o'ynadilar va «juda shodlik» bilan vaqtlarini o'tkazdilar. Kechga yaqin Tom yana bir hush xabar eshitdi. Bekki shu vaqtgacha har kuni deyarlik onasiga osilar, onasi allaqachon va'da qilgan, lekin hamisha orqaga surib kelgan sayilni, ya'ni bolalar bilan dala sayili tashkil qilishni onasidan so'rab yurar edi. Nihoyat onasi Bekking bu talabini ham qabul qildi. Qiz shodligidan o'zini unutgan, Tom ham o'zini yettinchi osmonda yurgandek his qilar edi. Kun botmasdanoq butun taklif qog'ozlari tarqatilib, yoshlar shoshilinch tayyorlik ko'rishar va bu dala saylida ko'rinish turgan, boshqa vaqtarda juda siyrak uchraydigan rohat va erkinliklarni avvaldan sezib yurar edilar. Tom o'zidagi shodlik va yuragining hovliqishidan uzoq vaqt uxlayolmay yotdi. Uning xayolida hozir Gek kelib miyovlar-da, ertasiga u o'zining boyligi bilan Bekkini va dala saylida qatnashuvchi boshqa kishilarning hammasini

ham xayron qoldiradigandek bo'lib turar edi. Lekin u yanglishdi, bu kecha uning derazasi yonida hech qanday sharpa bo'lmasdi.

Ertalab tong otdi, soat o'n birlarga yaqin sudya Techerning uyida quvnoq va sho'x bolalar yig'ilisha boshladilar. Yo'nga tayyorgarlik ishlari tamom bo'lib, hammasi safarga shaylanib turar edilar.

Kattalar, bolalar uyalib-tortinib yurmasinlar, deb uylarda qoladigan bo'ldilar. Bolalar o'zları bilan birga borayotgan uch-to'rtta o'n sakkiz yoshlardagi bo'yı yetgan qizlar va yigirma yashar yigitlar qo'l ostida yursalar, tamom xavfsiz borib keladilar, deb o'ylanilgan edi. Daryoning narigi tomoniga olib o'tib qo'yish uchun bir katta eski, bug' bilan yuradigan kemani yolladilar-da, ko'p o'tmay bir to'da bolalar qo'llariga savatlar va boshqa oziq-ovqatlarni ko'tarishtib, shovqin-to'polonlar bilan ko'cha bo'ylab yurib ketdilar. Sid kasal bo'lib qolgani uchun, uyda qolishga majbur bo'ldi. U, uyda yolg'iz o'zi diqqat bo'lib qolmasin deb Meri ham uning yonida qoldi. Missis Techer bolalar bilan xayrlashar ekan Bekkiga qarab:

– Sen juda kech qaytarsan. Daryo bo'yiga ya-qinroq yerda turuvchi birorta o'rtog'ingning uyida yotib qolganing ma'qul, – dedi.

– Oyijon, unday bo'lsa men Syuzi Garperlarning uyida yotib qolaman.

– Yaxshi, qizim aqli bo'l, o'zingni yaxshi tut!

Ular tashqariga chiqqanlaridan keyin, Tom Bekkiga qarab:

– Menga qara, Bekki! Bilasanmi, biz qanday qilamiz? Garperlarning uyiga borib yurgandan ko'ra, tog' ustiga chiqib Duglas beva xotinning uyida yotib qolamiz. Unda morojniy yeymiz. Uning uyida har doim juda ko'p morojniysi bo'ladi, borganimizga o'zi ham sevinadi va biz uchun ham juda ko'ngilli bo'ladi!

Bekki biroz o'ylanib turdi-da, keyin:

- Oyim nima der ekan? - dedi.
- Oying qayoqdan bilar edi?

Qiz yana biroz o'ylanib turdi-da, keyin qat'iy bir qarorga kelmay turib:

- Bunday qilishimiz aslida yaxshi emas-ku, biroq...

- Xo'sh, nima «biroq»? Bo'limgan so'zlarni qilsan-da. Oying buni bilmaydi ham, bilganda ham nima? Bunda bir yomon ish yo'q-kul! U sening xavotirsiz, tinch yerda ekaningni bilsa bas. Agar oyingning esiga tushib qolganda, u o'zi ham o'sha yerga boraqol deb aytar edi. To'g'ri aytayapman senga!

Beva xotin Duglasning mehmon kutish yo'lida qozongan shuhrati hammaga ayon edi. Morojniyning lazzati va Tomning ishontirishlari qizning fikridagi ikkilanishni yengib chiqdi. Bu ishni ular hech kimga bildirmaydigan bo'ldilar.

Shu vaqt Tomning xayoliga: «Bordi-yu Gek xuddi shu kecha chaqirib qolsa-chi!» - degan fikr kelib qolib, bu fikr uning shodliklariga soya soldi. Lekin shunday bo'lsa ham u Duglas bevanikiga borib, uning morojnisini yeb, lazzatlanish fikridan qaytmadi. «Nega endi men o'zimni-o'zim shunday lazzatli narsadan mahrum qilayin? O'tgan kecha hech qanday chaqiriq nishonasi bo'lmasdi-ku, bugun ham bo'lmas!» - der edi u o'zicha.

Bu kechani shodlik va lazzat bilan o'tkazish yo'lida oldiga kelib, tayyor bo'lib turgan payt, mol-dunyoga bo'lgan umidini yengib chiqdi. Har qanday bola uchun ham odat bo'lganidek, u ham o'z istagiga berilib, pul bilan to'la sandiq to'g'risidagi hamma fikrini ertangi kungacha yig'ishtirib qo'ymoqchi bo'ldi.

Shaharchadan uch mil nari yurib borganlaridan keyin, ular tushgan kema daryo oqimi pastidagi bir keng chakalakzor yerga borib to'xtadi. Bolalar

qirg'oqqa irg'ib-irg'ib tushib oldilar-da, ko'p o'tmay butun tog' va o'rmon ichlari bolalarning tovushlari va kulgilari bilan to'lib ketdi. Bolalar qizishib o'z-o'zlarini charchatdilar-da, nihoyat qorinlari ochib, lagerga qaytib keldilar. Keyin hammalari bir yerga o'tirib olib, o'zlarini olib kelgan har xil shirin ovqatlarni yemoqqa kirishdilar. Ovqat tamom bo'lgandan keyin hammalari daraxt ko'lankalarida o'tirib olib, dam olib, o'zaro har bir masalada suhabatlasha boshladilar. Birozdan keyin bolalardan biri:

– Kim g'orga kirishni istaydi! – deb baqirdi. Bolalarning hammalari ham kirmoqchi bo'ldilar. Bir necha boylam sham topib olib, toqqa qarab tirmasha boshladilar. G'orning og'zi bir balandlik tepe ustida bo'lib, uning shakli «A» harfiga o'xshar. Uning dub taxtasidan qilingan og'ir eshigi qulf-lanmagan edi.

Ichkari tomonda bir kemtik yeri bo'lib, uning ichi go'yo muzxonaga o'xhash sovuq edi. Atrofiga qattiq tabiiy ohak toshlari terilgan va ohak toshlari orasidan shudring kabi nam chiqib turar edi. Bu g'or ichida qandaydir bir sirli narsa bor, bu zimiston qorong'ilik ichidan quyosh nurlari bilan qoplangan dalalarga qarab turish, kishini juda sirli xayollarga cho'mdirar edi. Biroq, ko'p o'tmay bunday taassuratlar tarqab bolalar yana qaytadan g'uvurlasha boshladilar. Ulardan birovi sham yoqdi deguncha boshqa bolalar hammasi uning tepasiga yopirilar, sham ushlagan bola ulardan o'zini qutqarmoqchi bo'lar, shu ravishda kurash boshlanar, keyin bolalardan birontasi uning qo'lidan shamni yo o'chirar, yoki qoqib tushirib yuborar edi-da, qorong'ilik ichida bolalar shodlanib qah-qah urishib kulishar va yana g'ovur-g'uvur boshlanar edi. Biroq har narsaning cheki boladi. Bolalar sekin-asta tinchlandilar-da, katta yo'lak bilan birin-ketin tusha boshladilar. Miltillagan chiroqlarning xiragina shu'lasida tepasi

oltmish fut chamasi balandlikda bir-biriga qo'shilishib ketgan tosh devorlar ko'rinib turar edi. G'or ichiga kirladigan bu bosh yo'lning kengligi sakson futdan ortiq kelmas edi. Har bir qadam sayin uning ikki tomonidan yana boshqa torroq yo'llar kelib qo'shilib turar, chunki Mak-Dugal g'ori deb atlalidigan bu g'or har tomonga tarmoqlanib ketgan va yana qaytadan qo'shiladigan, lekin chiqib ketadigan yo'li yo'q, qing'ir-qiyshiq, ilon izi kabi bo'lib ketgan, kishini adashtiradigan juda ko'p tor yo'lchalardan iborat edi. Kishilarning aytishlaricha, bu son-sanoqsiz kovaklar va tor yer osti yo'llari ichida kecha-kunduz yurib g'or ichidan chiqib ketishga yo'l topolmay yuraverish mumkin ekan. Chunki u yo'llar borgan sari pastga tushib borar va har bir joyda ustma-ust, kishi adashadigan poyonsiz yo'llar joylashgan; bu g'orning ichki yo'llarini yaxshi bilaman, deb biror kishi ham maqtana olmas va uni bilib olish mumkin ham emas edi. Odat bo'yicha yoshlар uning kichikroq bir qismi bilangina tanishib chiqar edilar-da, o'zlariga tanish bo'lgan shu yerdan nariga o'tmas edilar. G'orni boshqalar qanday bilsalar, Tom Soyer ham shunchalik bilar edi.

Bolalar to'dalashib bosh yo'lak bo'ylab chorakam bir milga yaqin yo'l yurdilar, keyin to'da-to'da va juft-juft bo'lib bo'lindilar-da, ikki tomondagи tor yo'laklarga kirib keta boshladilar. Shu tor yo'laklar ichida aylanib yurib, yo'laklarning qo'shilishgan yerlarida bular ham bir-birlariga duch kelishib qolar edilarda, yana ajralishib ketar edilar. Bunda g'orning hammaga «ma'lum» qismidan nariga chiqmay turib ham yarim soatlab bir-birlarini ko'rolmay yurish mumkin edi.

Bolalar sekin-asta to'da-to'da bo'lishib, hansirashib, charchagan va shodlangan holda boshlaridan oyoqlarigacha mo'm tomchilari bilan qoplanib va

ust-boshlari tuproq bo'lib, sayohatlarining muvafqaqiyatlari bo'lganidan quvonishib, birin-ketin g'ordan chiqib ketar edilar. Tashqarida kun endi kech bo'lib qolganini ko'rgan bolalar, vaqtning qanday tez o'tib ketganiga hayron qolar edilar. Kemadagilar orqaga qaytishga tayyorlanib, bularni yarim soatdan beri qo'ng'iroq chalib chaqirib yotar edilar. Kema bu quvnoq bolalarni olib, daryo qirg'og'idan jo'nab yo'lga tushar ekan, kema kapitanidan boshqa hech kim yo'qotgan vaqtłari uchun zarracha achinmas edi.

Kemaning chiroqlari pristan yonidan ko'rinish o'tib borayotganda Gek allaqachon o'zining poyloqchiliga chiqib turgan edi. Kemadan tovush eshitilmadi, bolalarning hammasi charchaganliklaridan jim bo'lishib, so'zlashmasdan ketib borar edilar. Gek bu kema kimniki ekan va nima uchun pristanda to'xtamay o'tib ketdi, deb biroz hayron bo'lib turdi-da, keyin uni esidan chiqarib yuborib, butun diqqatini o'z vazifasiga qaratdi. Soat o'nga borib zang urdi, ko'chada shaldirab o'tayotgan arava tovushlari ham bosildi: har yer-har yerda tarqoq holda ko'ringan chiroqlar ham bora-bora ko'zdan g'oyib bo'ldi. Shaharcha ham mudrab, kichkina soqchimizning yolg'iz o'zi qoldi. Soat o'n birda qovoqxonaning ham chirog'i o'chdi. Endi butun atrof qorong'ilik qo'yninga kirdi. Gek o'z nazarida juda ham uzoq vaqtlar kutib turgandek bo'ldi, lekin hech qanday hodisa yuz bermadi. Uning ishga bo'lgan ishonchi susaya boshlagan edi. Bu ishlar o'zi nimaga kerak? Poylab o'tirishga arziydimi? Bochka ichiga kirib olib u xlabel berish yaxshi emasmi?

Uning qulog'iga qo'qqisidan yengilgina sharpa eshitildi. U o'zini hushyor tutib, diqqat bilan tinglay boshladи. Eshik sekingina yopildi. Gek g'ishtin devorli saroy oldiga yugurib o'tib oldi. Oradan biror daqiqa o'tar-o'tmas, uning oldidan ikki kishi o'tdi.

Ulardan birining qoʻltigʻida bir narsa borga oʼxshab koʼrindi, oʼsha sandiqcha boʼlsa kerak. Bular endi oʼsha boylikni olib ketayotgan ekanlar-da! Endi nima qilish kerak. Tomni chaqiraymi? Men Tomni chaqirib kelgunimcha bular sandiqchani olib ketib qoladilar, keyin qayerdan axtarib topib boʼladi? Yoʼq, u shularning orqasidan poyleydi. Gek oʼzicha shunday mulohazalarga borib, joyidan sekin-asta chiqdi-da, sichqonni poylagan mushukdek hali-gilarning orqalaridan bitta-bitta yurib ketdi. U oyoq yalang holda ulardan biroz uzoqroq, lekin ularning qorasini yoʼqotmay yurib borar edi.

Ular daryo yoqalab borib, keyin chap tomonidagi bir koʼndalang koʼchaga burildilar-da, tepalikka chiqib ketadigan soʼqmoq yoʼlga yetguncha toʼppatoʼgʼri yurib bordilar. Ular oʼylanib turmasdan, tepe yon-bagʼridagi uyni ham bosib oʼtib, yarim yoʼlda yuqoriga qarab chiqishda davom etdilar. «Ha, ha!» – deb oʼyladi Gek oʼzicha, «bular pullarni eski tosh qaziydigan yerga koʼmmoqchi ekanlar-da». Biroq ular tosh qaziydigan yerning oldida ham toʼxtamadilar, undan nariga yuqorilab yurib borar edilar, keyin yana bir torgina egri-bugri yoʼlga tushib olib, biroz yurganlardan keyin tor, quyuq chakalakzorlar orasiga kirib koʼzdan yoʼqoldilar. Gek qadamlarini ildamroq tashladi, chunki ular buni koʼrmas edilar. U baʼzan yugurib chopib ketar edi-da, keyin sekinroq yurar edi. Yana bir necha qadam yurgandan keyin butunlay toʼxtab quloq sola boshladi. Hech bir tovush chiqmadi. Gek faqat oʼz yuraginining urganinigina eshitar edi. Tepaning ustidan bir boyoʼgʼlining mashʼum tovushi keldi. Biroq ularning oyoq tovushlari eshitilmas edi. Nahotki mehnatlarim bekor ketgan boʼlsa? Gek endigina qaytib ketmoqchi boʼlib turgan edi, birdan oʼzidan ikki qadam chamasi yerda birov

yo'taldi. Gekning nazarida, joni go'yo halqumiga irg'ib chiqqandek bo'ldi. Biroq u o'zini bosib olib, o'rnidan qo'zg'almay turaverdi. Hozir u o'ziga go'yo birdaniga isitma bezgak kelib yopishgandek, butun tanasi bilan qaltirar edi va shunday bo'shashib ketdiki, o'zini hozir xuddi yiqilib tushadigandek sezar edi. U hozir turgan yerini tanib oldi; hozir u beva xotin Duglasning hovlisi atrofidagi devordan besh qadam narida turar edi.

«Yaxshi, – dedi u, – shu yerga ko'mib qo'yaversinlar, harholda qidirib yurishga to'g'ri kelmaydi».

Keyin hindi Joning tovushi eshitildi:

– Arvoj urgurning mehmoni bor shekilli, uyida shu vaqtgacha chiroq yonib turibdi, – dedi.

– Qayerda chiroq ko'rding? Menga ko'rinnmaydi-ku!

Ikkinchchi tovush – hindning o'rtog'iniki edi. Bolalar uni sihrli uy yonida ko'rgan edilar. Geklberri Finning butun tanasini qaltiroq bosib ketdi. Bularning o'ch olmoqchi bo'lgan kishilari shu ekan-da! Uning birinchi rejasi shu ondayoq qochib ketish edi, keyin u beva xotin Duglasning unga ko'p yaxshiliklar qilgani esiga tushdi. Bu kishilar balki uni o'dirish maqsadidirlar? U beva xotining oldiga borib, uni bu to'g'rida ogohlantirib qo'yolmasligi uchun achinar, o'zining bu ishga botinolmaslidan jahli chiqardi. Hindi o'rtog'iga javob berib ulgurmaguncha Gekning xayolidan mana shular va boshqa ko'p narsalar o'tib ketdi, keyin hindi o'rtog'ining so'ziga javob berib:

– Senga butazorlar yorug'ni pana qilayotgandir, beriroqqa kel, mana bu yerga, ha, ana endi ko'rdingmi?

– Ha, endi ko'rdim. Uyida mehmonlari borga o'xshaydi: shu ishni qo'yaqolsak bo'lmaydimi?

– Men bu yerkardan butunlay ketmoqchi bo'lib turibman. Bundan keyin shunday qulay fursat

to‘g‘ri keladimi, yo‘qmi, bu ishni qoldirib bo‘ladimi? Men senga avval aytganimdek, yana takrorlayman: menga uning puli kerak emas, agar kerak bo‘lsa, pulni sen olaqol. Lekin uning eri meni juda ko‘p xafa qilgan, u xalq sudyasi bo‘lib turib, meni bir necha marta qamoqxonaga qamagan. Baxti bor ekan, u mening qo‘limga tushmay o‘lib ketdi, biroq men endi alamini uning xotinidan olaman.

– O‘ldirish deysanmi? Men senga uni o‘ldiraman dedimmi? Agar u bo‘lganda edi, men uning o‘zini o‘ldirar edim, lekin uning xotinini o‘ldirmayman. Xotin kishidan o‘ch olmoqchi bo‘lgan kishi uni o‘ldirmaydi. O‘ldirish nimaga kerak? Uning basharasini buzib, burnini majaqlab, cho‘chqani-kidek qulqlarini kesib qo‘ysang bo‘lgani...

– Azbaroyi xudo, bu ishing...

– Sen ko‘p menga aql o‘rgataverma, joningdan umiding bo‘lsa tinch o‘tiraver! Men uni karavotga bog‘lab qo‘yaman, agar u shunda qonsirab o‘lsa, bu mening aybim bo‘ladimi? Agar u o‘lib qolsa, mening parvoyimga ham kelmaydi. Sen bo‘lsang, menga yordam berasan, bu yerga kelishingning sababi ham shu. Men yolg‘iz udda qilolmay qolarman. Agar qo‘rkoqlik qilsang, avval boshlab seni bирyoqlik qilaman, bildingmi? Agar men seni o‘ldiradigan bo‘sam, u vaqtda u xotinni ham o‘ldiraman, shunday qilsam, keyin bu ishning kim qilganini hech kim bilolmaydi.

– Sen shuni xohlasang men nima ham der edim, qilsak qilamiz-da, qancha tez bo‘lsa shuncha yaxshi. Badanlarimni titroq bosib ketdi.

– Nima deysan? Hozir qilamiz deysanmi? Mehmonlar-chi? Yo‘q, biz chiroq o‘chguncha kutib turamiz, shoshilish kerak emas.

Gek endi bu qonxo‘rlarning o‘zaro suhbatlari dan nafasini ichiga yutib, bir qadam orqaga tisa-

rildi. Buning uchun bir oyog'ini yerga qo'yib turib, ikkinchi oyog'i bilan oldin o'sha oyoq qo'yadigan yerni paypaslab-mo'ljallab oldi. Shunday ehtiyyotlik bilan orqasiga qarab ikkinchi, uchinchi qadamni qo'ydi. Keyin yana va yana qo'ya boshlagan edi, birdan uning oyog'i ostida bir shoxcha qirsillab ketdi. Gekning nafasi ichiga tushib ketgan edi. Hech tovush yo'q, jimjitlik. U sevingandan nihollar orasidagi tor yo'ldan orqasiga burildi-da, tovush chiqarmay oyoqlarini ehtiyyotlik bilan qo'yib tez-tez yurib ketdi. Tosh qaziydigan yerga yetib olgandan keyin, endi qo'rquv yo'qligiga ishonib, kuchining boricha chopib ketdi. Tepalikdan pastga qarab yeldek uchib borardi. Yo'ldagi fermer cholning uyiga yetib olib, uning eshagini mushti bilan ura boshladi. Chol bilan uning ikkita azamat o'g'llari derazadan boshlarini chiqarib:

– Nima shovqin? Kim u, taqillatgan? Nima kerak senga? – deb baqirdilar.

– Meni tezroq ichkariga kirgizinglar, men hammasini aytib beraman.

– O'zing kimsan?

– Geklberri Finnman, tezroq kirgizinglar.

– Geklberri Finn emish, uning so'zini qaranglar.

Geklberri Finn bo'lsa, uning oldida hamma eshiklar ochila berishi shart emas. Shunday bo'lsa ham bolalar, sizlar eshikni ochib uni ichkariga olinglar, qani ko'raylik, unga nima bo'lgan.

– Xudo xayr bersin, mening aytajak so'zlarimni hech kimga so'zlamanglar, bo'lmasa mening holim xarob bo'ladi. Lekin beva xotin menga har doim yaxshilik qilar edi, shuning uchun men sizlarga so'zlab berayin. Shu so'zlarni meni aytdi, deb aytmaslikka so'z bersalaringiz, men sizlarga aytib beraman...

– Bolalar, buning so'zları bejiz emas, bir narsani biladiganga o'xshaydi, – dedi chol. – Qani, bolam, so'zlayver, biz hech kimga og'zimizdan chiqarmaymiz.

Oradan uch daqiqa vaqt o'tishi bilan chol va uning o'g'illari yaxshi qurollanganlari holda tepalikning ustiga chiqib va to'pponchalarini o'qtalib, chakalakzor orasidagi yo'ldan bitta-bitta yurib borar edilar. Gek ularni o'sha tor yo'lakka olib borib qo'ydi-da, o'zi bormadi. O'zi bir katta toshning orqasiga o'tib olib, kuta boshladi. Uzoq va entiktiruvchi jimlik hukm surdi. Keyin birdan ustma-ust o'q ovozlari va kishilarning shovqinlari eshitildi. Gek buning davomini kutib turmadidi. O'rnidan irg'ib turib va tepalikdan pastga qarab, oyoqlari yerga goh tegib, goh tegmay bor kuchi bilan chopib ketdi.

### O'TTIZINCHI BOB

#### **TOM BILAN BEKKI G'ORDA**

Yakshanba kuni ertalab, tong yoriy boshlashi bilanoq, Gek kelib fermer cholning eshigini taqil-latdi. Uydagilarning hammasi hali uxlab yotishgan bo'salar ham, kechasi tortgan tashvishlari tufayli tiq etgan tovushga ham uyg'onadigan darajada hushyor yotar edilar. Derazadan qarab:

– Kim? – deb baqirdilar.

Gek qo'rqqan tovush bilan:

– Xudo xayr bersin, meni ichkariga kirgizinglar, men Gek Finnman, – deb javob berdi.

– Bu ism oldida bizning eshigimiz har doim – kechasi bo'sin, kunduzi bo'sin, ochiq turadi. Marhamat qilsinlar! – dedi.

Hamma vaqt har qayerda daydib yuruvchi bolaga bu so'zlar juda ajoyib ohangda eshitildi. Bunday yoqimli so'zlarni u umrida hech eshitmagan, hatto qachon bo'lsa ham biror kishining unga «marhamat qilsinlar!» deb aytganini eslayolmasdi.

Tezda eshik ochilib, Gek ichkariga kirdi. Unga joy ko'rsatdilar. Chol bilan uning ikki o'g'li bo'lsa shoshilinch ravishda kiyinishda davom etardilar.

– Xo'sh, bolam, sen juda och qolganga o'xshaysan, ammo bizning nonushtamiz birozdan keyin, quyosh chiqishi bilan tayyor bo'ladi, bundan xotirjam bo'l. Bolalarim bilan men bo'lsam, sen qaytib kelib, shu yerda yotib qolarsan deb o'ylagan edik.

– Men juda qo'rqib ketdim, – deb so'zlay boshladi Gek. – Sizlar o'q ota boshlaganlaringizdan keyin men kuchim boricha chopdim, uch mil yergacha orqamga qaramay qochdim. Endi men sizlardan shu ishlarning qanday bo'lganini bilish uchun, atayin yana shu la'natilarning garchi o'ligiga bo'lsa ham duch kelib qolmayin, deb juda erta keldim.

– Shunday bolam, bildim. Sening basharangdan butunlay uxlamaganing bilinib turibdi. Lekin buning zarari yo'q. Ana, o'rin tayyor, ovqatni yeganidan keyin yotib uxbayverasan. Kechagi hodisaning natijasi bo'lsa, uncha yaxshi emas, bolam, ular o'lganlari yo'q, bizga shunisi alam qilib turibdi. Bilasanmi, ish mana shunday bo'ldi: sening tu-shuntirishing bo'yicha biz ularning qayerda ekanliklarini bilib olgan edik. Bizlar ohistalik bilan bitta-bitta qadam qo'yib, ular turgan yerga juda yaqin bordik. O'sha yolg'iz so'qmoq yo'l, butalarning orasi yerto'ladek qorong'i emasmi? Biz borib to'xtadik, aftidan, ular bilan bizning oramizda ko'p bo'lsa besh qadamcha bo'lsa kerak. Birdan aksirib yuborsam bo'ladimi? Juda ham noqulay ish bo'ldida! O'zimni bir iloj qilib to'xtataman, desam ham bo'lmadi, aksirganim-aksirgan, to'pponchamni o'qtalib hammadan oldinda borar edim. Aksirib yuborishim bilanoq o'g'rilar o'rinalidan turib, qocha boshladilar. Men bolalarimga «otinglar,

bolalar!» – deb baqirdim-da, o'zim ham o'q uzdim, bolalarim ham otdilar. Lekin uchovimizning ham o'qimiz tegmay o'tib ketgan bo'lsa kerak. O'g'rilar qochib ketdilar. Ular o'rmon oralab qochdilar, biz orqalaridan quva boshladik. Keyin ular to'xtab, bizga qarab o'q otdilar, lekin ularning o'qlari bizga zarar yetkazmay, yonimizdan vizillab o'tib ketdi. Keyin ularning oyoq tovushlari ham eshitilmay qoldi. Biz ham ularni quvishdan to'xtab, tepalikdan pastga tushib politsiyalarni ishga soldik. Ular bir necha kishini yuborib suv bo'yini poylatib qo'ydilar; ertalab tong otgandan keyin sherif o'rmonchini tintishga buyurdi. Shunda mening bolalarim ham birga bordilar. Sen bizga ularning qay tusda ekanliklarini tasvirlab bersang yaxshi bo'lar edi. Bu bizga ancha yordam berardi. Ammo sen qorong'ida ularning tuslarini ham aniqlab ololmagandirsan?

– Yo'q, men ularni oldin shaharda ko'rib, keyin orqalaridan tushgan edim.

– Juda yaxshi! Qani, aytib ber bo'lmasa, ularning tuslari qanday?

– Ulardan biri so'nggi vaqtarda shaharni oralab yuruvchi jingalak ispaniyalik chol, ikkinchisi bo'lsa ust-boshlari uvada, chirkin ko'rinishli bir kishi...

– Bo'ldi, bo'ldi, azizim, shu aytganlaringning o'zi kifoya... Biz ularning kimlar ekanini bilamiz. Biz kecha ularni o'rmonda ko'rgan edik, ular beva xotinning uyi oldida tentirab yurar edilar, bizni ko'rishlari bilan qochib ketdilar. Qani, bolalar, endi tezroq sherifning oldiga boringlar, ovqatni bo'lsa keyin yersizlar.

Cholning bolalari o'sha ondayoq chiqib ketdilar. Ular eshikning oldiga qarab jo'naganlarida Gek ularning orqalaridan yugurib borib:

– Xudo xayr bersin, bularni sizlarga xabar beruvchi men ekanimni ularga bildirmanglar. Xudo xayr bersin. Sizlardan o'tinchim shu! – dedi.

– Durust, agar sen buni istamas ekansan, biz bu gapni ularga bildirmaymiz, ammo sen hech qanday yomon ish qilganing yo‘q-ku.

– Yo‘q, yo‘q, Xudo xayr bersin, sira ayta ko‘rmanglar.

Bolalari chiqib ketganlaridan keyin chol Gekka qarab:

– Ular aytmaydilar, men ham aytmayman. Lekin nima uchun buning oshkora bo‘lishini istamaysan?

Gek: «Agar buni aytib berganimni bilsalar, ular meni albatta o‘ldiradilar», dedi.

Chol bu sirni hech kimga bildirmaslikka yana bir marta va‘da berib, Gekdan yana:

– Bolam deyman, ularning orqasidan poylab yurish sening xayolingga qayoqdan keldi? Nima bo‘ldi, ular senga juda shubhali bo‘lib ko‘rindilarmi? – deb so‘radi.

Gek o‘z sirini sezdirib qo‘ymaslik yo‘lida turli bahonalar qidirib, ancha vaqt indamay turgandan keyin:

– Bilasizmi, mening turmushim juda yomon, o‘sim ham juda xarob bo‘lib qolgan bir bolaman. Harholda mana shunday ahvollarim hammasi bunga qarshilik qilmasligi uchun dalil bo‘la oladi. Ana shuning uchun men ba‘zida kechalari uxlamay, qanday qilib bo‘lsa ham boshqacha turmush kechirsam ekan deb, o‘ylab yotaman. O‘tgan kecha ham xuddi shunday bo‘ldi. Uyqim kelmadni. Butunlay bu haqda o‘ylab, yarim kechagacha ko‘chada aylanib yurdim, qovoqxona yonidagi eski g‘ishtin saroy oldidan o‘tib borar edim, devor yonda o‘ylanib turib qoldim. Birdan ikki kishi chiqib o‘tib qoldi, bittasining qo‘ltig‘ida bir narsa bordek ko‘rindi. Men buni, albatta biror yerdan o‘g‘irlab olib ketayotgandirlar, deb o‘yladim. Ulardan biri papiros chekib borar edi. Ikkinchisi ham mendan ikki qadam yerda to‘xtab papiros chekdi, papi-

rosdan chiqqan yorug'lik tufayli men ulardan biri o'sha novcha, ispaniyalik kishi ekanligini bildim, – men uni faqat chekkalariga qo'yilgan oq soqollaridan tanidim. Ikkinchisi esa o'sha usti-boshi uvada, iflos kishi edi.

– Shu papirosning yorug'ida sen uning uvadalarigacha ko'rib oldingmi?

Gek bir nafas uyalib, indamay turdi.

– Qanday bo'lganini bilmadim, harholda shuni anglab olgan bo'ssam kerak.

– Xo'sh, shunday qilib ular ketdilar, sen nima qilding?

– Men ularning orqalaridan ketdim. Hammasi shunday bo'lib ehiqdi. Men ularning nima ish qilib yurganlarini bilmoqchi bo'ldim. Ular borgan sari yuqoriga chiqib borar edilar, men ham ular beva xotinning devori yoniga yetib borgunlaricha orqalaridan chiqib bordim. Keyin o'sha yerda, qorong'ilikda qulq solib tura boshladim. Usti-boshi uvada kishi beva xotinni yoqlar edi. Ispaniyalik esa uni burdalab tashlayman, deb qasam ichar edi. Buyog'ini men sizlarga aytib bergen edim...

– Nechuk! Shularning hammasini o'sha jingalak so'zladimi?

Gek har narsa qilib bo'lsa-da, ispaniyalikning kim ekanini chol xayoliga ham keltirmasligi uchun harakat qilar. U bir necha marta o'zini o'nglab olishga urinsa ham, chol undan ko'zini olmay turar va u damba-dam so'zida yanglishar edi. Nihoyat, chol:

– Bolam, mendan qo'rqlayver. Men hech vaqt seni tutib berib, sharmanda qilmoqchi emasman. Aksincha, men seni himoya qilmoqchiman. Bu ispaniyalik emas, sen bilmay so'zlab qo'yding-da, endi so'zingni qaytib ololmay turibsan. Sen shu ispaniyalik to'g'risida biror narsa bilsang ham, aytmay turibsan, shundaymi? Kel, endi menga ishonaqol,

hammasini aytib ber, men hech kimga og'zimdan chiqarmayman.

Gek cholning adl ko'zlariga tikilib turdi-da, keyin engashib, uning qulog'iga shivirlab:

– U – ispaniyalik emas, u kishi – hindi Jo! – dedi.

Chol o'tirgan kursisidan ag'darilib tushayozdi.

– Bo'ldi, endi hamma gap ma'lum bo'ldi, endi tu-shundim, – dedi u. – Sen qulqolarini va burunlarini kesish to'g'risida so'zlaganingda, bu gaplarni o'zing to'qigandirsan deb o'yLAGAN edim. Lekin hindi Jo bo'lsa, albatta, tamom boshqa gap.

Nonushta ustida ularning suhbatlari davom etdi. Shu bilan birga chol o'shalarning orqasidan chiqib ketayotgan vaqtida fonus yoqib, devorning ustini va qo'shnining yerlarini qon izi yo'qmi ekan, deb qarab chiqqanini so'zladi. Qon izlari yo'q edi, ular bir katta tugun topib oldilar...

– ICHIDA NIMASI BOR EKAN?

Bu so'zlar bolaning oqarib ketgan lablaridan o'qdek otilib chiqqan edi. U o'zini yo'qotib qo'yib, ko'zlarini javdiratgan holda zo'rg'a nafas olar va javob kutib, cholning og'ziga tikilib qarab turar edi. Chol ham o'z navbati bilan javob berishdan oldin uch, besh, o'n soniya chamasi unga tikilib qarab turdi-da, keyin:

– Tugun ichida o'g'rilarning asboblari bor edi. Lekin senga nima bo'ldi?

Gek shu so'zlardan ancha yengil tortib, o'zini kursining orqa suyanchig'iga tashlab, yengil nafas ola boshladi. Chol unga jiddiy ravishda va qiziqib qarab turar edi.

– Ana shunday, bir boylam o'g'rilar asbobi ekan. Bu gap, aftidan, seni ancha tinchlantiradiganga o'xshaydi. Lekin sen nima uchun bunday qo'rqib ketding? Ularning topib olgan narsalarini nima deb o'yLAGAN eding?

Gek nima deb javob berishini bilmay, juda xijolatda qoldi. Bola shu vaqt birorta o'rinli javob topish uchun, bor-yo'g'ini berishga rozi, lekin uning o'yiga hech narsa kelmas edi. Cholning sinovchan o'tkir ko'zlar bo'lsa, borgan sari uning yuragiga kirib borayotgandek sezilar edi. Eng bo'limg'ur bir javob to'g'ri kelib qoldi, lekin uni o'ylab o'tirishga vaqt bo'limganidan, Gek o'ylab turmay:

– Men sizni... yakshanba kungi mактабда о'qiladigan kitoblarni topib olgandirsiz, deb o'ylagan edim, – dedi.

Bola bechora juda xafa bo'lganidan, yuzida jilmayish alomati ham sezilmadi, chol bo'lsa shodlik bilan qattiq xoxolab kulib yuborganidan, uning butun og'ir gavdasi tebrandi. Nihoyat, to'yguncha kulib bo'lganidan keyin, «bunday kulgi, kishiga ancha iqtisodiy jihatdan foydali bo'lib, kishini doktor va dorivorlarga bo'ladigan chiqimlardan qutqazadi», – dedi.

– Bola bechora-ey! – der edi u, – sen juda charchab qolgansan, ranglaring oqarib ketgan, anchagina tobing yo'q bo'lsa kerak. So'zingdan biroz yanglishayotganining sababi ham shu. Ha, bular hech gap emas, yaxshi bo'lib qolasan. Uxlab dam olsang, hushyor bo'lib qolasan.

Gek o'zining ahmoqligi va o'zini-o'zi tuta bilmaganligi uchun o'kinar edi, – axir u yovuz-o'g'ri odamlarning gaplaridan, o'sha joyda, ya'ni tepalikdagagi so'qmoq yo'l oldida ular beva xotinni uchratganliklarini va qovoqxonadan keltirgan tugunlarida hech qanday xazina bo'limganligini fahmlagan edi-ku! Ammo u faqat bir gumon bo'lib, buni Gek tushunmay o'sha sandiqchadir, deb o'ylab, hovliqib ketgan edi.

Harholda u endi tugundagi narsaning nima ekanni bilib, juda tinchlandi. Aftidan, hamma ish ham joyida edi. Sandiqchalar hozirgacha ham ikkinchi nomerda bo'lsa kerak, o'g'rilar ning bo'lsa, bugun

ikkovlarini ham ushlab oladilar, shu bugun kechasi bo'lsa u bilan Tom birga borishib, bemalol va qo'r-qishmasdan sandiqchani ko'tarib kelaveradilar.

Ular endigina nonushta qilib bo'lgan edilar, eshikni birov qoqdi. Gek tezlikda biror yerga yashirinmoqchi bo'ldi, chunki kechasi yuz bergen voqeaga qanday bo'lsa-da aloqasi borligidan biror kishining ham gumonsiramasligini xohlar edi. Chol eshikni ochganidan keyin, uyga beva Duglas bilan bir necha yosh erkak va xotinlar kirib keldilar. Beva Duglasning hovlisiga qarash uchun bir to'da bolalar tepalikka tirmashayotganliklarini ko'rdilar. Bu voqeа hammaga oshkor bo'lgan edi.

Chol kelgan kishilarga kechasi yuz bergen voqeani so'zlab berdi. Beva xotin o'zining o'lindan qu tulib qolgani uchun unga minnatdorlik bildirar edi.

– Xonim, bu to'g'rida menga biror so'z ham ayt mang! Boshqa bir kishi bor, mendan ham, mening o'g'llarimdan ham, hammamizdan ham o'shang ko'proq minnatdorchilik izhor qilgaysiz. Biroq u menga o'zini bildirishimga ijozat bermadi. Agarda o'sha bo'lmanida, siznikiga borish bizning xayolimizda ham yo'q edi.

Albatta, o'z-o'zidan ma'lum, uning bu so'zları kampirni shunday qiziqtirdiki, uning so'zlaridagi eng asosiy voqealar ham orqaga surilib qoldi va ko'p o'tmay bu gapni bilish yo'lidagi qiziqish butun shaharga yoyildi. Lekin o'z mehmonlarining sabrsizliklariga cholning rahmi kelmadи va bu sirni oshkora qilmadi. Bundan boshqa xabarlarning hammasini bilib olgandan keyin, beva xotin:

– Men karavotda kitob o'qib yotib, uqlab qolib man va butun kecha bemalol, juda tinch uyquda yotgan ekanman. Nima sababdan kirib meni uyg'otmadingiz?

– Buni sizga aytib yurmaylik, dedim. Bu la'natilar endi yo qaytib kelar, yo kelmas, deb o'yladim. Ular o'zlarining butun asboblarini eslaridan chiqarib qoldirib ketganlar, bir narsa qilmoqchi bo'lganlarida ham asbobsiz hech ish qilolmas edilar. Shunday bo'lgandan keyin sizni uyg'otish nimaga kerak? Sizni qo'rqtish uchunmi? Bundan tashqari mening uchta negrim tunning butun qolgan qismini sizning uyingiz atrofini poylab o'tkazdilar, ular hozirgina qaytib keldilar.

Bu mehmonlar ketib, yana boshqa kishilar keldi. Shu zayilda chol uch soat davomida o'z hikoyasini qayta-qayta takrorlash bilan mashg'ul bo'ldi.

Shu kuni ertalab maktabda odatdagidek, yashanba kungi mashg'ulotlar bo'lmadi, lekin shunday bo'lsa ham bu voqeani yaxshilab so'zlashib olish uchun cherkovga yig'ilishdilar. O'g'rilarni topa olmaganlarini hamma bilib qolgan, xalq o'rtaсидаги so'zlar tamom bo'lganidan keyin Techerning xotini xalq o'rtaсидан oralab missis Garperning oldiga o'tib borib:

– Nima gap, qizim Bekki bugun kuni bo'yi uxdimi deyman? O'zim ham uni juda charchab qolar, deb o'ylagan edim.

– Sizning Bekkingizmi?

– Ha, mening qizim-da! – u ajablanib qaraydi.– Bugun siznikida yotib qolgani yo'qmi?

– Yo'q-a!

Missis Techerning rangi o'chib, cherkov kursisiga o'tirib qoldi. Xuddi shu vaqt Polli xola o'zining o'rtog'i bilan nimalar to'g'risidadir so'zlashib, o'tib borar edi.

– Esonmisiz, missis Techer! – dedi Polli xola – Salomatmisiz, missis Garper. Mening bolam tag'in yo'qolib qoldi-ya. Men Tomni sizlarning birortangiznikida yotib qolgan bo'lsa, mendan qo'rqqanidan

endi cherkovga bormay o'tirgandir, deb o'ylagan edim.

Missis Techer sekingina boshini chayqab qo'yida, rangi avvalgidan ham ortiqroq o'chib ketdi.

– U biznikida yotgani yo'q, – dedi missis Garper. Endi u ham tashvishlana boshladи.

Polli xolaning chehrasida ham tashvish alomatlari sezildi.

– Jo Garper, bugun ertalab bolam Tomni ko'rgan edingmi? – deb so'radi u.

– Yo'q, ko'rganim yo'q.

– Sen uni so'nggi daf'a qayerda ko'rgan eding.

Jo buni esiga tushirish uchun urinsa ham hech narsa deb javob bera olmadi. Cherkovdan chiqib kelayotganlar to'xtab, bularning so'zlariga qulq qola boshladilar. Xalq o'zaro shivirlashar, ularda tug'ilayotgan bezovtalik alomatlari basharalaridan sezilib turar edi. Bolalarga har tomondan har xil savollar tushar edi. Sayildan qaytib kelayotganlari-da kemada Tom bilan Bekkining bor-yo'qligini ular-dan hech kim bilmas ekan. Qorong'ida ularni hech kim ko'rmagan va bolalarning hammasi tugalmi, deb hech kim surishtirib ko'rmagan ham. Bolalardan biri chidab turolmasdan:

– Demak, ular g'orning ichida qolgandirlar! – dedi.

Missis Techer hushidan ketib yiqildi. Polli xola bo'lsa o'zining qo'llarini qayirib, faryod solib yig'lar edi.

Bu vahimali xabar og'izdan-og'izga, bir to'dadan ikkinchi to'daga, bir ko'chadan ikkinchi ko'chaga o'tib yura boshladи. Oradan besh daqiqa o'tgandan keyin butun qo'ng'iroqlarni jaranglatib, xalqni cha-qira boshladilar. O'g'rilar butunlay esdan chiqib ketdi. Otlarni egarlab qayiqlarni yecha boshladilar. Katta kemani olib kelish uchun kishilar yubordilar,

yarim soatdan keyin ikki yuzga yaqin kishi daryo va quruq yo'l bilan g'or tomonga qarab jo'nadilar.

Shahar ichi kun bo'yи o'lik bir tus oldi, – u tamoman huvillab qolgan edi. Missis Techer bilan Polli xolaning oldiga kun bo'yи qo'ni-qo'shnilar kirishib, ularni yupatmoqchi bo'lishar va ular bilan birlashtib yig'lashar edilar, bu esa har qanday yuvtuvchi so'zdan ham yaxshiroq bo'lib chiqar edi.

Shahar ichidagilar butun tun entikib, xabar kudilar, lekin ertalab tong yorishishi bilanoq g'ordan yurgan kishilarga ovqat va sham olib ketish uchun kishi keldi. Missis Techer bilan Polli xolaning tashvishlari son-sanoqsiz edi. Sudya Techer bularga ancha dadillik beradigan xat yuborsa ham, bu xatlar tinchlantirmas edi. Ertasi kuni, g'ira-shira tong paytida fermer chol butun ust-boshlari yog' va loyga bo'yalgan holda uyiga qaytib keldi. U, Gekni o'zları yotqizib ketgan o'rindan topdi. Bola isitmalab va dovdirab yotar edi. Doktorlarning hammasi xalq bilan birga g'orda yurganliklari uchun kasalga beva xotin Duglasning o'zi qaray boshladı. U xoh yaxshi bo'lsin, xoh yomon bo'lsin, qarovsiz qoldirib boladimi, uning uchun kuchim yetganicha harakat qilaman, der edi. Chol esa Gekni yaxshi bola dedi. Beva xotin buni ma'qulladi:

– Siz judayam to'g'ri aytasiz. Xudo tomonidan yaratilgan har bir maxluqqa tamg'a qo'yilgan. Xudo tomonidan yaratilgan har bir jon egasi uning ne'mati ga sazovor bo'lmasdan qolmaydi.

Kun tushga yaqinlashganda, yo'qolgan bolalarni izlashib ketgan kishilar ularni topishdan umidlarni uzib, nihoyat charchab, birin-ketin qaytib kelar edilar; ularning orasidagi ba'zi bir g'ayratliroqlari hamon qidirishda davom etardilar. Qaytib kelgallardan qoniqarli javob eshitmadilar, ular faqat g'orning har bir burchaklarigacha borib qaraganlarini,

uzoqlarda o't alangasi ko'rganliklarini, kishilarning baqirishganlarini va miltiq tovushlari eshitganliklarini so'zlar edilar. Bir yerda, odatda sayohatchilar boradigan yerlardan nariroqda, bir toshga sham tutuni bilan iz solinib: «Bekki va Tom» degan ikki so'z yozilganini ko'rgan emishlar va xuddi o'sha yerdan yog' tomchilariga belanib yotgan bir bo'lak lenta topib olib kelganlar. Missis Techer lentani tanib yig'lab yuborgan. Ba'zilarining aytishlaricha, kishilar ba'zan uzoqda miltillab yongan chiroqni ko'rishib, hammalari shodlanishib o'sha tomonga yugurib borishar, u yerda bolalar o'rniga o'z sheriklaridan biror kishining yurganini bilishib, xafa holda qaytib kelishar ekanlar.

Shu ravishda uch kecha va uch kunduz dahshat bilan o'tdi. Soatlar ham birin-ketin salmoqli va qayg'uli bo'lib o'tib borar, nihoyat, butun shahar xalqi qandaydir bir umidsiz xayolga g'arq bo'lib yotar edi. Hech kimning qo'li ishga bormas, qilayotgan ishlari qo'llaridan tushib ketar edi. «Hushyorlik jamiyat» oshxonalaridan birining egasi o'z nomerlaridan bittasida yashirinchha araq saqlaganligi to'g'risidagi yangigina tarqatgan xabari ham hech kimni ajablantirmas edi. Gek o'zining ahvoli durustroq bo'lgan vaqtarda oshxona to'g'risida so'z ochdi va biror yomon xabar eshitishdan qo'rqa-qo'rqa: «Men kasal bo'lib yotgan vaqtimda, jamiyatning oshxonasidan biror narsa topdilarmi», – deb so'radi.

– Ha, topgan emishlar, – deb javob berdi beva xotin.

Gek beva xotin Duglasga ko'zlarini chaqchaytirib, o'rnidan irg'ib turib o'tirdi.

– Nima? Nima topgan emishlar?

– O'tkir ichkiliklar. Araq topgan emishlar... Oshxona ham berk ekan... Yot bolam. Sen meni juda qo'rqtib yubording!

– Men faqat shuni aytib beringlar, faqat shuniga aytsalaring bas. Ularni kim topgan? Tom Soyer topganmi?

Beva xotin o'zini tutolmay yig'lab yubordi.

– Qo'y endi, bolam, ko'p urinaverma: men senga aytdim-ku, senga ko'p so'zlashish yaramaydi. Sen juda kasalsan.

«Demak, araqdan boshqa hech narsa topmaganlar, basharti pullarni topib olganlarida, butun shahar ichi ostin-ustun bo'lib ketar edi. Demakki, o'sha boylik qo'ldan ketgan, abadiy yo'qolgan... Ammo unima uchun yig'laydi? Juda qiziq! Uni yig'latadigan hech bir sabab yo'q-ku?».

Gekning xayolida mana shunday fikrlar aylanib yurar edi; u shunday fikrlardan charchab, nihoyat uxbab qoldi.

– Bola bechora endi uxladi-ya, – dedi o'z-o'zicha beva xotin. – «Tom Soyer topib olgan emish!» Qani endi, Tom Soyerni borib topib ol-chi! Tom Soyeringni axtarish uchun jasorati va kuchi yetadiganlar endi kamdan-kam qoldi.

## O'TTIZ BIRINCHI BOB

### QO'RQINCHLI UCHRASHUV

Endi yana Tom bilan Bekkiga to'xtalamiz. Ular boshqalar bilan birga qorong'i yo'laklar ichida yurib «Qabul zali», «Jomi», «Aladin saroyi» va shunga o'xshash qiziq ismlari bo'lgan g'orning ajoyib nomlarini ko'rib, tomosha qilib yurar edilar. Keyin bolalar sho'xlik, to'polon qilib bekinmachoq o'ynay boshladilar. Tom bilan Bekki ham yugurishdan charchagunlaricha o'yinda qatnashdilar. Keyin ikkovlari shamlarini baland ko'tarishib, egri-bugri yo'laklarini oralab, tosh devorlarga yozilgan har xil ismlar,

raqamlar, unvonlar va boshqa xil ajoyib so'zlarni o'qib boraverdilar. Ular chapga berilib ketib, g'orning devorlari yozuvlar bilan qoplangan qismini o'tib, eng ichkarilariga kirib ketganliklarini payqamadilar. Keyin qo'llaridagi shamning qorakuyasi bilan devorlardi silliq toshlarga o'zlarining ismlarini yozdilar-da, yana nariga qarab yurib ketdilar. Nihoyat, ular shunday bir yerga borib yetdilarki, u yerda bir kichkina chashma suvi o'zi bilan ohak loyqasini oqizib kelib, bo'rtib chiqqan toshlar ustidan oqib o'tgan, yaltiroq toshni asrlar davomida Niagara suvining shalolasi-ga o'xhash shaklga aylantirib qo'ygan edi. Tom ana shu shalola shaklidagi oq toshning tor yeridan siqilib, uning orqasiga o'tdi. U shu oq toshning orqasiga o'tib, qo'lidagi sham yorug'i bilan o'sha toshni yarqiratib, Bekkini xursand qilmoqchi edi. Uning ichkari tomoniga o'tib qarasaki, bu shalolaning ikki tomoni tosh devorining tor oraligida tabiiy ravishda tik o'rnatilgan bir zinaga o'xshab turardi. Ular bu kashfiyotlaridan xursand bo'lishilb, bu yerning yana bundan ham ortiqroq ajoyibotlarini ko'rishga qiziqib ketdilar. Bekki ham uning istagiga rozilik bildirdi, ikkovlari shu yerdagi toshlardan biriga xotira uchun qorakuya bilan belgi solib, yana nari ketdilar. Ular sirli g'or bo'ylab borganlari sari, pastga tushib boruvchi tor yo'lak ichida dam bir tomonga, dam ikkinchi tomonga burilib uzoq yurdilar. Ular shu o'tadagi toshlardan biriga yana belgi qo'yib, yuqoridagilarga chiqqanda hikoya qilib berish uchun yana ajoyib narsalar qidirib, bir tomonga burilib ketdilar. Bir yerga borib, katta tokchaga o'xhash yerga duch keldilar. Uning yuqorisidan kishining oyog'i yo'g'onligiday, yarqiragan juda ko'p narsalar osilib turar edi. Ular bu yerlarning go'zalliklaridan zavqlanishib, shu g'orni butun aylanishib, uning son-sanoqsiz tor yo'laklarning biridan chiqdilar. Tezdan ular yana bir g'orga

yetib bordilar. Unda qoyalar orasidan go'zal, tiniq bir chashma qaynab chiqib yotar, uning atroflari porloq kristall kabi yarqirab turar edi. Ularning gumbazlari ostida birtalay ko'rshapalaklar bor edi. Bolalarning qollaridagi sham yorug'i ularni cho'chitib yubordi; ularning hammasi birdan uchib, chiyillashib, aylanib, o'zlarini sham yorug'iga ura boshladilar. Tom darhol Bekkining qolidan ushlab olib, ikkovlari birga daf'atan to'g'ri kelgan yo'laklardan biriga qarab qochib chiqdilar. Bekki g'ordan chiqqanda ko'rshapalaklardan biri qanoti bilan urib, uning shamini o'chirdi. Ko'rshapalaklar ko'p vaqtlargacha ularning orqalaridan quvib yurdilar. Lekin bolalar dam-badam goh u, goh bu yolda uchragan yo'lakka burilib yurib, nihoyat, ular ta'qiblaridan qutuldilar. Keyin Tom bir zamonlar yer osti ko'li bo'lgan joyga to'g'ri keldi. Qorong'ida uning tevarak-atrofdagi belgilari o'chayozgan edi. Tom uning atroflaridagi qirg'oqlarni tekshirib chiqmoqchi bo'lgan edi, ammo, keyin biroz o'ylab turgach, avval bir yerga o'tirib dam olish yaxshiroq, degan qarorga keldi. Shu vaqt yer ostining jonsiz sukunati bolalarni siqib, ularga birinchi marta qattiq ta'sir qildi.

– Nima gap bo'ldi? – dedi Bekki, – xuddi ancha vaqtlardan beri hech qanday tovush eshitilmaganga o'xshaydimi? Sen ham sezdingmi?

– O'zing o'ylab qara, Bekki, ular u yoqda, yuqorida bo'lalar, biz bo'lak pastlikdamiz, hatto o'zim hozir kelib qolgan yerimizni ham bilmay turibman. Biz shimal tomonga yurib ketdikmi, janubgami yoki sharq tomongami, biz endi bu yerdan ularning tovushlarini ham eshita olmaymiz.

Bekki ancha tashvishga tushib qoldi.

– Biz bu yerda yana ancha yuramizmi, Tom? Orqamizga qaytganimiz yaxshi emasmi?

– To'g'ri, shunday qilsak ham yaxshi bo'lar edi...

– Tom, sen endi yo'lni topa olasanmi? Bu yer shunday ekanmi, yolg'iz o'zim bo'sam sira topolmas edim.

– Agar shu ko'rshapalaklar bo'limganda, yo'lni topib ketar edim. Agar yana o'sha yo'ldan yursak, ko'rshapalaklar ikkalamizning ham shamlarimizni o'chirib qo'ysalar, unda ishimiz juda yomon bo'ladi, o'sha yerdan o'tmaslik uchun boshqa yo'l axtarib ko'ramiz.

– Adashib qolmasak yaxshi edi. Agar yo'ldan adashib qolsak, holimiz xarob bo'ladi-da! – dedi qiz va bu xavfdan bir seskanib oldi.

Ular shu yerdagi yo'laklardan birini tanlab, ancha vaqtgacha churq etishmasdan yurib ketdilar. Yo'lning ikki tomonidan boshqa yo'laklar chiqqanda, tanish yo'l emasmikan, deyishib tikilib qarar edilar. Lekin u yerlarning hammasi notanish bo'lib chiqar edi. Har gal Tom, yangi bir yo'l topib kira boshlashi bilan Bekki tetiklantiruvchi alomat kutib, uning yuziga tikilib qarar edi. Tom bo'lsa avvalgidek shod vaziyatda:

– Bu hali biz yurgan yo'l emas, biroq, tashvish qilma, vaqt bilan o'zimiz yurib kelgan yo'lni ham topib olamiz, – der edi.

Shu bilan birga u muvaffaqiyatsizlikka uchragan sari ko'proq ishonchini yo'qotar, qanday bo'lsa ham biror tanish yo'l uchratarman, deb o'nggami, so'lgami, ishqilib to'g'ri kelgan burilishlarning biriga tez burilib ketar edi. Har zamon-har zamonda u Bekkiga qarab: «Qo'rqma, shu yo'limiz to'g'ri, shunday qilib yo'lni topib olamiz», – der, qalbidan esa shunday bir dahshatli qo'rqinch va umidsizlik joy olgan ediki, u xayolida go'yo haligi: «qo'rqma, shu ketayotgan yo'limiz to'g'ri» degan so'zlar o'rniغا: «ishimiz yomon bo'ldi, yo'ldan adashdik, holimiz xarob bo'ldi», degan-dek tovushi bo'g'ilbroq qolar edi. Bekki borgan sari Tomning yonboshiga siqilar va kuchining boricha

harakat qilib, tomchi-tomchi bo'lib chiqib kelayotgan ko'z yoshlarni to'xtatmoqchi bo'lar, lekin bunga erisholmas edi. Nihoyat u:

– Menga qara, Tom, ko'rshapalaklar bo'lsa ham mayli, o'sha yo'lga yuraylik, bo'lmasa bunday qilib yurganimizda yana ko'proq adashib ketamiz, – dedi.

Tom to'xtadi.

– To'xta, qulqoq sol! – dedi u.

Shunday jimlik hukm surar ediki, bolalar hatto o'zlarining nafas olishlarini ham eshitib turar edilar. Tom tovushining boricha bir baqirib yubordi. Uning tovushi g'or gumbazi ostida uzoq vaqtgacha jaranglab, keyin yiroqdan go'yo istehzoli bir kulgidek sekin-sekin eshitilib, birdan to'xtab qoldi.

– Qo'y, Tom, bunday qichqirma, bu juda vahimali bo'lar ekan, – dedi Bekki.

– Vahimali ekanligi rost, Bekki, lekin indamay yurgandan ko'ra baqirgan yaxshi-da, balki ular eshitib qolishar.

U yana baqirdi.

Tomning bu «balki» degan so'zi qiz uchun haligi qo'rqinchli aks sado tovushidan ham ortiqroq dahshatli qahqaha kabi jaranglab eshitildi. U endi tomning ishonchini yo'qotayotganini angladi. Bolalar indamay kutib turardilar, biroq bularning chaqiriqlariga hech bir javob bo'lmadidi. Shunda Tom orqasiga burilib, tez-tez yurib keta boshladidi. Ko'p o'tmay Bekki uning ko'zlarida qandaydir bir qat'iyatsizlikdan boshqa yana bir dahshatli haqiqat borligini sezdi. Tom endi orqasiga qaytib ketish uchun ham yo'lni topa olmay turar edi.

– Oh, Tom, nega yo'llarga ko'proq belgilar qo'yib kelmading.

– To'g'ri aytasan, Bekki, men juda ahmoq ekanman! Shu to'g'rida juda ahmoqlik qildim! Bizga yana shu yo'l bilan qaytib chiqishga to'g'ri kelar, degan fikr

xayolimga ham kelmagan. Yo'q, men endi yo'lni topa olmayman. Juda boshim aylanib qoldi.

— Oh, Tom, holimiz xarob bo'ldi! Biz endi bu dahshatli yer ostidan hech qutulib chiqa olmaymiz! Nega boshqalardan ajralib qoldik?

Bekki kuchsizlanib yerga o'tirdi va o'zini yo'qtib, shunday ho'ngrab yig'ladiki, Tom uni endi yo aqlidan ozadi, yo bo'lmasa o'lib qoladi, deb qo'rqib ketdi. U qizning yoniga o'tirib, uni quchoqlab oldi. Qiz yig'lab, yuzini uning ko'kragiga qo'ydi va pinjiga suqilib yig'ladi, uzoqdan eshitilgan aks sado esa uning bu achchiq yig'i ovozlari va qayg'uli so'zlarini mayda bo'laklarga bo'lingan shodlik kulgisidek qilib eshittirdi. Tom unga qo'rqoqlik qilmay, o'zini dadil tutishi uchun yolborar, qiz esa bunga ojizligini bildirar edi. Shunda Tom bu qizni shu ahvolga solib qo'ygani uchun o'zini so'ka boshlagan edi, uning bu ishi qizga qattiqroq ta'sir qildi: qiz o'zini dadil tutishga va'da berib, Tom boshlagan tomonga uning orqasidan yurib bormoqchi bo'lar, biroq undan bu tariqa so'zlarni aytmasligini so'rар, chunki bu ishda men o'zim ham sendan ko'ra kamroq aybli emasman, der edi.

Shunday qilib ular o'rinalidan turib yo'lga tushdilar. Ularning hozirgi yurib borishlari butunlay maqsadsiz, faqat bir yerda o'tirgandan ko'ra yurib turishdan boshqa choralar yo'q edi.

Birozdan keyin Tom Bekkinining qo'lidagi shamni olib puflab o'chirdi. Ular uchun endi shamni iqtisod qilish juda muhim edi. Bekki buni tushunib, bir og'iz ham so'z aytmadni va yana ruhi tushib ketdi. U Tomda yana bitta butun sham, yarimtadan o'ch-to'rtta sham borligini bilar edi. Shunday bo'lsa hamki shamlarni tejab borishni Tom o'z vazifasi deb hisoblagan edi.

Bora-bora bolalar o'zlarining charchaganliklarini sezsa boshlasalar ham, ular bunga e'tibor qilmaslik-

ka tirishardilar, ular uchun har bir daqiqqa g'animat bo'lib turganda, o'tirish to'g'risida o'ylash qo'rqinchli edi. Qayoqqa bo'lmasin, taxmin bilan bo'lsa ham, harholda ular oldinga qarab yurib borar, balki shu yo'l bilan g'ordan chiqib ketishar. Lekin bir yerda qarab o'tirish – o'z-o'zini o'lim changaliga tutib berish va o'limni yaqinlashtirish demak edi.

Shunday bo'lsa-da, Bekkining zaif oyoqlari butunlay holdan ketdi. U o'tirdi. Tom ham uning yoniga o'tirib oldi-da, u yoqda qolgan yor-do'stlari, rohatlanib yotadigan to'shaklari va hammadan ham quyosh nuri to'g'risida so'zlasha boshladilar. Bekki yig'lab o'tirar, Tom uni yupotmoq uchun biror narsa o'ylab topmoqchi bo'lsa ham butun o'ylagan narsalari hech qanday natija bermas edi. Bekki shu darajada charchab, holsizlanib qolgan ediki, provardida uxlاب qoldi. Tom bunga xursand edi. U qizning yuziga tikilib turar ekan, rohatbaxsh uyqu natijasida uning yuzi odatdag'i tinch holiga kela-yotganini ko'rib turdi; qizning lablarida yengilgina iljayish alomati ham paydo bo'lib, shu kuyicha yo'qolmay qotib qoldi. Tom uxlاب yotgan qizning yuziga tikilib turarkan, o'tgan voqealar xayolida jonlanar va u shu xayollarga berilib ketib, qizning uyg'onib, muloyimgina kulib yotganini ham sezmay qolgan edi. Lekin qizning kulgisi o'sha ondayoq yo'qolib, u ingray boshladi.

– Oh, men qanday qilib uxlاب qolibman! Men shunday uyqudan uyg'onmaslikni istar edim! Yo'q, yo'q, Tom menga unday qarama! Men endi bunday so'zlarni aytmayman.

– Men uxlaganingga juda xursand bo'ldim. Bekki, sen ancha dam olib tiniqding. Biz endi yana yo'l axtarishga tushamiz.

– Yaxshi, tag'in urinib ko'ramiz, Tom. Ammo men tushimda shunday go'zal o'ikalarni ko'rdimki, asti qo'yaver. Nazarimda, tezlikda u yerga borib qolamiz.

– Balki borib qolarmiz, balki – yo‘q. O‘zingni dadil tut, Bekki. Biz endi yana yo‘l qidira boshlaymiz.

Ular o‘rinlaridan turib, bir-birlarining qo‘llarini ushlashib, yurib ketdilar, lekin muvaffaqiyat qozonishlariga ishonmas edilar. Ular shu g‘orning ichida qancha vaqtdan beri yurganliklarini eslamoqchi bo‘lar, ammo ular o‘z xayollarida bu g‘or ichida bir necha kun, balki haftalab yurganga o‘xshar edilar. Haqiqatda esa bunday bo‘lishi mumkin emas, chunki hali ularning qo‘llaridagi shamlari ham yonib bitmagan edi.

Shundan keyin ular uzoq vaqt gapirmasdan bordilar. Tom biror yerda to‘xtab suv tomchilayotgan tovush eshitiladimi, yo‘qmi, shuni bilish zarurligini so‘zlar, chunki qanday bolsa ham buloq bor yerni qidirib topish kerak edi.

Ular tezlikda shunday buloqni ham topdilar, Tom bolsa shu yerda to‘xtab dam olish zarurligini aytdi. Ikkovlari ham juda charchagan edilar, shunday bolsa ham Bekki to‘xtamay ketaverishni taklif qildi. Tom unamadi. Bekki hayron bo‘ldi. Ular o‘tirdilar. Tom bir yumaloq loy olib, shamni oldilaridagi bir toshning ustiga o‘rnatib qo‘ydi. Ikkovlari ham xayol surib ketib, ancha vaqt jim o‘tirdilar. Bu jimjitlikni eng avval Bekki buzib:

– Tom, qornim juda ochib ketdi-ku, – dedi. Tom cho‘ntagidan bir narsa oldi.

– Esingda bormi? – deb so‘radi u. Bekki sekingina kulimsirab qo‘ydi.

– Bu – to‘yimizning somsasi, Tom.

– Meni shu somsaning kattakon bo‘lishini istar edim. Negaki shundan boshqa hech narsa yo‘q.

– Men shu bir bo‘lak somsani sayilda yurgan vaqtimizda, yashirib qo‘ygan edim, bu endi bizning so‘ngi...

Bekki o‘z o‘rtog‘ini qayg‘urtirmaslik uchun so‘zini oxiriga yetkazmadı.

Tom somsani ikkiga bo'ldi. Bekki somsaning yarmini zo'r ishtaha bilan yedi. Tomning esa o'z ulushiga og'zi tegdi yo tegmadi. Ichish uchun suv ham bor, o'tirgan yerlarining xuddi yonginasida yarqirab oqib yotgan muzdek buloq suvi bor edi. Birozdan keyin Bekki yo'llarida davom etishni taklif qildi. Tom biroz o'ylanib turgandan keyin:

– Bekki, senga bir so'z aytmoqchiman. Sen bu so'zlarimni jimgina eshitna olasanmi? – dedi.

Bekkining rangi o'chib ketdi, shunday bo'lsa ham tinch turib tinglashga so'z berdi.

– Bo'lmasa, men shunday demoqchiman, Bekki: biz endi shu yerda qolishimiz kerak, bu yerda suv ham bor ekan... sham bo'lsa, shu qo'limizdagidan boshqa qolmadi.

Bekki ko'zlariga jiqla yosh olib, ho'ngrab yubordi. Tom qo'lidan kelganicha uni ovutishga urinar, lekin uning harakatlari hech foyda bermas edi. Nihoyat Bekki yana so'z ochib:

– Tom! – dedi.

– Nima deysan, Bekki?

– Ular bizning yo'qligimizni bilishib, izlashib kelib qolsalar kerak deyman?

– Albatta, shunday-da, ular albatta bizlarni qidirishib keladilar.

– Tom, balki ular hozir bizlarni qidirib ham yur-gandirlar?

– Shunday bo'lishi ham mumkin. Men ham shunday deb o'layman.

– Tom, ular bizning yo'qligimizni qachon bilib qoladilar deb o'laysan?

– Kemaga qaytganlarida biladilar-da.

– Tom, unda juda qorong'i bo'lib qolgan bo'ladi, bizlarning bor-yo'qligimizni sezarmikanlar?

– Bilmadim, harholda ular shaharga qaytib borishlari bilanoq, onang ayyuhannos solib qidira boshlaydi.

Bekkining yuzida qo'rquv alomatlari ko'rindi; uning ko'z qarashi o'zining bir qiz o'rtog'inikida yotib qolmoqchi bo'lganini va shuning uchun onasi uni qidirmasligini Tomning esiga tushirdi. Bolalarning ikkalasi ham yana jim bo'lishib, xayol surib ketdilar. Birdaniga Bekkida yangidan sezila boshlagan qayg'u to'lqini Tomning xayoliga qanday fikrlar kelgan bo'lsa, uning ham xayoliga shunday fikrlar kelganini bildirdi: Missis Techer Bekkining missis Garper uyida yotganligini bilgunicha yakshanba kunining yarmi o'tib ketadi. Bolalar esa so'nggi shamni sekin-sekin yonib tamom bo'lishiga qarab o'tirardilar. Nihoyat, shamning piligidan yarim dyuymcha qoldi. Xiragina yolqin goh yuqori ko'tarilib, goh past tushdi, keyin ingichka bo'lib cho'zilgan tutun bilan qo'shilib chiqib biroz turgandan keyin o'chdi-da, butun atrofni dahshatli zulmat bosdi.

Bekki o'zining Tom quchog'ida yig'lab yotganini sezgunicha qancha vaqt o'tgan, buni ulardan hech qaysisi ham aytal olmadi. Ular faqat o'zlarining biliishlaricha: uzoq vaqtidan keyin, go'yo og'ir uyqidan uyg'ongandek bo'lib, o'z boshlariga kelgan baloni sezal boshladilar. Tom xayolida hozir yakshanba, balki dushmanba kuni ham bo'lgandir, deb o'ylar edi. Tom qanday qilib bo'lsa ham Bekkini gapga solishga urinar, Bekki bo'lsa o'z qayg'usi bilan to'lib-toshib hech narsa demas edi. Unda hozir hech qanday umid va ishonch yo'q. Tom unga: «bizning yo'qligimizni allaqachonlar sezganlar va endi bizlarni qidirib yurgandirlar», deb so'zlab, uni ishontirmoqchi bo'lar edi. Yana boyagidek baqirish kerak. Bironta odam eshitib qolsa kelar-ku, deb u bir baqirdi, lekin qorong'ilik ichida uning tovushi shunday qo'rqinchli aks sado bilan eshitildiki, u ikkinchi marta qichqirishga jur'at qilmadi.

Soatlar o'tib borardi; tutqun bolalar bo'lsa yana ochlikdan qiynda boshladilar. Tomning o'ziga tekkan yarimta somsasi hali shundayligicha turardi. U yarimta somsani Bekki ikkalasi baham ko'rishdi, lekin buni yeganlaridan keyin ularning ochliklari avvalgidan ham ortiqroq sezila boshladi.

Oradan biroz vaqt o'tgach, Tom:

– Tss... Eshitdingmi? – deb so'radi.

Ikkovlari ham nafaslarini chiqarmay, qulq soldilar. Uzoq-uzoqlardan birovning chaqirgan tovushi kelgandek bo'ldi. Bolalar yana diqqat bilan qulq sola boshladilar. Tom o'sha chaqiriqqa javob bergandek bo'lib, bir marta qattiq baqirdi-da, Bekkining qo'lidan yetaklab, yo'laklar ichi bilan o'sha tovush eshitilgan tomonga qarab yurdi. Keyin to'xtadi. Haligi tovush yana bir marta yaqinroqdan takrorlangandek bo'ldi.

– Bu tovush xuddi o'shalarniki! – dedi Tom. – Ular to'g'ri shu yoqqa qarab kelayotirlar! Yur, Bekki, qo'rqa ma, endi bu yog'i yaxshi bo'ladi!

Kichkina asirlar shodliklaridan tez yura olmas edilar, chunki har qadamda chuqur yerlar bo'lgani uchun ehtiyoj bo'lib yurishga to'g'ri kelardi. Yo'lda uchragan katta bir chuqur oldida ular beixtiyor to'xtashga majbur bo'ldilar. Bu chuqurning uzunligi uch fut ham, yuz fut ham bo'lishi mumkin. Harholda undan o'tish juda qiyin edi. Tom yerga uzala tushib yotib, kuchi yetganicha qo'lini chuqur ichiga cho'zdi. Lekin qo'li tubigacha yetmadi... Keyin bularni qidirib kelishlarini kutmoqchi bo'ldilar. Bolalar qulq solar, lekin boyagi eshitilgan tovushlar borgan sari uzoqlashmoqda edi. Yana bir damdan keyin u tovushlar butunlay eshitilmay qoldi. Qanday qo'rqinchli hol! Tom tovushi bo'g'ilgunicha baqirdi, lekin hech kim javob bermadi. Bu bilan u Bekkining ruhini ko'tarmoqchi bo'lar, lekin hech bir tovush eshitilmay, vaqt o'tib borayotgandek bo'lar edi.

Bolalar qorong'ida qo'llari bilan paypaslab yurib, haligi buloq yoniga qaytib bordilar. Vaqt juda sekin o'tib borar edi. Ular ochlikdan charchab, qimirlashga madorlari qolmay, uxlab qoldilar. Ular och va qayg'uli holda uyg'ondilar. Tom endi seshanba kuni bo'lib qolgandir, deb o'ylar edi.

Birdan boshiga bir fikr keldi. Shu yaqin o'ttada yon tomonlarga qarab ketgan tor yo'laklar bor edi. Bu yerda bekorga diqqat bo'lib o'tirgandan ko'ra, o'sha yo'laklarni tekshirib kelsa bo'lmaydimi? U varrak uchiradigan bir yumaloq kanopini cho'ntagidan olib, uning uchini bir qoya tosh cho'qqisiga bog'lab qo'yida, kanopning bir uchidan tortib va Bekkini yetak-lab ketdi. Yigirma qadamcha yurib borganlaridan keyin haligi yo'lak qandaydir bir sakrash maydoniga o'xshagan yerga borib tamom bo'ldi. Tom tiz cho'kib, uning pastki devorini paypaslab ko'ra boshladi. Qo'li bilan paypaslab devorning burchagiga yetib bordi, keyin qo'llarini biroz o'ngga cho'zgan edi, shu vaqt undan yigirma qadam kelar-kelmas yerdan, tosh devorning qirrasidan sham ushlagan bir kishining qo'li ko'rindi. Tom sevinganidan qichqirib yubordi, lekin qo'ldan keyin kishining gavdasi ham ko'rindi. Bu kishi – hindi Jo edi! Tom qo'rqqanidan qotib qoldi. U qo'lini ham, oyog'ini ham qimirlata olmay qolgan edi. «Ispaniyalik» bularga orqa o'girib, uzoqlashib ketganini ko'rgandan keyin Tom shodlanib ketdi. Tom hindi Joning tovushini eshitib, tanimagan va o'zining sudda guvohlik bergani uchun shu onda kelib buni o'dirmaganligidan hayron bo'ldi. Ammo aks sado uning tovushini o'zgartirib yuborgan bo'lsa kerak. Tom shunchalik qo'rqqan ediki, uning butun a'zoyi-badani bo'shashib ketgan, u o'zicha: «Agar quvvatim yetib, chashmaning oldiga borib olsam, undan keyin chiqib ketish yo'lini axtarishdan ham to'xtab, o'sha yerda qolardim»

deb o'ylar, chunki hindi Joga duch kelib qolishdan qo'rqar edi.

U hindi Joni ko'rganligini Bekkidan yashirdi va «Anchayin birov eshitarmikan» deb baqirdim, dedi.

Ochlik va tanglik sekin-sekin har qanday dahshatdan ham ustun chiqdi. Chashma yoniga kelib, yana qaytadan o'tirish va uslash ularga qulaylik tug'dirdi. Bolalar uyqudan uyg'onishib, ochlik azobidan qiynalmoqda edilar. Tom endi chorshanba yoki payshanba, balki juma va shanba kuni bo'lib qolib, axtarib yurgan kishilar ham topolmay qaytib ketgandirlar, deb o'ylar edi. U yana bir yo'lakni tekshirib ko'rmoqchi bo'ldi. Endi u hindi Jo bilan duch kelishga ham rozi edi. Biroq Bekki juda bo'shashib holdan ketib qolgan edi. U juda xafa, o'rnidan qo'zg'algisi ham kelmasdi. U endi shu o'tirgan yeridan qimirlamay, o'limni kutmoqchi edi. U Tomga, agar istasa, kanopning uchini olib o'sha tekshirmoqchi bo'lgan yo'liga borishni taklif qildi. Shu bilan birga tez-tez uning yoniga kelib xabar olib turishini va jon beradigan vaqtida uning qo'llini ushlab o'tirishini so'radi.

Tom uning yuzidan bir o'pdi: shu chog' Bekki yig'idan o'zini zo'rg'a tutib, nafasini ololmay turar edi. Shunday bolsa hamki, qizga buni bildirmay, g'ordan qutulib chiqib ketishiga, yoki bularni qidi-rib yuruvchi kishilar bilan uchrashib qolishlariga ishonchi katta ekanini bildirdi. Keyin varrak ipining, uchini ushlab olib, ochlik va o'limning ya-qinligini oldindan sezgani holda yo'laklardan biriga kirdi-da, emaklab yurib ketdi.

## CHIQINGLAR! UALAR TOPILDILAR!

Mana seshanba kuni ham keldi. Vaqt tushdan o'tib, g'ira-shira qorong'ilik tusha boshladi. Sankt-Peterburg shaharchasi bolsa hali ham motam ichida: yo'qolgan bolalardan haligacha hech darak yo'q. Ularning salomat qutulib kelishlarini tilab cherkovlarda duolar o'qidilar. Ayrim kishilarning chin yuraklaridan chiqqan tilaklar ham oz emas, g'ordan bolsa hanuzgacha hech bir xushxabar kelmas edi. Bolalarni axtarib ketgan kishilardan ko'plari, bolalar endi topilmasa kerak, deb o'zlarining kundalik ishlariga qaytib kelganlar.

Missis Techer esa juda qattiq betob bo'lib, ko'p vaqtini behushlik bilan o'tkazardi. Uni ko'rgan kishilar: «Uning qizi yo'qolganligini eshitib, dam-badam boshini ko'targanini va uzoq vaqt quloq solib turganini, keyin esa qattiq uh tortib, boshini yostiqqa qo'yganini ko'rib kishining yuragi ezilib ketadi», der edilar. Polli xolaning ham turgan-bitgani g'am bilan to'lib, avvalda ko'kintir tusli bo'lgan sochlari hozir oppoq oqarib ketgan edi. Seshanba kuni kechqurun shaharcha har qanday umid va ishonchlarini yo'q-tib, qayg'u ichida og'ir uyquga cho'mdi.

Yarim kechada to'satdan shovqin-suron ko'tarilib, ko'chalar bir damda yarim yalong'och kishilar bilan to'lib ketdi. Ular jonlari boricha baqirib: «Chiqinglar! Hoy, chiqaveringlar! Ular topildilar! Topildilar!» der edilar. Cherkovlarning qo'ng'iroqlarini chalishar, tunuka idishlarni jaranglatishar, karnaylar chalishar, shaharning butun xalqi bolalarni qarshi olish uchun daryo bo'yiga yugurishib borishar edilar. Sevinchga to'lgan odamlar bolalarni usti ochiq aravalarga o'tqizishib, o'zlari tortib borar edilar. Alamon

aravalarni o'tab olib, uni uyigacha kuzatib qo'yar, keyin «ura» deyishdan to'xtamay, ko'chadan tantana bilan o'tar edilar.

Rang-barang chirog'lar yoqdilar. Endi hech kimning uyqusi kelmasdi. Bunday ajoyib kechani shaharcha bir umrida ko'rmangan edi. Yarim soat ichida sudya Techerning uyiga qariyb butun shahar xalqi kelib-ketdi. Ular qutulib kelgan bolalarni mahkam quchoqlab o'pishar, missis Techerning qo'llarini siqishar va so'zlashishga shuncha urinsalar ham so'zlay olmay uy ichini ko'z yoshlari bilan to'ldirardilar.

Polli xola baxt-saodatning eng cho'qqisida, missis Techer ham qariyb o'shanday shod-xurram edi. Missis Techerning eri g'orga ketgan bo'lib, hozir uning orqasidan bir kishi sevinchli xabar olib ketgan, basharti u ham tezroq qaytib kelib qolsa, missis Techer to'la baxtiyor bo'lar edi.

Tom divanda yotib, diqqat bilan tinglab o'tirgan kishilarga o'zining kechirgan ajoyib voqealarini hikoya qilar va hikoyasini chiroylit chiqarish uchun o'zidan ham ko'p narsalarni qo'shib so'zlardi. Hikoyasining oxirida u Bekkini yolg'iz qoldirib, boshqa yo'laklarni tekshirib ko'rib kelishga chiqqanini va yo'laklardan uchtasini ko'rib chiqib, endi orqasiga qaytmoqchi bo'lib turganida birdan uzoqda go'yo yer ustidagi yorug'likka o'xshagan oppoq tog' ko'riganini, qo'lidagi arqonini tashlab, shu oqargan narsaga tikilib qaraganini, undan keyin boshi bilan yelkasini kichikroq bir teshikdan chiqarib qarab, o'zining oldida keng, yoyilib oqqan Missisipining tekis yuzini ko'rganini so'zlab berdi. O'y lab turganda shunisi bir ajab ishki, agar shu ishlar kechasi bo'lsa, u oqargan dog'ni ham ko'rmas, yo'lakning boshigacha borish uning xayoliga ham kelmas edi. Keyin u Bekkining oldiga qaytib kelib, shunday xushxabarni bildirganida, Bekki, sen menga

bo'lmag'ur so'zlarni aytaverma, men endi juda char-chadim va tezdan o'limim yaqinlashib kelayotganini bilib turibman va buning uchun xursandman, deb javob bergen. Keyin u Bekkini qanday qilib ishontirganini, qiz esa haqiqatan ham yer yuzidan tushib turgan yorug'likni ko'rib, shodligidan yuragi yorilgudek bo'lganini, u o'zi osilib, o'sha kovakdan qanday qilib chiqqanini, keyin Bekkiga yordamla-shib uni ham chiqarganini, undan yer yuziga chiqib olib shodliklaridan ikkovlari o'tirib yig'laganliklarini so'zлади. Shu vaqt ularning oldidan bir qayiq o'tib borar ekan. Tom qayiqda ketayotganlarni chaqirib olib, o'zlarining g'or ichidan yura-yura shu yerdan kelib chiqqanliklarini va juda ham och qolganlikla-rini so'zlaganini aytib berdi.

Baliqchilar oldin buning so'zlariga ishonmay, bularning hozir o'tirgan yerlari g'or turgan vodidan besh mil pastda ekanligini so'zlaganlar. Keyin baliqchilar bularni qayiqlarga o'tirg'izib olib, bir uyga olib borganlar. U yerda ovqat berib, qorinlarini to'yg'azib, bolalar bir-ikki soat damlarini olganlikla-ridan keyin ularni uylariga olib borib tashlaganlar.

O'sha kecha tong otmay turib, sudya Techerni va uning bilan birga borgan kishilarni o'zлари bellariga bog'lab tushgan arqonlar yordami bilan g'ordan chiqarib olib, ularga sevinchli yangi xabarni yetkaz-ganlar.

Tom bilan Bekki ikkalasining g'or ichida uch kecha-yu uch kunduz och va xavf-xatar ichida yurishlari (keyin ular buni tezda sezgan edilar) be-kor ketmagan. Butun chorshanba va payshanba kunlari ular ko'rpa-to'shak qilib yotdilar; ularning charchash va quvvatsizliklari borgan sari ortib borayotgandek ko'rinar edi. Tom payshanba kuni biroz boshini ko'tardi, juma kuni shaharga chiqib aylanib yurib, shanba kuni butunlay sog'ayib o'ziga keldi.

Bekki bo'lsa xuddi yakshanba kunigacha uyidan chiqolmay, chiqqanda ham uning rangi og'ir kasalda yotgan kishilar ning rangiga o'xshar edi.

Tom Gekning kasal bo'lib yotganini eshitib, juma kuniyoq uni ko'rishga borgan edi, lekin uni o'sha kunigina emas, hatto shanba va yakshanba kunlari ham kasalning oldiga kirgizmadilar. Keyinroq uni har kuni kirgizadigan bo'ldilar, lekin uni Gekning oldida, g'or ichida bo'lgan voqealarni so'zlamasligi to'g'risida ogohlantirib, kirgizar edilar. Buning to'g'ri bajarilishini kuzatish uchun beva xotin Duglas har doim ularning oldidan qo'zg'almay o'tirar edi. Tom uyiga kelgandan keyin beva xotinning uyini o'g'ri urib ketayotganini va o'g'rilardan bittasining jasa-di daryoda kemalar to'xtaydigan yerda topilganini eshitdi: aftidan, u quvg'indan qochib qutulaman, deb daryoga cho'kib o'lgan bo'lsa kerak.

G'ordan qutulib chiqqanidan ikki hafta o'tgach, Tom Gekni ko'rib kelmoqchi bo'ldi. Gek ham endi ancha quvvatga kirib, har qanday so'z bo'lsa so'zlashaveradigan bo'lib qolgan edi. Sudya Techerning uyi yo'l ustida bo'lgani uchun, Tom yo'l-yo'lakay Bekkini ham ko'rib ketmoqchi bo'ldi. Sudyaning uyida mehmonlari bor ekan, ular Tomni gapga soldilar, o'rtalaridan biri qiziqchilik qilib undan: «O'sha g'orga yana bir marta borishni istamaysanmi?» deb so'radi. Tom unga, hozir bo'lsa ham borishga tayyorman, deb javob berdi.

– Tom, hech shubham yo'qki, senga taqlid qiluvchi boshqa kishilar ham bo'lar edi, – dedi sudya. – Lekin biz bu yo'lda tegishli chora ko'rdik. Endi bundan keyin u g'orga hech kim bormaydi.

– Nima uchun? Nega bunday?

– Chunki men bundan ikki hafta ilgari uning eshi-giga temir qoplab, uch qavat qulf soldirib, kalitlarini o'zim olib qo'yganman.

Tom oppoq dokadek oqarib ketdi.

- Hoy bola, senga nima bo'ldi? Hoy, birortang bu yoqqa kel, mana bu bolaga bir piyola suv beringlar! Suv olib kelib Tomning yuziga sepdilar.
- Mana, endi hammasi o'tib ketdi. Tom, nima bo'ldi senga?
- Oh, sudya, o'sha g'orning ichida... hindi Jo yotadi, - dedi.

## *O'TTIZ UCHINCHI BOB*

### **HINDI JONING TAQDIRI**

Bu yangi xabar besh daqiqa ichida butun shaharga yoyildi va oradan ko'p o'tmay o'n ikkitacha kishi bilan to'lgan qayiq g'orga qarab jo'nadi. Bundan yana biroz keyinroq bir katta sol ham liq to'la kishi bilan o'sha yoqqa jo'nadi. Tom Soyer bilan sudya Techer bir qayiqda ketib borardilar. Eshik ochilishi bilanoq borgan kishilarning ko'zlariga ko'ngilsiz bir manzara chalindi. Yerda hindi Jo yuzi bilan eshikning yorig'iga qapishib yotar, uning ko'zlar so'nggi damlargacha erkin dunyoning yorug'ligi va shodliklariga tashnadek ko'rinaridi. Uning shunday ahvolda yotishi Tomga juda ta'sir qildi. U o'z tajribasiga ko'ra bu baxtsizning qanday azoblar tortganini bilardi. U shu hindiga achindi. lekin ayni zamonda u o'zida juda zo'r yengillik sezdi va bu yomon niyatli qonxo'rning aybini sudda ochib bergen kunidan boshlab o'zining ko'kragida og'ir yuk bo'lib yotgan doimiy qo'rqninchning qay darajada ekanini endigina sezdi.

Xuddi uning yonginasida tig'i ikki bo'lak bo'lib singan bir katta pichoq yotar edi. Eshikning yo'g'on yog'ochdan ishlangan ostonasi shu pichoq bilan yo'nilib maydalanim tashlangan, lekin uning bu og'ir mehnatlari o'rinsiz ketgan edi, negaki ostonaning tashqari tomoni katta tosh bo'lganidan, bu tosh

oldida haligi pichoq zaiflik qilib qolgan. Ammo bu tosh bo'lмаган тақдирда ham uning mehnati bekor ketardi, chunki agar u оstonani butunlay qirqib tashlaganida ham, baribir u eshikdan sig'mas va buni o'zi ham bilar edi. Shuning uchun bu baxtsiz odam ostona yog'ochini qanday bo'lsa-da, biror narsa qilib urinib turish, kishini zeriktiruvchi uzoq vaqtни qanday bo'lsa ham o'tkazish, o'zini biror narsa bilan shug'ullantirish uchungina qirqar edi. Odatta g'orning bu oldingi qismidagi devor kovaklarida sayohatchilar qoldirib ketgan mayda sham bo'laklari uchrar edi, hozir esa ulardan birorta ham yo'q tutqun hindi o'sha sham bo'laklarining hammasini qidirib topib yegan bo'lsa kerak. U hatto ko'rshapalaklar dan ham anchasini tutib yegan. Bechora shu xilda ochlikdan o'lgan. Shu yaqin оrtada yerdan stalagmit o'sib chiqqan; bu ma'dan asrlar davomida o'zining tepasidagi stalaktitlarning suv tomchilari bilan qo'shilib tushishidan hosil bo'lgan edi. Tutqun hindi Jo o'shaning uchini sindirib ustiga bir tosh qo'ygan va toshning ustini suv yig'iladigan chuqurcha qilib o'yan. Tushayotgan suv tomchilari juda sekin, har yigirma daqiqada bir marta tomib turar, juda sekin yuradigan devor soatning tiqillashiga o'xshar edi. Shu ravishda yigirma to'rt soat davomida bir qoshiq suv yig'ilar edi. Bu suv tomchilari Misr ehromlari qurila boshlagan zamonlarda, Troyaning yiqilgan vaqtida, Rim shahrining asosi qurilgan vaqtida, istilochi Vilgelm Britaniya imperiyasini qurganda, Kolumbning Amerikani ochish uchun kemada ketayotgan vaqtlarida, Leksington jangi<sup>22</sup> bo'lgan

<sup>22</sup> Bu yerda eski va yangi tarixning voqealari bayon qilinadi: Troyaning yiqilishi (miloddan oldin 1184-yil), Rimning qurilishi (miloddan oldin 573-yil), Kolumb tomonidan Amerikaning ochilishi (1492-yil) va hokazolar. Leksington jangi (Amerikada Leksington shahri yaqinida), Amerikalilar bilan inglizlarning mustaqillik uchun urushdagi birinchi to'qnashuvlari edi (1755-yil).

vaqtlardayoq va shu singari zamonlarda oqib tushib yotardi. U hozir ham oqib tushib yotadi va bu suv tomchilari hammamiz yer yuzidan yo'q bo'lib ketgan vaqtimizda ham tomib yotajak. Nahotki, hamma narsaning o'ziga yarasha bir belgilangan maqsadi bo'lsa? Nahotki bu suv tomchilari besh ming yillik bir zamon davomida tomib yotib, faqat shu bir tentirab yurgan inson zotining chanqog'ini bosish uchun xizmat qilsa? Yoki bu suv tomchisining oldida kelgusi ming yillar davomida boshqa bir muhimroq ish bajarish vazifasi turadimi? O'sha baxtsiz hindi Jo suv tomchilarini to'plash uchun tosh ustini chuqurcha qilib qazib qo'yganiga juda ko'p yillar bo'ldi, lekin Mak-Dugal g'orlarining ajoyibotlarini tomosha qilib kelgan sayyohlar bu tosh oldida hozirgacha uzoq vaqt to'xtalib, sekin-asta tushayotgan suv tomchilariga qarab turadilar. G'orning kishilar diqqatini o'ziga tortadigan, ya'ni tomosha qilarlik narsalari o'rtaida «hindi Joning suv yig'adigan kosasi» birinchi o'rinda e'tiborni tortib turadi. Hattoki «Aladin saroyi» ham ikkinchi o'rinda.

Hindi Joni g'orga kiraverishdagi yerga ko'mdilari va uning ko'milish marosimiga tevarak-atrofi yetti mil yerdagi qo'shni qishloqlar va fermalarining hammasidan kemalarda va soyavon aravalarda kishilar to'plandilar. Fermerlar o'z bola-chaqalari va yegulik-ichkiliklari bilan keldilar; ular keyin: «Hindi ko'mish marosimi uni dorga osganlarida bizga qanday kayf bersa, o'shandan oz kayf bermadi», deb gapirdilar. Motam marosimlari esa hamon kuchayib borayotgan bir mahkamaga, chunonchi hindi Joni kechirish haqida ko'pchilik tomonidan shtat gubernatoriga berilgan arizaga xotima berdi. Arizaga ko'p kishi qo'l qo'ygan edi. Shu munosabat bilan bir qancha miting bo'lib o'tdi; bu mitingda qizg'in va'zlar bo'lib, ko'p ko'z yoshlari to'kildi. Gubernator yoniga

katta ta'ziya bilan borishga, uning rahmdil bo'lib, el oldida o'z burchini bajarish uchun ko'z yoshlari va yig'lab ho'ngrashlari bilan unga shikoyat etisha ga hamda yalinib-yolvorishga jur'at qila oladigan juda sabotli ayollardan iborat komitet tuzilgan edi. Hindi Jo shahardagi besh kishini o'ldirishda ayblanar edi, lekin bundan nima kelib chiqdi? Basharti uning o'zi shayton ekan, uning afv etilishi haqidagi ariza ostiga qo'l qo'yishga va o'sha ariza ustiga ko'z yoshlarini tomizishga tayyor turgan ovsar odamlar topilar edi.

Hindi Jo dafn etilgan kunning ertasi ertalab, Tom muhim ishlar haqida suhbatlashib olish uchun Gekni bir xilvat yerga boshlab bordi. Gek Tomning boshdan kechirgan voqealarini choldan va beva xotin Duglasdan mukammal eshitib, bilib olgan edi. Lekin Tomning so'ziga qaraganda, ular bunga hammadan muhim va asosiy bir narsani aytmaganlar. Endi u o'z do'sti bilan xuddi shu to'g'rida suhbatlashmoqchi edi. Gekning ko'z oldi qorong'ilashib ketgandek bo'ldi.

– Men buning nima ekanini bilaman, – dedi Gek.  
– Sen ikkinchi nomerqa borib, u yerda araqdan boshqa hech narsa topa olmagansan... Menga sening to'g'ringda hech kim so'zlagani yo'q, lekin sening u yerda bo'lganiningni bildim va pulni topa olmaganiningni ham tushundim, basharti sen pulni topib olganingda, garchi boshqalar oldida churq etmasga majbur bo'lsang ham, bu yangi xabarni menga yetkazish uchun biror vosita topar eding. Tom, nima uchundir menga har doim go'yo birov bu pullarning bizning qo'llimizga kirmasligini so'zlab turgandek bo'lar edi.

– Senga bir gap bo'ldimi, Gek? Men hech vaqt qovoqxonachining ustidan hech kimga biror narsa degan emasman. O'zing bilasan-ku, biz shanba kuni dala sayiliga ketayotgan vaqtimizda qovoqxona qadimgidek tinch edi. Esingda yo'qmi, o'sha kuni ke-

chasi sen qovoqxonaning atrofini poylab yurmoqchi bo'lgan eding-ku?

– Ha, to'g'ri, shunday bo'lgan edi. Bilasanmi, mening nazarimda o'sha ishlar go'yo juda ko'p zamonlar ilgari, bundan qariyb bir yil avval bo'lgan ishga o'xshaydi. Bu ish xuddi o'sha kechasi, ya'ni shu la'nati hindining orqasidan poylab, beva xotin Duglasning uyiga qarab ketayotganimda bo'lgan edi.

– Sen uning orqasidan bordingmi?

– Ha, bordim. Faqat sen buni og'zingdan chiqarma! Menimcha, albatta uning o'rtoqlari bor bo'lsa kerak. Buni bilib qolsalar, uning o'rtoqlari albatta menga bir yomonlik qiladilar. Mening haligi so'zlarimga bo'lsa sen ishonaver, basharti men bo'lmasam, hozir u Texasga ketib qolgan bo'lar edi.

Shundan keyin Gek ham o'zining qilgan butun ishlarini maxfiy ravishda birma-bir so'zlab berdi. Tom bunga qadar shu gaplarning bir qisminigina eshitgan edi. Bu gaplardan esa chol xabardor edi.

Gek suhbatning muhim qismiga qaytib:

– Bilasanmi, o'sha «ikkinchi nomer»dan araq topib olib chiqqan kishilar pulni ham topib olib ketganlar. Harholda bizning ishimiz pachava boldi, Tom, – der edi.

– Gek, bu pullar «ikkinchi nomer»da qolgan emas.

– Nima deysan? – Gek buni bilib olishga urinib, o'rtog'ining yuziga tikilib qarab turar edi. – Tom, sen yana o'sha pullarning izini topdingmi?

– Gek, bu pullar g'orning ichida. Gekning ko'zları yarqirab ketdi.

– Nima deding, Tom? Yana bir qaytarib ayt.

– Pul, – g'orning ichida.

– Tom, insof bilan to'g'risini ayt, bu so'zlaring to'g'rimi yoki hazillashayapsanmi?

– To'g'risi shu, Gek... men hech vaqt bunday jiddiy so'zlagan emasman. Sen men bilan o'sha yerga borib, pulni olib kelishga yordamlashishni istaysanmi?

– Bo'lmasa-chi. Albatta boraman! Ya'ni agar biz adashmasdan topib bora olsak, soz bo'lar edi.

Gek, biz u yerga hech qanday xavotirsiz, dadillik bilan bora olamiz.

· – Juda soz! Lekin nima uchun sen pullarni albatta o'sha yerda deb o'ylaysan?

– To'xtab tur, Gek, biz o'sha yerga borib olaylik. Agar biz pulni topolmasak, men senga do'mbiramni va o'zimda bo'lgan boshqa narsalarning hammasini beraman. Xudo ursin, beraman!

– Xo'p, bo'ladi! Qachon boramiz deysan?

– Agar sen rozi bo'lsang, hozir bo'lsa ham keta-veramiz. Sening yo'l yurishga darmoning yetadimi?

– G'orga boradigan yo'l uzoqmi? Men o'rnimdan turib yurganimga uch-to'rt kun bo'lsa ham, bir mildan ortiq yo'l yura olmayman, Tom. Harholda o'zim shunday deb o'ylayman.

– Mendan boshqa har qanday kishi ham u yerga besh mil yo'l bosmasdan bora olmaydi, lekin men seni boshqa, yaqinroq yo'l bilan olib boraman. U yo'lni o'zimdan boshqa hech kim bilmaydi. Seni qayiqqa solib, xuddi o'sha yerning o'ziga yetkazaman va qayiq eshkaklarini – borishda ham, kelishda ham – o'zim eshaman. Senga qiyinalishga to'g'ri kelmaydi.

– Bo'lmasa hozir jo'naymiz, Tom!

– Juda soz! O'zimiz bilan birga non, go'sht, trubka, tamaki, bir bo'sh qop, varrak uchiradigan bir-ikki yumaloq kanop, keyin anavi yangi chiqqan gugurt degan narsadan olishimiz kerak. Men o'sha g'orda o'tirgan vaqtimda shu gugurtning bo'lmaganiga ko'p achindim.

Oradan ko'p o'tmadi, tushdan keyin bolalar bir kichkina qayiqchaning egasi uzoqlashib ketishini poylab turdilar-u, ketgandan keyin qayiqchaga o'tirib olib, yo'nga tushdilar. Ular bir necha mil uzoqlab ketganlardan keyin Tom:

– Ana, g'orning kemtik yeridan pastga qarab ketgan anavi tik qoyani ko'rdingmi? U juda tekis va silliqqa o'xshab ko'rindi, unda na uylar va na daraxtlar bor, faqat bir-biriga o'xshash butazorlardan boshqa hech narsa yo'q. Hu ana, u yoqda bir narsa oqarib turibdi, ko'rdingmi? O'sha oqarib ko'ringan narsa – mening qo'ygan belgim, biz hozir o'sha yerdan chiqamiz.

Ular daryoning chetiga borib to'xtadilar.

– Hozir biz turgan mana shu yerdan bir qarmoq cho'pi olib, qo'lingni cho'zsang, o'sha men chiqqan eshikka tegadi. Qani, o'shani qidirib top-chi!

Gek ko'zini atrofga yogurtirib chiqib, hech narsa topa olmadi.

Tom g'ururlanib butazorlar orasiga kirib borar ekan:

– Mana u! Tomosha qil, Gek. Bundagi hamma yerlarning yashirin yo'li mana shu. Faqat buni hech kimga og'zingdan chiqarma! Men ko'p vaqt dan beri qaroqchilik ishiga kirishmoqchi bo'lib yuraman, faqat yashirinadigan qulay o'tin topilmayapti. Shunday bekinadigan yer bo'lmasa, qaroqchilik qilib ham bo'lmaydi. Biz hozir buni topib oldik, buni endi hech kimga aytmaymiz, faqat Jo Garperga va Ben Rojersga aytsak, bo'ladi, chunki yonimizga kishilar yig'ib olishimiz ham kerak-ku, ikkimiz bo'lsak, qanday qaroqchi bo'la olar edik? Tom Soyerning shaykasi, deb atashning o'zi yaxshi-a, Gek, shunday emasmi?

– Shunday, Tom, bu juda yaxshi ish. Biz kimlarni talaymiz?

– Kim to'g'ri kelsa talayveramiz-da! Qaroqchilar singari yo'ldan o'tgan, ketgan otliq-yayov, hammasini talayveramiz-da!

– Ularni o'ldiramiz hammi?

– Yo'q, har doim o'ldiravermaymiz. Eng yaxshisi, ular o'zlari uchun xun to'lab chiqqunlaricha, ularni g'or ichida asir qilib saqlaymiz.

- Xun deganining nima o'zi?

- Xun deganim pul-da! Ularga o'z yor-do'stlari-dan kuchlari yetguncha pul yig'ib olib kelish taklif qilinadi. Agar shundan so'ng bir yilgacha xun to'lab olib ketmasalar, u vaqtda o'ldirishga to'g'ri keladi. Xotinlarni o'ldirish yaramaydi. Ular juda chiroyli va juda boy, o'zlari esa juda qo'rkoq bo'ladilar. Ularning soatlari va shunday narsalari tortib olinadi. Biroq ular bilan so'zlashganda, boshdan qalpoqni qo'lga olib, odob bilan so'zlashish kerak. Qaroqchilar juda ham odobli xalq bo'ladilar. Bu so'z hamma kitoblarda ham yozilgan. Xotinlar odat bo'yicha qaroqchilarni yaxshi ko'rib qoladilar. G'or ichida bir hafta, ikki hafta o'tirganlardan keyin ular yig'lashdan to'xtaydilar-da, keyinroq borib o'zlari ham ketishni xohlamaydilar. Kitoblarning hammasida shunday deb yozilgan.

- Tom deyman, bu juda ham ajoyib-ku! Bu hatto dengiz qaroqchisi bo'lishdan ham yaxshi ekan.

- Albatta, yaxshi, har jihatdan ham yaxshi - uyingga ham yaqinroq yurasan, umuman... sirkka kirish ham mumkin... umuman...

Shu orada bolalar qayiqdagi hamma narsalarini tashib olib, yoriqdan g'orning ichiga kirib oldilar. Tom oldinda borardi. Ular tunnelning narigi boshiga borib, kanoplarning uchini bir qoya toshga bog'lab qo'yib, nariga qarab yurib ketdilar. Ular bir necha qadam yurganlardan keyin buloqning yoniga yetib bordilar, buloqni ko'rib Tomning butun badani seskanib ketdi. U Gekka xuddi devorning tagida bir to'da tuproq ustida qolgan sham piligini ko'rsatib Bekki bilan ikkalasi shamning yonib tugashini tomosha qilib o'tirganlarini so'zlab berdi.

Bolalar o'zlari ham sezmay, tovushlarini juda pasaytirib, shivirlashib so'zlasha boshladilar. Atrofdagi jimjitlik ularga juda qattiq ta'sir qilardi. Ular boshqa bir yo'lakka burilib, «halokatli sakrash

maydoni»ga yetib borgunlaricha uzoq yo'l yurdilar. Shamning yorug'ida bu maydonchaning osti tagsiz chuqur bo'lmay, yigirma-o'ttiz metr chamasi tik chuqurlik yer ekani ma'lum bo'ldi.

– Hozir senga bir narsa ko'rsataman, Gek, – dedi Tom shivirlab.

U qo'lidagi shamni balandga ko'tardi.

– Anavi burchakdan mumkin qadar nariga, uzoqroqqa qara-chi. Anavi katta toshdagi qora kuya bilan yozilgan yozuvni ko'rdingmi?

– Tom, bu xoch shakli-ku!

Endi «ikkinchi g'or»ning qayerda ekanini bilingmi? Xochning tagida degan edi, esingda bormi? Endi tushundingmi? Men ham hindi Joni xuddi shu yerda ko'rgan edim. U qo'liga sham ushlab yurar edi.

Gek sirli belgiga uzoq tikilib qoldi, keyin qaltiroq tovush bilan:

– Tom, tezroq shu yerdan keta qolaylik! – dedi.

– Nima deysan? Xazinani shu yerda qoldirib ketamizmi?

– Ha, qoldirib ketamiz. Hindi Joning arvohi shu yerlarda aylanib yurganga o'xshaydi.

– Yo'q, Gek, unday emas. Agar uning arvohi aylanib yurganda ham bundan besh mil narida, o'sha hindining o'lgan yerida, g'orning kiraverishida yuradi.

– Yo'q, Tom, sening bu so'zing to'g'ri emas. U faqat shu pul turgan yerda, pulni poylab yuradi, arvohlar doim shunday bo'ladilar. Buni sen ham bilasan, men ham.

Tom: «Ehtimol, Gek haqlidir», deb o'ylay boshladи va yuragiga vahima tushdi. Bir fikr qo'qqisdan uni harakatga keltirdi.

– Bo'limgur so'zlarni aytasan, qo'ysang-chi! Xoch bor yerda hindi Joning arvohi yurmaydi.

Bu so'z ishonchli bo'lib ko'rindi va ancha ta'sir qildi.

– Tom, men bunday bo'lishini o'ylamagan edim. Sen haqsan. Bu yerda xoch bo'lishi bizning baxtimiz. Yur, pastga tushib sandiqni qidiramiz.

Dastlab Tom tushib ketdi. U oyoqlari ostidagi bo'sh tuproqli yerga mumkin qadar zinapoyaga o'xshatib iz solib borar edi. Gek uning orqasidan yurdi. Bir qoya tosh turgan kichkina g'or ichiga to'rt tomondan to'rt yo'lak ketardi. Bolalar ulardan uchtasini qarab chiqishib, hech narsa topa olmadi-lar. G'orga yaqinroq yerdagi devor ichiga kichkina yashik o'rnatilgan, unga ko'rpalari taxlanib qo'yilgan, yerda eski tasma, qazidan ajratilib tashlangan po'st va uch-to'rtta tozalangan parranda suyaklari yotardi, lekin pul solingan sandiq yo'q edi. Bolalar hamma yerni tintib qaradilar, hech narsa topa olmadilar. Nihoyat, Tom:

– U, «xochning tagida» degan edi. Uning aytgan yeri xuddi shu yerning o'zi. Ular xuddi qoya toshning ostida bo'lishi mumkin emasku! U yerga tep-tekis yopishib turibdi-ku! – dedi.

Ular yana biroz qidirdilar-da, keyin dam olish uchun o'tirdilar. Gek hech narsa uylab topa olmadi. Nihoyat, Tom:

– Mana buni qara, Gek, qoya toshning bir tomonida oyoq izlari va shamning yog'lik dog'lari bor, ikkinchi tomonida esa hech narsa yo'q. Nima uchun bunday ekan? Garov bog'laymanki, pul shu toshning tagida, men hozir shu tuproqni kavlab ko'raman.

– Bu fikring yaxshi Tom, – dedi Gek ruhlangan holda.

Tom pichog'ini olib, to'rt dyuym chamasi yerni kavlab ham ulgurmagan edi, pichog'i yog'ochga tegdi.

– Gek, eshitdingmi?

Gek endi o'zi ham unga yordamlashib, g'ayrat bilan kavlay boshladi. Tezdan ular qoya toshning

ostiga tushadigan kovakni berkitib turgan taxtalar-ni topdilar. Tom kovakning ichiga tushib, qo'lidagi shamni tutib qaray boshlagan edi, shamning yorugi kovakning ichini butunlay yoritmaydi, keyin u kovakning ichini yaxshilab tekshirmoqchi bo'ldi. U engashib nariga yurib ketdi. Torgina, burilib-burilib ketgan yo'l borgan sari chuqurlikka tushib borardi. Tom oldinda, Gek uning orqasidan yurib bordilar. Ular o'ngga burildilar, keyin so'nga burilib, yana bir burilishdan o'tgan edilar, birdan Tom:

– Gek buyoqqa qara! – deb qichqirib yubordi.

Bu ko'ringan shubhasiz, pul solingan sandiqcha edi. Uning yonida miltiq doridan bo'shalgan bir bo'sh yashik, charmdan ishlangan g'ilof ichida ikkita miltiq, kamar va har xil mayda-chuyda narsalar o'sha tokchaning tepasidan tomib turgan suv bilan ho'l bo'lib yotar edi.

– Hah, endi yetibmiz-a! – dedi Gek va qoraya boshlagan kumush tangalar ichiga qo'lini tiqib ag'darib ko'ra boshladи. – Tom deyman, endi ikkalamiz ham juda boy bo'lamiz-da!

– Gek, men o'zimning boyib ketishimga har doim ishonar edim. Endi bu pullar bizniki, bu turgan gap. Biroq, bu yerda ortiqcha o'ralashib yurishimizdan foyda yo'q. Qutini olib chiqishimiz kerak. Qani, ko'rayin-chi, men uni ko'tara olarmikanman?

Sandiqchaning og'irligi ellik qadoqcha kelar edi. Tom uni yerdan zo'rg'a ko'tarib oldi, lekin olib yurolmadi.

– O'zim ham shundaydir, deb o'yLAGAN edim, – dedi Tom. – U ko'rinishidan ham ancha og'ir ko'rinar edi: anovi ajinalari bor eski uydan ular ikkovlari ko'tarib chiqayotganlari esingda bormi? O'zim bilan birga qop olib kelish esimga tushib qolgani ham yaxshi bo'ldi.

Bolalar pullarni qopga ag'darishib, qoya tosh ustiga olib chiqdilar.

– Endi miltiqlarni va boshqa narsalarni olib chiqaylik, – dedi Gek.

– Yo‘q, Gek, ularni shu yerda qoldirib ketamiz. Biz bundan keyin qaroqchilik ishiga kirishib ketganimizda, ular kerak bo‘lib qoladi. Biz bularni shu yerda saqlaymiz va aysh-ishrat qiladigan yerimiz ham shu yer bo‘ladi. Aysh-ishrat qilish uchun bu joy juda ham qulay yer.

– Aysh-ishrat deganining nima?

– Bilmadim. Harholda qaroqchilar har doim aysh-ishrat qilib yurar emishlar, demak bizga ham shunday qilib turishga to‘g‘ri keladi. Qani, turaqol endi. Gek, hali ham biz bu yerda juda ko‘p o‘tirib qoldik. Kun kech bo‘lib qoldi, mening bo‘lsa juda qornim ochib qoldi. Biz endi o‘scha yoqda qayiqning ichida ovqatlanib, tamaki chekib olarmiz.

Ular qalin butazorlar orasidan chiqib, ehtiyyotlik bilan atrofni ko‘zdan kechirdilar, suv bo‘yida hech kim yo‘qligini bilganlaridan keyin borib qayiqqa o‘tirib, ovqatlana boshladilar. Quyosh ufuqqa tomon og‘a boshlaganda ular o‘rinlaridan turib yo‘lga tushdilar. Tom eshkaklarini o‘zi eshib, Gek bilan chaqchaqlashib so‘zlashib borardi; u qayiqni suv bo‘yiga yaqin olib yurardi, negaki oqimga qarshi ketayotganlari uchun suvning o‘rtasidan yurish qiyin edi, kun qorayganda ular qayiqni qirg‘oqda to‘xtatdilar.

– Qani, Gek, – dedi Tom, – biz endi pullarni hozircha mana bu beva xotin Duglasning o‘tinxonasi ustidagi tomning ostiga yashirib qo‘ya turamiz. Men ertalab kelarman, pullarning hammasini sanab ko‘rib, bo‘lib olamizda, keyin o‘rmonning ichidan bir xavotirsiz yer topib, ko‘mib qo‘yamiz. Sen hozir shu yerda pullarni poylab turatur, men borib Benni Teyloring g‘altak aravasini olib kelaiyin, bir zumda kelaman.

U ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi va chindan ham ko‘p vaqt o‘tmay g‘altak aravani olib keldi. Bolalar unga

ikkala qopni soldilar-da, ustini eski-tuski lattalar bilan o'rab, aravani sudrab tepaga olib chiqa boshladilar. Cholning uyi yoniga borib, dam olish uchun to'xtadilar. Ular dam olib endi jo'naymiz, deb turganlarida eshik oldida chol ko'rinishi:

- Hoy, kim bor bu yerda? – deb baqirdi.
- Gek bilan Tom Soyer.
- Juda yaxshi! Qani, men bilan birga yuringlar, bolalar, biz sizlarni ko'pdan kutib o'tirgan edik. Qani, tezroq yuringlar! G'altak aravalaringni men sudrab boraman. Lekin bu ancha og'ir ko'rindi-ku, nimasi bor ichida? G'ishtmi yo eski temirmi?
- Eski temir, – dedi Tom.
- Men ham shundaydir, deb o'ylagan edim. Bizning bolalar shunday eski temirlarni yig'ib yurishga har qancha bo'lsa ham vaqtlarini sarf qilaveradilar; uni ma'dan quyadigan zavodga olib borganlarida olti sentga oladi. Agar bundan ikki baravar ortiq pul topadigan bo'lganlarida ham boshqa ishga bormaydilar. Odamzod shunday bo'lar ekan-da, qani, ha, tezroq yuringlar!

Ammo bolalar bunchalik shoshilib borishning sababini bilishni xohlar edilar.

– Beva xotin Duglasning uyiga borsangiz, o'sha yerda bilasizlar, – dedi chol.

Biroq Gek o'rinsiz ayblanishga o'rganib qolgan, shuning uchun qo'rqa-pisa:

– O'zi nima gap, mister Jons? Biz hech qanday yomonlik qilganimiz yo'q-ku? – deb so'radi.

Chol xoxolab kulib yubordi.

– Bilmadim, Gek, bilmadim, bolam. Bu to'g'rida hech narsa bilmayman. Beva xotin Duglas bilan sen o'zing juda inoqsan-ku!

– Ha, shunday, harholda menga uning muomalasi yaxshi.

– Ana ko'rdingmi? Shunday bo'lgandan keyin nega qo'rqasan?

Gek bunga javoban biror so'z o'ylab topgani ham yo'q ediki, Tom bilan ikkalasining orqasidan turtishib, ichkariga – missis Duglasning mehmonxonasiaga kirgizdilar. Mister Jons g'altak aravani eshik yonida qoldirib, o'zi ham ichkariga kirdi.

Mehmonxonaning ichi juda yorug‘ va unda shaharning barcha atoqli kishilari to‘plangan edi. Bunda Techerlar ham, Garperlar, Rojerslar, Polli xola, Sid, Meri, domla, gazeta muharriri va boshqa juda ko‘p kishilar bo‘lib, hammalari bayramdagidek yasangan edilar. Bularning ustiga bizning qahramonlarimiz yog‘ va loyga belanib kirib keldilar, bularni har bir uy egasi mehmonini qanday qarshi olsa, beva xotin ham bularni chin ko‘nglidan shodlanib kutib oldi.

Polli xola uyalganidan qip-qizil bo‘lib ketdi. U Tomga qarab qovoqlarini solib, ma’noli nazar bilan boshini chayqab qo‘ydi, lekin bolalar o‘zlarini hammadan ham ortiqroq o‘ng‘aysiz sezardilar.

– Tom uyda yo‘q ekan, – dedi mister Jons, – men uni topishga urinmagan ham edim, hozir esa Gek bilan ikkovlari xuddi eshigim yonida duch kelib qoldilar, men ularni darhol bu yerga olib keldim.

– Juda yaxshi qilgansiz, – dedi beva xotin. – Qani, bolalarim, buyoqqa, mening orqamdan yuringlar.

Beva xotin bolalarni yotog‘iga olib borib:

– Endi yuvinib, boshqa kiyim-boshlar kiyib oling-lar. Mana bu yerda ikkita yangi kostyum bor. Ko‘ylak, paypoq, kerak narsaning hammasi bor. Bular Gek uchun tayyorlangan. Yo‘q, yo‘q, Gek, sen menga rahmat dema: bulardan birini men sotib oldim, ikkinchisini mister Jons sotib olgan. Bu kiyimlar ikkovingizga ham yaraydi. Tezroq kiyininglar-da, bo‘lganlaringdan keyin pastga tushinglar. Biz sizlarni kutib turamiz, – dedi.

## OLTIN CHASHMALAR

– Tom, – dedi Gek, – agar bitta arqon topib olsak, mana bu derazadan osilib tushib, qochib ketsak bo'ladi. Bu uylarning derazalari unchalik baland emas.

– Bu qanday bemaza gap? Nima uchun qo'chamiz?

– Bilasanmi, men ko'pchilik ichida bo'lishga odatlannaganman-da! Men bunga sira toqat qilib tura olmayman. Tom, men ularning oldilariga bormayman.

– Hech gap emas. Menga bo'lsa, baribir. Men sira qo'rqlayman. Men hali sening to'g'ringda ham gapirishga harakat qilarman.

Ostonada Sid ko'rindi.

– Tom, xolam seni tushlik ovqatdan beri kutib o'tribdi, qayerda yuribsan. Meri sen uchun yakshanba kunlik kostyum tayyorlab qo'ygan, hammalari sening uchun tashvishdalar. Ustingdagi kiyimlaringga nimalar tekkan, loymi, yog'mi?

– Mister Siddi, sizga o'z ishingiz bilan shug'ullanib, birovning ishiga tumshug'ingizni tiqmaslikka maslahat beraman. Lekin ular nima qilib yuribdilar, bularning hammasi nima uchun qilinayotir?

– Hech gap emas, beva xotin o'zining odatda qiladiganidek o'z uyida bayram o'tkazayotir... Bu gal u, anavi chol bilan uning o'gillari, o'sha kecha buni falokatdan qutqazganliklari sharafiga ziyofat qilib berayotir. Bilasanmi, basharti qiziqsang, yana bir narsani aytmoqchiman.

– Qani nima gap?

– Mana bunday: qari mister Jons bugun nima bilandir hammani hayron qoldirmoqchi; men uning shu yashirin sirni bugun xolaga so'zlab turganda eshitib oldim va mening bilishimcha, bu gap endi hammaga ma'lum bo'lib qolgan, deb o'ylayman.

Buni hamma biladi, hatto buni bilmayman, deb o'zini bilmaslikka solib yurgan beva xotin ham biladi. O'z-o'zidan ma'lumki, mister Jons Gekni shu yerga olib kelishi kerak edi. Geksiz uning o'ylagan ishidan hech narsa chiqmas edi.

– Xo'sh, uning siri nimada ekan, Sid?

– Buning siri shundaki, o'g'rilarning uyigacha kuzatib kelgan Gek bo'lgan. Mister Jons o'z xayolida shu bilan hammani taajjubda qoldirmoqchi bo'ladi, haqiqatda esa bundan hech narsa chiqmaydi.

Sid qiqirlab kulib qo'ydi; u, aftidan cholning o'ylagan ishidan hech narsa chiqmasligidan mammun ko'rinar edi.

– Sid, shu gapni hammaga yoyib yuborganmisan?

– Kim aytsa ham baribir emasmi? Nima bo'lsa ham hammaga ma'lum bo'lib qolgan-da!

– Sid, butun shaharda shunday olchoqlik qilishga qobil birgina kishi bor, u ham bo'lsa sen. Agar sen Gekning o'rnida bo'lsang, allaqachon tepadan qochib ketib, o'g'rilari borligini hech kimga ham bildirmas eding. Sen faqat shunga loyiqsan va sening oldingda biror kishi maqtalsa, sen chidab tura olmaysan. Senga missis Duglas aytgandek, minnatdorchilik qilib rahmat aytish kerak emas, – dedi-da Tom uksining qulog'ini cho'zib, tepib-tepib eshikdan chiqarib yubordi. – Yo'qol endi bu yerdan! Agar yana borib xolangga chaqimchilik qilsang, ertaga bundan ham ortiqroq qilib ta'ziringni beraman.

Bir necha daqiqadan keyin beva xotinning mehmonlari stol yonida ovqat yeb o'tirar edilar. Kattalar katta stolda, bolalar bo'lsa o'sha joy va o'sha zamon odati bo'yicha uning yon tomoniga taqab qo'yilgan kichkina stol yonida o'tirardilar. Eng so'nggi lagan ustida mister Jons kichkinagina nutq so'zladi. U o'ziga va o'g'llariga ko'rsatgan hurmati uchun beva xotinga minnatdorlik bildirdi, lekin shu bilan birga,

bu xizmatlar hammasi bularni bo'lmay, boshqa bir kishiniki ekanini ma'lum qildi.

Mister Jons majlisda o'tirganlarning oldida bu ishning hammasida Gekning qatnashganligini ochish uchun so'zga juda ustalik bilan tayyorlangan edi, lekin bundan ilgariroq bu sirning ohib qo'yilishi uning hikoyasini ancha bo'shashtirib qo'ydi va kishilarning bu ishga ajablanishlari ortiqcha sezilmay qoldi. Shunday bo'lsa hamki, missis Duglas go'yo bu ishga ortiq darajada ajablangandek bo'lib, Gekni shunday maqtovlar va minnatdorchiliklar bilan ko'mib tashladiki, u o'zining o'ng'aysizlik holati va o'zini siqib turgan yangi kiyimlarini ham unutib yubordi.

Missis Duglas Gekni o'z uyiga olib, unga tarbiya bermoqchi va undan keyin unga biror yaxshi ish boshlab yuborishi uchun yordam qilmoqchi bo'lganini bildirdi.

Endi Tomga navbat keldi.

Tom:

– Gek bunga muhtoj emas. Gek o'zi boy kishi, – dedi.

Agar bu yerda yig'ilib o'tirganlar yaxshi tarbiya ko'rмаган kishilar bo'lganda bu so'zlarni kulgi bilan qarshi olar edilar, lekin indamay qolish ham ancha o'ng'aysiz bo'lib chiqdi. Shuning uchun Tom yana so'z ohib:

– Gekning puli ham bor. Sizlar menga ishonmasangiz ham mayli, lekin uning puli juda ham ko'p. Kulmangizlar, men sizlarga hozir ko'rsataman. Biroz to'xtab turinglar!

Tom yugurganicha uydan chiqib ketdi. O'tirganlarning hammasi ham taajjublanishib bir-birlariga qarar va: «O'zi nima gap?» degandek qilib Gekka ko'z tashlab qo'yar edilar, Gek esa churq etmay o'tirar edi.

– Sid, Tomga nima bo'ldi? – dedi Polli xola. – U... yo'q, bu bolaning nimalar qilib yurganini hech vaqt biling bo'lmaydi.

– Men umrimda...

Polli xola so'zini tugata olmadi, chunki shu vaqt, yelkasidagi ikkita og'ir qop ostida bukchayib, Tom kirib keldi. U stol ustiga bir to'da oltinni to'kib tashlab, tantanali ravishda:

– Mana! Mening aytganlarim to'g'ri ekanmi? Mana shuning teng yarmi Gekniki, qolgani meniki! – dedi.

Shuncha oltinlarni ko'rgan kishilar hatto nafas ham ololmay entikib qoldilar. Bir-ikki minut davomida birortasi ham nima deyishini bilmay, hayron bo'lib qotib qoldi. Ancha vaqtdan keyingina ular, albatta, buni tushuntirib berishni so'radilar. Tom ham bunga rozi bo'ldi. Uning hikoyasi juda uzoq bo'lishi bilan birga, kishilarni maroqlantirarlik darajada juda qiziq edi. Biror kishi ham churq etib, uning so'zini bo'lmasdi. Tom hikoyasini tamom qilgandan keyin mister Jons turib:

– Men, bu yerda o'tirganlar uchun juda qiziq narsa tayyorlab qo'ydim, deb o'tirgan edim, biroq buning oldida meniki hech gap bo'lmay qoldi. Bunga o'zim ham iqrorman, – dedi.

Pulni sanadilar. O'n ikki ming dollardan ortiqroq ekan. Bunchalik pulni bu yerda o'tirganlarning hammasi ham umrlarida hech ko'rмаган ekanlar.

### O'TTIZ BESHINCHI BOB

## MUHTARAM TOM QAROQCHILAR SHAYKASIGA KIRADI

Tom bilan Gek ikkalasining Sankt-Peterburgdek kichkina bir shaharchada shunday muvaffaqiyat qozonishlari albatta xalq o'rtasida juda zo'r hayajon tug'dirdi. Shunchalik ko'p pul, tag'in uning hammasi oltin bo'lishi to'g'ridan-to'g'ri kishining aqli yetmaydigan bir narsa edi. Bularning dunyo topib

olishlari to'g'risida hamma yerda so'zlashar, odamlar har xil fikrlarga borib, o'zlaricha hukm chiqarar edilar. Shahar xalqidan ba'zilari hatto bu to'g'rida aqllaridan adashayozdilar. Sankt-Peterburgda va uning atrofidagi qishloqlarda butun jinlar yuradigan uylarni tintib chiqdilar; uylarning pollarini ko'chirib olib, poydevorlarning ostlarini kavlab, ko'milgan narsalarni axtarar edilar va buni yosh bolalargina emas, hatto katta-katta kishilar, o'zlariga durust, jiddiy va aqli odamlar ham qilar edilar. Tom bilan Gek ikkalasi qayerda ko'rinishmasin, ularni erkalar, aytganlarini qilib hurmatlar va ularga zavq bilan tikilib qarab turar edilar. Bolalar bundan ilgari biror kishini bularning so'zlarini e'tiborga olib, bular bilan so'zlashganlarini eslay olmaydilar. Hozir esa bularning har bir aytgan so'zları qiyamatli bir narsadek, hammaning og'zida takrorlanardi, ularning har bir harakatlari ajoyib ko'rinishib, go'yo bular odatdagি so'z va harakatlarini butunlay yo'qotib yuborganga o'xshar edilar. Bundan tashqari ular bu bolalarning avvalgi vaqtlardagi turmushida ham bo'lib o'tgan qiziq so'z va harakatlarini o'ylab, qidirib topa boshlagan edilar. Mahalliy gazetada bu ikki bolaning tarjimayı holi bosilib chiqdi.

Beva xotin Duglas Gekning pulini bankka qo'ydi; sudyu Techer bolsa Polli xolaning so'rovi bo'yicha, Tomning pulini ham shunday qildi. Endi bolalarning ikkovida ham daromad katta: har kun bir dollardan, hatto yakshanba kuni ham yarim dollar tushib turadi. Ularning daromadlari dom-laga tushishi mo'ljallangan daromadga baravar kelardi, negaki domla ibodat qilishga kelganlarning hammasidan ham pul yig'ishga muvaffaq bo'lmas edi. O'sha zamonda har bir bolaning bir haftalik ijara va oziq-ovqat haqi, o'qish, kiyim-bosh va hamma chiqimlarini qo'shganda bir-u chorak dollar turardi.

Sudya Techer Tomni juda hurmatlay boshladi. U Tomdan boshqa har qanday bola bo'lsa ham qizimni g'or ichidan olib chiqa olmas edi, derdi. Bekki unga: «Tom mактабда mening qilgan gunohim uchun o'zini tutib berib kaltak yedi», deb aytganida bu narsa otasiga juda qattiq ta'sir qildi va «meni shunday kaltakdan qutqazish uchun mening o'rнимга o'z yelkasini tutib berib, bu to'g'rida yolg'on so'zlashga majbur bo'ldi» deb otasidan uning shu yolg'on so'zlaganini kechirishini so'raganida, sudya bu so'zlardan zavqlanib ketib, bu yolg'on bo'lsa ham buyuk, olijanob, sof ko'ngil kishining obro'sini ko'taradigan yolg'on ekan, – dedi. Otasi bu so'zlar ni uy ichida u yoqdan-bu yoqqa tez-tez yurib, yer tepinib so'zlar ekan. Bekki otasining shunchalik mehribon odam ekanini birinchi marta sezdi. U darhol yugurib borib, otasining so'zlarini Tomga aytdi.

Sudya Techer Tomni qachon bo'lsa ham bir buyuk advokat yoki buyuk bir askarboshi sifatida ko'rishni orzu qilar edi. U Tomning Milliy harbiy akademiyaga qabul etilishi yo'lida harakat qilmoqchi, undan keyin eng yaxshi huquq fanlari maktablaridan biridagi kursni o'qitib, shu ravishcha har qanday ishga yararlik qilmoqchi bo'lganini bildirdi.

Geklberri Finnga tekkan boyliklar va beva xotin Duglasning unga qilgan himoya va xayrixohliklari Gekning jamiyatga qo'shilishiga sababchi bo'ldi. Jamiyatga qo'shilishiga sababchi bo'digina emas, balki uni o'sha jamiyatga sudrab, zo'rlab olib kirdilar va shuning natijasida uning tortgan azoblari, uning kuch-quvvati va erk-ixtiyoridan kuchlilik qilar edi. Beva xotinning xizmatkorlari uni dam-badam yuvintirar, kiyimlarini tozalar, sochlarni tarab qo'yar, kechasi bo'lsa oppoq choyshablar solingan toza o'rnlarga yotqizar edilar. Gek o'zi uchun solib berilgan choyshab va ko'rpada hech bir kir yoki dog' ko'rmas, u narsalarni do'stlarcha bag'riga

bosgisi kelardi. Uni tarelka va kosalardan, vilka hamda pichoq bilan ovqat yeyishga, qo'l artadigan sochiqdan foydalanishga, kitob o'qish, ibodatxonaga borishga majbur etardilar va so'zlagan so'zlarini shunday ustalik bilan chiroyli qilib so'zlashni o'r-gatar edilarki, bundan Gekning tili qo'zg'almay qolar edi. Qayoqqa qarama uning hamma atrofi g'ov va zanjir bo'lib, qo'l-oyog'ini bog'lar, yo'llini to'sar edi.

Shu ravishda u bu azob-uqubatlarga mardlik bilan uch hafta chidab, keyin bir kuni birdan yo'q bo'lib qoldi. Missis Duglas xuddi ikki kecha-kunduzgacha tashvish tortib, hamma yerni qidir-tirib chiqdi. Butun xalq hayron edi. Gekning o'ligini tog'lardan, keng dalalardan, katta suvlardan qidir-dilar. Nihoyat, uchinchi kuni ertalab Tom Soyer-ning xayoliga bir yaxshi fikr keldi. U shaharning chetidagi ishdan chiqib yotgan kushxona orqasidagi saroylarni axtarib, shulardan birida Gekni topdi. U uqlab yotar edi. U hozirgina qayerdadir, birovdan qolgan sarqitlarni topib yeb, qornini to'yg'azib, so'ngra trubkasini chekib, kayf qilib uqlab yotar edi. Uning yuz-qo'llari yuvilmagan, sochlari taralmagan va erkin yurgan kezlarida chiroylik ko'rsatib turgan o'sha qadimgi uvadalariga o'ralib olgan edi. Tom uni uyg'otib, hammani qanday tashvishda qoldirganini so'zladi va uyga qaytib borishga unday boshlagan edi, Gekning chehrasi g'amgin tus oldi.

— Tom, shu so'zlarining menga sira aytma, — dedi u. — Men qilib ko'rdim, lekin bundan hech narsa chiqmaydi. Tom, bular hammasi men uchun juda yot narsa, men bu narsalarga odatlangan emasman. Beva xotinning menga qilgan muomalasi yaxshi, lekin uning shunday dahmazalariga hech chidab tura olmayman. Masalan, u meni har kuni ertalab belgili vaqtida turishga, yuz-qo'llarimni yuvishga majbur etadi. Boshlarimni bo'lsa tarayverib jonini oladi.

O'tinxonada yotishimga ham yo'l qo'y maydi. Mana bu la'natni kiyimni aytmaysanmi! Men shu kiyimlarni kiyib olsam, azbaroyi xudo, nafasim bo'g'ilib ketadi. Xuddi undan hech bir havo o'tmaydiganga o'xshaydi. Bu kiyim toza va chiroylig emish, chiroyligliq qurib ketsin, uni kiyganda bir yerga o'tirib bo'lmasa, yotib bo'lmasa, eshikka osilib o'ynab bo'lmasa, yerto'laning eshigiga osilib o'ynamaganimga qariyb bir yil bo'lgandir. Beva xotin bo'lsa ovqat yesa ham qo'ng'iroq bilan yeydi, yotsa ham qo'ng'iroq bilan yotadi, turganda ham qo'ng'iroq bilan turadi – bu nima degan gap? Bular hammasi shunday bir va-himalik holki, sira chidab turib bo'lmaydi.

– Hammaning uyida ham shunday-ku, Gek.

– Tom, bunisi mening uchun farqsiz. Men hamma emas va men bunga chidab tura olmayman. Bunday qo'l-oyoqlaring bilan bog'lanib qolish kishiga o'lim-ku! Bu ahvol meni juda ishdan chiqarib qo'ydi. Hozir mendan hech bir ovqat ham o'tmaydi. Baliq ovlashni xohlab qolsang – so'rash kerak, daryoda cho'milishni ham so'rab qil, hademay o'ladigan bo'lib qolsang ham javobsiz o'lomaysan, deyman. Meni shunday odobli so'zlarga o'rgatadilarki, mening endi so'zlashga ham hafsalam qolmadi. Hali ham bo'lsa yuragimning chigilini biroz yozish uchun bir chekkaroqqa borib, so'kinib-so'kinib kelaman, bo'lmasa yuragim yorilib ketar edi. Beva xotin menga tamaki chekishga, birovning oldida u yoq-bu yog'imni qashishga ham ijozat bermaydi. Men asli qochib ketsam bo'lar edi, Tom, albatta qochib ketishim zarur edi. Buning ustiga, yaqinda maktabda o'qishlar boshlanib qolsa, meni maktabga ham yuborarlar, – bunga esa sira ham toqatim yo'q, ko'rdingmi, Tom, boylik, aftidan, menga to'g'ri kelmas ekan. Undan xafachilikdan boshqa hech narsa chiqmas ekan, undan doim bu kunimdan ko'ra

o'lganim yaxshi, deb yurar ekanman-da! Mana bu chuvrindi-uvadalar bo'lsa mening ko'nglimdagidek, bularni sirayam tashlayolmayman. Agar shu la'natı pullar bo'lmasanida, men hech vaqt bu ko'yga tushmas edim. Tom, sen mening ulushimni ham o'zing olgin-da, istaganingcha foydalanaverin. Menga har zamonda o'n sentdan berib tursang bo'ladi, uni ham tez-tez beraverma, chunki men qiyinlik bilan topilgan narsani yaxshi ko'raman. Buning uchun sen endi borib beva xotindan meni so'rab ol.

– Qo'ysang-chi, Gek, sen yaxshi bilasanki, bu ishni qilolmayman. Bu insofdan emas, sen yana biroz chidasang, o'rganib qolasan.

– O'rganib qolasan deysanmi? Qizib turgan cho'yan pechkaning ustida o'tirishga o'rganib bo'ladi? Yo'q, Tom, men boy bo'lishni xohlamayman. Men o'rmonlarni, suv bo'ylarini, eski bochkalarning ichida yotib qolishni yaxshi ko'raman, mana bular mening ko'nglimdagidek narsalar. Xuddi shunday paytda qo'llimizda miltiqlarimiz bor, g'or ichida joylarimiz bor va boshqa hamma narsalarimiz tayyor bo'lib, endi qaroqchilik ishiga kirishamiz deb turganda, qurib ketkur shu pulning chiqib qolgani juda yomon bo'ldi-da, hamma ishimizni buzdi.

Tom qulay paytning kelishidan foydalanib qolmoq-chi bo'lib:

– Menga qara, Gek, bu pullar, boyliklar bizga qaroqchilik qilish uchun to'sqinlik qilmaydi-ku! – dedi.

– Hoy, sen buni chindan aytasanmi?

– Xudo ursin, chindan aytaman. Biroq, sen o'zingni va ust-boshlaringni biroz tuzatib olmasang, seni qaroqchi qilib, o'z ichimizga ololmaymiz.

Gekning quvonchlari bir zumda so'ndi.

– Meni olib bo'lmaydi, deysanmi? Nimaga olib bo'lmaydi? Avval dengiz qaroqchilari bo'lib yurganimizda olgan eding-ku!

– To‘g‘ri, u vaqtida olgan edim, u butunlay boshqa ish edi. Qaroqchi dengiz o‘g‘risiga qaraganda obro‘li-roq bo‘ladi. U o‘zini yaxshi tutishda ham boshqalar-dan ortiq bo‘lishi kerak.

– Menga qara, Tom, sen hamma vaqt menga do‘sit bo‘lib kelgansan. Sen bilan birga yursam, meni bi-rovg‘a ko‘rsatmaysan-ku, shundaymi, Tom?

– Gek, albatta, men seni o‘zimning yaqin o‘rtog‘im sifatida olib yurishga rozi edim. Biroq ko‘rgan kishilar nima deydilar: «Tom Soyerning shaykasimi? Ey... Unda allaqanday daydilar yig‘ilgan-ku!» demay-dilarmi? Bu albatta, senga bu obro‘ keltirmaydi, shuningdek menga ham.

Gek nima deb javob berishini bilmay bir daqiqa hayron bo‘lib qarab turdi-da, nihoyat:

– Yaxshi bo‘lmasa, Tom, agar meni o‘zingning yangi shaykangga olaman deb va’da bersang, men yana biror oyga beva xotinning uyiga qaytib boraman-da, har nechuk bo‘lsa ham, undagi odatlarga o‘zimni o‘rgatishga tirishib ko‘raman. Faqat sen meni o’sha ishingga albatta olasan.

– Bo‘ldi, Gek, gap bitta. Yur, do‘sstim, men kampir-ga seni hadeb tergamaslik haqida tayinlab qo‘yaman.

– Chindanmi, Tom, chindan aytasanmi? Ana shunday qilsang juda soz bo‘ladi. Agar u meni juda ham siqmaydigan bo‘lsa, men sekin-asta tamaki chekaveraman va sekin-asta so‘kinib yuraman, bir balo qilib chidayman. Xo‘s, sen shaykangni qachon to‘plab ishga kirishasan?

– Juda tez bo‘ladi, Gek. Biz balki bugun bolalarni yig‘ib, sirlashish majlisi o‘tkazarmiz.

– Nima qilamiz deysan?

– Sirlashish majlisi.

– Bu qanday narsa o‘zi?

– Buning ma’nosi shuki, bizlar hammamiz bir-birimizni suyab, yordam berishga qasam ichamiz,

bir-birimizning qilgan ishlarimizni birovga aytmaymiz, hatto bizlarni qiymalab tashlaydigan bo'salar ham, so'zimizda turamiz. Basharti biror kishi to'damiz ichidan birortamizni xafa qilsa, uni o'ldiramiz, uning o'ziga emas, balki butun oilasi bilan qirib tashlaymiz.

- Ana bu ishing juda joyida, Tom!
- Bo'lmasa-chi, bir-birimizga so'z berib, qasam ichish ishini esa tun yarmida, eng xilvat yerda, yaxshisi, jinlar yuradigan eski uylarda o'tkazish kerak...
- Tun yarmi – yaxshi vaqt, Tom.
- Ha, yarim kechada. Qasam ichishni bo'lsa, biz biror kimsa qabri ustida o'tkazib, ahdga qon bilan qo'l qo'yamiz.
- Ana bu ish joyida! Bo'ldi, Tom, men endi har qanday bo'lsa ham shu beva xotin yonida tura turaman. Men agar shunday qilib, otoqli o'g'ri bo'lib, shuhrat topib ketsam, uning o'zi: «Men uni odam qildim, yaxshi yo'lga soldim» deb maqtanib yuradi.

## **YAKUN**

Bu haqqoniy hayotnomasi shu yerda tugaydi. Negaki, bunda bir bolaning bolalik tarjimayi holi berilgan, shuning uchun ham u shu yerda tamomlanishi kerak; agar u yana cho'zilib ketsa, u vaqtda katta kishining tarjimayi holi bo'lib qoladi. Kattalar haqida roman yozganda, qayerga borib to'xtashni kishi biladi, bolalar haqida yozganda esa, istagan yeringda nuqta qo'yib tugatsang bo'ladi.

Bu kitob qahramonlari ajoyib-g'aroyib bolalar. Ehtimol keyinchalik men bu kitobda tasvirlangan bolalarning keyingi hayotlari bilan shug'ullanishni lozim ko'rib, ulardan qanday kishilar yetishib chiqqanini yozishga kirisharman.

## MUNDARIJA

### ***Birinchi bob***

Tom o'ynaydi, urush-to'polon qiladi, yashirinadi .....	3
<b><i>Ikkinci bob</i></b>	

Usta suvoqchi.....	13
--------------------	----

### ***Uchinchi bob***

Urush va sevgi bilan mashg'ul bo'lish .....	21
---	----

### ***To'rtinchi bob***

Yakshanba kungi maktabda «chiranish».....	29
---	----

### ***Beshinchi bob***

Chaqag'on qo'ng'iz va uning o'ljasি .....	42
---	----

### ***Oltinchi bob***

Tom bekki bilan tanishadi .....	48
---------------------------------	----

### ***Yettinchi bob***

Kanani quvish va poralangan yurak.....	65
--	----

### ***Sakkizinchi bob***

Kelajakdagi botir qaroqchi .....	73
----------------------------------	----

### ***To'qqizinchi bob***

Qabristondagi fojia.....	80
--------------------------	----

### ***O'ninchi bob***

Itning uvlashi – yaxshi alomat emas.....	91
--	----

### ***O'n birinchi bob***

Tom vijdon azobini boshidan kechiradi .....	99
---	----

### ***O'n ikkinchi bob***

Mushuk va dorivor.....	106
------------------------	-----

### ***O'n uchinchi bob***

Qaroqchilar shaykasi yelkanni ko'taradi .....	113
---	-----

### ***O'n to'rtinchi bob***

Baxli qaroqchilar lageri .....	122
--------------------------------	-----

### ***O'n beshinchi bob***

Tom o'z uyiga yashirinchcha kelib oladi .....	130
---	-----

### ***O'n oltinchi bob***

Birinchi trubkalar. – «Men pichog'imni yo'qotdim» ..	136
--	-----

### ***O'n yettinchi bob***

Qaroqchilar o'zlarining ko'mish marosimlariga ishtirok etadilar .....	147
--	-----

<b>O'n sakkizinchi bob</b>	
Tom hikmatli tushini hikoya qilib beradi.....	151
<b>O'n to'qqizinchi bob</b>	
«Men buni o'ylamasdan qilganman» .....	161
<b>Yigirmanchi bob</b>	
Tomning yana bir jasorati .....	164
<b>Yigirma birinchi bob</b>	
Oltin suvi yogurtirilgan gumbaz.....	171
<b>Yigirma ikkinchi bob</b>	
Tom ko'kdan jazo kutadi.....	179
<b>Yigirma uchinchi bob</b>	
Meff potterning qutqazilishi.....	183
<b>Yigirma to'rtinchi bob</b>	
Porloq kunlar – qo'rqinchli tunlar!.....	192
<b>Yigirma beshinchi bob</b>	
Ko'milgan xazinani izlash.....	193
<b>Yigirma oltinchi bob</b>	
Qaroqchilar xazinani o'g'irlab ketdilar .....	203
<b>Yigirma yettinchi bob</b>	
Titraydi va izidan tushadi .....	214
<b>Yigirma sakkizinchi bob</b>	
Hindi jonning kulbasida.....	217
<b>Yigirma to'qqizinchi bob</b>	
Gek beva xotinni qutqaradi.....	222
<b>O'ttizinchi bob</b>	
Tom bilan bekki g'orda.....	232
<b>O'ttiz birinchi bob</b>	
Qo'rqinchli uchrashuv .....	244
<b>O'ttiz ikkinchi bob</b>	
Chiqinglari! Ular topildilar! .....	256
<b>O'ttiz uchinchi bob</b>	
Hindi jonning taqdiri.....	260
<b>O'ttiz to'rtinchi bob</b>	
Oltin chashmalar .....	274
<b>O'ttiz beshinchi bob</b>	
Muhtaram tom qaroqchilar shaykasiga kiradi .....	278
Yakun.....	285

*Adabiy-badiiy nashr*

MARK TVEN

**TOM SOYERNING BOSHIDAN  
KECHIRGANLARI**

Muharrir  
Ma'mura QUTLIYEVA

Musahhih  
Madina MAHMUDOVA

Badiiy muharrir  
Uyg'un SOLIHOV

Sahifalovchi  
Sunnat MUSAMEDOV

Texnik muharrir  
Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 02.10da berilgan  
Bosishga 15.12.2016-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Garnitura «Bookman Old Style». 15,12 qog'oz.  
Bosma tobogi 9,0. Shartli bosma tobogi 16,8.

Adadi 44 221 nusxa. Buyurtma № 16-859.  
Bahosi kelishilgan narxda.

«O'ZBEKISTON» NMIU bosmaxonasida chop etildi.  
100011. Toshkent sh., Navoiy ko'chasi 30-uy.

***Murojaat uchun telefonlar:***

Nashr bo'limi – 147-00-14;

Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87

faks – 273-00-14;

e-mail: yangiasravlod@mail.ru



# Mark Tven (1835–1910)

Mark Tven (Samuel Klemens) 1835-yilda AQShning Missouri shtatiga qarashli Florid qishlog'ida xizmatchi oilasida tug'ildi. Uning otasi dastlab sudda, keyinchalik tijorat ishlariда faoliyat ko'rsatgan, biroq xalq ta'biri bilan aytganda, hech qachon «biri ikki bo'l'magan» odamlardan edi. Og'ir turmush sharoiti tufayli Samuel 12 yoshlarida maktabni tark etib, mustaqil hayat kechirishga, tirikchilik qilishga majbur bo'ladi: duch kelgan odamlar xizmatini qiladi, kichkina bir viloyat gazetasida harf teruvchi, muxbir bo'lib ishlaydi.

U o'ziga «Mark Tven» taxallusini tanladi. Sababi Samuel Missisipi daryosida darg'alik qilib yurgan paytlarda Missisipidagi matroslar daryo chuqurligi kemaning o'tishi uchun yetarli darajada bexavotir ekanligini aniqlab olishgach, «mark-tven!» deb qichqirishardi. «Bexavotir suv» degan bu so'z bo'lg'usi adibga ma'qul va manzur bo'lib, mazkur taxallusni tanlagani aniq.

Mark Tven «Tom Soyer», «Geklberri Finn», «Toblanganlar», «Missisipidagi hayat» singari roman va qissalar, juda ko'p hikoyalari yozib, Amerikada va undan tashqaridagi ellarda mashhur bo'lib ketdi. Ayniqla, uning felyetonlari va hajviy hikoyalari shuhrat qozondi. Adib jahondagi million-million kishilarning eng sevimli yozuvchilaridan biriga aylandi.

ISBN 978-9943-27-779-3